

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**“IJTIMOIY FANLAR”
kafedrası**



Falsafa

**FANINI O‘QITISH BO‘YICHA
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi:

100000 - Gumanitar soha
300000 - Ishlab chiqariSh texnik soha
400000 - QiShloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi

Ta’lim sohasi:

230000 - Iqtisod
310000 - Muhandislik iShi
320000 - Ishlab chiqariSh texnologiyalari
410000 - QiShloq o‘rmon va baliq xo‘jaligi
150000 - San’at

NAMANGAN – 2021

Mazkur majmua ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning 2021 yilgacha bo‘lgan Harakatlar strategiyasi nuqtai nazaridan ilgor pedtexnologiyalar asosida darslik va o‘quv qo‘llanmalariga tayangan holda ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

dots. A. Mirzaxmedov

Taqrizchilar:

f.f.d. prof. M.Ismoilov (NamMQI)

f. f. n. dots. O.Mamatov (NamDU)

“Falsafa” fanidan ushbu majmua matnlari Namangan muxandislik-texnologiya institutining «Ijtimoiy fanlar» kafedrasi yig‘ilishi 2021 yil « 28 » avgust № 1 sonli majlisida muhokama etilib, foydalanishga tavsiya etildi.

Mundarija

BIRINCHI MODUL

1. O'quv materiallari.....	5-140
2. Seminar mashg'ulotlari materiallari	80-83
3. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.....	84-86
4. Glossariy.....	86-91
5. Ilovalar.....	92-105

IKKINCHI MODUL

6. O'quv materiallari.....	106-167
7. Seminar mashg'ulotlari materiallari	168-177
8. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.....	177-178
9. Glossariy.....	179-192
10. Ilovalar.....	192-209
11. Foydalanilgan manba va adbiyotlar.....	209-212

K I R I SH

Oliy ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarsiz taraqqiyotga erishib bo'lmaydi.

Sh.M. Mirziyoev

“Falsafa - barcha fanlarning otasi. Falsafani bilmaydigan odam - meditsina yoki ta'lim, san'at yoki madaniyat soxasi vakili bo'ladimi, bundan katiy nazar - hayotning, o'z kasbining ma'no mazmunini yaxshi tushunmaydi. Misol uchun, tarixni taxdil qilish uchun xar bir voqea va jarayonga falsafiy karash, ularni umumlashtirgan xolda zarur xulosalar chiqara olish kerak. Shu bois tarixchi bulish uchun falsafiy tafakkur kobiliyatiga ega bulish darkor.”-degan edi I.A.Karimov.

Zamonaviy taraqqiyot, globallashtirish inson va olam muammosini gta dolzarb bo'lishi, tabiat, jamiyat va shaxs munosabatlarini tartibga solishni gta murakkablashuvi bilan falsafiy tafakkurni yashash zaruriyatiga aylantiradi. Chunki, demokratik isloxoitlarni yanada chuqurlashtirish va fukarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi yangilanish falsafasi sifatida fanni talab etadi. Shu bois falsafani bilish demokratik islohotlarni anglash orqali fukarolik jamiyatini rivojlantirish xar bir fukaroga munosib turmush gsharoitini taminlashga imkon beradi.

Kolaversa Vazirlik tomonidan tavsiya etilgan tajriba-sinov Namunaviy gquv dasturi /tuzuvchi prof. N.A.Shermuxammedova/ ham mazkur tayanch konspektni bo'lishini takozo etadi.

Maruza matni ilg'or innovatsion talablar, Sharq falsafasi, buyuk ajdodlarimizning falsafiy asosiy goyasi, inson muammosi ekanligi, milliy mustaqillikning nazariy-falsafiy asoslari, milliy mafkurani yaratish bilan boglikligi ham masalani kun tartibga qgyadi. Bir so'z bilan yoshlar dunyoqarashini shakllantirish ishi fanning mohiyat mazmunini bildardi. Biz yangilanayotgan davrda yashashimiz, uni tushunish va ongli munosabatda bo'lish extiyoji ham falasafiy tafakkurni talab etadi.

Maruza matni falsafani fundamentakl asoslariga etibor qaratish tuzuvchining maqsadi, unda turli xil subektiv yondoshuvlar, ayniqsa institutning barcha texnik ygnalishlarini etiborga olgan xolda ishlab chiqilishi uning yangiligidir

Biz milliy falsafiy fikr shakllanishiga, talabalarda falsafaning asoslari xususida boshlangich bilimlarni fundamental tarzda shakllantirish zaruriyatini his etgan holda yondoshdik. Etirof etish lozimki, biz Sharq falsafasini yodda tutgan xolda “Manaviyat asoslari va Dinshunoslik” fanidagi takrorlanishni oldini olish uchun falsafaning asosiy taraqqiyot va substansiyaviy jihatlariga etibor qaratdik. Zero, Namunaviy Dastur ham fanning fundamental asoslariga urg'u berganligi bilan fikrimizni dalillaymiz. Majmua ikki modulli **Falsafa va Dinshunoslik** fanlaridan iborat.

BIRINCHI MODUL

O'QUV MATERIALLARI

1-Mavzu: Falsafaning fan va dunyoqarashga doir mexiyati

Reja:

1. Falsafa ijtimoiy ongning o'ziga xos shakli ekanligi.
 - a) Falsafa va boshqa fanlar.
2. Dunyoqarash va uning tarixiy shakllari.
 - a) Falsafaning asosiy, vazifalari, sohalari.

Yurtimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Harakatlar Strategiyasi hayotni yangicha fikrlash asosida tushuntiradigan nazariy bilimlarga ehtiyoj tug'diradi. Bu xol donolik ilmi hisoblangan falsafani taqozo etadi. Chunki jamiyat eskicha yashashdan yangisiga o'ozgarsa falsafa qanday yashash, qaysi yo'ldan borish, faoliyatni nimaga qaratilishi kerak, odamlarining orzu umidi, yashashning maqsad- ma'nosini nimadan iborat, inson dunyoni nima maqsadda o'rganadi, inson-dunyo, inson-jamiyat kabi masalalarni qanday biladi kabi savollarga javob qidiradi, hamda shu asosida nazariy fikrlar tizimini ishlab chiqadi. Falsafa fikrlash ilmiy sifatida barcha fanlarning mutaxassisi uchun uslubiy asosdir.

Inson tabiatida olam va o'zining kelib chiqishi, mohayat va mazmuni, yashashdan maqsad va ma'no kabi muammolarni antik dunyodan bilishga qizikkan. Qadimgi davrda falsafa barcha nazariy fikrlarni, ma'naviy hayotning hamma tomonlarini qamrab oluvchi fikrlash tizimi sifatida paydo bo'lgan. Shu ma'noda filosiya yunoncha fileo-sevaman, sofiya donolik so'zlaridan olingan bo'lib, unga donolikni sevis, donishmandlik bilan shug'ullanish deb qaralgan. Donolikni mohiyati: har qanday savolga to'g'ri javob topa bilish, yani predmetlarning kelimb chiqishi, rivoji va uning oqibatlarini anglash, munosabatlarda makto'v va tanbexni har bir kishiga o'lchovini bilish kabi murakkab jarayonlarni tahlilidir.

Aytishlaricha, Pifagor o'zini «Faylasuf» deb atagan birinchi shaxs. Zamonasining zolim hukmdori buyuk donishmand Platonni o'ziga maslahatchi qilib olgan. Kunlardan bir kuni jahli chiqib, uni bozorda qul sifatida sotib yuborishni buyurgan. Bozorda Pifagorning shogirdlaridan biri uni sotib olgan va ozod qilgan. Shunda o'sha hukmdor bu voqeani eshitib, «Pifagor kim?» deb so'raganda, u g'urur bilan, «Men faylasufman» deb javob bergan va falsafa ma'naviyatning yuksak shakli ekanligini ko'rsatib bergan. U yunon olimpiya o'yinlariga keluvchilar orasidagi tomosha va zavq olish uchun keluvchilarni faylasuf degan.

Falsafa bilimlar tizimi, ma'naviyatning turli sohalarni qamrab olgan. Masalan: fan haqiqat, din e'tiqod, huquq adolat, axloq yaxshilik, san'at go'zallik, siyosat davlat bilan shug'ullansa, falsafa donolik bilan shug'ullanadi. Haqiqatga erishish yo'llari, ishonch va e'tiqod masalalari, adolat mezon, yaxshilik tamoyillari, go'zallik qoidalari, davlat tizimi kabi masalalarni donolik darajasida tadqiq qiluvchilarni faylasuflar deb atab kelganlar. Hozirgi kunda ham o'z sohasining yuksak bilimdonlarini faylasuflar deb atashadi.

Qadimgi yunon faylasufi Diogendan (taxminan e.o.400-325 y.) «Donishmand kim?», -deb so‘rashganda, u: «Haqiqiy donishmand xudodir, biz donishmandlikni sevguvchilarmiz» -degan. Demak donishmandlikni sevguchilar donolik tafakkuri bilan dunyoni, o‘zligini bilishga intiluvchilardir. Sokrat (e.o. 470-399y) o‘z-o‘zini yerga urish tubanlashish - o‘zligini anglash, o‘zligini yuqori tutish esa donishmandlikdir, degan edi. Demak insonni tubanlik, razillikdan yuksaklikka, insoniy barkamollikka ko‘taruvchi barcha narsalar donishmandlikdir.

Donishmandlik o‘zligini, o‘z mohiyatini bilish orqali dunyoni inson, insoniyat, insoniylik ko‘zgusi bilan anglab yetishdir. Shunday bo‘lsada birinchi nomerli faylasuf sifatida Fales tan olingan. Chunki u ilk bora olamning birinchi sababi nima ekanligini savol sifatida kun tartibiga qo‘yib unga suv deya javob bergan. Anaksimand xavo desa Anaksimandr apeyron, Geraklit esa olov bilan asoslagan.

Qadimgi G‘arb falsafasi. Jahon falsafiy tafakkurining shakllanishida Qadimgi Yunon va Rim falsafasi alohida ahamiyatga ega. Dunyo falsafasi eskicha yashash mumkin bo‘lmay qolgan, mifologik qarashlar kishilarning ma‘naviy hayotida bo‘xronlar paydo bo‘la boshlagan, eski qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotib, yangi qadriyatlar shakllangan bir davrda ma‘naviyatning yuksak shakli, dunyoqarashning aqliy (ratsional) bosqichi sifatida paydo bo‘ldi.

Eramizdan oldin VII-VI asrlarga kelib insonlar o‘rtasida murakkab munosabatlarning paydo bo‘lishi shaxsning o‘z yangi hayotiy yo‘nalishini aniqlashini taqozo etdi. Falsafa bu masalalarni hal qilishda muhim kasb etadi. Falsafa qadimgi Yunonistonda matematika, astronomiya, mexanika meditsina kabi fanlarning paydo bo‘lishi bilan bir vaqtda vujudga kela boshladi. Mana shu davrda inson o‘z hayotiy yo‘nalishini belgilashni falsafa an‘analari orqali emas, balki o‘zining aqliy faoliyati bilan amalga oshirdi.

Eng muhimi, bu xududda ilk bora falsafiy tafakkur bilimlari fan sifatida jamlandi va shakllandi. Urug‘chilik tuzumidan keyin demokratik davlat qurish orqali jamiyatni boshqarishning noyob shakli vujudga keldi. Kosmopolitizm va optimizm uchun insoniyat yunonda ilk madaniyat beshigini yasadi. Ilk mifologik dunyoqarash diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarashga tomon qadam qo‘yishi ilki loybiy hodisa edi.

Qadimgi yunon falsafasining o‘ziga xos tomoni shunda ediki, u dastlabki davrdan boshlab tabiat va borliqning mohiyatini tushunishga harakat qildi. Masalan, eramizdan ilgari VI asrlarda Milet maktabining vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimen, keyinchalik Pifagor maktabining vakillari, shuningdek, Geraklit Empedokl kabi «fiziklar» (fizis-tabiat demakdir) tabiatni o‘rgandilar. Dunyoning asosini qidirib, tabiat mohiyatini turlicha izohladilar. Fales dunyoning asosi suv desa, Anaksimen havo, Anaksimandr apeyron, Geraklit olov deb qaradi. Ular suv, havo, olovni fizik modda sifatida emas, hamma narsaning mohiyati, asosi, jonli mavjudotlarning ham hayotiy asosi deb tushundilar. Demak, ular ramziy ahamiyat kasb etar edi. O‘sha davrdagi birinchi «fiziklar» falsafaga hamma borliqning mohiyatini, sababini ochib beruvchi fan sifatida qaraganlar.

Falsafadagi ontologiya-borliq haqidagi ta‘limot ham o‘sha davrdan boshlangan. Borliqning mifologik asosini emas, balki mantiqiy aqliy (ratsional) asosini, ularning mohiyati haqida fikr yuritdilar. Bu falsafa naturfilosofiya (tabiat falsafasi) sifatida shakllandi. Naturfilosofiya tabiat mohiyatini tushunish bilangina emas, uning rivojlanishi to‘g‘risidagi masala bilan ham bog‘liqdir. Ular kosmosni rivojlanishdagi bir butunlikdan iborat, deb tushungan, unga bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib turadigan, masalan, eskidan yangiga salbiydan ijobiyga, issiqdan sovuqqa o‘zaro o‘tib turadigan jarayon deb qaraganlar. Bunday qarashni dialektik qarash deb atadilar. Uning eng asosiy vakili yunon dialektikasining otasi Geraklit edi.

Qadimgi yunon faylasufi, matematigi Zenon (e.i.336-262) bir qator «Dixotomiya» (ikkiga bo'lish)ni maydonga tashlaydi. U turli paradokslarni ishlab chiqadi. («Axilles va toshbaqa», «Kamon gqi» kabi). Bu paradokslarda Zenon dunyoni cheksiz bunyod etilishdan iborat deb tushuntirdi. Bunday paradokslarni kundalik ong darajasida hal qilish mumkin emasligini ko'rsatdi.

Zenonning paradokslari yunon falsafasida dialektikaning shakllanishiga, ayniqsa, uning matematika, mantiq sifatida rivojlanishiga katta hissa qogshdi.

Tafakkur dialektikasini rivojlantirishda qadimgi yunon faylasufi Platonning (e.i.427-347 y) xizmati katta bo'ldi. Shunday qilib, borliq masalasida yunon faylasuflari uning uch tomoni to'g'risida fikr yuritdilar: 1. Borliq-mavjud, yo'qlik-mavjud emas: 2. Borliq bir butun, bo'linmasdir: 3. Borliqni bilib bo'ladi, yo'qlikni bilib bo'lmaydi: u mavjud emas: aql uchun u yo'q, demak u yashamaydi.

Bir butunlik, borliq tushunchasini ishlab chiqish Pifagor maktabi vakillariga ham tegishli. Butun borliq mohiyatini ular sonlar yordamida tushuntirishga harakat qildilar. Sonlar, ularning fikricha, bir butunlik bo'lib, borliqning asosini («Monada»sini) tashkil etadi. («Monados» yunoncha «asos, bir» degani). Butun borliqni asosi birlik bo'lib, ko'plikdan ustun turadi, unga material beradi. Qaerda birlik (yakka) bor ekan, shu yerda bilish imkoniyati mavjud, deb ko'rsatadilar.

3. Qadimgi yunon faylasufi Demokrit (taxmin e.o. 470 yilda tug'ilgan) borliq to'g'risida yangi tezisini maydonga tashlaydi. Borliq, uningcha, cheksiz, bo'linmas atomdan iborat. Dunyo atom va bo'shliqdan iborat, atom borliq, bo'shliq esa yo'qlikdir. Demokrit «Atom borliq ekan, uni bilish mumkin. Atom haqiqatdir, uni aql bilangina bilish mumkin, sezgilar esa qorong'i bilim beradi, chunki u narsalarning tashqi tomoni haqida bilim beradi, xolos», deb aytadi. Atomlar, Demokrit ta'limotiga ko'ra, shakli va xajmiga ko'ra farqlanadi hamda bo'shliqda harakat qilib, bir-birlari bilan qo'shiladi. Ular turlicha bo'lib, ba'zilar yumaloq, ba'zilar uchburchak, ba'zilar qalin va hokazo; ular hatto tanamiz, ba'zilar esa idrokimizni tashkil etadi.

Demokrit dunyoning sababiy bog'lanishi haqida ham fikr yuritadi. Dunyo qonuniy zaruriyat asosida rivojlanadi, deb kqrsatadi. Tasodifga e'tiborsizlik bilan qaraydi.

Borliq to'g'risida o'z qarashlarini izchillik bilan bayon etgan yana bir yunon faylasufi Platondir (e.i.427-347 y.). Platon fikricha, borliq abadiy, o'zgarmas, bo'linmasdir. Uni aql bilan bilish mumkin, hissiyot, idrok orqali uni bilib bo'lmaydi, chunki borliqni bilishga ularning kuchi yetmaydi, ular orqali uning hodisasini bilish mumkin, xolos, mohiyati esa aql orqali bilib boriladi, deb ko'rsatadi. Agar Demokrit borliqni moddiy deb tushungan bo'lsa, Platon borliqni g'oyaviy deb tushunadi. G'oyani hamma narsaning asosi, boshlangichi, mohiyati deb biladi. U gayri hissiy, abadiy xarakterga ega. Quyosh hamma narsaga nur taratgani singari umumiy g'oya butun borliqning asosi bo'lib, boshqa narsalarni rivojlantiradi, deb ta'lim beradi. Platon g'oyalar dunyosi rivojlanish, abadiy, doimiy yashovchilik (glmaslik), aql bilan bilish, o'z-o'ziga aynanlik, bo'linmaslik kabi xususiyatlarga, hodisalar dunyosi esa tashkil topish, vaqtinchalik, rivojlanish, yo'q bo'lish-o'lish, hissiyot bilan bilish, hamma vaqt boshqa bo'lib turish, bo'linuvchanlik kabi xususiyatlarga ega, deb aytadi.

Aristotel fikricha, har qanday so'z tushunchani ifodalaydi, tushuncha esa borliqni ifodalaydi. U borliqni aks ettiradigan eng umumiy tushunchalar, kategoriyalar haqida ta'limot yaratadi. Kategoriya bu mohiyatning eng birinchi va oliy munosabatidir. Mohiyat predmetlarning asosiy boshlang'ichidir.

Aristotel borliq tgrt element: suv, havo, yer olovdan tashkil topadi, deydi. Aristotel bilish nazariyasida hissiy bilishni asos qilib oladi. Uning mazmun va shakl haqidagi ta'limoti alohida ahamiyatga ega. Uningcha, shakl yaratuvchi, tashkil qiluvchi borliqning asosidir. Narsalar shaklga kirgandagina mavjud bo'ladilar, shakllarning shakli xudodir, deydi u.

Uningcha, materiya hamma hodisalarning asosidir. Uni bilish ehtiyoji ygq. Chunki hodisalar ko'zga tashlanib turadi. Ular paydo bo'ladi, rivojlanadi, gladi. Shuning uchun u narsa va hodisalarni tashuvchisi voyaga yetkazuvchisidir. Platon materiya voqelik emas, balki imkoniyatdir, deydi. Uni geometrik figura sifatida fazo bilan aylantirishda kgradi. Aristotel ham materiyani imkoniyat sifatida kgradi. Biroq, imkoniyat voqelikka aylanishi uchun shaklga kirishi kerak. Uningcha, loy, qum hali gisht emas, uni gisht qilish uchun ma'lum qolip asosida shaklga kiritish kerak. Demak, shakl yaratuvchi faol (aktiv) narsa, deydi. Materiya moddiy narsa bo'lsa, jon uning shaklidir. Shakl yaratuvchi ekan, shakllarning shakli xudodir, degan xulosaga keladi. Aristotel fizikasida (tabiat haqidagi ta'limotida) kosmosni juda kengligi va kattaligi haqida gapirib, unga cheklangan, oxirgi jism sifatida qaraydi, Platon, Aristotel va uning izdoshlari, shuningdek, yunon matematiklari potensial cheksizlikni e'tirof etishsa-da, aktual cheksizlikni tan olmadilar.

Ularning hammasi uchun umumiylik shundaki, ular idealist yoki materialist bo'lishidan qat'iy nazar, kosmosni grgandilar. Ular kosmos, tabiatning yashirin sirlarini topishga harakat qildilar. Kosmosni jonli mavjudotning, insonlarning ajralmas qismi deb qaradilar. Kosmizm inson bilan tabiat o'rtasidagi aloqadorlikni, inson masalasini hal qilishda falsafada asosiy ygnalish bo'lib keladi. Sekin-asta inson haqida, uning kosmosda, dunyoda tutgan grni haqida yangi fikrlar paydo bo'la boshladi. Shunday qilib, bir qator faylasuflar inson muammosi bilan shugullana boshlaydi. Buning natijasi glaroq, inson va uning ongi masalasi bilan shugullanuvchi alohida donolar maktabi paydo bo'ldi. Ularning dastlabki asoschilari sofistlar edi. Sofistlar donolik gqituvchilari sifatida faoliyat kgrsatishdi. (Sofiya-donolik demakdir). Protagor (mil.avv. 490-420 y). Georgiy (mil. av. 480-380 y) ularning vakillari hisoblanadi.

Sofistlar inson hayoti, fikri, bilimi, bu bilimlarning ishonchli bo'lishi qoidalari haqida fikr yuritdilar. Ular insonlar o'rtasida axloqiy, huquqiy, siyosiy munosabatlarning shakllanishi haqida ta'limot beradilar. Odamlar bir-biriga munosabatda to'g'ri so'zlash, to'g'ri fikrlash qoidalarini tadbiq eta bilishi kerakligi haqida yoshlarga tarbiya berdilar. Sofistlar ritorika (so'z san'ati), gramatika, stilistikadan dars berdilar. Yoshlarni boshqalar bilan muloqotda, sud ishlarida, siyosatda qanday muomalada bo'lishda, o'z fikrini aniq, to'g'ri, ishonarli qilib ifodalashga grgatdilar. Maktablarda yoshlarga ta'lim va tarbiya berishar ekan, ishontirish san'ati, fikrlash usullari, bilim mexanizmi bilan shugullanishni birinchi gringa qgydilar. Bilish nazariyasida inson his tuygularining roli, ularning bilimlari, haqiqat nisbiy ekanligini batafsil tahlil qildilar.

Bilishning sohibi (sub'ekti) inson ekanligi, inson bilimlarining roli, bunda inson aqli va irodasining ahamiyati haqidagi g'oyani maydonga tashladilar. Protagor butun borliq, butun narsalar inson ko'zgusidan gtishi kerakligi haqida gapirdi. U inson hamma narsaning me'yori deydi, inson va uning ongini ulug'laydi. Har qanday narsa insonni qoniqtirsagina yaxshilik, ezgulikdir. Insonni qoniqtirmasa uning azoblanishiga olib kelsa, bu yomonlikdir, deb kgrsatadi. Sofistlar yaxshi, yomon, foydali yoki foydasiz tushunchalarning mezoni alohida shaxsi va uning hissiy moyilligidadir, deb tushuntiradilar. Bilish nazariyasida nisbiylik (relyativizm)ni olga surdilar. Huquq me'yorlari, davlat siyosati, adolat yoki adolatsizlik masalalariga ham nisbiylik nuqtai nazardan qaradilar. Inson hamma narsaning me'yori ekan, davlat masalalari ham insonga bo'lgan adolatlilik yoki adolatsizlik me'yori bilan belgilanishi zarurligini aytdilar.

Sokrat onging sub'ektiv tomoninigina emas, balki uning ob'ektiv mazmunini ham kgrsatib berdi. Inson o'z onging mazmunini, mohiyatini, o'zligini bilish asosida boshqalarni, dunyoning mohiyatini, yashashning ma'nosini bilib boradi, deydi. Sokrat o'z fikriy salohiyati bilan haqiqat, adolat haqidagi eski qarashlarni yangicha tahlil qildi. Uningcha adolat davlat tizimi tomonidan olib boriladigan yaxshilikdir. Sokrat yaxshilik, adolat kabi tushunchalarning mazmunini ochib berishga harakat qildi. Mutafakkir falsafasining asosida inson, uning hayoti, mahsadi, adolatli jamiyat yotadi. U yaxshilik va yomonlikni odamlar bilan muloqot orqali, suhbatlashish orqali aniqlash mumkin, deydi. Uning fikricha, falsafa bilimlarni sevish haqidagi ta'limot ekan, ana shu bilimlar inson axloqiy faoliyatini yaxshilikka qaratish asosida namoyon

bo'ladi. Sokrat falsafasida axloqiy ratsionalizm asosiy grinni egallaydi. Inson haqiqatni qancha chuqurroq bilsa, u yomonlikka qql urmaydi. Yomonlik haqiqatni bilmaslik natijasida paydo bo'ladi, deb kgrsatdi. Demak, ahloqiy kamolotning manbai ham bilim, haqiqatni bilishdir. Yaxshi davlat arbobi, adolatparvar hukmdor ham bilimdon, donishmand bo'lishi kerakligini aytadi. Bilim va shu asosdagi yaxshilik insonni baxtli qiladi, deydi donishmand. Mana shu ruhda butun shogirdlariga ta'lim va tarbiya beradi. Ularni yangicha fikrlashga, yaxshilik qilishga, baxtli bo'lish uchun kurashishga undaydi.

O'rta asrlarda Sharq falsafasi. O'rta asrning qomusiy allomalaridan Al-Kindiydir (801-866 y). U o'rta asr arab falsafasining asoschilaridan biridir. U arab falsafasiga «Narsalarning belgilari va izohlari to'g'risida» asari arab tilida falsafiy lug'at vazifasini bajargan. Al-Kindiy falsafani Aristotel singari nazariy va amaliy bilimlarga bo'ladi. Nazariy fanlarga matematika, tabiiy fanlar va geologiyani, amaliy fanlarga esa etika, uy xgjaligi, fuqarolik siyosatini kiritadi.

Al-G'azzoliydir (1058-1111 y) o'zining asarlarida kalom falsafasini rivojlantirib, kimki Olloh ta'limotini yaxshi bilmasa, u uning ulug'ligi va azimligiga ham imon keltirmagan bo'ladi. Xudoning aytganini qilish uchun uning ilmini chuqur va atroflicha bilish kerak, deydi. Al-G'azzoliy ta'limotini Ibn-Rushd o'qib, uning oliy tafakkuriga tan bergan, ammo uning metafizik, dogmatik qarashlarini, taqdir masalasidagi fikrlarini tanqid qilgan.

O'rta asr arab falsafasini yuksak chgqqiga ko'targan alloma Ibn Rushd (1126-1198 y) butun yunon falsafasining bilimdoni bo'lish bilan birga Sharq falsafasini ham qunt bilan o'rgangan. U sharqnning yirik mutafakkirlari: Forobiy, Ibn Sinolar asarlarini chuqur bilgan qomusiy allomadir. U Aristotel siymosida tabiat aqliy rivojlanishining yuksak cho'qqisiga ko'tarilganligini aytadi. U Aristotel g'oyalariga insoniyat donoligining haqiqiy namunasi, dindorlarni esa keskin tanqid qilgan, ayniqsa mutakallim oqimining vakili Al-G'azoliyni tanqid qiladi. Mutakllimlar hissiyotiga berilib, aql kuchiga, mantiqiy xulosalarga yetarli ahamiyat bermaganliklarini ta'kidlaydi.

Dialektikaning davlat boshqaruvi, huquq va axloqqa ham tadbiiq etish kerakligini ko'rsatadi. Ibn Rushd borliqni xudo yaratganini tan olish bilan birga tabiatning abadiyligini, o'z-o'zidan rivojlanishini, yozadi. U Aristotelning "xudo birinchi turtki" degan qarashini e'tirof etib, borliq hamma narsaning yaratilishining imkoniyati ekanligini ko'rsatadi.

Tasavvuf falsafasining o'ziga xosligi undagi xudo to'g'risidagi vaxdat-ul-vujud, vaxdat-ul-mavjud, vaxdat-ul-xudud, ya'ni vaxdatning (xudoning) o'zida, dunyoda va shaxsda namoyon bo'lishi to'g'risidagi orifiy panteistik, ta'limot, xudoga yetishish (vasl), uning ma'rifatiga erishishning alohida jazava (ekstatik-arabcha-shath) "o'zidan ketish" yo'li (shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat) amaliyoti bilan belgilanadi. Chunki tasavvuf, o'zidagi ana shu g'oya tamoyillariga ko'ra arab, musulmon falsafasining hukmron va belgilovchi rasmiy islom aqidaviy ta'limoti va marosim talablari, shariat ko'rsatmalaridan orifiy va ayni paytda hurfikrli tafakkurni vujudga keltirgan. Ana shuning uchun ham tasavvuf ijtimoiy falsafiy tafakkur taraqqiyotida ko'pgina ilg'or ta'limotlarni shu jumladan, panteizm, deizm shakllarida ifodalangan sodda dunyoviy, umumbashariy qadriyatlarini,

insonparvarlik, yuksak ruhiylik, tabiat va insonni sevishtirish mayllarini ifodalash uchun qulay vosita bo'lib xizmat qilgan.

Boshqa tomondan esa, tasavvuf oriflik, zohidlik va darveshlik, gushanishinlik, rindlik harakatlari sifatida avval boshdanoq boyishga intilish, adolatsizlik, zgravonlik kabi qator ijtimoiy marazlarni qoralovchi insonlarning xudo oldidagi tengligi, kambag'al, faqir-bechoralarga insoniy munosabatda bo'lish kerakligi to'g'risidagi insonparvar xususiyatlarga ega ediki, bu tasavvuf va u bilan bogliq madaniyatga yaqqol ifodalangan umuminsoniy va erkin fikrlik yig'inalishini berar edi. Shuning uchun ham tasavvuf keng xalq ommasida, ayniqsa quyi tabaqalar orasida keng va chuqur ijtimoiy zaminga ega edi.

Tasavvufdagi muqarrar xalqparvar talablar, katta yer egalariga, ruhoniylarga tanqidiy ko'z bilan qarash, uni ma'naviy hayot va madaniyatning eng keng va ommaviy oqimiga, g'usha davr uchun eng yashovchan ta'limotga aylantirdi. O'rta va Yaqin Sharqda VIII-XIII asrlarda hayotbaxsh hurfikrli, arab musulmon madaniyatining g'oyaviy-nazariy asosini, tabiiy-ilmiy zaminini tabiatshunoslik fanlari, texnika taraqqiyoti sohasidagi olamshumul yutuq kashfiyotlar tashkil etadi. Ular tabiatshunoslar Jobir ibn Hayyon, Eronshahriy, Roziy, Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Javhariy, Amayuriy at-Turkiy al-Farg'oniy, Abu Komil, Abu-l-Vafo Juzjoniyy, Marvaziy, Abu-l-Ma'shar va boshqalar tamonidan rivojlantirildi.

"..Muhammad Xorazmiy algebra fanining asoschisidir". U fan tarixida birinchi bo'lib kvadrat tenglamalarning tiplarini va har bir tipni yechish metodlarini tasnifi (klasifikatsiyasi)ni berdi. "Algebra" so'zining o'zi uning tomonidan kashf etilgan mazkur tenglamalarni yechish metodi "aljabr" bilan bogliqdir. Matematik Viner asos solgan kibernetikaning nazariy va mantiqiy asosini Xorazmiyning algoritmlari, nazariyasi tashkil etadi: "algoritim" so'zining o'zi lotinchada-"al-Xorazmiy" demakdir.

Ovrgpada XVI asrgacha Ahmad Farg'oniyning "Ilmi nujum asoslari" asari falakiyot ilmi bgyicha asosiy darslik bo'lib xizmat qilgan. Bu asar muallifining esa Alfragunus deb bilishgan. Mantiq taraqqiyotida riyozotning falsafiy masalalarini, musiqa ilmining matematik nazariyasini ishlab chiqishda Abu Nasr Forobiynning xizmatlari katta. Hamid Xgjandiy keyinchalik "Fermning ulug' nazariyasi" deb nom olgan nazariyaga muhim hissa qgshgan. Alloma Abu Hasan Mansur kub tenglamalarni yechish metodlarini ishlab chiqqan.

Tarix, riyozat, falakiyot, ilmi xiyol, (mexanika), tibbiyot, madaniyatshunoslik, geodeziya, saydana, (farmokognoziya), fan tarixi, Sharqning ensiklopedik, aql egasi bo'lmish Abu Rayhon Beruniy o'z hissasini qgshgan fan sohasining tgla bo'lmagan rgyxati-ana shundan iborat.

Umuman olganda, diyorimiz mutaffakkirlari tabiatshunoslik, aniq fanlar sohalaridagi yutuqlarga, texnika va amaliyot, moddiy ishlab chiqarish sohalaridagi kashfiyotlarga jahon madaniyati, sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa qgshish bilan birga fan, falsafa tarixiga metodologik baho berganlar.

XI-XII asrlarda esa Arastu mexanikasiga tanqidiy yondoshib tabiatshunoslik va falsafaga "Mayllar" tushunchasini kiritgan Ibn Sino qarashlarini rivojlantirgan Abu-l-Barakat al-Bog'dodiy mexanik va o'zaro ta'sirning asosiy "inersiya" tushunchasiga va butun olam mexanikasini yaratishga deyarli yaqin kelib qolgan edi.

Abu-l-Barakat mexanikasi keyinchalik Ovrqpo «Impetus» nazariyasi va mexanikasining vujudga kelishida muayyan darajada rol oynadi (Sh.Pines, M.M.Rojanskaya).

Bularning hammasi o'z navbatida falakiyot ilmining yutuqlari bilan qo'shilib, jugrofiya, mexanika, dengizchilik ilmlari rivojida sifatli sakrashlarga, olamshumul ilmiy-jugrofiy va astronomik kashfiyotlar qilinishiga olib keldi. Agar X asrda Ibn Rust "yer shar shaklida, u o'z g'iri atrofida aylanadi" degan qarashlarni ilgari surgan bo'lsa, Eratosfendan sng "arab musulmon olim"lari xalifa Ma'mun buyrug'i bilan al-Xorazmiy boshchiligida Sanjar tog'lar vodiysida yer meridianining egilish burchagini aniqlab, yer sharining kattaligini (aylanasining uzunligini) ilmiy o'lchash, hisoblashga erishdilar. Tibbiyotda turli jarrohlik asboblari nozik kesuvchi nashtarlar (Skapel), jarrohlikdan sng yara, ichak va terilarni tikish iplari (az-zahraviy) ularning gazak olmasligi uchun qayta ishlashda kerak dorilar juda xilma-xil qilib tayyorlanar edi. Masalan, Abu-Bakr ar-Roziy birinchi bo'lib vaboni emlashga juda yaxshi eishilgan qgy ichagi bilan jarohatlarni tikish va bitirib yuborishga erishgan edi. (U.I.Karimov). Gsha davrlardayoq inson tarixi (anatomiyasi) glikni yorib grganish orqali tasavvur qilingan, tirik mavjudotlarda bir butun qon aylanish majmui borligi ma'lum bo'lgan.

Bu evolyusion nazariya birinchi bo'lib A.N.Forobiy tomonidan ilgari suriladi va tabiiy ilmiy ta'limot sifatida asoslab beriladi. "Minerallar-deb yozgan edi Forobiy,-dastlabki unsurlarga eng yaqin va eng oddiy aralashmalardan vujudga keladilar: ularning unsurlardan ajralishi hali uncha katta emas. Gsimliklar murakkabroq va unsurlardan ajralgan aralashmalardan kelib chiqadi va ular muayyan darajada kgp sonlidir. Aqlsiz hayvonlar esa gsimliklardan ham murakkabroq aralashmadan kelib chiqadi va faqat insongina oldingi aralashmadan, ya'ni hayvonot olamidanda kelib chiqadi. Bu evolyusion nazariya Ibn Sino, Abul-Barakat, Kazviniylarning (uning "Ajoyib-ul-maxluqot" asari bizgacha yetib kelgan) gsimliklar, hayvonot olami faunasiga bagishlangan fundamental asarlarida empirik tabiatshunoslik va falsafiy nuqtai nazardan dalillanadi va yanada rivojlantiriladi.

Evolyusion dunyoqarashning muhim tomoni shunda ediki, unda insonning barcha ruhiy, aqliy va ma'naviy xususiyatlari inson tanasining tabiiy-fiziologik holati, imkoniyati bilan belgilanadi, degan sodda tabiiy-ilmiy dunyoqarash nuqtai-nazaridan turib moddiy olamning kishi ongiga nisbatan, borliqning tafakkurga, tabiatning ruhga nisbatan borliqning, qiyinchiliklar bilan bo'lsada, bevosita e'tirof etilgan edi. Bu haqda mashhur aqid al-Gazzoliy bunday yozadi: "Ular ya'ni tabiatshunoslar insonning fikrlash qobiliyati uning mijoziga bogliq va mijoz ygq bo'lishi bilan qobiliyat ham ygqoladi, deb gylaydilar».

Shuni ta'kidlab gtish muhimki, gsha davr madaniyati, fani, falsafasi va ijtimoiy taraqqiyoti uchun inqilobiy ahamiyatga molik bo'lgan mazkur nazariy xulosalar oddiy empirik tadqiqotlar natijalari kuzatilgan dalil (fakt)lar bo'lib qolmasdan, falsafiy jihatdan talqin etilgan, izohlangan edi va o'z davrining ilmiy dunyoqarashi sifatida kgr-kgrona e'tiqodga xurofotlarga qarshi yg'alritilgan edi. Masalan, Forobiyning izdoshlari, hamkasblaridan biri Hakim Adib Ismoil Xisraviy uning tabiatshunoslik, tibbiyotga doir asarlarini bir necha bor kuydirib yuborishga uringan, uning joniga ham bir necha bor qasd qilgan, aniq fanlar sohasidagi

tadqiqotlari va mantiqiy isbotlash usullariga ochiqdan-ochiq johillik munosabatida bo'lgan.

Davrning gta qizg'in, suronligiga qaramasdan, arab musulmon faylasuflari ilm-fan, falsafaning eng fundamental kategoriyalari: borliq, substansiya, materiya va uning atributlari, harakat qonuniyatlari va fizikaviy mexanizm, jon, ruh, ong, tafakkur, fozil jamiyat, komil insonni shakllantirish kabi abadiy va doimiy dolzarb muammolari mavzusi ostida ishlaganlar va juda muhim ilmiy-falsafiy yutuqlarga erishganlar.

Deistik va panteistik dunyoqarashga asoslangan Roziy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino kabi mutafakkirlar diniy aqidachilikka, ilohiyotchilarning spekulyativ falsafasi-kalomga soglom UYG'ONISH DAVRI FALSAFASI: aql, ilm-fan, mantiqiy nuqtai nazardan turib tanqidiy yondoshar edilar.

Roziy, Forobiy, Beruniy va Ibn Sino o'z ijodlarida ilohiy ilhom nuri yordamida goyibni bilishni, soxta avliyolik va mg'jizakorliklarni o'z davri uchun ilmiy asosda shubha ostiga ola bilganlar. Biroq, diniy mutaasibchilik u vaqtda kuchli bo'lganligi uchun ular "haqiqatning ikki yoqlanmaligi" to'g'risidagi ta'limotni ilgari surganlar. Ularning fikricha haqiqat garchi bitta bo'lsa-da unga erishish ygli ikki tomonlamadir. Biri ilmiy bilish, aql va mantiq dalillari ygli bo'lib u bu ta'lim va tahsil olgan, aqlli, ilmli kishilar uchun ikkinchisi esa ma'joziy ifodalar, rivoyat, hikoya va masallar ygli. Keyingi ygl diniy kitoblarda bayon etilgan, kgr-kgrona e'tiqodga grgatilganlar ygli, ilmiy haqiqatlarning to'g'ridan-to'g'ri qabul qila olmaydiganlar ma'joziy qabul qila oladigan, tasavvur qila oladiganlar yglidir. Bu ikki haqiqat nazariyasi diniy va dunyoviy bilimlarni ilm fan, falsafasi bilan ilohiyot chegaralarini ajratib berishda, ularning o'zaro tgqnashmasdan mustaqil rivojlanishlarini ta'minlashda, fan va filasofiyaning ahamiyatlarini kgtarishda juda muhim grin tutadi.

XIV asrning oxiri va XV asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida yangi davr boshlanayotganidan darak beruvchi bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy o'zgarishlar bo'ldi. Jumladan, Italiyada yangi tuzumning birinchi belgisi monofakturalar vujudga kela boshladi. Shahar, shahar madaniyati, savdo rivojlandi, ishlab chiqarish sur'ati jadallashdi, texnikada kashfiyotlar bo'ldi, ishlab chiqarishga texnika vositalari kirib kela boshladi. Yevropada (Sharqdan keyin) kompas yaratildi va yangi dengiz ygllari ochila boshlandi. Magelanning dunyo bgylab safari, Amerika va Hindistonga dengiz yglining ochilishi shular jumlasidandir.

Yevropa mamlakatlaridagi bunday o'zgarishlar natijasida nafaqat iqtisod va siyosat, shu bilan birga fan va madaniyat, shuningdek falsafa o'rta asrda hukmron g'oya bo'lgan din ta'siridan qutula bordi va dastlabki burjua madaniyati shakllana boshlandi.

Uygonish davrining yirik vakillaridan biri Nikolay Kuzanskiy (1401-1464) bo'lgan. U falsafiy qarashlariga kgra, panteist. Uning fikricha xudo eng oliy va mutlaq borliq bo'lib, tabiatni va insonni yaratgan. Ayni vaqtda tabiat bir qancha xususiyatlariga kgra eng avvalo makondagi cheksizligi va vaqtdagi abadiyligi bilan Xudoga gxshashdir. N.Kuzanskiy "Barcha narsalar xudoda bo'lgani kabi Xudo barcha narsalardadir" degan iborasi orqarli Xudo tabiiy olam narsalarida namoyon bo'lishi va narsalar qaytadan jamlanishi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi.

Mashhur siyosatchi Nikollo Makiavellini (1469-1527 y) uygonish davrining birinchi sotsiologi deyish mumkin. U egoizm, moddiy manfaatdorlik inson faoliyatining asosidir, degan g'oyani ilgari suradi. "Odamlar-deb yozadi u, ota-onasining glimini ygqotgan mol-mulkiga nisbatan tezroq unutadilar". U davlat mavjudligini din (cherkov)ga bog'lab tushuntirgan o'rta asr falsafiy fikrdan farqli glaroq davlat huquqiy tartibot organlari orqali qonunlar asosida boshqarilishi kerakligini aytadi. Makiavelli "Podshoh" deb nomlangan asarida davlatning kuch-qudratini qonun tashkil etishi lozimligini bunga erishish uchun turli yglardan foydalanish mumkinligini bayon qiladi. "Qudratli davlat tuzmoqchi bo'lgan hukmdor bir qancha, jumladan, sher va tulki xususiyatlariga ega bo'lishi kerak"-deb yozadi u.

Polshalik olim Nikolay Kopernik (1473-1543 y) yaratgan geliotsentrizm nazariyasi tabiatshunoslik rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. U o'zining "Osmoniy jismlarning aylanishi to'g'risida" nomli asarida Aristotel va Ptolomeylarning geotsentrik ta'limoti (Yer koinot Markazi) noto'g'ri ekanligini isbot qildi. Yer o'z gqi va quyosh atrofida aylanadi, degan g'oya bilan fan olamida inqilob qildi. Dindorlar Kopernikning bu kashfiyotiga ikki xil yondashdilar:

1) Kalendarning o'zgarishidan (1582 y) manfaatdor bo'lganlar unga yaxshi munosabat bildirdilar;

2) Bu kashfiyotni olam to'g'risidagi diniy qarashlarga zid deb bilganlar unga salbiy munosabat bildirdilar;

Uygonish davri fani rivojiga salmoqli hissa qgshgan yetakchi olimlardan yana biri Jordano Bruno (1548-1600 y) bo'lib, u Kopernikning kamchiliklarini tuzatdi va geliotsentrik ta'limotni rivojlantirdi. U olamning cheksizligini dalillar asosida aniq va ravshan isbotlab berdi. Uning dunyoqarashi, shakliga kgra, panteistik ygnalishda (xudo va tabiatni aynanlashtirish) bo'lsa-da, mazmuni voqealikni real aks ettirishga qaratilgan edi.

Uyg'onish davridagi bu tabiatshunos olimlarning olam to'g'risidagi g'oyalari gsha davrdagi hukmron diniy qarashlarga zid bo'lgani uchun inkvizitsiya ularning asarlarini gqishni ta'qiqladi. O'zlarini sud qilib, birini (N.Kopernikni) osishga, birini (J.Brunoni) gtada yondirishga hukm qildi. G.Galiley esa guyo adashganini tan olib, o'z fikridan qaytgan bo'ldi. Biroq ularning g'oyalari fan olamiga kirib borgan edi, endi uni hech qanday kuch, shu jumladan, inkvizitsiya ham tgxtatib qola olmadi.

2. Dunyoqarash va uning tarixiy shakllari. Falsafaning eng asosiy vazifasi kishilar ongida sog'lom aql tafakkuriga mos dunyoqarashni shakllantirishdir. Shunday ekan, dunyoqarashning o'zi nima? Dunyoqarash dunyo to'g'risidagi umumiy g'oyalar, qarashlar insonning dunyoda tutgan o'rni, hayotiy yo'nalish, ishonch e'tiqodi, ideali, bilish tamoyillari, o'zi va boshqalarning hayotdagi o'rnini bilib olish, inson mohiyatini, o'zligini anglashi haqidagi qarashlar tizimidir. Dunyoqarash bilish, qadriyat amaliy faoliyat va ularning o'zaro birligi kabi inson faoliyatini qamrab oladi. Uning hissiy, aqliy va irodaviy komponentlari bor. Dunyoni bilish darajasiga ko'ra, kundalik ong va nazariy ong darajalari bor.

Dunyoqarashning asosiy masalasi «inson va dunyo», «men va men emas»dir. Dunyoqarash o'zining tarkibiga ilmiy, falsafiy, estetik, axloqiy, diniy,

siyosiy, xuquqiy va boshqa qarashlarni oladi. Tarixiy taraqqiyot turlari jihatidan afsonaviy (mifologik), diniy va falsafiy qarashlar shakllangan. Dunyoqarash insonning tajriba asosidan olingan bilimlar yig'indisi, tashqi olamga munosabati yig'indisi, maslagidir. Aslida bu fan insonning tashqi olamga munosabatini o'rganadi.

3. Falsafiy dunyoqarash olamga, jamiyatga, insonga bo'lgan eng umumiy qarashlar tizimidir. Falsafa kishilarning ijtimoiy-siyosiy, diniy, ilmiy, axloqiy, estetik, xuquqiy ygl tutishning asosiy tamoyillarini donolik bilan asoslab berishni o'z oldiga maqsad qilib qgyadi. Falsafa tafakkur rivojining buyuk yutugi va insoniyat ma'naviy yuksalishining muhim omilidir. U kishilarning olamni bilishi, jamiyatning yuksalishi, odamlarning mahoratini namoyon qilishi, inson qadriyatlarining yuksaklikka kgtarilishi bilan bogliq.

4. Falsafa borliqni umumlashtirish, ijtimoiy va tabiiy bilimlarni sintezlash, haqiqatga erishish, inson mohiyati, qadr qimmat, uning amaliy faoliyati kabi masalalar bilan shugillanar ekan, uning asosiy sohalari sifatida quyidagilarni kgrsatish mumkin.

I. ONTOLOGIYA-(yunoncha ontos-mohiyat, logos-ta'limot) borliq, uning mohiyati, shakllari, asosiy tamoyillari va eng umumiy kategoriyalari haqidagi ta'limot.

II. GNOSEOLOGIYA-(aksios-qadriyat, logos-ta'limot) bilish haqidagi ta'limot. Bilish nazariyasi inson tafakkuri faoliyati qonunlarini grganadi. Falsafiy bilish mohiyatini, uning boshqa nazariy bilishlardan farqini, universal tavsifini, bilishning asosiy bosqichlari va haqiqatga erishish ygllarini kgrsatib beradi.

III. AKSIOLOGIYA-(aksios-qadriyat, logos-ta'limot) qadriyatlar inson faoliyati, uning ygnalishi, umumiy ahamiyati, ularning sabablari, inson mohiyati to'g'risidagi ta'limotdir.

IV. PRAKSIOLOGIYA (praksis-faoliyat, logos-ta'limot) inson amaliy faoliyati haqidagi ta'limot. Insonning ma'lum maqsadga qaratilgan faoliyatining ygnalishi va turlarini, mahsuldorlik tomonga ygnaltirish ygllarini grganadigan falsafaning sohasi.

V. METODOLOGIYA-tafakkur usullari va metodlari (uslublari) haqidagi ta'limot.

Metod inson amaliy faoliyatida ishlatiladigan umumiy usul va qoidalardir. Bu qoidalar turlicha bo'lishi mumkin: ilmiy bilishning usullari, falsafiy tafakkurning eng umumiy metodlari va boshqalar. Ular borliqning universal mantiqiy kategoriya va qonunlaridan iborat. Har bir faning o'z metodi mavjud. Umuman jamiyat uchun, sivilizatsiya uchun tafakkurning umumiy ygnalishi, umumiy uslubi xarakterli bo'lib, mutaxassislik tafakkurini xalq, millat qadriyat, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga kgtarish zarur. Buning uchun tafakkurning umumfalsafiy metodlaridan foydalaniladi.

Shu ma'noda falsafa boshqa fanlarning metodologiyasini, umumiy mantig'ini tashkil etadi. Falsafada metafizika, dialektika kabi uslublar borligini bilamiz. Hozirgi davrda ulardan tashqari tafakkur taraqqiyotini, umumiy yo'nalishini ko'rsatuvchi gumanistik dialektika, sinergetika, germeneytika,

strukturalizm, ruhiy tahlil kabi yangi falsafiy uslublar paydo bo'ldiki, ular fanda, ijtimoiy hayotda borgan sari keng qo'llanilmoqda.

Falsafiy tafakkur dunyoni nazariy jihatdan tahlil qilib, inson va uning dunyoga bo'lgan munosabatining turlicha shakllarini krsatib beradi. Biroq u ma'naviy madaniyatning boshqa shakllariga qaraganda chuqurroq bo'lib, ulardan o'z qonun-kategoriyalari bilan, aql kuchining salohiyati bilan, o'rganish usuli bilan farq qiladi. Falsafiy ong ma'naviyatning boshqa shakllari tomonidan o'zlashtirilgan dunyoni qaytadan chuqurroq, bir butun holda, insoniy munosabatlar nuqtai nazaridan tushunishga qaratilgan.

Falsafiy tafakkur o'z tarixiy taraqqiyoti davomida bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. M: Gegel ham falsafa, adabiyot, tarix, huquq, san'at, din, axloq falsafasiga bo'linib, har bir sohaning falsafiy muammosi borligini ta'kidlagan edi. Hozirgi davrda bilimlar tizimini turli sohalari bilan shug'ullanuvchi falsafiy yig'inalishlar mavjud. Bular tabiyot, tarix, siyosat, huquq, din, axloq, fan, madaniyat, til falsafalari kabilardan iborat. Falsafaning mazmuni bilish bilan chegaralanmaydi. Bilishsiz faylasuf bo'lishi mumkin bo'lmasa-da, biroq uning o'zi bilan maqsadga erishib bo'lmaydi, bilishning amaliy ahamiyati, qadriyati, inson mohiyatini namoyon qilish, davr talabiga hamohang bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega.

«Donishmandlik bilishgina emas, u, dastavval, hayot faoliyati tarzidan iborat». «Haqiqiy faylasuf amaliy, hayotiy, donishmandlikning ustozidir», - deydi Kant. Haqiqiy faylasuf butun donishmandlik haqidagi ta'limotga ega bo'lish bilan bu bilimlarni insonlarga yaxshilik qilishga qaratadi. Ana shundagina o'zining bu dunyoda tutgan g'rnini anglab olishi mumkin. Falsafaning oliy maqsadi insonparvarlikdir. Shuning uchun inson, insoniyat, insoniylik hozirgi zamon gumanistik falsafasining asosiy masalasi bo'lib, inson mohiyati, borligi, bilimi, qadriyatini tahlil qilishdan iborat.

Falsafaning vazifasi yosh avlodda barkamolligi sog'lom etikodini xosil qilishdir. Ma'lumki, har bir tarixiy davr o'ziga xos dunyoqarash tizimini va uni himoya qilish, takomillashtirish, rivojlantirishning nazariy asosi bo'lgan g'oyalar tizimini-mafkurani taqazo qiladi. Xuddi shu ma'noda yoshlarni milliy istiqloq ruhida tarbiyalash taraqqiyotimizning ob'ektiv zaruriy ehtiyojidir. Bu ulug'vor vazifani bajarishda falsafaning fanlar tizimidagi nazariy-ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati ortib borishi tabiiydir. Demak, yoshlarning tabiat, jamiyat fanlaridagi yangiliklar donolik qonunlari asosida tahlil qilishga, yangicha fikrlashga g'rgatish, ularni mustaqillik qadriga yetadigan uni himoya qiladigan va mustahkamlash uchun kurashadigan, zamon bilan hamnafas bo'ladigan shaxs qilib tarbiyalash, kelajagi buyuk bo'lgan davlatimizning asosiy prinsiplari: demokratiya, inson xukuklari, erkinlik, davlat va xalk munosabatida odamlarning roziligi tushunchalarini yoshlar ongiga singdirish mustaqillik falsafasining asosiy vazifasidir.

Tayanch tushunchalar: Falsafa, inson, dunyo, tabiat, jamiyat, donishmandlik, ontologiya, gnoseologiya, aksiologiya, metodologiya, etika, estetika va logika. Materiya, ideya, Vedalar, Daosizm, Zardushtra, Dixitomaya, borliq, mavjudlik, atom, g'oyalar dunyosi, Aristotelning kategoriyalar to'g'risidagi fikri, mazmun,

shakl, ritorik, antik. Mutakallim, Vahdat-ul-vujud, oriflik, zohidlik, panteizm, deizm, ilmi nujum, aljabr, realizm, nominalizm, empirik, geotsentrik, geliotsentrik.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qadimgi Hindiston va Xitoy falsafasi.
2. Qadimgi Markaziy Osiyo halqlari falsafasi.
3. Qadimgi Gresiya va Rimdagi falsafiy fikr. Sofistika.
4. Islom mafkurasi va islom falsafasi.
5. Al-Kindiy, Al-Roziy, Al-Gazzoliy, Ibn Rushd falsafasi. Sharq uygonish davri.
6. Turkistondagi tasavvufiy qarashlar.
7. G'arb uyg'onish davri falsafasi.

2-Mavzu: Borliq falsafasi (Ontologiya)

Reja:

1. Olam tushunchasi va uning mohiyati
2. Inson-falsafaning bosh masalasi. Odam, inson, shaxs, individ. Individuallik tushunchasi.
3. Olam va odam dialektikasi. Jamiyatimiz hozirgi taraqqiyot bosqichida inson omili rolining, inson ijtimoiy-siyosiy faolligining gsib borishi.
4. Borliq-falsafiy kategoriya sifatida.
5. Tabiatni falsafiy tushunish.

1. Borliq-olam masalasi universal mohiyat sifatida hayot to'g'risidagi qarash, tafakkur predmetiga aylangan davrdan boshlangan. Hayotning murakkabligi, undagi tabiiy va ijtimoiy hodisalarning o'zgarishi an'anaviy fikrlash tarzini o'zgartirishni talab qiladi. «Inson, hayot, glim nima?», «Olam nima?» degan savollar qayta-qayta maydonga tashlanadi. Shuning uchun odamlarning fikrlashi «shu yerdagi» olamgagina emas, balki bizni grab olgan, aqlimiz orqali idrok etiladigan bu dunyodan boshqa dunyoga ham qaratilgan. Natijada «Bizni grab turgan dunyodan boshqa dunyo bormi?» degan savol tugiladi. Bu muammoni qadimgi dunyo faylasuflari ham maydonga tashlaganlar. «Dunyo hozir mavjud ekan, uning gtmishi bo'lganmi yoki bo'lmaganmi, kelajagi ham bormi?» degan savol ularni qiziqtirgan. Cheksizlik, olamning makon va zamonda cheksizligini kgrsatadi.

Demak, butun olam cheksiz, u makon va zamonda abadiydir. Bundan olamning birinchi va asosiy tomoni keib chiqadi. Dunyo mavjudmi, mavjud bo'lsa qaerda mavjud? Shu yerda, hamma yerda mavjud. Gtkinchi sifatida uning asosiy mohiyati nimada? Undagi doimiylik va gtkinchilikni insonborlig'i orqali tahlil qilishda, uning mohiyatini inson mohiyati orqali grganishdadir. Bundan esa falsafada hamma narsaning umumiyligi to'g'risidagi masala kelib chiqadi. Bu masalani hal qilish uchun falsafa tabiat, jamiyat, ma'naviyat, alohida odamlar mavjuddir degan xulosaga keladi.

Demak olamning ikkinchi bir muhim tomonini quyidagicha ifodalash mumkin: tabiat, inson, jamiyat, fikr, g'oyalar mavjuddir. Bu yerdan shunday xulosa chiqarish mumkin: olam makon va zaminda cheksiz va abadiy. Uning ibtidosi va intixosi ygq. Inson borlig'i bishqa mavjudotlar singari gtkinchidir.

Odam borliq, olamning bir turi sifatida tabiat bilan uzviy bogliqdir. Chunki inson tabiat evolyusiyasi natijasida vujudga kelgan va u bilan bogliq holda rivojlanadi. Tanasi tabiat jismidir. Inson tanasi, uningborlig'i foni cheklangan, gtkinchi ekanligini kgrsatadi. Inson tanasi borliqdan

ygqlikka aylanadi. Shuning bilan birga u butunlay ygq bo'lmaydi, boshqa holatga gtadi. Tabiatning abadiyat olamiga gtadi.

Inson tabiat qonunlariga amal qilish bilan bir qatorda jamiyat qonunlariga ham amal qiladi. Biron kishining qonunlarga amal qilishi uning irodasi, aql-idrokiga bogliq. Zaruriyatni tanlab olish imkoniyatiga ega. Inson ijtimoiy munosabatlarni o'z ongi, irodasi bilan anglab yetadi. U o'zborlig'ini bilish, tushunish, o'z faoliyatini ma'naviy, ahloqiy, sotsial sabablarga kgra boshqarib turish xususiyatiga ega. Inson moddiy ne'matlar ishlab chiqarib, tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zining ma'naviy qobiliyatini namoyon qiladi. Mehnat faoliyati jarayonida uning insoniy xislatlari shakllanib, takomilashib boradi.

Odamdagi tabiiylik va ijtimoiylik birligi muammosini anglab olish muhimdir. Odam avvalo biologik-mavjudot sifatida barcha biologik turlar kabi tabiiy ehtiyojlarini qondirish uchun kurashadi. Odamning tugilishi, hayotining davomiyligi, voyaga yetishi, kpggina qobiliyatlari biologik ongga ega. Tabiiylik vaqt jihatidan birlamchi bo'lib, ijtimoiylik sharoit va muhit bilan belgilanadi. Odamning shakllanishida ijtimoiylikni qaror topishi biologik omillarni boshqarish, tartibga solish, chegaralash hisobiga amalga oshadi.

Har bir odam biologik o'ziga xoslikka, betakrorlikka ega ekan, mana shu betakror negizga ijtimoiy muhitning ta'sir qilishi ham betakror natijalarga olib keladi. O'zbek tilida "Odam" va "inson" tushunchasiga ma'nodosh bo'lgan "shaxs" tushunchalari ham mavjuddir. "Shaxs" tushunchasi faqatgina ijtimoiylikni anglatib, falsafada mustaqil kategoriya sifatida qgllaniladi. "Inson" tushunchasi esa "Odam" tushunchasiga juda yaqin bo'lib, u jamiyat tomonidan umum e'tirof etilgan qonun-qoidalar, ahloq-odob me'yorlariga qattiq rioya qilgan holda yashash kgnikmasiga ega bo'ladi. "Odam" tushunchasi "Shaxs" va "Inson" tushunchalaridan kengroqdir. Bu tushuncha faqat turga mansublikni ifodalash bilan birga undagi ijtimoiy jihatarni ham inkor qilmaydi. Odamda biologik ehtiyojlarni qondirish oldingi grinda tursa, insonda moddiy ehtiyojlarni o'zi yashayotgan jamiyat ma'naviy qadriyatlar doirasida qondirishga intilib yashash ustuvor bo'ladi. Odamning mohiyatini bilish, uning paydo bo'lishi va tadrijiy rivojlanishi bilan chambarchas bogliqdir. Insonning paydo bo'lishi to'g'risidagi falsafiy ta'limot xozirgi zamon tabiatshunoslik fanlari dalillariga asoslangan. Odam sutemizuvchi hayvonlarning maxsus turi sifatida bundan taxminan sakkiz, sakkiz yarim million muqaddam shakllangan. Uning miya xromasomalarida rgy bergan o'zgarishlar tufayli u ongli mehnat qilishga gtib, oziq-ovqat topishga, birgalikda o'z-o'zini himoya qilishga grgangan.

Antroposotsiogenezis (biologik va ijtimoiy mavjudot-odam)ning asosiy omillari-til, nutq, ong, mehnat, nikox munosabatlarining tartibi, ijtimoiy-axloqiy tartiblar bir-biri bilan uzviy bogliqlikda amalga oshgan. Indivud odamlar guruhi, jamoasi orasidagi o'zining betakror xususiyatlariga ega bo'lgan ayrimlikdir.

Ijtimoiy gurux, jamoa, jamiyat individlarni o'z izmida borishga majbur etibgina qolmay, balki ular "Individ ichida" va ular tufayli mavjud bo'ladi. Buning ma'nosi shuki, faqat jamoa individlarga individual qiyofalari qanday shakllanishiga ta'sir kgrsatibgina qolmay, shu bilan birga unga uyushgan individl xam muayyan butunlik, (ijtimoiy guruh, jamoa va xokazo) qanday holatda namoyon bo'lishiga ta'sir etadilar. Individ yashayotgan tarixiy davr, uni qurshab olgan ijtimoiy muhit unga o'z muhrini bosadi. Shunga muvofiq u individual fe'l-atvorga (xulqqa) ega bo'ladi. Individ o'zi yashab turgan jamiyat imkoniyatlari va sharoitlari bilan hisoblashadi. Shu bilan birga jamiyat oldida ajdodlar ruhi va kelajak avlodlar oldida qarzdor ekanini anglashdan boshlab, individda shaxsiy sifatlar shakllana boradi.

Shaxs muayyan tarixiy sharoitdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayonida o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy guruh manfaatlarini ifodalaydigan, bularni himoya qila oladigan, mustaqil fikrlash va muayyan vaziyatda mas'uliyatni o'z bgyniga olib, mustaqil qarorga kela oladigan individdir. Mustaqil fikrlash, mustaqil qarorlarga kelish muayyan dunyoqarash, uning ta'sirida qaror topgan qadriyatlarni qadrlashni taqozo etadi.

Shuning uchun shaxs qadriyatlar orqali muayyan dunyoqarashni tashuvchi, ximoya qiluvchi, qaror toptiruvchi ijtimoiy kuchdir. Binobarin, u o'z dunyoqarashi asosida shakllanadigan imon-e'tiqod egasi hamdir. Erkinlikka ega bo'lish shaxs uchun tarixiy, ijtimoiy va axloqiy qadriyat

bo'lib, uning individualligi namoyon bo'lishi va jamiyat taraqqiyoti darajasining mezonidir. Ilmiy falsafa shaxs va uning erkinligi masalasiga dialektik nuqtai nazardan qaraydi: odam muayyan tarixiy davr va jarayonda har qachon tanlov erkiga ega. Shunga muvofiq uning shaxsiy sifatлари namoyon bo'ladi.

Jamiyat o'z a'zolarining individual va qobiliyatlari uchun nechoglik shart-sharoit yaratish darajasiga qarab, o'zi ham shu darajada taraqqiy etadi. Ilgor dunyoqarashga ega shaxslar qanchalik kgp bo'lsa, jamiyat ham shunchalar farovon, undagi munosabatlar shunchalik insoniy tus olib boradi. Jamiyat o'z taraqqiyoti davomida vujudga kelgan muammolarni hal etish jarayonida shaxsning muayyan tarixiy tiplarini yaratadi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga g'tish sharoitida imonli, komil inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z oldiga ana shunday shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qgydi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson manfaatları, uning ezgu maqsadları rgyobga chiqishini ta'minlashga, uning barkamol sifatlar kasb etishiga qaratilgandır. Shaxs islohot natijalaridan bahramand bo'luvchigina emas, balki ularni sobitqadamlik bilan amalga oshiruvchi kuch sifatida ham yangilanish jarayonida o'zgaradi, yuksaladi, qadr-qimmat topadi va e'zozlanadi.

Borliq falsafiy fikrlashning muhim kategoriyasidir. Bu fikr doirasida faylasuflar doimo munozara olib borganlar. Bahs hozir ham davom etmoqda. Natijada borliq to'g'risida bir butun ta'limot (ontologiya) vujudga keldi.

Nima uchun faylasuflar bugungacha borliq masalasini muhokama qiladilar? Chunki hayot vujudligining asosini dastavval inson, insoniyat mavjudligining asosini esa borliq tashkil etadi.

Insonning eng universal hodisalar to'g'risidagi oddiy ishonchi «dunyo», «bor», «u shu yerda», «hozir mavjuddir» shaklida namoyon bo'ladi. Dunyo o'zgaruvchan, takomillashuvchi jarayon bo'lishiga qaramay unda nisbiy turgunlik saqlanib qoladi.

Borliq masalasi universal mohiyat sifatida hayot to'g'risidagi qarash, tafakkur predmetiga aylangan davrdan boshlangan. Hayotning murakkabligi, undagi tabiiy va ijtimoiy hodisalarning o'zgarishi an'anaviy firlash tarzini o'zgartirishni talab qiladi. «Inson, hayot, glim nima?», «Borliq nima?» «Ygqlik nima?» degan savollar qayta-qayta maydonga tashlanadi. Planetamiz bgyicha insonning yashashi xavf ostida qolgan hozirgi kunda «insoniyat saqlanib qoladimi?» degan savol maydonga tashlanadi. Shuning uchun odamlarning fikrlashi «shu yerdagi» olamgagina emas, balki bizni grab olgan, aqlimiz orqali idrok etiladigan bu dunyodan boshqa dunyoga ham qaratilgan. Natijada «Bizni grab turgan dunyodan boshqa dunyo ham bormi?» degan savol tugiladi.

Bu muammoni qadimgi dunyo faylasuflari ham maydonga tashlaganlar. «Dunyo hozir mavjud ekan, uning gtmishi, bo'lganmi yoki bo'lmaganmi, kelajagi ham bormi?» degan savol ularni qiziqtirgan. Cheksizlik borliqning makon va zamonda cheksizligini kgsatadi. Agar biz alohida shaxsning hayotini olib kgrsak, u vaqtda (zamonda) va makonda cheklangan. Biroq undan ilgarigi va kelajakdagi odamlar to'g'risida, butun borliq to'g'risida, gylasak, makon va zamonning, undagi borliqning cheksizligini tasavvur qilamiz.

Demak, butun borliq cheksiz, u makon va zamonda abadiydir. Bundan borliqning birinchi va asosiy tomoni kelib chiqadi. Dunyo mavjudmi, mavjud bo'lsa, qaerda mavjud? Shu yerda, hamma yerda mavjud. U alohida narsalarda qanday yuz beradi? Gtkinchii sifatida uning asosiy mohiyati nimada? Undagi doimiylik va gtkinchilikni insonborlig'i orqali tahlil qilishda, uning mohiyatini inson mohiyati orqali grganishdadir.

Bundan esa falsafada hamma narsaning umumiyligi to'g'risidagi masala kelib chiqadi. Bu masalani hal qilish uchun falasafa tabiat, jamiyat, ma'naviyat, alohida odamlar mavjuddir degan xulosaga keladi. Ular bir butunlikni tashkil etadi. Demak borliqning ikkinchi bir muhim tomoni (aspekti) quyidagicha: tabiat, inson, jamiyat, fikr, g'oyalar mavjuddir farqi ularning turli

shakllarda bo'lishidadir. Ular (o'zlarining) mavjudligi bilan cheksiz, doimiy (g'tkinchi emas) bir butun dunyoni tashkil etadi.

Demak, inson o'z faoliyatida real hayot mantigi bilan hisoblanishi kerak bo'ladi. Umumiy xulosa shundan iboratki, borliqning yana bir tomoni konkret odam yoki ma'lum bir avlod tomonidan yaratilgan bir butun reallikning ichki mantig'ida namoyon bo'ladi. Biz borliqni bir butunlik sifatida quyidagi asosiy shakllarga bo'lib g'rganamiz:

Narsalar borlig'i (narsalar, jarayonlar), tabiat borlig'i, insonlar tomonidan yaratilgan narsalar, buyumlar.

Inson borlig'i (dunyoda insonnin gborlig'i va uning o'ziga xos tomoni).

Ma'naviy borliq (g'oyaviy borliq). U o'z navbatida individual va ijtimoiy (ob'ektivlashgan) ma'naviyatga bo'linadi.

Sotsial borliq. Bu o'z navbatida alohida odamlar borlig'iga bo'linadi.

Biz ularni alohida k'grib chiqamiz.

Tabiat borlig'i. Tabiatni falsafiy tahlil qilish qadimdan boshlab hozirgacha faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Qadimgi yunon falsafasida kosmologik karash, yani olamni bir butun tabiat xolida tushunish yer suv, xavo olovni iloxiy, jonli xamma narsani boshlangichi deb tushunish xarakterlidir. Aristotel Falesni dengiz buyidagi shaxarda yashagani uchun suv xamma narsani boshi xamma narsada suv bor, suvdan boshlanib yana suvga kaytadi deb dialektik tushunganligini etirof etgan.

Tabiat tushunchasi juda keng k'glamli bulib, barcha mavjud narsalar: yulduzlar, galaktika va metagalaktika sistemalari, makon va zamondagi eng kichik zarrachalardan tortib gsimlik, insonlar olami-hammasini o'z ichiga oladi. Biroq tabiat tushunchasini torroq ma'nosi inson va insoniyat yashashining tabiiy sharoitlari majmuidir. Bu tabiiy muhit yoki geografik muhit deb ham yuritiladi.

Tabiatni mangu abadiyligini tan olish falsafiy tushunish, u ob'ektiv borliq deb qarashdir. Insongina uning borligini bilishga qodir, unga ta'sir etadi, g'rganadi, uni anglaydi. Biroq tabiatdagi alohida narsa, hodisa, jarayonlarning borlig'i g'tkinchidir. U vaqtda cheklangan, makonda glchovlidir. Masalan, har bir shaxs tug'iladi, ulg'ayadi qarib o'z umrini tugatadi. U borliqdan ygqlikka g'tadi. Biroq bir butun borliq sifatida ygq bo'lib ketgani ygq, bir moddiy holatdan ikkinchi holatga g'tdi, xolos. Shuning uchun tabiat reallik sifatida ob'ektivdir.

Demak, bizni grab turgan narsalarning k'gpchiligi inson tomonidan yaratilgan buyumlardir. Bular, ya'ni inson tomonidan bunyod etilgan narsalar ikkilamchi tabiatni (gsimliklar, hayvonlar olami, jonsiz buyumlar tizimini) tashkil etadi.

Birlamchi tabiat tabiat insoniyatga borliq bo'lmagan holda mavjud bo'lib, o'z-o'zicha, tabiiy qonunlar asosida rivojlanadi. Ikkilamchi tabiat esa inson tomonidan yaratilgan, inson faoliyatining buyumlashgan shaklidir. Demak, unga inson mohiyati singdirilib ijtimoiy vaziyatda moddiylik bilan ma'naviylik mujassamlashadi.

Birlamchi va ikkilamchi tabiat to'g'risida fikr yuritganda, inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatni qayta k'grib chiqish kerak. Keyingi gn yilliklarda bo'lgan ilmiy-texnika inqlobi insoniyat uchun juda ahamiyatli bo'ldi. Jamiyatni rivojlantirdi, texnika ravnaqi vujudga keldi. Mehnat unumdorligi yuqori darajaga k'gtarildi. Shuning bilan birga qator ekologik muammolarni vujudga keltirdi. Bu masalaga chuqurroq yondashilmasa, tabiat inson yashashi uchun yaroqsiz bo'lib qolishi mumkin. Agar hozirgi zamon olimlari, siyosatdonlari, ommaviy axborot xodimlari, dunyodagi barcha davlatlar birgalikda yagona ekologik konsepsiya yaratishmasa, uni qutqarib bo'lmaydi, demoqdalar.

Tabiat bilim, boylik manbai bo'lish bilan birga inson qadr-qimmatini namoyon ham qiladi. Inson tabiatdagi yuksak ongli mavjudod ekan, u kosmosga, tabiatga o'zining tabiiy uyiga vahshiylarcha munosabatda bo'lmay pinhoni munosabatda bo'lishi kerak.

Inson borlig'i (Ijtimoiy borliq) Inson va insoniyat borlig'i o'ziga xos betakrordir. Biroq bu borliqning hamma odamlarga xos tomonlari ham bor. Inson borliq sifatida tabiat bilan uzviy bogliq. Chunki inson tabiat evolyusiyasi natijasida vujudga kelgan va u bilan bogliq holda rivojlanadi. Inson tanasi tabiat jismidir. Shuning uchun inson tanasi bir butun tabiatdagi jismlarning bir bo'lagidir. Inson tanasi uningborlig'i foni, cheklangan, g'atkinchi ekanligini kgrsatadi. Insonborlig'i borliq bilan ygqlik o'rtasidagi o'zaro birlikda yashaydi. Shuning uchun uning borlig'iga tabiatdagi borliq xususiyatlarining hammasi tegishli. Inson tanasi borliqdan ygqlikka aylanadi. Shuning bilan birga butunlay ygq bo'lmaydi, boshqa holatga gtadi. Tabiatning abadiyot olamiga qgshiladi.

Inson borlig'ining tabiiy-ijtimoiy tomonlarini hisobga olish kerak. Chunki inson borligi dastavval ijtimoiydir. Ularning o'zaro munosabatlari, moddiy ishlab chiqarish jarayoni va uzga munosabatlar jamiyatning moddiy borlig'ini, ijtimoiy borlig'ini tashkil etadi. Demak, insonning tabiiyborlig'i bilan ijtimoiyborlig'i birgalikda insonborlig'ining asosini tashkil etadi.

Inson tabait qonunlari bilan birga jamiyat qonunlariga ham amal qiladi. Biroq insonning qonunlarga amal qilishi uning irodasi aql-idrokiga bog'liq. Shunga kgra, inson faoliyatida erkinlik mavjud. U zaruriyatni tanlab olish imkoniyatiga ega. Inson ijtimoiy munosabatlarni o'z ongi, irodasi bilan anglab yetadi. U o'z borlig'ini bilish, tushunish o'z faoliyatini ma'naviy axloqiy, sotsial sabablarga kgra, boshqarib turish xususiyatiga ega.

Inson paydo bo'lganidan boshlab o'zining asosiy belgisi: «tabiati», ijtimoiy-tarixiy mohiyati asosida rivojlanib kelmoqda. Inson moddiy ne'matlar ishlab chiqarib, tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zining ma'naviy qobiliyatini namoyon qiladi. Mehnat jarayonida insoniy xislatlari shakllanib, takomillashadi. Inson o'z ehtiyojini qondirish uchun moddiy ne'matlar ishlab chiqarar ekan, uning ehtiyoji ham tarixiy jarayoning mahsuli sifatida shakllanib boradi.

Insonning tabiatdan ajralishi va ijtimoiylashishi uchun hayot kechirish faoliyatini vujudga keltiradi. Mehnat birgalikdagi o'zaro hamkorlikdagi faoliyatga aylanadi. Odam faqat jamiyatdagina o'zini tabiatning asos kuchlaridan himoya qilingan deb his qiladi. Shaxs jamiyatdan joy olar ekan, o'zining ijtimoiy mehnati bilan turli-tuman murakkab munosabatlarni amalga oshiradi. Odamlar bir-birlaridan qanchalik farq qilmasinlar, ularning barchasining mohiyati ijtimoiy munosabatlar bilan xarakterlanadi. Chunki inson boshqa odamlar bilan alokadagina o'zining qobiliyati, talantini rivojlantiradi.

Insonlar turli tuman xalqlar, millat va elatlarni tashkil etishlari va quruqlikning turli joylarda yashashlariga, qaramay ularning umumiy tomonlari mavjud.

1. Insonlar mehnat qiladilar, mehnat qurollari orqali moddiy ne'matlar ishlab chiqaradilar.

2. Hammalari nima yaxshi-yu, nima yomonligini, ular o'rtasidagi ziddiyatni ham biladilar.

3. Tarixning rivojlanishi bilan ularning hissiyoti, idroki va aqliy qobiliyatlari ham rivojlanadi.

4. Jamiyatsiz yashay olmaydi va shakllanmaydilar.

5. Odamlardagi shaxsiy sifatlar ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi, ular u yoki bu turdagi ma'lum ob'ektiv, ijtimoiy munosabatlarga taaluqli bo'ladi.

Insonlarning hayotiy faoliyatlari oldindan dasturlashtirilmay yoki belgilanmagan, balki ongli irodaviy xarakterga ega. Natijada inson o'z aqli, irodasi orqali erkin harakat qiladi, o'zini o'zi tiyib, vijdon «sudi» oldida javob beradi, ma'suliyatni his qiladi.

Inson borlig'ining ijtimoiy vazifalari ana shulardan iborat.

Ma'naviy borliq. Ma'naviyat masalasi hamma vaqt faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Chunki insonning tabiat borlig'idan farqi uning ma'naviy borlig'idadir. Insonning ma'naviy hayoti juda murakkab turli masalalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun bu soha turli fanlarning sotsiologiya, psixologiya, tilshunoslik, pedagogika, fiziologiya, antropologiya, kibernetika, informatika kabi fanlar ong muammosi bilan shug'ullanadi. Inson ma'naviy borlig'i tashqi olam bilan sababiy bog'langan bo'lsa-da, o'zining ichki qonuniyati va tuzulishiga ega.

Freyd inson faoliyatida uch bosqichni ajratadi: 1. Ong (men) 2. Ongsizlik (u), 3. Mendan tashqari (ijtimoiy ong), u bu «uchlik» asosida ongsizlik yotadi, degan g'oyani ilgari suradi. Uning izdoshlaridan Fromm esa ongni belgilovchi asos deb tushunadi. Chunki inson dastavval ongli mavjudot, faqat onggina inson ma'naviyatining asosini tashkil etadi, deydi u. Inson ma'naviy borlig'i ruhiy tahlil falsafasida ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi: 1) konkret insondan ajralmagan individual ruhiyat: 2) individdan tashqarida (Freydcha, ongdan yuqori) ob'ektiv mavjud bo'lgan ma'naviyat, bu ijtimoiy ong shakllarida namoyon bo'ladi. Ong bir butun aspekt sifatida insonning gy va hohishlari, tamoyil va mezonlari, turli qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Ma'anaviy borliq makon va zamonda o'ziga xos shaklda mavjud bo'ladi. U fizik makon va zamondan farq qiladi, chunki fikr ma'lum bir lahzada gtmishga ham, kelajakka ham sakrab gtishi mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan ongning tuzilishini aniqlashda, fikrlash materiallarini tartibga solishda intellektual faoliyat va yangi g'oyalarni yaratish kabi bosqichlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ongsizlik (noonglik) insonborlig'ini bilishda alohida ahamiyatga ega. Ruhiy tahlil falsafasida ongsizlik (u) inson tabiatini bilishning asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Ongsizlik keng ma'noda shaxsning ongdan tashqaridagi barcha ruhiy jarayon, usul va holatni o'z ichiga oladi.

XVIII asr nemis faylasufi Leybnis ongsizlikni ruh pastki qatlamining shakli ongning noaniq qorongi tomoni deb hisoblagan. Kant esa ongsizlikning hissiy bilish bilan aloqador bo'lgan intuitsiya muammosiga boglab izohlangan.

Romantik falsafaning vakillari (E.Gortman, Shopengauer) ongsizlikni ijodning manbai sifatida universal tamoyil darajasiga kgtarganlar. Ongsizlik masalasiga ayniqsa ruhiy tahlil asoschisi Freyd alohida ahamiyat bergan. Freyd ongsizlikni fiziologik tahlil qilishdan voz kechdi. Ongsizlik o'zining ichki qonuniyatiga ruhiy irratsional kuchga ega ekanligini aytadi. Ongsizlikni ong orqali boshqarish mumkin, biroq buning uchun insonning ruhiyborlig'ini tahlil qilish kerak, deydi.

Ruhiy tahlil falsafasining yana bir vakili Yung individual ongsizlikdan tashqari kollektiv ongsizlik ham mavjud, degan fikr bildirdi. Bu ma'lum bir guruh, millat, xalq va butun insoniyatga tegishlidir. U ba'zi xalqlarning yovuz, urushqoq, galayonchi bo'lishini hozirgi davrdagi ekologik va yadroviy halokatni kollektiv ongsizlik bilan izohlaydi. Bu ta'limot XX asr falsafasiga o'z ta'sirini gtkazdi. Hozirgi zamon falsafasida ruhiy tahlil falsafasining ta'siri juda katta. Individual ongsizlikka quyidagilar kiradi: insonning o'z tanasi, ruhiyati va holatini bilmasligi, kgr-kgrona birovlar fikriga ergashish, tush kgrishi, intuitsiya va boshqalar. Inson ma'naviy borlig'i ruhiy tahlil falsafasida ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi: 1) konkret insondan ajralgan individual ruhiyat. 2) individdan tashqarida (Freydcha ongdan yuqori) ob'ektiv mavjud bo'lgan ma'naviyat, bu ijtimoiy ong shakllarida nomoyon bo'ladi.

Freyd ongʻlilik turli simvollar, belgilar orqali nomayon boʻlganidek, ongsizlik ham turli simvollar orqali ifodalanishini isbotladi. Ongsizlik, ruhiy holat sifatida tush kgrishida, kishilarning uyqusirashi (alaxsirash)da, turli maʼnosiz fikrlarda namoyon boʻladi. «Buni bilish» kerak, shundagina insonda yashirinib yotgan ruhiy yarani aniqlash mumkin boʻladi», deydi Freyd.

Inson oʻz fikrini erkin, ixtiyoriy bayon etishni maʼnaviy erkinlikning, shaxs takomillashuvining, insonborligʻining oʻziga xos sharti ekanligini ruhshunos olimlar bir necha bor taʼkidlaganlar. Erkin «oʻzboshimchalik» bilan, hatto asossiz ravishda oʻz fikrini bayon etish ijod uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini nemis yozuvchisi D.Berne 1823 yilda yozgan «Uch kun ichida» qanday qilib oʻziga xos yozuvchi boʻlish mumkin?» nomli asarida bayon qilgan. Muallif endigina ijodini boshlagan yosh yozuvchiga 3 kun ichida miyasiga kelgan har qanday fikrni qogozga tushirishni maslahat beradi. Natijada yozuvchi boshqalarda uchramagan, betakror fikrlarni bayon etgan. Freyd bu asarni gqib chiqqach, asar uning tahliliga juda mos kelganini taʼkidlaydi. Freyd ongsizlikdagi ruhiy energiya jinsiy maylik asosida paydo boʻlishini, uning faolligini olga qarab takomillashib boradigan ruhiy jarayon, ekanligini kgrsatadi. U ham ong singari fasl va takomillashib turadi, deydi.

Demak, ongning faolligi toʻgʻrisida gapirganda, ongsizlikning faolligini ham nazarda tutish kerak. Freyd insonning ongsiz faoliyati xilma-xil ruhiy holatlar va jarayonlardan (uyqu, tush, turli avtomatik bajariladigan hodisalar, intuitsiya, kgr-kgrona birov fikriga aralashish va boshqalar) iborat boʻlib, ularning barchasi ham inson faoliyatida bir xilda grin tutmasligini, baʼzilari faol, boshqalari sust ishtirok etishini yozadi. Olim, ayiniqsa, ijod va intuitsiyaning gta faoligini taʼkidlaydi. Demak, har qanday ijodning asosida ongsizlik yotadi. Hozirgi zamonda Freyd taʼlimoti asosida kgplab sanʼat asarlari yaratilmoqda.

Oʻz-oʻzini anglash shaxs ongining egasi sifatida uning dunyoga boʻlgan munosabatini maʼlum darajada faollashtiradi. Oʻz-oʻzini anglash insonning oʻziga boʻlgan munosabatni kgrsatadi. Bunda har bir shaxs oʻz imkoniyatlarini oʻzi baholaydi. Biroq oʻz-oʻzini anglash darajasi, strukturasi turlicha boʻlib, rivojlanib turuvchi ruhiy borliqdir. Uning dastlabki shakli oʻz holatini, ahvolini bilishdir. Bunda inson oʻz sogligini, organizmidagi ahvolini his qiladi.

Oʻz-oʻzini anglash bilishning bosqichigina boʻlib qolmay, balki oʻz-oʻzini tekshirish, jilovlab turish, baho berish, erkin faoliyatni ham oʻz ichiga oladi.

Oʻz-oʻzini anglash har bir insondagi ongning ajralmas qismidir. Har bir inson oʻzining yashashini anglamasdan mavjud boʻlmaydi. Inson oʻz-oʻzini anglash jarayonida oʻzining hamma sezgi aʼzolarini tgla kgrish, his qilish, bilish imkoniyatiga ega emas. Masalan, inson oʻz-oʻzini kgra olmaydi. Buning uchun u oynaga qarash, unda oʻzini kgrishi va oynadagi aks xuddi oʻzi ekanligini anglab yetishi kerak (hayvonlar oynada oʻz aksini angelaydi). Demak, inson oʻz aksini tushunishi (kgrishi) uchun maʼlum onnga ega boʻladi va anglash xususiyati bilan hayvondan farq qiladi. Inson dastavval oʻzining odam ekanligini anglab yetishi kerak. Bu esa boshqa odamlar bilan boʻlgan munosabatida, taʼlim-tarbiyada va ijtimoiy muhitda shakllanib boradi.

Respublikamiz Prezidenti odamlar, ayniqsa, rahbarlar xalqqa halol xizmat qilishi, maʼnaviy jihatdan yetuk insonlar boʻlishi, xalq ishonchini qozonishi kerakligini bir necha bor uqtirib gtdi. Inson maʼnaviy barkamol boʻlishi uchun dunyoni tushunishi, uning qonuniyatlarini grganishi, oʻzini shu dunyoning bir qismi ekanligini va unda tutgan grnini anglab yetishi kerak.

Olimlarning tahliliga kgra, insoniyat shunday chegaraga yetib keldiki, maʼnaviy poklanish qilmay iloj ygq yoki maʼnaviyat tiklanadi yoki halokat yuz beradi. Uchinchi ygl ygq. Bundan qutulish uchun har bir odam insoniyat va yashab turgan dunyo toʻgʻrisida, uning taqdiri haqida yuksak masʼuliyat his qilishi, kelajak uchun izlanishi kurashishi kerak. Bu inson moddiy

farovonlik uchun kurashi barobarida ma'naviy kamolot sari intilishi, o'z bilimlarini boyitib, ma'naviyat sirlarini chuqurroq bilishi kerak deganidir.

Biroq hozirgi kunda inson ruhiy dunyosini, mutloq va alohida ruhni grganish juda past darajada. «Dunyoviy ruh», «duyonviy ma'naviyat», «Oliy haqiqat», «Inson va olloh birligi», «Koinotning uzviyligi» kabi masalalar fan tizimidan chiqarib yuborilgan, falsafa va sa'nat darajasidagina tahlil qilingan edi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab olimlar yuqoridagi masalalarni ilmiy ong darajasiga kgtarishga kirishdilar. Ular inson ruhiyatini tahlil qildilar, bioenergetika nazariyasini, kosmos bilan inson o'rtasidagi munosabatni tekshira boshladilar. Hozirgi davrdagi gta muhim o'zgarishlar inson ruhiyati bilan bogliq ekanini, insoniyat oldidagi yadroviy halokat, ekologik muammolar ham inson ma'naviyatining buzilishi oqibati, uning zohiriy tomoni ekanligini aytmoqdalar. Fojianing asosiy sababi insoning o'zida ekan, chunki dunyoni o'zgartirish kerak bo'ladi. Bu esa ancha mushkul masala. Negaki, insonni o'zgartirish ham ichki, ham tashqi omillarga bogliq.

Yuqorida aytganlardan inson o'zini yaxshi bilmaganligi, ma'naviyatning moddiylikdan orqada qolganligi, hissiyot bilan aql, onglilik bilan ongsizlik (ong osti, anglab yetmagan) o'rtasidagi munosabatlar noto'g'ri talqin qilinganligi sababli bu fojialar kelib chiqqan, degan xulosaga kelish mumkin.

Hozirgi zamon ruhshunos olimlari insondagi kasallik sabablari ruhiyat bilan bogliqligini allaqachon isbotlaganlar, inson jismonan soglom bo'lishi uchun uni dastavval ruhiy, aqliy va axloqiy soglomashtirish kerakligini ta'kidlaganlar. Doktor S.N.Lazerevning tajribasi har qanday jismoniy kasallikning ruhiy sababi borligini kgrsatdi. Bunda inson ruhiyatida buzilish rgy beradi. Bu insondagi informatsion-bioenergetik munosabatlarning buzilishi natijasidir. Bu buzilish inson ma'naviyatining zaharlanishi, inqirozga ketish bilan bogliq. Insonning ma'naviy tubanlanishi, uning nopokligi, yolg'onchiligi, birovga qasd qilish, xullas, boshqalarga yomonlik qilishdan boshlanadi.

Hozirgi zamon fani shuni isbotlayaptiki, agar odam gta xudbin bo'lsa, o'z manfaatidan boshqa narsani kgra bilmasa, ma'lum davrgacha muvozanat saqlanib qolsa-da, bari-bir hujayralarda buzilish boshlanadi. Chunki xudbin odam hamma narsaga ega bo'lishni istaydi, o'zidan boshqani gylamaydi. Bu hujayralarga gta katta yuk beradi, organizmni ishdan chiqaradi. Oqibatda uning ruhiyatida shunchalik qashshoqlik boshlanadiki, u o'z manfaati yglida xudoni ham esdan chiqaradi. Bu ma'naviy tubanlikdir. Axir iymonli odam boshqalarni ham, o'zidan tashqaridagi mavjudotlarni ham unutmaydi, insofli, diyonatli bo'ladi. Boshqalarni esdan chiqargan odam ruhiyatida bioenergetik holat buziladi.

Moddiy olam asosini bilishga intilish materiya haqidagi tasavvurlarni rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Materiya borliqning ob'ektiv reallik shaklini ifodalovchi eng umumiy tushunchadir.

Haqiqatan ham umuman materiya abstrakt fikrning mahsuli bo'lib, real olamda «umuman materiya» ygq, uchramaydi. Uning uch muhim jihati bo'lib, birinchidan, materiya falsafiy kategoriya, ikkinchidan, ob'ektiv reallikni moddiy voqealikni ifodalanishi, uchunchidan materiyaning bilish mumkinligidir.

Materiya atributlari ichida uning asosiy yashash usuli mavjudlik shakli ikki xil bo'lib, biri harakat, ikkinchisi fazo va vaqt (yoki makon va zamon)dir. Harakatning 5 ta asosiy shakli 1) mexanik harakat (jismlarni fazoda siljishi, grin almashishi); 2) fizik harakat (issiqlik, yoruglik, elektr, magnitizm); 3) kimyoviy harakat (kimyoviy birikish va parchalanish, agregat holatlarining bir-biriga gtishi); 4) biologik harakat (organik hayot); 5) ijtimoiy harakat.

Fazo materiyaning tuzilish tarkibi, kglamini, olamdagi narsalarning o'zaro joylashish vaziyatini ifodalasa, vaqt-jarayonlarning davomiyligini, hodisalarning ketma-ketligi tartibini ifodalaydi. Fazo vaqtning turli hisob sistemalarida turlicha namoyon bo'ladigan, miqdoriy kattaliklar bilan, ya'ni glchash mumkin bo'lgan, tashqi aloqadorliklarda ko'zga tashlanadigan o'zgaruvchan va nisbiy xarakterdagi xususiyatlari borki, ularni miqdoriy yoki metrik xususiyatlar

deyiladi. Fazoning gomogenlik (bir jinslilik), izotropik (va anizotropik) xususiyatlari bor. Vaqtning materiya xususiyatlari: davomiylik, bir jinslilik, anizotropiklikdir. Materiya xossalarning o'zgarishi materiya sifatlarini o'zgarishiga jiddiy ta'sir qilmaydi.

Topologik xususiyatlarining o'zgarishi bilan moddiy ob'ektlarni tuzilishida tub sifatiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Fazoning uch glchamliligidan kelib chiqqan holda uzluksiz va uzluksizlik, glchamlilik va bog'langanlik, kompaktilik, tartiblashganlik, chegarasizlik, fazoning topologik xususiyatlari hisoblanadi.

Vaqtning topologik xususiyatlariga esa uzluksizlik, orqaga qaytmaslik, bir glchovlik, chiziqli tartiblanganlik va boglanganlik kiradi.

Materiyaga hayot baxsh etuvchi atribut harakat bo'lsa, fazo va vaqt unga shakl baxsh etadi, uni shakllantiradi, rivojlantiradi, ravnaq toptiradi.

Tayanch tushuncha va iboralar. Olam, inson, shaxs, jamiyat, ma'naviyat, madaniyat, axloq, antroposotsiogenez. Borliq, tabiat, ekologiya, ijtimoiy borliq, ong, ongsizlik, o'z-o'zini anglash, istiqlol va ma'naviy kamolot, Freyd, ruhiy tahlil falsafasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Olam tushunchasining mohiyati nimadan iborat?
2. Inson nima uchun falsafaning bosh mavzui deb qaraladi?
3. Odam-inson-shaxs tushunchalari mohiyatini izohlab bering.
4. Inson ma'naviyatining jamiyat taraqqiyotidagi grni nimadan iborat?
5. Borliq falsafiy kategoriya sifatida.
6. Borliqning asosiy shakllari.
7. Birlamchi va ikkilamchi tabiat.
8. Inson borlig'i.
9. Ma'naviy borliq

3-Mavzu: Rivojlanish falsafasi

Reja:

1. Metod va metodologiya tushunchalari.
2. Dialektika va metafizika metodlarining mohiyati va mazmuni.
3. Kategoriya tushunchasi.
4. Alohidalik (ayrimlik), xususiylik, umumiylik, sistema, struktura, element.
5. Mohiyat va hodisa. Mazmun va shakl. Sabab va oqibat. Zaruriyat va tasodif. Imkoniyat va voqelik.

Metodologiya (metod-yunoncha ygl, usul, logos-ta'limot) metod to'g'risidagi ta'limotdir. Metodologiya nazariy bilimlar va amaliy faoliyat tamoyillarini, usullarini grgatadi. U ma'lum tizim to'g'risidagi ta'limotdir.

Falsafiy metod eng universal metod bo'lib, insonning o'ziga va dunyoga bo'lgan munosabatini bildiradi. Bilishning umumiy mantigini kgrsatadi. Mana shunday metodni ishlab chiqishda qadimgi yunon faylsuflari Sokrat, Platon, Aristotellarning xizmati katta. Sokrat turli munozara, muhokamada haqiqatga erishishning dialektik usulini maydonga tashladi. O'zaro muloqatda, munozarada yangi fikr hosil qilish usuliga, xaqiqatni topish usuliga e'tibor berdi.

Platon tafakkur taraqqiyoti usuliga-dialektikaga e'tibor berdi. Fikrlash taraqqiyoti ob'ektiv mantiq asosida rivojlanadi, bilish tushuncha mohiyatini bilishdan iborat deydi.

Aristotel muhokama qoidalari, tafakkur shakl va qonunlarini, induksiya va deduksiyaning haqiqatni ochishdagi g'rnini kgrsatib berdi. U bilishni tashkil etuvchi dialektik tafakkur shakli kategoriyalarini ishlab chidi. Tafakkur qonun va shakllari to'g'risidagi asosida haqiqiy bilishning universal metodini ishlab chiqdi. O'rta asr Sharq faylasuflari (Forobiy, Ibn Sino, Beruniy) Aristotel ishlarini fanga tadbiq etdilar va uni rivojlantirdilar. Yangi zamonda Bekon indiktiv, empirik metodni ishlab chiqdi. Galiley va Dekartlar fandagi mexanik metodni ishlab chiqdilar. Dekart detuktiv metodning ahamiyatiga katta e'tibor berdi.

Dialektik metodni ishlab chiqishda Kant va Gegelning xizmati katta. Kant bilish nazariyasi dialektik asosdagi jarayon ekanligini kgrsatib berdi. Gegel dialektik metodni universal falsafiy metod sifatida rivojlantirdi, uning kategoriya va qonunlarini ishlab chiqdi. Har bir metodning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari bor.

Dogmatik, metafizik tafakkur metodining vujudga kelishida Aristotelning formal logikasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. U fikrni aniq, nozid izchil isbot qilish kabi metod orqali tafakkurning muayyan qonunlarini yaratdi.

Dialektika borliq va bilishni rivojlanishning umumiy qonunlari, asosiy metodi haqidagi ta'limotdir.

Dialektika tanqidiy-reflektiv (o'z taraqqiyotiga tanqidiy munosabatda bo'lish) va mantiqiy me'yoriy metodni sintezlash asosida fikrlashni ijodiy rivojlantirish metodidir. Dialektika borliqni shunchaki tushuntirib qolmay, balki uning shakllanishi jarayonini ham kgrsatib beradi. Borliqning shakllanishi quyidagilarni o'z ichiga oldadi.

1. Hamma narsa rivojlanadi. U turli-tuman shaklda namoyon bo'ladi (o'zgaruvchanlik holati).
2. Hamma narsada sokinlik bor.
3. Hamma narsa o'zi-o'ziga teng va o'zi-o'zidan farq qiladi (o'zgaruvchanlik bilan barqarorlik birligi).

Har qanday narsa paydo bo'ladi, rivojlanadi va o'z umrini tugatib ikkinchi sifatga gtadi. Biroq ma'lum davrgacha o'z barqarorligini saqlab turadi.

Ana shunday barqaror tomoni ma'lum qonunlarda o'z ifodasini topadi. Dialektika qonunlari ham ana shu shaklda vujudga qeladi. U borliqning umumiy mantigini kgrsatgani uchun eng umumiy tavsifga ega bo'lgan qonunlardandir. Bu qonunlar quyidagilardan iborat: qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga gtish qonuni va inkorni inkor qonuni.

Har bir qonun turlicha kategoriyalarda ifodalanadi. Lekin endilikda fizika, matematika, kimyo, biologiya kabi asosiy (fundamental) fanlarda g'oyat buyuk kashfiyotlar yuz bermoqdaki, ularni teran tahlil qilish va idrok etish uchun birgina dialektikaning qonun va qoidalari kifoya qilmay qoldi. Albatta, bu borada ham turli fikrlar mavjud. Aksariyat, chet el faylasuflari dialektikani mutloq rad etmagan holda sinergetikani (sinergetika degan tushuncha fanga asrimizning 70-yillarda kirib keldi) ham qgllamoqdalar. U dastavval fizikaviy, ijtimoiy jarayonlardagi o'z-o'zini tashkil qilish, o'z-o'zini boshqarish, xaos (tartibsizlik) kabi holatlarning ygnalishini, qonunyatlarini bilishga qaratilgan. Bu ta'limotni ilk bor belgiyalik fizik Ilya Prigojin, snggra olmon fizigi Xenrix Xakin va boshqa olimlar asoslagan, u mustaqil tafakkur usulubi sifatida qaralmoqda. Bu ygnalishni endi grgana boshlagan O'zbekistonlik faylasuflar esa uni dialektikaning davomi deb sharhlamoqdalar. Bizningcha, sinergetika-XX asrdagi fanniy va ijtimoiy taraqqiyot omuxtaligi glaroq yuzaga kelgan yangi tafakkur uslubidir.

Xgsh sinergetikaning o'ziga xos jihati nimada? Sir emas, XX asrda tabiiy va ijtimoiy fanlardagi kashfiyotlar natijasi glaroq, ob'ekt bilan sub'ekt, moddiylik bilan ma'naviylik, tadqiqotchi bilan uning tadqiq ob'ekti, tabiat bilan jamiyat, turli tabaqa va guruhlar o'rtasidagi munosabatlarga yangicha yondashuv boshlandi. Uning mohiyati shundan iboratki, fan va falsafaning o'zaro farqi endi ular orasidagi ziddiyat, qarama-qarshilik hamda antagonizm

to'g'risida emas, balki ularning, hamkorligi, birligi haqida fikr yuritishni taqozo qilmoqda. Demak, sinergetika inson hayotida, fan taraqqiyotida ilgari uchramagan yangi munosabatlarni falsafiy tahlil qiluvchi yig'nalish sifatida paydo bo'ldi.

Agar dialektika taraqqiyotni qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish, inkorni inkor qonunlari orqali izohlasa, sinergetika ularni taraqqiyotning yagona doimiy (universal) qonunlari deb bilmaydi. Bundan tashqari sinergetika bugungi tamaddun (sivilizatsiya) rivojiga xos bosh tamoyil-uzluksizlik (evolyusiya), bosqichma-bosqich rivojlanish (koevolusiya), muvozanatsizlik, beqarorlikning beqaror sifat kasb etishi kabi qonuniyatlarni sharhlab berdiki, ular fan, ijtimoiy hayot rivojida borgan sari o'z isbotini topmoqda.

Sinergetika kashf etayotgan taraqqiyotning evolyusion tamoyilini tahlildan g'kzib kgraylik. Bugungi kunda dialektika ta'kidlagan, ya'ni evolyusiyasiz inqilob, inkilobsiz uzluksiz rivojlanish yuz bermaydi, degan gap eskirib qoldi. Chunki evolyusiya borliqning umumiy qonuni sifatida nafaqat insonlar bilan insonlar o'rtasida, balki inson bilan tabiat o'rtasidagi birlik va mushtaraklik, hamkorlikni ham ifodalaydi. U jamiyat hayotida makon va zamonga bogliq geopolitik o'ziga xoslikni hisobga olishni talab qiladi. Jamiyatda inqilobiy hodisa yig' demokchi emasmiz. Tarixda k'plab inqilobiy tuntarishlar bo'lgan. Ular to'g'risida k'plab asarlar ham yozilgan. Biroq XX asr fani inqilob taraqqiyotda yagona yig' emasligini k'rsatish bilan birga, u eng xatarli yig' ekanini isbotlab berdi. Binobarin, u eski tizimni tajavvuzkorlik va zgravonlik bilan agdarib tashlashni, buzush-u gldirishni, yig' qilishni nazariy jihatdan oqlaydi. Ma'lumki: markscha ta'limotda ham «zgrlik-yangi jamiyatning doyasi» deb qaraladi. Umuman, inqilobiy nazariyada zgrlik e'tirof qilinadi va unga da'vat etiladi. Uzluksiz, tadrijiy ta'limotda esa taraqqiyot eskini buzmasdan, urush-gldirishsiz amalga oshishi mumkin bo'lgan jarayon ekanligi asoslanadi. Bu nazariya hozirgi zamon tabiiy fanlarning poydor qonunlariga asoslangan.

Biz sinergetikani jamiyatimizning bugungi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga tatbiq etar ekanmiz, yurtboshimiz Islom Karimovning «Katta sakrashlar tubdan vayron qilish yig'li bilan emas, balki bir bosqichdan ikkinchi bosqichga ketma-ket o'tish, ya'ni evolyusion tarzda ilgarilab borishni o'zimiz uchun qat'iyan tanlab oldik» degan fikridan nazariy asos sifatida foydalanishimiz kerak. Chunki bu gap bugungi zamon universal qonunlariga muvofiq keladi. U metodologik ahamiyatga ega bo'lgan fikridir.

Sinergetika taraqqiyot jarayonida beqaror holat bilan barqaror holat, muvozanatsizlik bilan muvozanat o'rtasidagi qonuniyatga tayanadi. Keyingi vaqtlarda falsafaga oid ilmiy ishlarda beqarorlik va barqarorlik tushunchalari bot-bot tilga olinmoqda, bu tushunchalar ham Ilya Prigojining «Beqarorlik falsafasi» asarida sinergetikaning muhim tamoyili sifatida yangicha, an'anaviy bo'lmagan asosda tahlil etilgan. Olimning fikricha, shu vaqtga qadar beqarorlik tushunchasi salbiy ma'noda ishlatilib kelingan va uning asl mohiyatiga yetarlicha e'tibor berilmagan. Bugungi zamon fani beqarorlikni borliqni muhim bir jihati deb hisoblaydi. Masalan, tebrangich (mayatnik) harakatiga e'tibor beraylik. U bir me'yorda tebranadi, agar tgxtatsak, dastlabki barqaror holatiga qaytadi, agar uni tgntarib qgysak-chi? U holda tebrangich yo gng tomonga, yo chap tomonga ogib turadi. Bu holat beqarorlikdir.

Shu vaqtga qadar beqarorlik holati olimlar nazarida chetda bo'lib keldi. Ma'lumki, barqarorlik qonuniyat va sababiyat natijasidir. Uni oldindan bilish, boshqarish mumkin.

Shu choqqacha tabiatshunoslikda k'gproq determinizmga-narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishiga ahamiyat berib kelindi. Tabiat va jamiyatni boshqarish va grganishda ham determinizm tamoyiliga asoslanildi. Beqarorlik determinizm hodisalarning sababiy bog'lanishini bilishning yangi imkoniyatigina emas, balki ilmiy jarayonning insoniylashishidan ham dalolatdir. Uning mohiyati shundan iboratki, ilmiy bilish jarayoniga inson faoliyati qgshilgani bois u insoniylashgan jarayondir. Beqarorlik va barqarorlik haqida gap ketar ekan,

inson va tabiat munosabatida qanday o'zgarish yuz berayotgani xususida tixtalish lozim. Beqarorlik determinlashgan dunyoni tqliq nazorat etishi va boshqarishiga imkon beradi.

Agar dunyo beqarorligini, uni oldindan bilish mumkin emasligini anglasak, unga ehtiyotkorlik bilan, avaylab munosabatda bo'lishga majbur bo'lamiz, deyli Prigojin. Beqarorlik hodisasini grganish insoning shu davrga qadar bilmagan kgp narsani tushunishga, jumladan. Fandagi cheklanganlikni anglashiga imkon yaratadi. Chunki shu vaqtgacha fan kgproq barqarorlik hodisasiga e'tibor berib, kelgan va tabiatdagi hodisalar mohiyatiga bir tomonlama yondashgan. Biroq bundan tabiat va jamiyatda faqat beqarorlik mavjud ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. «Gap shundaki, barqarorlik va beqarorlik ayni bir paytda bo'ladi va yashaydi», deya ta'kidlaydi.

Sinergetika beqarorlik tushunchasi va xaos-tartibsizlik kategoriyasini falsafiy tahlil etadi. Bilmoq kerakki, bu tushunchalar faqat salbiy ma'noda ishlatilmaydi. Har qanday eski tuzilma yangi tuzilmaga gtar ekan, dastavval beqarorlik, xaos yuz beradi, tanglik avj nuqtasiga yetadi. Bu nuqtadagi holatni o'zgartishda oddiy tasodif ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Sinergetika taraqqiyotidagi mikro va makrojarayonlarning o'zaro munosabatini ifoda etadi.

Sinergetika yangi dunyoqarash sifatida, «chiziqsiz» tafakkur tarzidir. «Chiziqsiz» va «chiziqli» kabi tushunchalar asli matematika faniga xosdir. Sinergetika ularni universal qonunlarining namoyon bo'lishi tarzida ishlatadi.

Dialektika unversal qonun va bog'lanishlar to'g'risidagi ta'limot sifatida vujudga kelgan bo'lsa-da, asos e'tibori bilan bir chiziqli tafakkurga asoslangandir. Biz rivojlanishni pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab boradi, deb grgatgan dialektika ta'limotini jamiyat taraqqiyotiga tadbiq etib, uni bir ygnalishda, ya'ni ibtidoiy tuzumdan quldorlikka, qudorlikdan feodalizmga, undan kapitalizmga, keyin esa sotsializmga boradigan zaruriy qonuniyat deb tushundik. To'g'ri, bu ta'limot ham quruq gap bo'lmay, jamiyatning bir ygnalishni hisobga olgan tafakkur tarzidir. Demak, u jamiyat chiziqli (bir chiziq bgylab) rivojlanadi, degan gapdan iborat edi.

Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga gtib turishi, rivojlanishi, ular o'rtasidagi aloqadorlik va o'zaro ta'sir kabi masalalar qadimdan mutaffakirlar, olimlar, faylasuflar o'rtasida turli bahs, munozara, tortishuvga sabab bo'lgan. Chunki ular to'g'risidagi aniq bilimga ega bo'lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbai, harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risida hamda, eng asosiysi, kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish qiyin.

Atrofimizdagi jamiki narsa-hodisalar, ya'ni eng mayda zarrachalardan tortib to Yer, Quyosh, Koinotgacha barchasi shu jumladan, kishilik jamiyati ham, doimo harakat, o'zgarish va rivojlanishdadir. Ular o'rtasida abadiy o'zaro bog'liqlik, o'zaro ta'sir va aloqadorlik mavjud. Olamda o'z-o'zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o'zgarish ham yuz bermaydi.

Bog'lanishlarning turlari. Biz narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi va rivojlanishiga ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlik, ta'sir va aks ta'sir asos bo'ladi, deymiz. Albatta olamdagi har qanday bog'lanish ham rivojlanishga sabab bo'lavermaydi. Chunki bu bog'lanishlarning kglami, mohiyati, ta'sir kuchi va doirasi turlicha. Ularni ana shu xususiyatlariga qarab, ***zaruriy va tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo'lmagan*** va hokazo bog'lanishlarga ajratish mumkin.

Shuningdek, olamda boshqa voqea yoki hodisalardan alohida, ular bilan bog'liq, o'zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo'lmagan birorta ham voqea yoki hodisa mavjud emas. Demak, o'zaro bog'lanish va ta'sir natijasida narsa-hodisalarda o'zgarish sodir bo'ladi. Lekin barcha o'zgarishni har doim ham birdaniga, yaqqol sezish mumkin emas. Chunki olamning namoyon bo'lishi turli darajada bo'lganligi sababli, o'zgarishlar ham turlichadir.

Masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqning bir hafta, bir oy, yarim yil mobaynidagi o'zgarishini, ya'ni ulg'ayishini yoki bo'lmasa, tabiatdagi qish faslidan bahor fasliga gtishdagi

o'zgarishlarni oddiy ko'z bilan yaqqol sezish mumkin. Lekin biron jonsiz predmet, masalan, Yer qa'ridagi ichki jarayonlarni ma'lum davrdan keyin sezish mumkin. Ana shu sababdan ham odamlar zilzila, vulqonlar otilishi kabi ofatlar qarshisida lol, gohida esa g'aflatda qolib kelmoqdalar. Ya'ni tashqi faktorlar (inson faoliyati, yorug'lik, issiqlik, namlik, atmosfera bosimi) natijasida rgy bergan o'zgarishlarni ko'z kgradi, quloq eshitadi. Xullas, ular oson anglab olinadi, ochiq oydin namoyon bo'ladi. Ulardagi o'zaro bog'liqlikni ham oson kgrish, ilg'ash mumkin. Ana shunday oson kgrish va ilg'ash mumkin bo'lgan, ochiq-oydin rgy beradigan voqea, hodisa, natijaga nisbatan "zohiriylik" tushunchasi, mohiyatini ilg'ash qiyin bo'lgan va murakkab ichki sabablar natijasida kechadigan jarayon va o'zgarishlarga nisbatan "botiniylik" tushunchasi qgllaniladi. O'rta asrlarda, ayniqsa tasavvuf falsafasida bu ikki tushunchaga alohida e'tibor berilgan.

Harakat tushunchasi "Borliq falsafasi" mavzuida yoritilganligi sababli, bu yerda uning quyidagi qisqa ta'rifi bilan cheklanamiz: **harakat deb olamdagi har qanday o'zgarishga aytiladi.** Rivojlanish tushunchasi esa quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi harakatni ifodalaydi. Lekin bu jarayon goh to'g'ri chiziqli, goh asta-sekin kengayib boradigan spiralsimon shakldagi harakatdan iborat bo'lishi mumkin.

Bunda doimiy bir tomonga, masalan, vaqtning gtmishdan kelajakka tomon gtishi ham, lekin makonda voqea va hodisalarning takrorlanishi, zamonda orqaga qaytishlar ham sodir bo'lib turadi. Ba'zida taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida oldingi bosib gtilgan davr takrorlangandek bo'ladi, ammo bu ilgarigidan farq qiladigan boshqacharoq tarzda yuqori darajadagi takrorlanishdir.

Hech qachon bir xil tong otmaydi, deb bejiz aytmaydilar. Xolbuki, har kuni tongda gsha Quyosh chiqadi, gsha tog'u-toshlarni, bog'u-xiyobonlarni, biz yashayotgan zaminni yoritadi. Odamlar ham, ish va tashvishlar ham hamon gsha-gshadek. Kimdir ishga shoshadi, kimdir gqishga yana ilgarigi kundek bekorchilikdan zerikadi. Ammo dunyo o'zgarmaydimi bu bir kunning ichida?, unda minglab bolalar tug'ilmaydimi, son-sanoqsiz jarayonlar rgy berib, Yer sayyorasining turli burchaklaridan boshqa joylarga qanchadan-qancha axborotlar yetib boradimi?

Qonun tushunchasi. Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o'z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Masalan, biz Nyuton tomonidan kashf etilgan butun olam tortilish qonunini grganganimizda ana shunday holni idrok etganmiz. Bu qonunning asosiy mohiyati butun olamdagi narsalarning bir-biri bilan aloqadorligi tamoyilining doimiy takrorlanishini har soniya va har daqiqa bu holatning sodir bo'lib turishini isbotlaydi.

Xgsh qonun o'zi nima? U kishi va umuman, jamiyat hayotida qanday ahamiyatga ega? qonunni bilmasdan, grganmasdan turib yashash mumkinmi? qonun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turadigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki kimyo qonunlari deymiz, tabiat qonuni yoki bo'lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h.k. Bozor iqtisodiyotiga gtish tamoyillarining uchinchisi ham qonun to'g'risida bo'lib, unda barcha sohada qonunning ustuvorligi ta'minlanishi ta'kidlanadi. Yuqoridagilarni birlashtirib turadigan, barchasi uchun ham umumiy bo'lgan xossa, xususiyatlar bormi?

Eng avvalo, shuni aytish kerakki, olamdagi barcha narsa tabiat jamiyat va inson taraqqiyoti ma'lum qonunlar asosida amalga oshadi. Fanlarning (ijtimoiy, gumanitar, tabiiy va h.k.) asosiy vazifasi har bir soha bgyicha tadqiqot gtkazib, qonunlarni kashf qilish yoki ularning amal qilish xususiyatlarini grganish va ochib berishdan iborat.

Qancha kgp qonun kashf qilinsa, taraqqiyot shuncha tez bo'ladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish qiyin. Yaqin gtmishda iqtisodiyotning o'ziga xos qonunlarini pisand qilmay, turli xil s'ezd, plenum, konferensiya qarorlari asosida eksperimentlar gtkazib, barcha uchun farovon hayot-kommunizm jamiyatini barpo qilmoqchi bo'lishganini va bu qanday oqibatlarga olib kelgani barchaga ma'lum.

O'zbekiston barcha rivojlangan mamlakatlar singari ijtimoiy ygnaltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo qilish yglidan bormoqda.

Bunda umumbashariy qonunlar va mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan. Bunda oddiy misollarga murojat qilamiz: yoz oylarida barcha odamlar issiq kiyimlar (etik, palto, qqlqop va h.k.) sotib olishadi, g'tin yoki kgmir g'amlab qgyishadi va h.k. Chunki ular tabiatning bitta qonunini, ya'ni fasllarning o'zgarishi, yozdan keyin kuz, undan keyin qish kelishini juda yaxshi bilishadi.

Yoki yana bir, jgnroq bo'lsa-da, misol: sizga birov uyning 5-qavatidan tashlasang, falon pul beraman desa, rozi bo'lmaysiz. Nima uchun? Chunki siz I.Nyuton kashf qilgan "Butun olam tortilish qonunini yaxshi bilasiz. Balki bilmassiz ham havoning o'z jismingizdan zichligi kamligiga e'tibor qilmassiz ham, deylik. Ammo siz bu holda omon qolishingiz qiyinligi, mayib bo'lishingizni yaqqol tasavvur qilasiz.

Inson qonunlarni bilishi, ularga amal qilishi doirasida erkindir. Erkinlik nima? Erkinlik anglab olingan zaruriyatdir. Har qanday qonunga xos belgilardan biri zaruriylik, ya'ni ob'ektiv tarzda amalga oshish, o'z-o'zidan namoyon bo'lishdir. Erkinlik esa ana shu zaruriylikni anglab olish va amal qilishdan iborat faoliyatni anglatadi.

Yuristlarda shunday ibora bor: "qonunni bilmaslak javobgarlikdan xolis qila olmaydi". Ana shu tufayli siz yuridik qonunlarni qancha yaxshi bilsangiz, o'zingizning faoliyatingizni shunga moslab olib borasiz. Demak, shuncha erkin bo'lasiz. Bu holda siz nima qonuniy nima esa qonuniy emasligini yaxshi bilasiz, qonunga xilof qadamlar qgymaysiz.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, qonunga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *Qonun olamdagi narsa va hodisalarning muhim zaruriy umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo'lishidir.* Endi qonunning belgilariga tgxtalamiz.

-Qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog'lanishlardan faqat muhimlarini, ya'ni shunday bog'lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi, o'zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo'ladi;

-Qonun zaruriy bog'lanishlarni ifodalaydiki, ya'ni tasodifiy bog'lanishlar, goh paydo bo'lib, goh ygqolib ketadigan bog'lanishlarga asoslanmaydi.

-Qonun narsa va hodisalarning umumiy bog'lanishlarini ifodalaydi.

-Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog'lanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi, ya'ni bir safar yuz berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bog'lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2001 yili qishdan keyin bahor kelib, 2002 yilda qishdan keyin birdaniga yoz kelishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, bu tabiat qonuni-fasllar o'zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi.

Tabiat qonunlarining yana bir eng muhim xususiyati u ob'ektiv xarakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bog'liq emas. Biror kishi, hatto millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o'zgartirish kiritish yoki uni butunlay ygq qilish mumkin emas. Chunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog'lanishlar, munosabatlar ob'ektiv xususiyatga ega.

Olamdagi har bir narsa va hodisa bir-birini taqazo qiladigan va shu bilan birga, bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo'lishi ham odatiy hol. Masalan, issiq va sovuq, oq va qora, kecha va kunduz, elektrning musbat va manfiy zaryadlari, yaxshilik va yomonlik, adolat va jaholat va h.k. Qarama-qarshi tomonlar bir-birini inkor etadi va shu bilan birga biri ikkinchisini taqazo etadi, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Faraz qilaylik magnitning manfiy zaryadi bo'lmasa, u holda ushbu narsa magnit bo'la olmaydi.

Borliq narsa, voqea-hodisalarning turli-tumanligidan iborat. Lekin narsalar qanchalik xilma-xil, turli-tuman bo'lmasin, ular o'rtasida yaqinlik, aynanlik mavjuddir. Masalan stol va stul sifat jihatidan turli narsalardir lekin baribir ular o'rtasida gxshash tomonlar, belgilar bor. Aytaylik, ularning yo rangi yoki bir xil materialdan yasalganligi yoki bo'lmasa vazni gxshash bo'lishi mumkin va h.k.

Ayniyat tushunchasi narsa va hodisalar o'rtasidagi gxshash tomonlarni ifodalaydi. Shu bilan birga narsa-hodisalar bir-biridan farq qiladigan tomon, xususiyat, belgilarga ham egadir. Aynan bir xil bo'lgan narsaning o'zi ygk. Hatto daraxtning bir shoxida yonma-yon turgan 2 barg

ham bir-biridan farq qiluvchi ba'zi jihatlarga ega. Hech bo'lmaganda, ular bir-biridan makondagi grni bilan farq qiladi.

Hayotdan misol keltiradigan bo'lsak bir-biriga tashqi tamondan tamomila gxshash bo'lgan Hasan va Husanlarda ham juda kpg farq qiluvchi xususiyatlar bor. Masalan, ularda f'el atvor, qiziqish turi, dunyoqarashlar har xil bo'lishi, ya'ni ularning ichki dunyolari farq qilishi mumkin. Tafovut narsa-hodisalarning farq qiluvchi tomonlarini ifodalovchi tushunchadir.

Qarama-qarshilik deb esa, narsa, voqea hodisalarning bir-birini taqozo etuvchi tomonlari, kuchlarining o'zaro munosabatlariga aytiladi.

Qarama-qarshiliklar o'rtasidagi munosabatni ziddiyat degan tushuncha ifodalaydi. Kgp hollarda ayniyat va tafovutning zidligi va ularning bir maxrajga kelishi, me'yoriy o'zgarishlar tufayli rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish jarayonlari amalga oshadi. Taraqqiyot shu ma'noda ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal qilishidan iborat bo'lgan abadiy va azaliy murakkab jarayondir.

Ana shunday intilishlar fanda "Konfliktologiya" (konflikt-ziddiyat logos-ta'limot) deb ataladigan falsafiy ygnalish paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu soha bilan shugillanadigan olim va mutaxassislar kofliktologlar deb ataladi. Ular konfliktlarni keltirib chiqarish emas, balki ularning oldini olish va jamiyat uchun foydali tarzda hal qilish ygllari va usullari ustida bosh qotirishadi.

Har bir ziddiyatni aniqlanishi, hal qilinishi o'zgarishga, yangilanishga, bir sifatdan ikkinchi sifatga, eskidan yangiga gtishga sabab bo'ladi. Olam turli-tuman bo'lganligi uchun ziddiyatlar ham xilma-xildir. Masalan, ichki va tashqi ziddiyatlar, asosiy va asosiy bo'lmagan ziddiyatlar mavjud bo'lishi. Ular o'rtasida farq bo'lishi bilan birga, mutlaq chegara ham ygq. Chunki amalda, hayotda ular bir-biriga gtishi, birlashib ketishi va taraqqiyotda turli xil grin tutishlari mumkin.

Olamning mavjudligi-miqdor va sifat voqeligi tarzida ham namoyon bo'ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin tgplana borib, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida me'yorni buzadi va sakrash ygli bilan tub sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o'z sifati bilan ajralib turadi. *Sifat narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bo'lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligini ifodalaydi. Sifat narsa belgi, uni shundayligicha kgrsatib beradi, jismning barcha xossalarni bog'liqlikda nimoyon qiladi. Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga gxshashligi yoki gxshashmasligini ifodalaydi.*

U keng ma'noda narsalarning turli-tuman xossalari yig'indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma'nodagi tushunchalar emas. Sifatning o'zgarishi, muqarrar suratda, xossaning o'zgarishiga olib keladi. Biroq xossaning o'zgarishi har doim sifatning o'zgarishiga ta'sir etavermaydi, ayrim xossalar narsalarning sifatiga ta'sir etmasdan ygq bo'lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Narsalar sifat muayyanligidan tashqari, bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. Miqdor predmetning hajmi, glchovi, og'irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. Chunonchi, suv o'z solishtirma ogirrigiga, qaynash va muzlash darajasiga ega. Bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati bilangina emas, balki ishlab chiqaruvchi, kuchlar taraqqiyoti, mehnat unumdorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat miqdorga yoki sifatga ega bo'lgan, ya'ni sifati bo'lib miqdori, miqdori bo'lib aksincha, sifati bo'lmagan narsalarning o'zi ygq.

Miqdor va sifatning birligi, o'zaro bog'liqligi me'yor tushunchasida ifodalanadi. Me'yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo'lmagan holatga olib keladi.

Har qanday narsa va hodisaga miqdor va sifat o'zgarishlari xosdir. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'rtasida qat'iy qonuniyat mavjud bo'lib, bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: miqdoriy o'zgarishlar sifat o'zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan tub sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi va shu holatda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga gtishi sodir bo'ladi. Olamdagi barcha o'zgarishlar asta-sekin sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlaridan boshlanadi. Miqdor o'zgarishlari muayyan chegarada sifatning barqarorligiga ta'sir etmaydi. Miqdoriy

o'zgarishlar chegaradan chiqishi bilan sifatning barqarorligi buziladi. Natijada sifat ygqolib yangi sifat yuzaga keladi. Taraqqiyot jarayonida miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga gtishi bilan birga sifat o'zgarishlari ham miqdor o'zgarishlariga gtadi. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'zaro chambarchas boglangan bo'lishiga qaramay, ular ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Chunonchi-*birinchidan*, miqdor o'zgarishlari doimo yuz berib turadi. Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin yuz beradi. Sifat o'zgarishlariga gtish faqat ma'lum bir davrda boshlanadi. *Ikkinchidan*, miqdor o'zgarishlari ma'lum vaqtgacha narsalarga muhim ta'sir kgrsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100⁰ gacha suyuqlik holatini ygqotmaydi, keyin esa esa bugga aylanadi, sifatini o'zgartiradi. Demak, sifat o'zgarishlari hodisalarni tubdan o'zgartirib, uning boshqa hodisaga aylanishini taqozo qiladi. *Uchinchidan*, miqdor o'zgarishlari asta-sekin amalga oshadi va kgp hollarda sezilmasdan gtadi. Sifat o'zgarishlari esa ancha tez, ayrim holatda tgsatdan sodir bo'ladi. *Tgrtinchidan*, sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga qaraganda tub o'zgarish bo'lib hisoblanadi.

Sakrash nima? Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo'lib, taraqqiyotning uzluksiz kgrinishiga qaraganda ancha tez gtadigan jarayondir.

Sakrash miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga gtishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrash narsa va hodsalarining uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo'lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. Sakrash birdaniga, tgsatdan bo'ladigin holatgina emas, balki yangi sifat elementlari kgpayishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrashning turlari o'z xarakteriga kgra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo'lib ular bir-birlaridan farq qiladilar. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashning o'ziga xos tomoni shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni ygq qilish va yangi ijtimoiy tuzumni grnatadigan ijtimoiy jarayonlar, tadrijiy rivojlanish orqali amalga oshadi. Bunday sakrashlarni ikki turga bo'lish mumkin: *birinchisi* portlash ygli bilan bo'ladigan sakrashlar. *Ikkinchisi* sekin-asta, tadrijiy portlashsiz ygl bilan bo'ladigan sakrashlar. *Birinchi* tur sakrashlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda narsa va hodisalarning yangi sifatga gtishi nihoyatda tezlik bilan yuz beradi va kutilmagan natijalarni, tasodifiy jarayonlarni boshlab yuborishi, hatto salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Sakrashning ikkinchi turida esa, eski sifat elementlarining asta-sekin ygqolib borishi va yangi sifat elementlarining tgplanishi natijasida yangi sifat paydo bo'ladi.

Shunday qilib sakrash quyidagi jihatlarga ega:

-*Birinchidan*, sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan ob'ektiv va qonuniy jarayondir.

-*Ikkinchidan*, sakrash tadrijiylikning uzilib, miqdor o'zgarishlaridan tub sifat o'zgarishlariga gtishidir.

-*Uchinchidan*, sakrash eskini tugatish va yangi sifatga mos keladigan holatlarning vujudga kelishi tufayli paydo bo'ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir.

Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bogliq ravishda eski sifatdan yangi sifatga gtish turli shakllarda sodir bo'ladi. Har bir narsa, hodisa o'zining aniq inkor qilish usuliga, o'z navbatida aniq sakrash shakliga egadir.

Demak, har qanday o'zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bir-biriga gtishi orqali sodir bo'ladigan jarayonlardan iborat. Borliqning hamma sohasida doimo eski umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, yangi narsa va hodisalarning vujudga kelishi jarayoni sodir bo'lib turadi. Bunday eskining yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

O'zgarish va rivojlanish jarayonida o'z-o'zini inkor etish tamoyili nihoyatda muhim. Bunda vorislik eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo'ladi. Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi inkorni-inkor qonunining mohiyatini bildiradi.

Mazkur qonunga muvofiq ob'ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi rgy beradi. Biroq aksariyat hollarda, eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi.

Inkor tushunchasi kundalik ongda "ygq", so'zi bilan qgshilib ketadi, inkor qilmoq-"ygq" demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to'g'ridan-to'g'ri "ygq" degani emas, ya'ni narsani mavjud emas, deb e'lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan ygqotib tashlamoq emas.

Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo'lmasdan, balki eskining bagrida vujudga kelib, undan foydalanib qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining grniga yangining kelishi tabiiy tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bogliqligini ifodalaydi. Inkorni-inkor qonunini tushunish uchun uni nega shunday deb atalishini izohlamok lozim. Falsafaning bu ta'limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi olamdagi narsa va hodisalarning doimiy ravishda o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga gtib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi.

Bu qonunga kgra, har bir mavjud bo'lgan narsa va hodisa o'zigacha bo'lgan sifat va miqdor inkor etilishning mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o'zi ham sharoitning o'zgarishi, vaqtning gtishi bilan inkor etilishiga mahkumdur. Demak, har bir narsa va hodisaning o'zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan kgproq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Insoniyat tarixi avlodlar almashinuvi tarixidir, deyilganida ham ana shunday hol nazarda tutiladi.

Inkorni-inkorning yana bir belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning muayyan halqasida, ya'ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi ba'zi belgilar takrorlanadi. Masalan: don gsimlikdan yana donga aylanadi, keyinroq yana gsimlikka va hokazo.

Inkorni-inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to'g'ri chiziq shaklida emas, doira shaklida bo'ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlangich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo'lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo'lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega bo'ladi. Bu spiralning har bir yangi grammi oldingi gramiga nisbatan yuqoriroq bosqichda yuzaga keladi.

Dialektik inkor yangi bilan eski o'rtasidagi boglanishni butkul rad qiladi, deb tushunmaslik kerak. Yangi qanchalik ilgor bo'lmasin, u ygq joydan paydo bo'lmaydi, balki eskining qobigida asta-sekin shakllanadi. Shuning uchun ham kgp hollarda eskidan yangiga gtilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, balki uning ijobiy tomonlari saqlanib qoladi va rivojlanish davom ettiriladi. Demak, yangi bilan eski o'rtasida vorislik mavjuddir. Inkorni-inkor qonuni taraqqiyotda vorislik va qaytariluvchanlikning birligini tavsiflaydi. Dialektik inkorning muhim xususiyati ana shundan iborat.

Inkorni inkor qonuni mustaqillik va bozor iqtisodiyoti jarayonida rgy berayotgan hodisalar mohiyatini ilmiy anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi jamiyatni barpo etishga qaratilgan o'zgarishlar hamma narsani butunlay ygq qilishni bildirmaydi. Aksincha, bu xalqimiz taraqqiyoti jarayonida erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yutuqlarni saqlab qolib, ularni yanada boyitib, rivojlatirishdan iboratdir. Mazkur jarayonning asosiy tamoyili Islom Karimovning yangisini qurmasdan, eskisini buzmaslik lozimligi to'g'risidagi xulosasida yaqqol o'z asosini topgan.

Har qanday fanning o'ziga xos qonunlari va asosiy tushunchalari bo'ladi. Masalan, fizikada fizik qonunlar, ogirlik, tezlik, kuch kabi tushunchalarga juda kgp duch kelish mumkin. Ularning aksariyati bu fan tarixida chuqur iz qoldirgan mashhur olimlarning nomi bilan boglangan. Masalan fizikada Nyuton, Faradey, Avagadro va hokazo. Matematikani esa Pifagor, al-Xorazmiy, Karl Gausning qonunlarisiz tasavvur qilish qiyin. Xuddi shunday falsafaning fanlik maqomini belgilaydigan asosiy tamoyilar, qonunlar va kategoriyalar tizimi ham bor. Ularni grganishdan avval, qonun va kategoriya tushunchalarini anglab olish zarur. An'anaviy tavsiflarga kgra, "Qonun" falsafiy kategoriya sifatida narsa va hodisalar rivojlanishi jarayonidagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, doimiy takrorlanib turuvchi, ichki o'zaro bog'lanishlar, aloqalar, munosabatlarning mantiqiy ifodasi ekanligini kgrib gtdik. Endi kategoriyaning mohiyati va mazmuni bilan qisqa tanishaylik.

Kategoriya o'zi nima? Bu so'z qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib: "izohlash", "tushuntirish", "kgrsatish", "ta'rif" degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardan oq ilmiy tadqiqot yig'inalishiga aylangan.

Falsafa tarixida ularni birinchi bo'lib Arastu ta'riflab bergan. U o'zining "Kategoriyalar" degan asarida ularni kategoriyalarni ob'ektiv voqelikning umumlashgan in'ikosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilgan. Xususan uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: "mohiyat", (substansiya) "miqdor", "sifat", "munosabat", "grin", "vaqt", "holat", "mavqe", "harakat", "azob-uqubat". Bu turkumlashtirish o'z vaqtida ilmiy bilishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik Arastu "Metafizika" asarida "mohiyat", "holat", "munosabat" kategoriyalarini ham izohlagan.

Umuman kategoriyalarni falsafa tarixida ilmiy mavzu sifatida g'rganishni aynan Arastu boshlab berganligi e'tirof qilinadi. Ma'lumki, ungacha Yunonistonda kgrproq politika (siyosat) va ritorika (notiqlik san'ati) fanlari sistemalashgan, ya'ni fan sifatida tizimga tushirilgan edi. Chunki gsha davrda qgshinni, mamlakatni va odamlarni boshqarish uchun siyosat va nutq madaniyati sirlarini bilish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ammo gsha davrlarda falsafaning qonun, kategoriyalari va asosiy tayanch tushunchalari muayyan tizimga solinmagan, izchil bayon qilingan bilimlar sistemasi sifatida shakllantirilmagan edi. Hatto Yunonistonning mashhur olimi Suqrotni ham ana shunday, hali shakllanmagan fan bilan shug'ullangani va yoshlarni shu ilm yig'liga boshlab, ularning noto'g'ri tarbiyasiga sabab bo'lganlikda ayblagan ham edilar. Bu hol Suqrotning buyuk shogirdi Arastuning mazkur fanning aniq sistema tarzida ifodalashga kirishishi uchun turtki bo'lgan. Olim falsafaning qonun va kategoriyalarini birinchi marta sistemalashtirgan, ta'riflagan va falsafani fan darajasiga kgtargan. Gsha davrdan boshlab falsafa o'z qonun, tamoyil, kategoriya tushunchalariga ega bo'lgan fanga aylangan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va Ibn Sinolar ham katta ahamiyat berganlar.

XVII-XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keldi. Xususan, I.Kant qarashlarida kategoriyalar "sifat" (reallik, inkor, chegaralash), "miqdor" (birlik, kgplik, yaxlitlik), "munosabat" (substansiya va xususiyat, sabab va harakat, o'zaro ta'sir), "modallik" (imkoniyat va imkoniyatsizlik, voqelik, zaruriyat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli glaroq, Hegel esa mantiqiy kategoriyalarni: "borliq" (sifat, miqdor, me'yori), "mohiyat" (asos, hodisa, mavjudlik), "tushuncha" (ob'ektiv, sub'ektiv, absolyut g'oya) tarzida izohlagan.

Falsafa fanining kategoriyalari haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflar bor: 1) *ob'ektiv voqelikning in'ikosi*; 2) *narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli*; 3) *narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o'zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha*; 4) *borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy-mantiqiy bilish darajalaridan biri*. Kgpchilik mutaxassislar kategoriyalar olam, undagi narsa va voqealar, ularning asosiy va takrorlanib turuvchi aloqadorligini ifodalaydigan keng mazmundagi tushunchalardir, degan fikrga qgshiladilar. Shu ma'noda borliq, voqelik, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat va boshqalar falsafaning ana shunday kategoriyalardir.

Falsafada o'z xususiyatlariga kgra, juft kategoriyalar deb ataladigan: umumiy bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalar ham bor. Ular narsa va hodisalarning muayyan yig'inalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan umumiy qonuniyat tarzida vujudga kelgan.

Alohidalik, xususiylik, umumiylik. Ular narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon-zamon munosabatlarini konkret tarzda namoyon qiladi. Umumiylik-olamdagi alohida individual tarzda namoyon bo'layotgan narsa va hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashtiruvchi xossa hamda xususiyatlarning mushtaraklashgan holda namoyon bo'lishidir. Alohidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabat "xususiylik" kategoriyasi orqali ifodalanadi. Birinchiidan, bu kategoriyalarning mazmuni olamning birligi, ularning mantiqiy

ifodasi konkretlik bo'lib hisoblanadi. Ikkinchidan, "alohidalik", "xususiylik", "umumiylik" narsa va hodisalarning makon-zamon konkretligini ifodalaydigan, nisbatan mustaqil mantiqiy tushunchalar tarzidagina namoyon bo'lishi mumkin. Zero, ularning nisbatan mustaqilligi, ichki birligining namoyon bo'lish shaklidir. Falsafiy adabiyotlarda, bilishning umumiy tendensiyasini alohidalikdan xususiylikka va shu bosqich orqali umumiylikka o'tish tarzida yoki aksincha, izohlash keng tarqalgan. Vaholanki, falsafiy bilishning asosiy xususiyati va maqsadi har qanday alohidalikning individual xususiyatlarini umumiylikdan farqlashdan iboratdir. Masalan: bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyati bo'lsa ham bu jarayon turli ijtimoiy-tarixiy makon va zamonda har bir davlat uchun o'ziga xos bo'lgan modelni taqozo qiladi.

Alohidalikning umumiylikdan farqini aniqlash asosida, maxsus usul va vositalarni qo'llash bozor strategiyasi va taktikasining milliy xususiyatlarini belgilashga yordam beradi. Alohidalik yoki ba'zi falsafiy adabiyotlarda kengrasiatilganidek, yakka-likni muayyan xossa hamda xususiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalarning makon va zamondagi chegaralangan konkret holati, boshqacha qilib aytganda, har qanday hodisa va narsalarning ichki sifat muayyanligi, individualligi deyish mumkin.

Antik falsafada alohidalik kategoriyasining mazmuni muayyan turg'unlikka ega bo'lgan birlik sifatida qaralgan (Aflotun, Arastu).

Hegel alohidalikni voqealarning zaruriy shakli, makon va zamondagi tafovutlarning namoyon bo'lish momenti sifatida qaraydi.

Falsafada milliylik va umuminsoniylik masalasida alohidalikning umumiylikdan farqini mutloqlashtirish natijasida muayyan qarashlar vujudga kelishi mumkin. (Bu haqda "Osiyosentrizm" va "Yevropasentrizm " to'g'risida eslash kifoya).

Vaholanki, umuminsoniyat sivilizatsiyasining tadrijiy rivojlanishida har bir xalq, millat o'z g'urmi va ahamiyatini namoyon qiladi. Shuning uchun umuminsoniyat sivilizatsiyasi tarkibidagi milliy madaniyatni mutloqlashtirish, muayyan siyosiy manfaatlariga asoslangan bo'lib, buyuk davlatchilik, shovinistik qarashlardan boshqa narsa emas. Bu XX asrning 30-yillarida fashizm mafkurasini shakllantirgan asosiy sabablardan biri edi.

Alohidalikni, umumiy qonuniyatlar tarkibidagi, elementlarning individual rivojlanish jarayoni sifatida olib qarash kerak. Chunki har qanday umumiylik, dastlab voqelikning alohidaligi tarzida vujudga keladi. Shunga kengrasi, har qanday sistema o'z tarkibidagi nisbatan yangi alohida hodisalarning individual rivojlanishisiz sodir bo'la olmaydi. Shunday qilib, alohidalik voqelik rivojlanishining xilma-xil shakllarini vujudga keltiradi.

Narsa va hodisalarda alohidaliklarning konkret xususiyatlari o'rtasidagi bog'lanishlar bir tomondan, umumiylikni namoyon qilish bilan bir qatorda, ularning muayyanligi va mazmunini ham belgilaydi. Ikkinchi tomondan esa, umumiylikning konkretligi alohidaliklar sistemasi tarzida namoyon bo'ladi. Bu sistemaga strukturali yondashish bilishning tglagonli bo'lishini ta'minlaydi. Masalan: muayyan jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy munosabatlari o'ziga xos bo'lgan yig'nalishlarni vujudga keltirgan. Ya'ni, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, diniy, ekologik va boshqa shu kabi ijtimoiy munosabatlar umumiy madaniyat tarkibida "iqtisodiy madaniyat", "huquqiy madaniyat", "siyosiy madaniyat", "ekologik madaniyat" va boshqa nisbatan mustaqil yig'nalishlarga asos bo'lgan. Bu madaniyat yig'nalishlari nisbatan mustaqil bo'lsa ham, bir-birini taqozo qiladi. Ularning ichki birligi va rivojlanish tendensiyasi umuminsoniyat sivilizatsiyasidan kelib chiqqan bo'lib, umumiy taraqqiyot darajasiga mos keladi. Falsafaning bu kategoriyasi bilan "butun", "qism", "struktura", "sistema", "element" kategoriyalari o'rtasida uzviy bog'liqlik va muayyan farqlar mavjud. Ya'ni "alohidalik", "xususiylik", "umumiylik" narsa va hodisalar rivojlanish jarayonidagi bog'lanish, aloqadorlik munosabatlarning yaxlitligini nisbatan mustaqil ifodalash bo'lsa, "butun", "qism", "struktura", "sistema", "element" kategoriyalari esa, ularning makon va zamondagi bog'lanish munosabatlarini jarayon tarzida ifodalashdir. Shu nuqtai nazardan, butunni-umumiylik qismni yoki elementni alohidalik tarzida olib qarash holatlari uchraydi. Shuningdek muayyan g'urxshashlik bo'lishiga qaramasdan sistemani umumiylik tarzida qabul qilish mumkin emas. Bunda sistema turli darajadagi umumiyliklarning majmui bo'lishi ham

mumkin. Umuman, narsa va hodisalarni tarkibiy jihatdan "butun", "qism", "elementlarga" ajratish bilishga xos hodisa bo'lib, uning samaradorligini ta'minlaydigan zaruriy shartdir. Shunga kgra, yuqorida aytilgan har ikkala kategoriyalar tizimi bilishning bosqichi sifatida emas, balki usuli sifatida olib qaralishi kerak. *Sistema-grekcha so'z bo'lib, ma'nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma'nolarni anglatadi. Sistema narsa va hodisalarning bog'lanishlari aloqadorligi va munosabatlarning tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi.*

Struktura esa narsa hodisalar bog'lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. Umuman, struktura (lotin tilida tuzilish, tartib degan ma'noni anglatib), sistemani tashkil qilgan elementlarning nisbatan turg'un bog'lanish aloqadorligi va munosabatidir.

Element sistemani tashkil qilgan strukturaning o'zaro bog'lanish, aloqadorlik munosabat jihatlarini ta'minlaydigan mustaqil tarkibiy qismidir. Jamiyatda element ijtimoiy munosabatlarning konkret kgrinishlari tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, jamiyatni yaxlit sistema deb oladigan bo'lsak, undagi element alohida individlar, ijtimoiy qatlamlar tabaqalarning ongli munosabatlari tarzida ko'zga tashlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, insonlarning narsa hamda hodisalarga muayyan manfaatlari va ehtiyojlariga kgra yondashishiga qarab, har bir elementni nisbatan mustaqil sistema sifatida olib qarash mumkin. Masalan, ma'naviyat jamiyat strukturasida, uni tashkil qiluvchi muhim elementlarning biri hisoblanadi, lekin ma'naviyatni, maxsus ijtimoiy hodisa sifatida alohida olib tahlil qiladigan bo'lsak uning ichki elementlardan iborat mustaqil sistema ekanligini kgramiz. Shunga kgra, sistema struktura va element nisbiy tushunchalar bo'lib kategoriyalar sifatida, unga bo'lgan munosabat doirasida konkretlashadi. Shuning uchun "sistema", "struktura", "element" kabi falsafiy kategoriyalar narsa hodisalarni bilishga sistemali yondashish strukturaviy tahlil usullarining umummetodologik asosi bo'lib hisoblanadi.

Umuman, falsafaning sistema, struktura, element kategoriyalari narsa va hodisalarning mazmun va shaklini ochib berishda metodologik asos bo'ladi.

"Mohiyat va hodisa" kategoriyalarida esa mohiyat o'zida alohidalik maxsuslik, umumiylikning mazmunini, sababi va zaruriyati, imkoniyatini, butun, qism, sistema, struktura, element tarzida namoyon qiladi. Hodisa esa, ularning bog'lanishi, aloqadorlik va munosabatlarning namoyon bo'lishidir. Shunga kgra, har qanday mohiyatni odamlarning manfaat va ehtiyojlariga, sivilizatsiya kelajagiga bog'lab tahlil qilgandagina, u ahamiyatga ega bo'ladi.

Narsa va hodisalarni bilish hamda o'zgartirishga inson muayyan ehtiyojlar asosida yondashadi. Bu yondashish sub'ektiv xarakterga ega bo'lib, uning konkret ehtiyoj va manfaatlari nuqtai nazardan baholanadi. Masalan, chanqagan kishi uchun suv uning chanqog'ini qondirish, fizik uchun agregat holati, elektr tokini gtkazishi yoki optik xususiyatlari, ximik uchun uning N₂O kimyoviy birikma sifati, tegirmonchi uchun parragini aylantirish xususiyatlari asosiy mohiyat hisoblanadi.

Narsa va hodisalar doimiy rivojlanib turishi jarayonida, ularning mohiyati ham, shunga mos tarzda hodisa ham o'zgarib turadi. Mohiyatdagi har qanday juz'iy o'zgarish ham, uning muqarrar o'zgargan hodisasida ifodalanagan. Masalan, suvning elektr tokini gtkazish xususiyati, uning temperaturasiga bog'liqligi aniqlangan. Agar biz suvning temperaturasini ma'lum darajada kgtarsak, uning elektr tokini gtkazish xususiyatini glchaydigan asboblarda bu o'zgarishlarni qayd qilmasligi mumkin. Lekin, bundan suvning mohiyatini ifodalaydigan elektr tokini gtkazuvchanlik xususiyati yqqolgan, degan xulosa kelib chiqmaydi.

Mazmun va shakl. Falsafada mazmun va shakl kategoriyasi narsa hodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazmun-narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishi bo'lib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorlik va munosabatlarini ifodalaydi.

Shakl esa sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarining ifodalanishidir. Hozirgacha falsafiy adabiyotlarda mazmun va shakl o'rtasidagi

bog'lanishlarni bir-biridan ajratib tahlil qilish an'anaviy xarakterga ega. Ya'ni mazmunning o'zgarishi shaklning o'zgarishiga olib keladi degan xulosa ustuvor bo'lgan. Vaholanki sistemaning elementlari strukturaviy bog'lanish, aloqadorliklarsiz mavjud bo'lishi mumkin bo'lmaganligidek mazmun va shakl ham bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Biz faqat nisbatan mustaqil bo'lgan mazmun va shaklni bilish xususiyatiga qarab, shunday mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Boshkacha qilib aytganda, mazmun va shakldagi har qanday juz'iy o'zgarish ham bir-biridagi o'zgarishlarni taqozo qiladi, faqatgina biz ularni bilib olgan yoki bilmagan bo'lishimiz mumkin. Masalan, suving agregat holati, shakli o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi. Ya'ni suv bug' holatida chanqoqni qondirmaydi, gsimliklarni sug'orish uchun yaramaydi.

Sabab va oqibat. Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadrijiy rivojlanish tamoyiliga kgra, ularning mazmun va shakli o'zgarib turadi. Demak narsa va hodisalarning tadrijiy rivojlanishi sabab oqibat munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Shunga kgra, sabab biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonidagi sabab va oqibat munosabatlarini bilishda, ularning makon va zamondagi tarixiy va mantiqiy izchilligi muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, *bir tomondan*, har qanday sabab avvalgi hodsalar yoki ularning rivojlanish okibati tarzida namoyon bo'ladi. *Ikkinchi tomondan* esa, bu oqibat keyingi rivojlanishning sababi bo'lib hisoblanadi.

Sababning mohiyati avvalgi hodisalarning oqibati sifatida vujudga kelayotgan hodisalar uchun sababligidadir. Shunga kgra, sababni bir vaqtning o'zida oqibat tarzida qarash mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, har qanday oqibat sabab tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, sababni narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon va zamondagi Hegel tili bilan aytganda, sabab va mohiyatning harakatdagi mavjudlik holatidir. Sabab falsafiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Uning ob'ektiv xarakteri narsa va hodisalarning ichki tarkibiy elementlari munosabatlariga xos bo'lib, mohiyatning real mavjudlik holatini ifodalaydi.
2. Sababning konkretligi narsa va hodisalarning xususiyatlaridan kelib chiqadi, hamda uning individualligini ta'minlaydi.
3. Sabab umumiy xarakterga ega bo'lib, hech qanday narsa, va hodisaning rivojlanshi sababsiz sodir bo'lmaydi.
4. Sabab zaruriy bo'lib, muqarrar ravishda, muayyan oqibatlarni keltirib chikaradi.
5. Sababning uzluksizligi, *bir tomondan*, turli sabablarning izchil boglanishlarini munosabatlarini, *ikkinchi tomondan*, har bir sababning oqibat tarzida oldingi sabab bilan bogliqligini xarakterlaydi.

Zaruriyat va tasodif. Ob'ektiv olamni bilishda zaruriyat va tasodif kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. *Zaruriyat narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. Tasodif esa-zaruriyatning namoyon bo'lish shaklidir.*

Zaruriyat va tasodif kategoriyasi olamni falsafiy bilishning mushtarakligini va samaradorligini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan zaruriyatni turkumlashtirganda uning makon va zamondagi strukturaviy tuzilishini tashkil qilgan elementlarini sistemali strukturali tahlil qilish lozim.

Tayanch iboralar: *Metod, Dialektika, Metafizika, Ruhiy tahlil. Sinergetika Germenevtika, strukturalizm. Metodologiya, Xenrix Xakin, Ilya Prigojin, Barqarorlik, Beqarorlik, Dogmatizm. Kategoriyalar, alohidalik, umumiylik, sabab, oqibat, mazmun, shakl, sistema, element, butun, bo'lak, mohiyat va hodisa, zaruriyat, tasodif, imkoniyat va voqeilik.. Bog'lanish, aloqadorlik, takrorlanish, qonun, qonuniyat, ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik, ziddiyat, miqdor, sifat, xossa, inkor, inkorni-inkor, vorislik.*

Takrorlash uchun savollar:

1. Kategoriyalar tushunchasini qanday izohlaysiz?
2. Juft kategoriyalar mazmunidagi ichki birlikning asosi nimada?

3. Hozirgi davrda taraqqiyot va o'zaro bogliq tamoyillari qanday namoyon bo'lmoqda.
4. Qonun nima?
5. Tabiat va jamiyat qonunlarining qanday xususiyatlari bor?
6. Olamdagi ziddiyat va ayniyat holatlariga misollar keltiring.
7. Miqdor va sifat nima? Xossa-chi? Me'yor-chi?
8. Inkori nima? Inkori inkori-chi?
9. Metod nima? Metodologiya nima?
10. Dialektika va metafizika metodlarini bir-biriga zidligi.
11. Falsafiy metodologiyaning asosiy shakllari.

4-Mavzu: Bilish nazariyasi

Reja:

1. Bilish va bilim falsafiy taxlil mavzui.
2. Bilishning ob'ekti va sub'ekti. Inson bilishning asosiy bosqichlari.
3. Ilmiy bilishning mohiyati va usullari. Metod, nazariya va metodologiya.
4. Xaqikat tushunchasi. Uning shakllari
5. O'zbekiston istiqloli va bilimli yoshlarni tarbiyalash masalalari.

Bilish va bilim. Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini g'rganish falsafa tarixida muhim grin egallab kelmoqda. Inson o'z bilimi tufayli borliq, tabiat va jamiyatni nihoyat o'z-o'zini o'zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usulini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shugillanuvchi maxsus sohasi gnoseologiya vujudga keldi.

Inson bilishi nihoyatda kgp qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. Gnoseologiya asosan bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan shugillanadi. Har bir tarixiy davr jamiyatning rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqib, gnoseologiya oldiga vazifalar qgyadi. Xususan, 17 asr o'rtalarida yevropalik faylasuflar ilmiy bilishning ahamiyati, haqiqiy ilmiy bilishlar hosil qilishning usullarini g'rganish, ilmiy haqiqat mezonini aniqlash bilan shugillandilar. Tajribaga asoslangan bilimgina haqiqiy bilimdir, degan g'oyani olga surdilar.

18 asr mutafakkirlari ilmiy bilishda inson aqli imkoniyatlariga ratsional bilishning hissiy bilishga nisbatan ustunligiga alohida urgu berdilar. Buyuk nemis faylasufi I.Kant bilish natijalarining haqiqiyiligi xususida emas, balki insonning bilish qobilyatlari haqida bahs yuritdi. Gnoseologiya oldida inson olamni bila oladimi? degan masala keskin qgyildi. Insonning bilish imkoniyatlariga shubha bilan qaraydigan faylasuflar agnostiklar deb ataldilar.

Bilish nima?. Bilish insonnni tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy ma'naviy faoliyat turidir. Inson o'zini qurshab turgan atrof muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib faoliyatning biron bir turi bilan muvofaqiyatli shugillana olmaydi. Bilishni mahsuli natijasi ilm bo'lib har qanday kasb korni egallash faqat ilm orqali rgy beradi. Shuningdek bilish insongagina xos bo'lgan ma'naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir. Insoniyat kgp asrlar davomida ortirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o'zi uchun qator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyatining har qanday turi muayyan ilmga tayanadi va faoliyat jarayonida yangi bilimlar hosil qilinadi.

Kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilish butun insoniyatga xos bo'lgan bilish usulidir. Bilimlar bevosita hayotiy ehtiyojdan, faravon hayot kechirish zaruratidan vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyatning ancha keyingi taraqqiyoti davomida ilmiy faoliyat bilan bevosita shugullanadigan va ilmiy nazariyalar yaratuvchi alohida sotsial guruh vujudga keldi. Bular ilm-fan kishilari bo'lib, ilmiy nazariyalar yaratish bilan shugullanadilar.

Bilishning ikki shakli: kundalik (empirik) bilish va nazariy (ilmiy) bilish bir-biridan farqlanadi.

Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o'ziga xos bo'lib, bunday bilimlarni sistemalashtirilgan va umumlashgan holda keyingi avlodlarga berish ancha mushkuldir. Hozirgi zamon G'arb sotsiologiyasida xalqlarning kundalik bilim hosil qilish usullarini g'ranuvchi maxsus soha etnometodologiya fani vujudga keldi. Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini g'ranish bilan shugullanadi. Nazariy bilishning ob'ekti, sub'ekti va predmetini bir-biridan farqlash muhim.

Bilish ob'ekti. Tadqiqotchi-olim, faylasuf, san'atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar bilish ob'ektlari hisoblanadi. Bilish ob'ektlari, moddiy ma'naviy, konkret, mavhum, tabiiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Bilish ob'ektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo'lgan borliqni qamrab oladi. Bilish ob'ektlariga asoslanib bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

Bilish sub'ekti. Bilish bilan shugillanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish sub'ekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchi-olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish sub'ektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o'zi ayni bir vaqtda ham bilish ob'ekti, ham bilish sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

Bilishning maqsadi. Ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniylashtirish tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Fan-fan uchun emas, balki inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim. Inson ilmiy bilimlar vositasida ma'naviy barkamollikka erisha borgan sari ilm-fan qadriyat sifatida e'zozlana boshlaydi. Fanning har tomonlama rivojlanishi bilan turli ilm sohasining hamkorligi kuchayadi, butun ilmiy jamoalar bilish sub'ekti, yangi ilmiy kashfiyotlar ijodkoriga aylanadilar.

Bilish predmeti. Sub'ektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish ob'ektining ayrim sohalari va tomonlari bilish predmetidir. Fanning g'ranish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografiya, ixtiologiya va boshqa sohalari vujudga kelgandir. Tadqiqot predmeti fanlarni bir-biridan farqlashga imkon beradigan muhim belgidir.

Bilish darajalarini shartli ravishda: quyi, yuqori va oliy darajaga ajratish mumkin. Bilishning quyi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lib, hissiy bilish deyiladi. Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

Insonning sezgi a'zolari (kgrish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo'lgani singari uning narsaga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muhitga moslashish va himoyalash uchun yordam beradi. Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo'lib, aqliy bilish (ratsional bilish) deyiladi. Agar inson o'z sezgilari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir. U doimo hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo'ladi. Shu sababdan hodisa aldamchi va chalgituvchidir. Binobarin, inson sezgilarining biron-bir narsa yoki hodisa haqida bergan ma'lumotlari hech qachon uning butun mohiyatini ochib bera olmaydi.

Tushuncha. Aqliy bilish yoki tafakkur vositasida bilish hissiy bilishni inkor etmaydi, balki sezgilar vositasida olingan bilimlarni umumlashtirish, tahlil qilish, sintezlash, mavhumlashtirish orqali yangi hosil qilingan bilimlardan tushunchalar yaratiladi.

Tushunchada insonning hissiy bilish jarayonida orttirgan barcha bilimlari mujassamlashadi. Tushuncha aqliy faoliyat mahsuli sifatida vujudga keladi. Narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib borishda tushuncha muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Aqliy bilish hissiy bilishga nisbatan ancha murakkab va ziddiyatli jarayondir. Aqliy bilishda narsa va hodisalarning tub mohiyatini bilish uchun ulardan fikran uzoqlashish talab etiladi. Masalan, insonning mohiyati uning sezgi a'zolarimiz qayd etadigan kelishgan qaddiqomat, chiroyli qoshu-ko'zi, ijodkor qqli, oyoqlari bilan belgilanmaydi. Insoning mohiyati avvalo, uning aql va tafakkurga, yaratish qudratiga, mehr shafqat hissiga, mehnat qilish, so'zlash qobiliyatiga ega ekanligida namoyon bo'ladi.

Inson tushunchasi o'zida insoniyatning kpg asrlar davomida orttirgan bilimlarining mahsuli sifatida shakllandi. Har bir fan o'ziga xos tushunchalarni yaratadi va ular vositasida mohiyatni bilishga intiladi. I.Kantning fikricha narsalarning mohiyati so'z va tushunchalarda mujassamlashadi. Ya'ni biz so'z va tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida biron-bir bilimga ega bo'lamiz. Har bir inson dunyoga kelar ekan tayyor narsalar, munosabatlar bilan bir qatorda tayyor bilimlar olamiga ham kirib boradi.

Hukm. Aqliy bilish narsa va hodisalarga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni tasdiqlash yoki inkor etishni taqozo qiladi. Tafakkurga xos bo'lgan mana shu tasdiqlash yoki inkor etish qobiliyatiga hukm deyiladi. Hukmlar tushunchalar vositasida shakllanadi. Hukmlar yangi bilim hosil qilishga imkon yaratadi, ular vositasida narsa va hodisalar mohiyatiga chuqquroq kirib boriladi. Shunday qilib, hukm narsa va hodisalarni tub mohiyatini ifodalovchi eng muhim belgi va xususiyatlar mavjudligini yo tasdiqlaydi yoki inkor etadi. Masalan, "inson aqli mavjudotdir", degan hukmda insonga xos eng asosiy belgi aqlning mavjudligini tasdiqlayapti. Biroq inson shunday mavjudotdirki, uning mohiyati faqat aqli mavjudot ekanligi bilan cheklanmaydi. Chunki, qirgin barot urushlar, ekologik inqirozlar aqli mavjudot bo'lgan insonlar tomonidan amalga oshirildi. "Inson axloqli mavjudotdir". Inson to'g'risidagi hozirgi zamon fanning muhim xulosasi ana shu.

Xulosa. Aqliy bilishning muhim vositalaridan biri, yangi bilimlar hosil qilish usulidir. *Xulosa chiqarish induktiv va deduktiv bo'lishi*, ya'ni ayrim olingan narsalarni bilishdan umumiy xulosalar chiqarishga yoki umumiylikdan alohidalikka borish orqali bo'lishi ham mumkin.

Binobarin tushuncha, hukm va xulosalar chiqarish ilmiy bilishning muhim vositalaridir. Bunday bilish insondan alohida qobiliyat, kuchli irodani tarbiyalashni, narsa va hodisalardan fikran uzoqlashishni, diqqatni bir joyga tgplashni, ijodiy xayolni talab etadi.

Bilishning oliy darajasi intuitiv bilish, qalban bilish, goyibona bilishdir. O'zining butunborlig'ini fan, din, siyosat, san'at sohasiga bagishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayanadi. Buyuk shaxslarning goyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan yechimini kutayotgan umumbashariy muamolar bilan bogliqdir. Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gnoseologiyada muhim grin egallab keldi. Har bir fan o'ziga xos bilish usullaridan foydalanadi.

Ilmiy bilish fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dalillar tgplashning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.

Ilmiy bilish metodlarini grganadigan maxsus soha metodologiya deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o'z xarakteriga kgra: 1) *Eng umumiy ilmiy metodlar*; 2) *umumiy ilmiy metodlar*; 3) *xususiy ilmiy metodlarga bo'linadi*.

Eng umumiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo'lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirish kabilarni kgrsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida kuzatish, eksperiment, taqqoslash umumiy metodlar bo'lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik, umumimiy metodlar hisoblanadi.

Xususiy ilmiy metodlar har bir fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, suhbatlashish, anketa sgrovi, hujjatlarni grganish sotsiologiya faniga xos bo'lgan xususiy ilmiy metodlardir. Bir fanda yaxshi samara beradigan ilmiy bilish metodi boshqa fanda shunday samara bermasligi mumkin. Ilmiy bilishda to'g'ri metod tanlash bilishda muvofaqiyat garovi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy tadqiqotda nimani grganish kerak, degan masala ilmiy bilish metodini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Ilmiy bilish metodlari va ilmiy nazariya bir-biri bilan uzviy bogliqdir. Ilg'or ilmiy nazariya fanning butkul taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo'lib, u ilgarigi ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, gsha yutuqlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash orqali vujudga keladi. Fan mohiyatan o'zi erishgan yutuqlarga shubha bilan qarashni taqozo qiladi.

Fan, falsafa sohsida ershilgan yutuqlarni mutloqlashtirish, ularga kgr-kgrona siginish muqarrar ravishda dogmatizmni keltirib chiqaradi. Fan erishgan yutuqlar hamisha nisbiydir. Lekin, bunday nisbiylikni mutloqlashtirish relyativizm, fan yutuqlariga ishonchsizlik bilan qarash,

esa skeptiezimni vujudga keltiradi. Fan taraqqiyoti uchun dogmatizm, relyativizm va skeptitsizm jiddiy xalaqit beradi.

Ilg'or ilmiy nazariyalar ma'lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yig'inalishini o'zgartirishi, ilmiylikning o'ziga xos mezon bo'lishi ham mumkin. Masalan, Charlz Darvinning evolyusion nazariyasi, A.Eynshteyning nisbiylik nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Gnoseologiyada haqiqat tushunchasi muhim grin tutadi. Haqiqat inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni ochish yoki ilmiy haqiqatga ershish har qanday ilmiy bilishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat o'zini mazmuniga kgra mutlaq va nisbiy bo'lishi mumkin. Fan haqiqati hamisha nisbiy xarakterga ega bo'lib ularning majmuasidan mutlaq haqiqat vujudga keladi. Haqiqat o'z mazmuniga kgra hamisha ob'ektivdir. Ya'ni uning mavjudligi ayrim kishilarning hohish irodasiga bogliq emasdir. Masalan, O'zbekistonning milliy mustaqilligi ob'ektiv haqiqatdir. Ayrim kishilarning bu mustaqillikni tan olish yoki olmasligidan qat'i nazar, bu haqiqat o'z mazmunini saqlab qolaveradi. Haqiqatni atayin buzush yoki soxtalashtirish oxir oqibatda fosh bo'ladi va o'z qadrini ygqotadi. Shuningdek haqiqat hech qachon mavhum emasdir. U hamisha konkretidir. Hegel so'zlari bilan aytganda nimaiki voqe bo'lsa, u haqiqatdir, haqiqat voqelikdir. Haqiqat mazmunining konkret xarakteri joy, vaqt va sharoitni e'tiborga olishni talab etadi. Gnoseologiyada tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilishning o'ziga xos xususiyatlarini anglash muhim ahamiyatga egadir. Uzoq yillar davomida tabiatshunoslik fanlariga xos bo'lgan ob'ektivlik, xolislik ilmiylikning muhim mezon deb hisoblab kelindi. Biroq XX asr o'rtalarida fan texnika inqilobi insoniyat oldida paydo bo'lgan muammolar tabiatshunoslik fanlari oldiga qadriyatli yondashuv vazifasini qgya boshladi. Aqlli mavjudot bo'lgan inson har qachon tabiatni grganishda hamisha o'z manfaatlarini ko'zlaydi. Tabiat resurslari cheksiz va bitmas tuganmasdir degan bir yoqlama qarash oxir oqibatda inson tomonidan tabiatga nisbatan shafqatiy munosabatlarni vujudga keltirdi. XX asrga kelib tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lish zaruriyati chuqurroq anglana boshlandi.

Ijtimoiy fanlar hamisha mavjud siyosiy tuzum, davrning talab va ehtiyojlari bilan uzviy bogliq ravishda rivojlanadi. Ijtimoiy bilishda jamiyat ham, bilish ob'ekti ham, bilish sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi: insoniyat o'z tarixini yaratuvchi va o'z-o'zini biluvchidir.

Tabiatshunoslikda nisbatan barqaror sistemalar bilish ob'ekti hisoblanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalar tadqiqotchiga hech qanday qarshilik kgrsatmaydi. Ijtimoiy bilishda esa, nisbatan tez o'zgaruvchi sistemalar bilish ob'ekti hisoblanadi. Ijtimoiy bilishga xos bo'lgan muhim xususiyat shuki, u oddiy ishlab chiqarish sohalarinigina emas, balki jamiyatning ancha murakkab ma'naviy hayotini, ijtimoiy siyosiy munosabatlarini, qarashlar va g'oyalarni ham grganadi. Ijtimoiy fanlar milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda muhim rol gynaydi.

Gnoseologiyaning maqsad va vazifalari, bilishning mohiyati mazmuni to'g'risida zarur bilimlarga ega bo'lish mamlakatimizda bilimdon, har jihatdan yetuk barkamol inson shaxsini shakllantirishda alohida grin tutadi. Bilish nazariyasi bo'lajak mutaxassis kadrlarda muayyan ilmiy layoqat va qobiliyatlarni shakllantirishga kgmaklashadi. Milliy mustaqillik yillarida gnoseologiya oldiga qgyilayotgan eng muhim vazifalardan biri, ilmiy bilimlarning jamiyatimizning taraqqiyoti, tinchligi va farovonligi uchun xizmat qilishini ta'minlaydigan omil va mexanizmlarini grganish, ulug' ajdodlarimizning ilmiy bilimlarini rivojlantirish borasida ortirgan tajribasini keng ommalashtirishdir.

Tayanch tushunchalar: Bilish, gnoseologiya, bilim, kundalik bilim, nazariy, bilim, bilish, ob'ekt, sub'ekt, hissiy bilish, mantiqiy bilish, ilmiy bilish metodlari, nazariya, haqiqat, nisbiy haqiqat, mutloq haqiqat.

Takrorlash uchun savollar:

1. Gnoseologiya nimani grganadi?
2. Bilish nima?
3. Hissiy va ratsional bilishning o'ziga xosligi nimada?
4. Ilmiy bilishning asosiy usullarini kgrsating.

5-Mavzu: Mantik -bilish nazariyasining tadqiqot ob'ekti

Reja:

1. Mantik ilmining predmeti va ahamiyati
2. Mantik ilmining nazariy va amaliy ahamiyati
3. Qadimgi dunyoda mantiq ilmining shakllanishi
4. Mantik fanining rivojlanish bosqichlari

Inson umumiy madaniyatining ajralmas bo'laklaridan biri – bu tafakkur madaniyati, fikrlarning to'g'ri, aniq-ravshan, izchil va asosli bo'lishi va ular bir-biriga zid bo'lmasligi. Aks xolda fikrimizdan mantiq (logika) yo'qoladi. Kundalik turmushda o'z fikrini aniq bayon eta olmay, chalkashliklarga yo'l qo'yadigan, hozirgina o'zi aytgan fikrni dam o'tmay inkor etadigan kishilarni tez-tez uchraydi. Mantik (logika)" termini yunonchadan tarjimada "fikir", "so'z", "qonun" ma'nosini beradi. Bu termin keng va tor (xususiy) ma'nolarda u olamdagi qonuniy, zaruriy bog'lanish va aloqalar, tartib va izchillikni, shuningdek, tafakkurimizning ichki aloqadorligi, tadrijiy fikrlanishi, turli fikrlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlar keng ma'noni ifodalaydi. Tor, xususiy ma'noda esa "mantiq asoslari" deganda fikrning strukturasi, tuzilishini, uning konkret shakllarini, chin (to'g'ri) bilimga erishishning shart-sharoitlari va qonun-qoidalarini o'rganuvchi maxsus falsafiy fan tushuniladi.

Falsafa kursidan bizga ma'lumki, ob'ektiv olamni bilish – xissiy bilishdir. Ya'ni sezgi, idrok va tasavvurdan boshlanadi. Biroq, xissiy bilish bizga narsa va xodisalarning tashqi tomonlari, zoxiriy bog'lanishlari to'g'risida ma'lumot berish bilan cheklanib, ularning ichki, botiniy bog'lanish va rivojlanish qonunlarini ochib bera olmaydi. Bu vazifani tafakkur ado etadi. Tafakkur voqelikni umumlashtirib va mavxumlashtirib (abstraktlashtirib), muayyan mantiqiy shakllarda – tushuncha, xukm va xulosalar shaklida aks ettirib beradi.

Mantiq asoslari fanining vazifalari uning predmetidan kelib chiqib, u inson tafakkurining "charxlanishi" ga ko'maklashadi, uning izchil, ziddiyatlardan xoli va e'tiborli bo'lishini ta'minlaydi. Mantik asoslarini puxta o'zlashtirish kishida o'z tafakkuri va o'zgalar tafakkuriga talabchan bo'lish, tanqidiy qarash xissini shakllantiradi, bu esa g'oyat katta amaliy va ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Bir so'z bilan aytganda, mantiq asoslari fani kishida abstrakt tafakkurni rivojlantiradi, unda umumiy tushunchalar, kategoriyalar bilan ish ko'rish ko'nikmalarini xosil qiladi.

Har bir fan kabi mantiq ilmi ham o'zining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Mantikka oid dastlabki an'analar Qadimgi Sharq mamlakatlarida, xususan Hindiston, Xitoyda vujudga keldi. Ularning shakllanishiga notiqlik san'ati, matematika ilmining rivojlanishi va shu kabilar katta ta'sir ko'rsatdi. Shuni aytish kerakki, Qadimgi dunyoda Aristotelgacha bo'lgan davrda mantiq falsafa tarkibida mavjud bo'lgan, mustaqil fan sifatida shakllanmagan. Qadimgi Hindistonda mantiq ilmining rivojlanishi uch davrni o'z ichiga oladi: 1) ilk budda mantig'i (er. av. VI-V asrlari); 2) nyaya, vaysheshika maktablarining mantiqiy ta'limoti (er. III-V asrlari); 3) budda mantig'ining rivojlangan davri (er. VI-VIII asrlari).

Hind mantiqshunoslari bahs - munozarada nima isbotlanayapti va qanday isbotlanayapti, degan masalani ajratib ko'rsatishgan. Ular isbotlashning elementlarini (tezis, asos, misol, birxillik, har xillik, bevosita hissiy qabullash, xulosa, avtoritet va shu kabilarni) batafsil tahlil etganlar. Ular tezis (tepalikda olov bor); asos (tepalikdan tutun chiqayapti); misol (qaerda tutun bo'lsa, sha yerda olov bor); shu holatga nisbatan qo'llash (bu tepalikda tutun bor); xulosa (demak, tepalikda olov bor) mantik shakllarini bilgan.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan ta'limotlar, Qadimgi Gresiyada mantiq ilmining shakllanishi va rivojlanishi bu ilmning bilimlar tizimidan mustahkam o'rin egallashida muhim ahamiyatga ega

bo'lgan, deb xulosa chiqarishimizga asos bo'ladi. Qadimgi Gresiyada shakllangan mantiq ilmi o'rta asrlarda yangi mazmun bilan boyitildi. Bu, ayniqsa, mantiqning Yaqin va o'rta Sharq mamlakatlarida, xususan, o'rta Osiyoda rivojlanishida yaqqol ko'rinadi.

VI-XIII asrlarga kelib, Yaqin va o'rta Sharqda Arab xalifaligi vujudga keldi, uning xukmron dunyoqarashi bo'lgan Islom dini qaror topdi. Tarixda «musulmon madaniyati» nomi bilan ma'lum bo'lgan madaniyat shakllandi. Bu yangi madaniyatning shakllanishiga o'rta Osiyo halqlarining iste'dodli vakillari muhim hissa qo'shdilar. Bu davrda diniy va dunyoviy ilmlar qatori mantiq ilmi ham rivojlandi. IX-XI asrlarda Sharq mamlakatlarida, xususan o'rta Osiyoda falsafiy va mantiqiy ta'limotlarning rivojlanishiga qadimgi yunon, xind mutafakkirlari asarlarining ko'plab tarjima qilinishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, IX-XI asrlar Yaqin va o'rta Sharqda mantiqiy ta'limotlarning rivojlanishidagi eng samarali davr hisoblanadi. Bu davrda mantiq ilmini o'rganishga bo'lgan talabning oshishi, birinchidan, tabiatshunoslik fanlarining rivojlanishi va tabiiy-ilmiy bilimlarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi bilan; ikkinchidan, ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni to'g'ri, adolatli hal qilishga intilishning ortishi bilan va, uchinchidan, eng muhimi, to'g'ri fikr yuritishga bo'lgan talabning, chin fikrlarni xato fikrlardan ajratish zaruriyati bilan izohlanadi.

IX-XI asrlarda mantiq masalalari bilan astoydil shug'ullangan o'rta Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiylarni ko'rsatish mumkin. Bu mutafakkirlarning mantiqqa bag'ishlab yozgan asarlari asosan to'qqiz nomdan iborat ekanligini va ularning nomlanishi, ketma-ketligi bir xil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab shuki, Aristotelning «Organoni» ni tashkil etuvchi oltita mantiqiy traktatlariga («Kategoriya», «Talqin haqida», «Birinchi analitika», «Ikkinchi analitika», «Topika», «Sofistik raddiya») suriyaliklar uning «Ritorika»si bilan «Poetika»sini qo'shdilar. Bundan avvalroq esa unga Porfiriyning «Isog'uvchi» asari qo'shilgan edi. Shunday qilib «Organon» to'qqiz traktatdan iborat bo'lgan yaxlit ta'limot sifatida arab faylasuflari tomonidan qabul qilingan. Shu asosga ko'ra Forobiy, Ibn Sino, Al-Xorazmiylar mantiqqa oid ta'limotlarini aynan shu tartibda ishlab chiqdilar.

Mantiq masalalarini keng va izchil tadqiq etgan mutafakkir al-Forobiy (873-950) dir. U Sirdaryo bo'yidagi o'tror shahar qal'asida, turkiy harbiy oilada dunyoga keldi. Buxoro va Samarqand shaharlarida bilim oldi. U qadimgi grek, hind falsafasini chuqur o'rgandi, ilmning turli sohalariga oid 160 dan ortiq turli hajmdagi risolalar yozib qoldirdi, umrining so'nggi yillarini Damashqda o'tkazdi. Forobiya mantiqiy bilimlar sistemasi «Isog'uvchi» (Kirish), «Maqulot» (Kategoriya), «Ibora» (Xukm), «Qiyos» (Silloqizm, Birinchi Analitika), «Burxon», (Isbotlash, «Ikkinchi Analitika»), Jadal (Dialektika), «Safsata» (Sofistik raddiya), «Xitoba» (Ritorika), «She'r» (Poetika) asarlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, Forobiy «Mantiq ilmiga kirish», «Aql haqida», «Shartli hukmlar», «Silloqizm» kabi asarlarida mantiq masalalarini ishlab chiqdi. «Ilmlar tasnifi» asarida ham mantiq ilmining predmeti, tuzilishi, ilmlar sistemasida tutgan o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritadi.

Forobiyning mantiq sohasidagi ishlarining davomchilaridan yana biri, turli ilm sohalariga oid qator asarlar yaratgan, o'z davrining dunyoga mashhur qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino (980-1037) dir. Ibn Sino 400 dan ortiq asarlar muallifi, ulardan 150 dan ortig'i falsafa va mantiq masalalariga bag'ishlangan. Bular orasida falsafa va mantiq fanining barcha masalalarini izchil ravishda o'z ichiga olgan asari - «Kitob-ash-shifo» dir. «Kitob-ash-shifo» ning mantiqqa oid qismi 9 bo'lakdan iborat bo'lib, ularning nomlanishi va tartibi Forobiyniki kabi. Mutafakkirning bu asari mantiq sohasidagi barcha ilmlar asosida vujudga kelgan bo'lib, unda mantiqqa oid masalalar to'liq qamrab olingan.

Aristotelning mantiqiy ta'limoti Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushdlarning mantiqqa oid asarlari orqali, ya'ni Sharq orqali Yevropaga kirib keldi. O'rta asr Yevropasida mantiq masalalari asosan umumiy va yakka tushunchalarning o'zaro munosabati doirasida o'rganilgan.

Yangi davrda Yevropada fanning, ayniqsa tabiatshunoslikning rivojlanishi ilmiy metod (uslub) masalalariga e'tiborni kuchaytirdi. Bu davrning buyuk mutafakkirlari R.Dekart, F.Bekon, T.Gobbs, Leybnis va boshqalar mantiq ilmining turli yo'nalishlarining yaratilishiga asos soldilar.

XVIII-XIX asrlarda esa nemis falsafasi, xususan uning yorqin vakillari bo'lgan I. Kant (1724-1804) va V.F. Gegel (1770-1831) yaratgan mantiqiy sistemalar muhim o'rin tutadi. Nemis mantiqshunosligidagi faoliyatni esa XIX-asrning o'rtalari - XX-asrning boshlarida Bul, A.M. De-Morgan, Ch.Pirs, G.Frege va boshqa taniqli olimlar amalda davom ettirdi va fanga o'z hissalarini qo'shdilar.

Formal mantiqning asosiy qonunlari. Olamdagi narsa va hodisalar harakati o'ziga xos ichki qonunlar asosida yuzaga keladi. Bu harakatning inson ongidagi in'ikosi, ya'ni tafakkur jarayoni ham o'ziga xos ob'ektiv qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Falsafada qonun tushunchasi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarini ifodalaydi. Formal mantiqda ilmida qonun tushunchasi fikrlash elementlari o'rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi. Mantiqiy tafakkur ikki turdagi qonunlarga bo'ysunadi. aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bo'lishini e'tiborga olgan holda o'rganadi.

Formal mantiq qonunlari fikrlashga xos muhim, zaruriy bog'lanishlar tushuniladi. Tafakkur qonunlari ob'ektiv voqelikning inson miyasida uzoq vaqt davomida aks etishi natijasida vujudga kelgan va shakllangan. Bu qonunlar fikrlashning to'g'ri amalga oshishini ta'minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bo'lgan tushunchalar, mulohazalar (xukmlar) hamda xulosa chiqarishning shakllanishi va o'zaro aloqalarini ifodalaydi. Tafakkur qonunlari yuzaki qaraganda sub'ektiv qonunlardek bo'lib tuyulsa ham, aslini olganda, ob'ektiv mazmunga egadir. Bu qonunlar hamma kishilarning fikr yuritishida bir xil amal qiluvchi umuminsoniy qonunlardir. Ularni buzish, almashtirish, o'zgartirish, yangilash mumkin emas. Tafakkur qonunlariga amal qilish to'g'ri, tushunarli, aniq izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli bo'lish va isbotlilik (asoslanganlik) to'g'ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo'lganligi uchun ularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Inson tafakkuriga xos bo'lgan muhim xislatlardan biri fikrning aniq bo'lishidir. Ma'lumki, ob'ektiv voqelikdagi har bir buyum, hodisa o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega. Bu belgi va xususiyatlar buyum va hodisalarni bir-biridan farqlashga, ularning o'ziga xos tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, buyum va hodisalarning inson tafakkurida aniq aks etishini, har bir fikr, mulohazaning aniq, ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Fikrning noaniqligi fikrdagi mantiqning sayozlashuviga, mantiqsizlikka olib keladi. Masalan, ob'ektiv va sub'ektiv sabab tushunchalarining mohiyatini aniqlab olmasdan birorta hodisaning kelib chiqish sabablari to'g'risida aniq fikr yuritib bo'lmaydi. Shu sababdan fikrdagi aniqlik to'g'ri tafakkurlashning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Ob'ektiv voqelikdagi buyum va hodisaning joylashishi, o'zaro munosabati va bog'lanishida muayyan tartib, izchillik, ketma-ketlik mavjuddir. Buyum va hodisalarning bu xususiyatlari fikrlash jarayonining izchil amalga oshishida o'z ifodasini topgan. Tafakkurga xos bo'lgan izchillik belgisi har bir fikrning muayyan tartibda o'zaro bog'langan holda bayon etilishini talab qiladi. Fikrdagi izchillikning buzilishi, fikr ma'nosining o'zgarishiga olib keladi va bunday fikrni tushunib olish qiyinlashadi. Masalan, birorta faylasuf - mutafakkirning umumfalsafiy qarashlarini o'rganmasdan turib, uning ijtimoiy yoki ahloqiy ta'limotining mohiyatini to'liq tushunib bo'lmaydi.

Ayniyat qonuni. Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda ularga xos bo'lgan barcha muhim belgilar, tomonlar qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatlarda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o'zgarmas va qat'iy mazmunga ega bo'ladi. Tafakkurga xos bo'lgan bu aniqlik xususiyati ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi. Ayniyat qonuniga ko'ra ma'lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o'z-o'ziga tengdir. Bu qonun formal mantiq ilmida «A-A dir» formulasi bilan ifodalanadi. Ayniyat qonuni simvolik mantiq ilmida, ya'ni mulohazalar mantig'i va predikatlar mantig'ida o'ziga xos ko'rinishda ifodalanadi:

Nozidlik qonuni. Inson tafakkuri aniq, ravshan bo'libgina qolmasdan, ziddiyatsiz bo'lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo'lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma'lumki, ob'ektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo'lishi, ham ega bo'lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o'zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo'lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo'ladi. Bir vaqtning o'zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo'lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni

sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo‘l qo‘ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo‘lishini ta‘minlaydi. Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o‘zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama-qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo‘lishi mumkin emasligini, xech bo‘lmaganda ulardan biri albatta xato bo‘lishini ifodalaydi. Bu qonun «A ham V, ham V emas bo‘la olmaydi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig‘ida bu qonun quyidagi formula orqali yoziladi: $\forall x (r(x) \cdot \bar{p}(x))$, ya‘ni har qanday $r(x)$ mulohaza uchun $r(x)$ va uning inkori birgalikda chin bo‘lmasligi to‘g‘ridir.

Uchinchisi istisno qonuni. Uchinchisi istisno qonuni nozidlik qonunining mantiqiy davomi bo‘lib, fikrning to‘liq mazmunini qamrab olib bayon qilingan ikki zid fikrdan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o‘rin yo‘q ekanligini ifodalaydi. Bu qonun «A V yoki V emasdir» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig‘ida bu quyidagi formula orqali ifodalanadi: $r \vee \bar{p}$. Bu formula quyidagicha o‘qiladi. r yoki r emas. Uchinchisi istisno qonuni tushunchalar o‘rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar tushunchaning to‘liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma‘lum bo‘lsa, unda uchinchisi istisno qonuni amal qilmaydi. Masalan:

Talaba imtihonda «a’lo» baho oldi.

Talaba imtihonda «ikki» baho oldi.

Bu mulohazalar munosabatida nozidlik qonuni amal qiladi. Chunki bu mulohazalarning har ikkisi ham xato bo‘lishi va talaba imtihonda «o‘rta» yoki «yaxshi» baho olishi mumkin. Agar, «Talaba imtihonda «a’lo» baho oldi» va «Talaba imtihonda «a’lo» baho olmadi», mulohazalarini tahlil qilsak, unda bu mulohazalardan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o‘rin yo‘q ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Chunki «yaxshi», «o‘rta» va «ikki» baholar-»a’lo» baho emas. Uchinchisi istisno qonuni quyidagi holatlarda qo‘llaniladi: 1. Alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida o‘zaro zid fikr bildirilganda. Masalan,

Toshkent-o‘zbekistonning poytaxti.

Toshkent-o‘zbekistonning poytaxti emas.

Bu mulohazalar birgalikda chin ham, xato ham bo‘la olmaydi. Ulardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchisi mulohazaga o‘rin yo‘q. Uchinchisi istisno qonuni o‘zaro zid umumiy mulohazalar doirasida amal qilmaydi. Chunki umumiy mulohazalarda buyumlar sinfiga va shu sinfga mansub har bir buyumga nisbatan fikr bildiriladi.

Masalan: Hamma faylasuflar notiqdir.

Hech bir faylasuf notiq emas.

Bu mulohazalardan, birining xatoligidan ikkinchisining chinligi haqida xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Bunday holatda «Ba’zi faylasuflar notiqdir» degan uchinchisi bir mulohaza chin hisoblanadi.

Yetarli asos qonuni. To‘g‘ri fikrlashga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo‘lmasligi uchun, uni isbotlashga, asoslashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma‘lum bo‘lgan va o‘zaro mantiqiy bog‘langan mulohazalarga asoslaniladi, ya‘ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma‘lum bo‘lgan, tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi. Inson tafakkuriga xos bo‘lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnis ta’riflab bergan. Uning ta’kidlashicha, barcha mavjud narsalar o‘zining mavjudligi uchun yetarli asosga ega. Har bir buyum va hodisaning real asosi bo‘lgani kabi, ularning in’ikosi bo‘lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo‘lishi kerak. Yetarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: «Agar V mavjud bo‘lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud».

Yetarli asos qonunida to‘g‘ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog‘lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko‘rib o‘tilgan qonunlar bilan o‘zaro bog‘liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos deb, berilgan mulohazaning o‘zi esa mantiqiy natija deb yuritiladi.

Inson tafakkuri tushunchalar asosiga qurilgan. Tafakkurni muxtasam binoga qiyos etsak, uning “g‘isht” lari turli – tuman tushunchalarga o‘xshaydi. Ular o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ob‘ektiv voqeilikdagi biz fikr qiladigan narsa-xodisalar mantiq asoslarida fikr predmetlari deb ataladi. Chunonchi, kitob, daraxt, institut, jumxuriyat, avtomobil va hokazolar. Bu narsa-xodisalar turli xususiyatlarga ega. Ularning mantiq ilmida belgilangan deb atash qabul qilingan. Masalan, kitobning katta kichikligi, mundariyasi, rangi, qalin yupqaligi va boshqalar. Predmetlar o‘z belgilariga ko‘ra bir-biriga o‘xshash bo‘lishi yoki farq qilishi mumkin. Predmetning boshqa predmetlardan tub farqini ko‘rsatadigan, uni aynan shu muayyanligini tashkil qiladigan xossalari uning muxim belgilari deb yuritiladi. Chunonchi, kitobning muxim belgisi – bu uning mutola qilishga mo‘ljallanganligidir. Bu mazkur tushunchaning muxim belgisi bo‘ladi.

“Inson” tushunchasi barcha odamlar uchun umumiy bo‘lgan bir necha muxim belgini o‘z ichiga olgan: bu ularning ong soxiblari ekanligi, tilga egaligi, mehnat qilish qobiliyati, ijtimoiy moxiyatidan iborat. Kishilarning irqiy, milliy, kasb-korga oid, jinsiy, yosh xususiyatlari esa ushbu tushunchaning nomuxim belgilari bo‘ladi.

Har qanday tushuncha so‘z bilan ifodalanadi. Tushuncha buyumni in‘ikos ettirsa, so‘z buyum nomini bildiradi. Tushunchalar bir yoki bir necha so‘z (so‘z birikmasi) yordamida ifodalanadi. So‘z - tushuncha, ya‘ni bilimning moddiy-buyumlashgan qobig‘i, xissiy shaklidir. Shu boisdan odamlar tushunchalar bilan almashina oladilar, ularning qabul qilingan ma‘nolarda qo‘llaydilar, aralashtirib yubormaydilar.

Har bir tushuncha o‘z mazmuni va hajmiga ega. Tushunchaning mazmuni deganda mazkur tushuncha aks ettirayotgan predmetning muhim belgilari yig‘indisi tushuniladi.

Tushuncha doirasiga kiradigan narsa va xodisalar yig‘indisi to‘plamiga tushuncha xajmi deyiladi. Tushunchalar xajmi keng yoki tor bo‘lishi mumkin. Kengroq tushunchalar jinsiy tushunchalar, torroq tushunchalar esa tur tushunchalar deyiladi. Biroq jins va tur tushunchalarga bo‘lish shartli xarakterga ega, negaki qay nuqtai nazardan qaralishiga, qanday tushunchaga nisbat berilishiga ko‘ra bir tushunchaning o‘zi turli munosabatlarda o‘zini turlicha namoyon qilishi mumkin. Chunonchi, yuqorida jins tushuncha o‘rnida kelgan “shaxar” tushunchasi “manzilgox” tushunchasi bilan nisbatan olingan tur tushunchaga aylanib, ikkinchisi jins tushuncha rolini bajaradi, tur tushuncha deb qaraganimizda “o‘qituvchi” esa “tarix fani o‘qituvchisi” tushunchasiga nisbatan jins tushuncha bo‘ladi va hokazo.

Tushunchalar o‘rtasida jins-tur munosabatlari tushunchaning xajmi bilan mazmuni o‘rtasidagi teskari aloqa qonuni deb atalgan formal-logik qonunda o‘z aksini topgan. Bu qonunga ko‘ra, tushunchaning mazmuni qanchalik keng bo‘lsa, ya‘ni uning xajmi shunchalik tor bo‘ladi va aksincha, tushunchaning mazmuni qanchalik torayib, ya‘ni belgilari kamayib, umumiy lashib borsa, uning xajmi shunchalik kengayib boradi. Masalan, “o‘qituvchi” va “metodist-o‘qituvchi” tushunchalarini olsak, ularning birinchisining xajmi keng, ikkinchisining tor. Biroq mazmunan teskari: ikkinchisining mazmuni birinchisiga qaraganda kengroqdir, negaki “metodist-o‘qituvchi” tushunchasining qo‘shimcha yana bir muxim belgisi bor: u o‘qituvchilar uchun xos barcha umumiy belgilardan tashqari yana bir muxim belgisini – yuksak maxoratli, malakali o‘qituvchining belgisini ham o‘z ichiga olgan. Shu ma‘noda “o‘qituvchi” tushunchasidan “metodist-o‘qituvchi” tushunchasiga o‘tilganda tushuncha xajmi torayadi (negaki metodist-o‘qituvchilar jami o‘qituvchilarning ma‘lum bir qismini tashkil etadi xolos), mazmuni va uning belgilari miqdori ko‘payishi evaziga kengayib boradi.

Tushunchalarning mazmuni va xajmiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi: 1. Mazmuniga ko‘ra: a) konkret va abstrakt; b) nisbatdosh va nisbatsiz; v) ijobiy va salbiy; 2. Xajmiga ko‘ra: a) yakka va umumiy; b) jamlovchi tushuncha.

Ayrim predmet va xodisalarni yoki ularning turkumi, sinfini aks ettirgan tushunchalar konkret tushunchalar deyiladi. Bular qatoriga “yotoqxona”, “qo‘shiq”, “Oybekning “Qutlug‘ qon” romani”, “o‘qitish metodi” singari tushunchalarni kiritish mumkin. Narsa va xodisaning o‘zini emas, balki undan fikran ajratib olingan biror belgisini aks ettirgan tushuncha abstrakt (mavxum) tushuncha deb ataladi. Chunonchi, “xaqiqatan”, “sof”, “ulug‘vor”, “tubanlik” va hokazo. Nisbatdosh deb bir-birini taqozo etadigan, biri ikkinchisi orqali aniqlanadigan

tushunchalarga aytiladi. “ish-ishchi”, “oq-qora”, “mazmun-shakl” shunday tushunchalar sirasiga kiradi.

O‘z-o‘zicha, mustaqil, biri ikkinchisiga bog‘liq bo‘lmagan narsa va xodisalar aks ettirilgan tushunchalar nisbatsiz xisoblanadi. Ijobiy tushuncha narsa yoki xodisaga u yoki bu sifat (belgi) xosligini ko‘rsatadi. Predmet yoki xodisaning u yoki bu sifat (belgi) lardan maxrum ekanligini ta’kidlagan tushunchalar salbiy tushunchalarni tashkil etadi. Chunonchi, “beqaror xolat”, “farosatsiz”, “noaniq maqsad” va shu kabi xollarda “-be”, “-no”, “-siz” qo‘shimchalarini qo‘shish yo‘li bilan xosil qilinadi.

Agar tushuncha ob‘ektiv reallikni u qanday bo‘lsa, shundayligicha, to‘g‘ri aks ettirsa, u chin tushuncha bo‘ladi, aksincha, tushuncha voqelikni buzib, noto‘g‘ri aks ettirsa, u yolg‘on tushuncha deb yuritiladi. Endi tushunchalarning xajmiga ko‘ra bo‘linishini ko‘rib chiqamiz. Yakka tushunchalar borliqdagi yakka, ayrim predmet va xodisalarni aks ettiradi. Masalan, “Namangan muhandislik-pedagogika instituti”. Tushunchaning hajmini unda aks etgan predmetlarni ayrim guruhlariga (ayrim predmetlarga) ajratish yo‘li bilan aniqlashga tushunchani bo‘lish deyiladi. Bo‘lish amalini bo‘linuvchi tushuncha (hajmi aniqlanishi lozim bo‘lgan tushuncha), bo‘lish asosi (predmetning tushunchada fikr qilanadigan birorta umumiy belgisi) va bo‘lish a‘zolari (bo‘lish natijasida hosil qilinadigan tur tushunchalar) tashkil etadi. Masalan «Inson» tushunchasini (bo‘linuvchi tushuncha) ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra (bo‘lish asosi) «ishchi», «dehqon», «ziyoli» (bo‘lish a‘zolari) tushunchalariga ajratish yo‘li bilan uning hajmi aniqlanadi. Bo‘linuvchi tushuncha-jins tushuncha, bo‘lish a‘zolari-tur tushunchalar bo‘lib, ular o‘zaro birga bo‘ysunish munosabatidadirlar.

Tushunchalarni bo‘lish amalini predmetlarni qismlarga ajratishdan farq qilish lozim. Masalan, avtomobilni kuzov, shassi, dvigatel va shu kabilarga ajratsak, uni qismlarga bo‘lgan bo‘lamiz. Predmetning qismi predmetning umumiy belgilariga ega bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun ham «Kuzov avtomashinadir», degan mulohaza hosil qilsak, u xato bo‘ladi. Agar «Avtomobil» tushunchasini «Yengil avtomobil», «Yuk tashuvchi avtomobil» tushunchalariga ajratsak, uni bo‘lgan bo‘lamiz. Bo‘lishning ikkita turi mavjud: asos bo‘lgan belgining o‘zgarishiga qarab bo‘lish va dixotomik bo‘lish. Birinchi turida predmetning birorta umumiy belgisi bo‘lish uchun asos qilib olinib, uning o‘zgarishiga muvofiq holda predmetlarning ayrim guruhlari aniqlanadi. Masalan: burchakning o‘zgarishiga qarab «uchburchak» tushunchasi uchta tur tushunchaga: «to‘g‘ri burchakli uchburchak», «o‘tmas burchakli uchburchak», «o‘tkir burchakli uchburchak»larga ajratiladi. Bo‘lish asosi qilib bo‘linuvchi tushunchaning mazmunida fikr qilanadigan har qanday umumiy belgini olish mumkin. Masalan «uchburchak» tushunchasini tomonlariga qarab «teng tomonli uchburchak», «teng yonli uchburchak», «turli tomonli uchburchak» tushunchalariga ajratish mumkin.

Tushunchaning qaysi belgisini bo‘lish asosi qilib olish bo‘lishda hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifaga bog‘liq. Lekin qanday vazifani hal qilishdan qat’iy nazar, bo‘lish o‘zining ob‘ektiv asosiga ega bo‘lishi lozim, ya’ni bo‘lish asosi bo‘lgan belgi predmetning umumiy belgisi bo‘lishi shart.

Xukm - tafakkur shakli sifatida. Xukm predmetga ma’lum bir xossaning, munosabatning xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shaklidir. Xukmning asosiy vazifasi predmet bilan uning xususiyati, predmetlar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatishdir. Ana shuning uchun ham u doimo tasdiq yoki inkor shakldagi fikrdan iborat bo‘ladi. Fikr yuritish jarayonida biz predmet va hodisalarning oddiy, tashqi xususiyatlari bilan birga ularning ichki, zaruriy bog‘lanishlarini, munosabatlarini bilib boramiz. Predmet va hodisalarning xususiyatlarini ketma-ket o‘rganib, ular haqida turli abstraksiyalar hosil qilamiz. Bu abstraksiyalar xukmlar yordamida ifodalanadi. Bilimlarimiz turlicha bo‘lgani uchun, ularni ifodalaydigan xukmlar ham har xil bo‘ladi. Ba’zi xukmlarda aniq, tekshirilgan bilimlar ifodalansa, boshqalarida xususiyatning predmetga xosligi taxmin qilinadi, ya’ni noaniq bilimlar ifodalanadi.

Xukmlar nisbatan tugal fikrdir. Unda konkret predmet bilan uning konkret belgisi haqida bilim ifoda qilingan bo‘ldi. Xukmlar voqelikka mos kelish darajasiga ko‘ra chin, xato va noaniq (ehtimol, taxminiy) bo‘ladi. Obektiv voqelikka mos kelgan, uni to‘g‘ri ifodalagan xukmlar chin,

mos kelmaganlari xato bo'ladi. Ayni vaqtda chinligini ham, xatoligini ham aniqlab bo'lmaydigan xukmlar - noaniq xukmlar mavjuddir. Xukmlar tilda gaplar orqali ifodalanadi. Xukm mantiqiy kategoriya bo'lsa, gap grammatik kategoriyadir. Xukmlar asosan darak gap orqali ifodalanadi. Faqat darak gaplardagina fikr tasdiq yoki inkor holda bo'ladi.

Masalan, «Vaqt orqaga qaytmaydi», «Hayot-bu harakat» kabi gaplar xukmni ifoda qiladilar.

Xukmlar tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy xukm deb tarkibidan yana bir xukmni ajratib bo'lmaydigan mulohazaga aytiladi. Tarkibidan ikki yoki undan ortiq xukmni ajratish mumkin bo'lgan mulohazalarga murakkab xukm deyiladi. Masalan, «Mantiq ilmini o'rganish to'g'ri fikrlash madaniyatini shakllantiradi» degan mulohaza oddiy xukmni ifodalaydi. «Mantiq ilmi tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganadi», degan mulohaza murakkab xukmdir. Bu mulohazaning tarkibi ikki qismdan: «Mantiq ilmi tafakkur shakllarini o'rganadi» va «Mantiq ilmi tafakkur qonunlarini o'rganadi», degan ikki oddiy xukmdan iborat.

Mulohaza (xukm) tarkibida mantiqiy ega va mantiqiy kesimni ajratib ko'rsatish mumkin. Mantiqiy ega-sub'ekt (S) fikr qilinayotgan predmet va hodisani bildiradi. Mantiqiy kesim-predikat (P) predmetga xos xususiyatni, munosabatni bildiradi. Predikatda ifodalangan bilimlar hisobiga sub'ekt haqidagi tasavvur boyitiladi. Xukmning sub'ekt va predikati uning terminlari deb ataladi. Xukmning uchinchi zaruriy elementi mantiqiy bog'lama. U sub'ekt va predikatni bir-biri bilan bog'laydi, natijada xukm hosil bo'ladi. Oddiy qat'iy xukmning formulasi quyidagicha yoziladi: S-P.

Oddiy xukmlar sifati va miqdoriga ko'ra turlarga bo'linadi. Sifatiga ko'ra tasdiq va inkor xukmlar farqlanadi. Xukmning sifatini mantiqiy bog'lama belgilaydi. Tasdiq xukmlarda belgining predmetga xosligi, inkor xukmlarda, aksincha, xos emasligi ko'rsatiladi. Masalan, «A. Oripov O'zbekiston Respublikasi Madhiyasining muallifidir»-tasdiq xukm, «Matematika ijtimoiy fan emas»-inkor xukm. Miqdoriga ko'ra oddiy xukmlar yakka, umumiy va juz'iy xukmlarga bo'linadi. Bunda sub'ektda ifodalangan predmetlarning soni, ya'ni uning hajmidan kelib chiqiladi. Yakka xukmlarda birorta belgining predmetga xosligi yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan: «O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlatdir», «Axmedov tarixchi emas». Umumiy xukmlarda birorta belgining yakka predmetlar sinfining hammasiga yoki undagi har bir predmetga taalluqli yoki taalluqli emasligi haqida fikr bayon qilinadi. Masalan: «Har bir inson baxtli bo'lishni hohlaydi», va «Hech bir aqlli odam vaqtini behuda sarflamaydi». Juz'iy xukmlarda birorta belgining predmetlar to'plamining bir qismiga xos yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan: «Ba'zi faylasuflar notiqdir». «Ko'pchilik talabalar dangasa emas». Juz'iy xukmlarda «ba'zi» so'zi «hech bo'lmasa bittasi, balki hammasi» degan ma'noda qo'llaniladi. Shunga ko'ra «Ba'zi toshlar tirik mavjudot emas», degan xukm chin bo'ladi, chunki hech bir tosh tirik mavjudot emas.

Mulohazalarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlashda va ba'zi boshqa holatlarda oddiy xukmlarning miqdor va sifati bo'yicha birlashgan klassifikatsiyasi (asosiy turlari) dan foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Umumiy tasdiq xukmlar. Ular bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham tasdiq bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hamma talabalar mantiq ilmini o'rganadilar». Bu xukmlar lotin alifbosidagi A harfi bilan belgilanadi va «Hamma S-Pdir» formulasi orqali ifodalanadi.

2. Umumiy inkor xukmlar bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hech bir ishbilarmon rejasiz ish yuritmaydi». Bu xukm «Hech bir S-P emas» formulasi orqali ifodalanadi va lotincha E harfi bilan belgilanadi.

3. Juz'iy tasdiq xukmlar bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham tasdiq bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba'zi talabalar mas'uliyatli». U lotincha I harfi bilan belgilanadi va «Ba'zi S-P dir» formulasi orqali ifodalanadi.


4. Juz'iy inkor xukm bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba'zi talabalar sport bilan shug'ullanmaydilar». Uning formulasi «Ba'zi S-P emas» bo'lib, lotincha O harfi bilan belgilanadi.

Murakkab xukmlar. Xukm terminlari birdan ortiq bo'lsa, murakkab xukm deb ataladi. Murakkab xukmlar «va», «yoki», «agar... unda» kabi mantiqiy bog'lamlar, inkor qilish va modal

terminlarni qo'llash orqali ikki va undan ortiq oddiy xukmlarning o'zaro birikishidan hosil bo'ladi. Mantiqiy bog'lovchining mazmuniga ko'ra murakkab xukmlarning quyidagi asosiy turlarini farq qilish mumkin: birlashtiruvchi, ayiruvchi, shartli, ekvivalent.

Normalar ilmiy bilishda qoidalarini, metodlarni, huquqiy sohada - huquqiy normativ hujjatlarni (masalan, qonunlarni, kodekslarni, buyruqlarni va shu kabilarni), axloqda-odob normalarini va boshqa sohalaridagi normativ fikrlarni ifoda qiladilar. Ularning bilishdagi va amaliyotdagi ahamiyati ana shu bilan belgilanadi.

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsiri. Voqelikni bilish jarayonida inson yangi bilimlarga ega bo'ladi. Bu bilimlar abstrakt tafakkur yordamida, mavjud bilimlarga asoslangan holda vujudga keladi. Bunday bilimlarni hosil qilish mantiq ilmida xulosa chiqarish, deb ataladi. Xulosa chiqarish deb bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma'lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqarishdan iborat bo'lgan tafakkur shakliga aytiladi. Xulosa chiqarish jarayoni asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o'tishdan tashkil topadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalam bor, asoslar chin mulohazalar bo'lishi, o'zaro mantiqan bog'lanishi kerak. Masalan, «Aristotel-mantiq fanining asoschisi» va «Platon yunon faylasufidir» degan ikki chin mulohazadan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki bu mulohazalar o'rtasida mantiqiy aloqadorlik yo'q. Xulosa asoslari va xulosa ham o'zaro mantiqan bog'langan bo'lishi shart. Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasiga ko'ra, aniqrog'i, xulosa chiqarish qoidalarining qat'iyligiga ko'ra hamda xulosa asoslarining soniga va fikrning harakat yo'nalishiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi.



berish imkonini yaratadi. Xususan, deduktiv xulosa chiqarish zaruriy xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish (to'liq induksiyaning hisobga olmaganida) va analogiya ehtimoliy xulosa chiqarish, deb olib qaralishi, bevosita xulosa chiqarish esa deduktiv xulosa chiqarishning bir turi sifatida o'rganilishi mumkin.

Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati unda umumiy bilimdan juz'iy bilimga o'tishning mantiqan zaruriy xarakterga egaligidir. Uning turlaridan biri bevosita xulosa chiqarishdir. Faqat birgina mulohazaga asoslangan holda yangi bilimlarning hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish simvolik mantiqda quyidagicha ifodalanadi: $X_{SP} \supset Y_{SP}$, bunda X va Y oddiy qat'iy mulohazalarni (A, E, I, O), S va P lar esa mulohazalarning sub'ekti va predikatini ifodalaydi. X_{SP} - xulosa asosi yoki antesedent, Y_{SP} - xulosa yoki konsekvant deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish jarayonida mulohazalarning shaklini o'zgartirish orqali yangi bilim hosil qilinadi. Bunda asos mulohazaning strukturasi, ya'ni sub'ekt va predikat munosabatlarining miqdor va sifat xarakteristikalarini muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bevosita xulosa chiqarishning quyidagi mantiqiy usullari mavjud:

Ma'lumki, deduktiv xulosa chiqarish aslida sillogizm shaklida bo'ladi. Sillogizm qo'shib hisoblash, degan ma'noni anglatadi. Bu termindan mantiqda, odatda, deduktiv xulosa chiqarishning ko'proq ishlatiladigan turi hisoblangan oddiy qat'iy sillogizmni ifoda qilish uchun foydalaniladi. Sillogizm xulosa chiqarishning shunday shakli, unda o'zaro mantiqiy bog'langan ikki qat'iy mulohazadan uchinchi-yangi qat'iy mulohaza zaruriy tarzda kelib chiqadi. Bunda dastlabki mulohazalardan biri albatta yo umumiy tasdiq yoki umumiy inkor mulohaza bo'ladi.

Hosil qilingan yangi mulohaza dastlabki mulohazalardan umumiyroq bo'lmaydi. Shunga ko'ra sillogizmni umumiylikka asoslangan xulosa chiqarish, deb atasa bo'ladi. Masalan, quyidagi mulohazalar berilgan bo'lsin:

Hech bir xasis saxiy emas.

Ba'zi boylar xasisdir.

Bu mulohazalardan zaruriy ravishda - «Ba'zi boylar saxiy emas», degan uchinchi mulohaza kelib chiqadi. Sillogizmning tarkibi oddiy qat'iy mulohazalardan tashkil topgani uchun u oddiy qat'iy sillogizm deyiladi.

Terminlarning katta yoki kichik deb atalishi ular ifodalagan tushunchalarning hajmiga bog'liq. Terminlar o'rtasidagi munosabatni doiralar yordamida quyidagicha ifodalash mumkin.

S - kichik termin.

M - o'rta termin.

R - katta termin.



O'rta termin katta va kichik terminni mantiqiy bog'lovchi element hisoblanadi.

Aksiomalar isbotsiz chin deb qabul qilingan nazariy mulohazalar bo'lib, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Sillogizmning aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi. Sillogizm aksiomasini terminlarning hajmiga yoki mazmuniga ko'ra, ya'ni atributiv ta'riflash mumkin. Sillogizm xulosasining asoslardan zaruriy keltirib chiqarilishi quyidagi qoidaga asoslanadi: «agar bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumning ichida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumning ichida joylashgan bo'ladi» yoki «bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumdan tashqarida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumdan tashqarida joylashgan bo'ladi». Bu qoidani quyidagi sxemalar yordamida yaqqol ifodalash mumkin.



Bu qoida sillogizm aksiomasining mohiyatini terminlarning hajmi munosabatlari asosida tushuntirib beradi. Sillogizm aksiomaning mohiyati quyidagicha: buyum va hodisalarning sinfi to'g'risida tasdiqlab yoki inkor etib bayon qilingan fikr shu sinf ichiga kiruvchi barcha buyum va hodisalarning har biri yoki ayrim qismiga ham taalluqli bo'lgan tasdiq yoki inkor fikr hisoblanadi.

Masalan:

Tafakkur shakllari ob'ektiv xarakterga ega.

Tushuncha tafakkur shaklidir.

Tushuncha ob'ektiv xarakterga ega.

Sillogizm aksiomasini atributiv ifodalaganda predmet bilan uning belgisi o'rtasidagi munosabatga asoslaniladi: biror buyum, hodisa belgisining belgisi, shu buyum hodisaning belgisidir; buyum, hodisa belgisiga zid bo'lgan narsalar buyum, hodisaning o'ziga ham ziddir. Sillogizm aksiomalarida fikr shakli va mazmuni o'zaro uzluksiz, ob'ektiv bog'langan bir butunning ayrim tomonlarini ifodalaydi. Bu bir tomondan, hamma umumiylikka xususiylik, juz'iylik va yakkalik xos ekanligini va har bir yakkalik, juz'iylik, xususiylik umumiylik xislatiga ega bo'lishini ifodalasa, ikkinchi tomondan, buyum va belgining o'zaro uzviy bog'langanligini, ya'ni buyumlar jinsi ayrim o'ziga xos belgiga ega bo'lsa, albatta, bu belgi shu jinsdagi hamma buyumlar uchun ham xos belgi bo'lishini ifodalaydi. Bular esa o'z navbatida yakkalik va umumiylik o'rtasidagi, miqdor va sifat o'rtasidagi dialektik aloqadorlikning tafakkur jarayonida o'ziga xos namoyon bo'lishidir.

6-Mavzu: Jamiyat va inson falsafasi.

Reja:

1. Hozirgi zamon falsafasi va asosiy oqim va yig'inalishlar

2. Jamiyat rivojida tarixiylik va vorisiylik.
3. Sivilizatsiyaning tarixiy shakl va xususiyatlari.
4. Madaniyat va sivilizatsiyaning asosiy tamoyillari, qonuniyat va xususiyatlarini bilish-ma'naviy kamolot manbai.

Ma'lumki hamma zamonlarda ham falsafa o'z davrining dolzarb muammolarini hal etish yo'llarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtimoiy silsilalar ikkita jahon urishi ekologik inqiroz ogir yo'qotishlar davri ham buldi. Bu esa falsafiy fikrning taraqqiyotida o'z aksini topdi, uning turli yig'inalish va oqimlari ko'yillangan muammolarning salmogi, maqsad muddaosini aniq belgiladi.

Hozirgi zamon falsafasining eng asosiy tamoyillari umuminsoniylikning ustuvorligi, uning milliylik bilan uyg'unligi, demokratik erkinliklar inson qadri, biror ta'limotni mutloqlashtirmaslikdir. Bag'rikenglik va tolerantlik hozirgi falsafiy ta'limotlar rang barangligini ta'minlaydi.

Ana'naviy falsafada turli g'oyaviy tizimlarga bo'linishiga qaramay muhim muammolarni hal etishda ma'lum bir umumiylik mavjud edi. Hozirgi zamon falsafasida aksincha, falsafiy muammolarning kpg xilligi va o'ziga xosligi turli tumanligi, ular asosida falsafiy oqimlarning mustaqil yig'inalish sifatida shakllanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ana'naviy falsafada aql inson mohiyatining belgilovchisi, deb talqin etilgan bo'lsa, endi ratsionalizmga qarshi insonning mavjudligi muammolari, hamda uning noratsional mohiyati ilgari surila boshladi. Ya'ni ilgari ma'rifatparvarlik g'oyasi ustuvor bo'lsa, endilikda kgproq inson huquqlariga e'tibor kuchayib ketdi. Falsafa g'oyasi mavjudlikdan aniqlik tomon bordi, umumiy emas, aniq ravshan masalalarni hal qilish boshlandi.

Ana'naviy falsafada hodisalar mexanika qonunlari asosida tushuntirishga harakat qilingan bo'lsa, endi bunday tahlil doirasidan chetda qolgan muammolar g'rganila boshlandi. Bugungi kunga kelib kgpgina falsafiy oqimlar o'zlarining ana'naviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida nomlariga "neo" ya'ni yangi zamonaviylashgan degan ma'noni anglatuvchi qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopositivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Yangicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlar orasida kgpchilik nemis olimi Artur Shopenhauer (1788-1860) qarashlarini tilga oladi. Shopenhauer olamdagi barcha mavjud narsalarni irodani namoyon bo'lishi deydi, irodani esa ongsiz kgr-kgrona intilish tarzida tushunadi. Maxluqotlarning instinktlari hatti-harakatlari irodaning namoyon bo'lishidir. Inson faoliyati ham aqldan begona bo'lgan irodani namoyon bo'lishidir. Shuning uchun inson mohiyati irratsional asosga ega aql esa tasodifiydir, deydi.

Shopenhauer ta'limotini davom ettirgan nemis faylasufi Fridrix Nisshe (1844-1900) fikricha, «borliqning eng chuqur mohiyati hokimiyatga erishish uchun bo'lgan irodadir». Nisshe insonborlig'ida maxluqlik va holiqlikni birlashib ketganini asoslab berishga harakat qildi. Uning diyorimizda bundan ikki yarim ming yil muqaddam shakllangan zardgshtiylik ta'limotini g'rganib yaratgan. «Zardgsht tavallosi» asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan. U o'z ortidan irodasiz kishilar ommasini yetaklashga qodir bo'lgan, irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash darajasida bo'lgan. Nisshening sivilizatsiya va madaniyatning sgnishi va barham topishi to'g'risidagi g'oyasiga asoslanib, 1918 yilda Shpengler «Yevropaning sgnishi» degan asarini yozadi. Shu zaylda «Orqaga Kantga» shiori ostida neokantchilik, «Orqaga Hegelga» shiori ostida esa neohegelchilik paydo bo'ldi.

Shu bilan birga, falsafaning klassik ildizlarini saqlab qolishni diniy oqim neotomizm ham yoqlab chiqdi.

Insoniyatni grab turgan muhitning tarkibiy qismi bo'lgan odamzodning yaratuvchilik qobiliyatini ko'z-ko'z qiladigan eng buyuk ne'matlar orasida madaniyat asosiy grinlardan birini egallaydi.

Keyingi yillarda madaniyat tushunchasi bilan birga «sivilizatsiya» atamasi ham tez-tez eshitiladigan bo'lib qoldi. Muayyan xalq, hudud yoki davlatning taraqqiyot bosqichlari, ularga xos madaniy rivojlanish to'g'risida gap ketganda, olim va mutaxassislar ana shu atamadan foydalanmoqda. Bu esa o'z-o'zidan «Xgsh madaniyat nima?, sivilizatsiya-chi?» kabi savollarga javob berishni taqazo etadi. Madaniyat kpg qirrali ijtimoiy tarixiy hodisa bo'lib, insoniyat ma'naviyati yuksalib borgan sayin mazkur tushunchaning mazmuni tobora boyib boradi. Madaniyat inson tomonidan yaratilgan sun'iy olamdir yoki ikkinchi tabiatdir degan qarashlar ham ygq emas. Bunda odam zotini yaratuvchilik qobiliyati, iqtidori va shu asosidagi faoliyati hamda ularning natijalari nazarda tutiladi.

Tarixdan jamiyat taraqqiyotining muayyan davrlarida madaniyatning nihoyatda gullab-yashnagan davrlari bo'lgani ma'lum. Masalan, qadimgi Yunonistonda miloddan ilgari VII-II asrlarda fan va madaniyat nihoyatda rivojlangan. Gsha davrda yashagan Suqrot, Aflotun, Arastu kabi gnlab allomalarning nomlari insoniyat tarixiga abadiy muhrlangan. Hozirgacha insoniyat tarixini grganadigan mutaxassislar bu davrda Yunoniston madaniyatini jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri sifatida talqin etadilar. Taxminan ana shu davrda «Avesto» kitobini yaratgan yurtdoshlarimiz madaniyati ham yuksak bo'lganini bugungi kunda kpggina mutaxassislar e'tirof etmoqda. Xuddi shunday madaniyat taraqqiyotini yurtimiz tarixining VII-XII asrlarda yoki sohibqiron Amur Temur hukmronlik qilgan davrda kuzatish mumkin (XIII-XIV asr).

Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lsada, turlicha mazmun va xususiyatga egadir. Ba'zi olimlar madaniyat o'zining kelib chiqishga kgra sivilizatsiyaga nisbatan qadimiydir, u mohiyatan sivilizatsiyaning ruhi, jonidir, deb hisoblaydilar. Masalan, A.Toynbi «Tarixning idrok qilinishi» asarida shunday fikrlarni bayon etadi. Fransuz olimi R.Aron ham shunga yaqin xulosaga keladi. Uning fikricha, aynan madaniyat va sanoat sohasidagi tanazzul asta-sekin insoniyatni krizislar botqog'iga botilishi, bu esa, umumbashariyatning kelajagini xavf ostiga qgyishi ham mumkin.

Kishilar o'zaro munosabatga kirishayotganida ham millatning mentaliteti, axloqiy va ma'naviy xususiyatlarini hisobga oladi. Biror kishi bilan munosabatga kirishilayotganda ana shu xususiyatlar hisobga olingani kabi, xalqaro munosabatlarning ham ma'naviyat bilan bogliq yozilmagan qonunlari, aytilmaydigan qoidalari bor. Gohida madaniyat deyilganda, aynan ana shunday aytilmaydigan va yozilmaydigan qonuniyatlar nazarda tutiladi. Jahonda 1600 dan ortiqroq millat yashaydi. Ular uchun bizning Ona sayyoramiz umumiy vatan bo'lib hisoblanadi. Ana shu umuminsoniyat jamoasining hamjihat yashashi, birgalikda va yonma-yon faoliyati natijasida butun jahon madaniyati va sivilizatsiyasi shakllangan. Bu jarayonlar, o'z navbatida umuminsoniy va baynalminal madaniy tamoyillar asosida amalga oshadi. Madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ular o'rtasidagi umumiy jihatlarning kamol topishiga olib keladi.

Milliy-madaniyatning joni, uning millat bilan borliq yashash usuli, millatning unda namoyon bo'ladigan ruhidir. Umuminsoniylik esa madaniyatning butun jahonga xosligi ana shundan kelib chiqadigan umumbashariy xususiyatlari, jamiyat rivojining barcha davr va hududlariga xos umumiy tamoyillardir.

Milliy madaniyatlar bir-birini boyitadi. Ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir tabiiy ravishda xalqlar va millatlarning bir-biri bilan iqtisodiy, siyosiy, axloqiy sohalaridagi hamkorligi uzviy bogliqdir. Biroq bir milliy madaniyatni boshqa xalqlarga zgrlab targib etish, joriy qilish ijobiy natijalarga olib kelmaydi. *«Sivilizatsiya»* lotincha *«sivilus»* so'zidan olingan bo'lib, aynan «fuqorolikka oid» degan ma'noni anglatadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda sivilizatsiyaga turlicha tariflar berilyapti: sivilizatsiya-madaniy-texnik taraqqiyotning yuqori bosqichi(bunda yozuvning kashf etilishi, texnik kashfiyotlar, sanoat inqilobi sivilizatsiyaning muhim belgisi sifatida talqin etiladi); sivilizatsiya-jamiyatning muayyan namunasi (bunda u formatsiya tushunchasi bilan aynanlashtiriladi); sivilizatsiya-insoniyatning yovvoyilik va vahshiylikdan keyingi taraqqiyot davri.

Sivilizatsiya rivojlanishning muayyan bir bosqichida turgan xalq va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotidagi sifatiy o'ziga xosligidir. Ayrim tadqiqotchilar

sivilizatsiya asosini madaniyat, xalq, hudud bilan boglasalar, boshqalari dinni asos qilib oladilar. Aslida esa ularning hammasi ham sivilizatsiyaning taraqqiyotida o'z grniga ega.

Masalan, bizning Vatanimiz sivilizatsiyasida bu omillarning barchasi o'ziga xos ahamiyat kasb etganini kgramiz. Shu bilan birga, yurtimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va sivilizatsiyalashgan taraqqiyotida dunyoviy ilmlar qatorida turli diniy ta'limotlar ham o'ziga xos grin tutgan.

Vatanimiz tarixining keyingi uch ming yiliga nazar tashlasak, dunyoviy bilimlar va diniy qarashlar yonma-yon yashab kelganining guvohi bo'lamiz. Xalqimiz «Avesto»ni yaratgan davrlardan tortib bizning kunlargacha ana shu umumiy tamoyil o'z ta'sirini gtkazib kelgan. Ularning biri mutlaqlashtirilgan davrlarda madaniy taraqqiyot qanday aziyat chekkan bo'lsa, ikkinchisi tahqirlangan zamonlarda ham ana shunday ygqotishlar sodir bo'lgan. Milliy madaniyat sivilizatsiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Milliy madaniyatdan uzilib qolgan sivilizatsiya oxir-oqibatda inqirozga mahkum bo'ladi. sivilizatsiyalar o'z shakliga kgra Sharq va G'arb sivilizatsiyalari, xristian va musulmon sivilizatsiyalari, hududiy va jahon sivilizatsiyasi kabilardan iborat. Sharq sivilizatsiyasiga xos bo'lgan quyidagi muhim xususiyatlarni kgrsatish mumkin:

- Sharqdagi barcha dunyoviy, diniy va falsafiy ta'limotlar tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni, sabr toqatlikni targib etgan;
- Odamlar orasida bagrikenglik, birdamlik va hamjihatlik, andishalilik ruhi kuchli bo'lgan;
- Milliy qadriyat va an'analar e'zozlangan;
- Kattalar va ota-onaga hurmat bilan qarashga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Sharq sivilizatsiyasi bagrida rivojlanadi. Vatan va onaning muqaddasligi, jamoaviylik, o'zaro yordam, tabiatga oqilona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlik, kattalarga hurmat, kambagalparvarlik kabilar Sharq sivilizatsiyasiga xos belgilardir.

O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ilm-fan, axloq, din, san'at, madaniyat sohasidagi ulkan yutuqlari bilan munosib hissa qgshdi. Falsafa tarixida jamiyat rivojiga turlicha yondashishlar vujudga keldi. Bular-formatsiyaviy yondashuv, kgp variantli yondashuv, sivilizatsiyaviy yondashuv kabilardir. Ijtimoiy amaliyot, tarix tajribasi insoniyat jamiyati taraqqiyotiga formatsiyaviy yondashishning bir yoqlama, sun'iy ekanini kgrsatti. Hozirgi zamon G'arb falsafasida U.Rostouning iqtisodiy rivojlanish nazariyasi keng yoyildi. O.Toffler nazariyasiga kgra, butun insoniyat tarixi uch katta davrga-1. agrar jamiyat, 2. sanoat jamiyati va 3. postindustrial (axborot jamiyati) jamiyatga bo'linadi;

Ijtimoiy taraqqiyot sivilizatsiyaga yondashish har bir xalq, mamlakat, mintaqa taraqqiyotiga noyob va takrorlanmas jarayon sifatida qarashga asoslanadi. Bunday yondashish mohiyatan formatsiyaviy yondashishga ziddir. sivilizatsiyali yondashish har bir milliy madaniyatning o'ziga xosligi, noyob va betakrorligini saqlagan holda ijtimoiy rivojlanishning tadrijiy ygldan borishini e'tirof etadi va jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga tayanadi. Madaniyatshunoslik falsafaning mustaqillik yillarida mamlakatimizda keng taraqqiy etayotgan falsafiy fan sohalaridan biridir. Milliy davlatchilik asoslarini yaratmay va uning qudratiga tayanmay turib sivilizatsiya yglidan borib bo'lmaydi. Har bir xalq o'z tarixiy tajribalaridan kelib chiqib milliy madaniyati va intellektual salohiyatiga mos ravishda o'z milliy davlatchiligini yaratadi. Ijtimoiy-siyosiy va huquqiy madaniyat bunday sivilizatsiyaviy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi.

Respublikamizning jahon sivilizatsiyasiga xos yo'ldan borishi umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, milliy qadriyatlarga sodiqlik, insonparvarlik va vatanparvarlikning uygunligi, xalqaro qonun qoidalar va andozalarni hurmat qilish, ulardan hayotimizning barcha sohalarida keng foydalanishni taqozo etmoqda.

Milliy mustaqillik yillarida madaniyatimizning bundan keyingi rivojlanish istiqbollari uchun puxta zamin yaratildi. Bu avvalo, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilganligi va sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotganida;

- milliy madaniyatlarning ravnaq topishi va bir-birini boyitishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilganida;
- jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimiz ma'naviy merosini keng targ'ib etishda;
- mamlakatimizda ilm-fan va texnika salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganida;
- inson intellektual salohiyatining ortib borayotganida, yurtimiz obodonchiligi yig'ida kgplab tadbirlarning amalga oshirilayotganida.

Tayanch iboralar: Madaniyat, sivilizatsiya, ma'naviy madaniyat, moddiy madaniyat, sivilizatsiyaviy yondashuv, milliy madaniyat, Sharq sivilizatsiyasi, G'arb sivilizatsiyasi, hozirgi zamon sivilizatsiyasi, hududiy sivilizatsiya.

Takrorlash uchun savollar:

1. sivilizatsiya nima?
2. Madaniyat va sivilizatsiyaning o'zaro bog'liqligini izohlang.
3. Sivilizatsiyaning tarixiy shakllari to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini qanday?
5. Madaniyat va sivilizatsiya mohiyatini bilish barkamol inson shaxsini shakllantirish manbai ekanligini qanday tushunasiz?

7-mavzu: Axloqiy qadriyatlar (Etika)

Reja:

1. Ahloqshunoslikning mohiyat mazmuni
2. Muhabbat va nafrat tushunchalari
3. Ezgulik va yovuzlik tushunchalari
4. Yaxshilik va yomonlik tushunchalari
5. Adolat, burch, vijdon, nomus, ideal hayotning ma'nosi va baxt tushunchalari

Axloq insonning fe'l-atvori, xulki, yurish turishi, ya'ni jamoada o'zar munosabatlarni o'rnatish uchun ijtimoiy birga yashash tartibi va madaniyati sifatida shakllangan. Muhabbat bosh mezoniy tushuncha sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda o'z «hissa»siga ega. Na ezgulikni, na yaxshilikni, na vataparvarlikni, na insonparvarlikni muhabbatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'tgan ma'ruzalarning ba'zilarida biz bu tushunchaning mohiyati, turlari haqidagi Ilohiy Ovgustin, Imom G'azzoliy, Erix Fromm singari mutafakkirlar fikrlarini keltirgan edik. Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, u - insonni tashqi va tarissendental olam bilan bog'lovchi, uni yolg'izlikdan olib chiqadigan buyuk kuch. Muhabbatning ob'ekti doimo go'zallik, manfaatsiz go'zallik. U - Ollohmi, Vatanmi, yormi - muhabbat egasiga undan-da go'zalroq narsa yo'q. Ayni paytda bir ob'ektni sevgan kishi boshqa ob'ektlarni ham sevmasligi mumkin emas. Deylik, yorga bo'lgan haqiqiy muhabbat Vatanga, insoniyatga muhabbatni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero «o'z-o'zicha», yakka, «xudbin» muhabbatning bo'lishi mumkin emas. Inson o'zi o'zgaga aylanganida, o'zgani o'ziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi. Mana shu ob'ekt bilan sub'ekt orasidagi farqning yo'qolishi eng buyuk, eng mukammal lazzatdir. Buni mavlono Fuzuliy nihoyatda go'zal qilib, bir baytda shunday ifodalaydi:

Ishqdir ul, nash' ai komilkim, andandir mudom

Mayda tashviri harorat, nayda ta'siri sado.

Komil nash'a, komil lazzatga faqat komil insongina erisha oladi. Demak, muhabbat inson axloqiy hayotining cho'qqisi, komillik belgisidir. Shu bois haqiqiy muhabbat egalari yoshlar tomonidan doimo axloqiy ideal tarzida qabul qilinadi: Farhod va Shirin, Romeo va Juletta, Otabek va h.

Shuni ta'kidlash lozimki, muhabbat - oliy tuyg'u, shu ma'noda u oliy tushuncha. Lekin uni tuban, quyi narsa - hodisalarga nisbatan ham qo'llash hollari uchrab turadi. Chunonchi, Fromm

singari g'arblik mutafakkirlar, ba'zi rus faylasuflari muhabbat tushunchasini o'likka (nekrofil), mol-dunyoga, pulga nisbatan qo'llaydilar. Ularga nisbatan «o'chlik», «ruju», «hirs» singari tushunchalarni qo'llash ma'qul emasmikan?

Muhabbat ham, axloqshunoslikdagi ko'pgina tushunchalardek, «juftlik» xususiyatiga ega, uning ziddi - nafrat. Nafrat tushunchasi, albatta, muhabbat singari keng qamrovli emas. U aksil muhabbat tarzida namoyon bo'lgan ob'ektdan chetlashish, undan begonalashishni taqozo etadi. Hazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushidagi tor, «mayda» ko'rinishidir. Nafratning ularga nisbatan «yirikligi» uning ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lishidir. Ayni paytda, bu tushuncha g'azabdan keskin farq qiladi. U, g'azabga o'xshab, o'z ob'ektini yo'qotishga intilmaydi, undan faqat yuz buradi. Ko'rinishdan, nafrat kishida yoqimsiz taassurot uyg'otsa-da, aslida u asosan illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Nafratdan tashqari yana rashk tushunchasi borki, u -ijtimoiy hodisa emas, faqat jinsiy muhabbat bilan yonma-yon keladi. Ma'lumki, muhabbat egasi o'z sevgisini va sevgilisini qizg'anib, asrab qolishga harakat qiladi. Ana shu qizg'anish hissi me'yoridan oshib ketganda rashkka aylanadi. Rashk esa, uni qanchalik ta'rif-tavsif qilmaylik - me'yorning buzilishi, illat.

Mezoniy tushunchalar orasidagi yana bir juftlik - ezgulik va yovuzlik. Ezgulik axloqshunoslikdagi eng asosiy kategoriyalardan. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi - Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo'ladi. «Ezgu o'y, ezgu so'z, ezgu a'mol» uchligi «Avesto» dan tortib, barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o'rinni egallashi ham shundan. Ezgulik - inson shaxsining komillikka, baxtga, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi vositadir. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi. Uni sinfiylik yohud partiyaviylik qobig'iga o'rash mumkin emas. Chunonchi, «sinfiy dushmani», ya'ni biror bir shaxsni yoki guruhni faqat boshqa sinfga mansub bo'lgani uchun jisman yo'qotish, qanchalik bo'yab-bo'jalmasin, ezgulik bo'lolmaydi. U tom ma'nodagi yovuzlikdir. Shu bois totalitar tuzumlarda ezgulikni bunday talqin etishning noilmiyligi, soxtaligi hozirgi kunda hammaga ayon.

Ezgulik va uning ziddi yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan o'lchanmaydi, ular ham muhabbat singari qamrovli va ijtimoiylik xususiyatiga ega. Ezgulikning axloqiy ideal bilan bog'liqligi ham shundan. Shu tufayli u amaliyotda qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o'z ichga oladi.

Shuni ham aytish kerakki, muhabbat va nafrat juftlik tushunchasida nafrat muhabbatni inkor etmay, aksincha, uning barqarorligidan dalolat bersa, ezgulik va yovuzlik juftligida har ikki tushuncha bir-birini tamomila inkor etadi. Na faqat inkor etadi, balki ular orasida hayot-mamot kurashi ketadi va bu kurash abadiy kurash sifatida, olamni harakatga keltiruvchi kuch tarzida nomoyon bo'ladi.

Ezugulik va yovuzlikning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, bu juftlik tushuncha inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega. Uni odam bolasining ulug'ligi va tubanligini o'lchaydigan muqaddas torozuga o'xshatish mumkin. Insonning komilligi, jamiyatning takomilga erishgan-erishmagani shu mezon bilan o'lchanadi. Chunonchi, Stalinning yovuz inson, sobiq sho'rolar ittifoqini esa jamiyat sifatida «yovuzlik saltanati» degan nom bilan atalib kelgani hech kimga sir emas.

Ezgulik va yovuzlik haqida gap borganida, yaxshilik va yomonlik nima, bu ikki juftlik mazmunan bir emasmi, degan savol tug'iladi. Bu tabiiy. Chunki hozirgacha bizga ma'lum o'zbek tilidagi barcha axloqshunoslikka doir adabiyotlarda ezgulik va yovuzlik mezoniy tushunchalar sirasiga kiritilmagan, u bor-yo'g'i yaxshilik va yomonlikning sinonimi tarzida taqdim etib kelingan. To'g'ri, yaxshilik tushunchasining ko'pgina unsurlari ezgulikdan, ezgulikning ba'zi unsurlari yaxshilikdan joy olishini inkor qilish mumkin emas. Ularning ziddida ham shunday «singishib ketish» mavjud. Lekin bunday dalillar aslo mazkur ikki juftlikni aynanlashtirishga asos bo'la olmaydi. Ular orasida qat'iy farq mavjud: ezgulik, yuqorida aytganimizdek, ijtimoiylik xususiyatiga ega, yaxshilik esa unday emas. U asosan shaxsning odobiga, hulqiga bog'liq bo'lgan ijobiy hodisa. Zero unda, mardlik, ochiqko'ngillilik, halollik singari axloqiy me'yorlar tajassum topadi. Biroq u qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko'tarila olmaydi. Misol tariqasida buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning faoliyatini olaylik. U surunkasiga ijodiy

mehnatga umrini bag'ishladi, xalqi uchun, xalqlar uchun «Xazoyin ul-maoniy»dek, «Hamsa»dek buyuk asarlar yaratdi. Bu ezgulik - abadiy, zero Navoiy asarlari millionlab odamlarga yuzlab yillar mobaynida zavq-shavq ulashib, ularni komillikka chorlab kelmoqda. Ayni paytda, u ko'plab yaxshiliklar qildi - muhtoj odamlarga qarz berdi, bergan qarzidan kechib yubordi v.h. Uning bu yaxshiliklari, ajoyib ijobiy hodisa bo'lgani holda, o'tkinchilik xususiyatiga ega, shuningdek, qahramonlik ham, buyuk jasorat ham, vatanparvarlik ham emas. Demak, yaxshilikni yirik ijtimoiy hodisa - ezgulik bilan aynanlashtirish to'g'ri emas.

Bu ikki juftlikning yana bir farqli tomoni shundaki, ezgulik hech qachon yovuzlikka aylanmaydi, har qanday zamonda, har qanday sharoitda ham yovuzlik bo'lib qolaveradi. Yaxshilik va yomonlikda esa bunday emas: biror ob'ektga qilingan yaxshilik boshqa har bir ob'ekt uchun yoki yaxshilik qilgan sub'ekt uchun yomonlikka aylanishi mumkin. Mashhur o'zbek xalq ertaklaridan biridagi ovchilar quvib kelayotgan bo'rini qopga yashirib, qutqarib qolgan dehqonning holatini bunga misol sifatida keltirish mumkin: bo'ri o'ziga yaxshilik qilib, o'limdan qutqargan odamni yemoqchi bo'ladi, xayriyatki, tulki dehqonning joniga ora kiradi.

Xullas, muayyan ijtimoiy cheklanganligiga qaramay, yaxshilik va yomonlik ham ancha qamrovli mezoniy tushunchalardan.

Axloqshunoslikning yana bir qamrovli mezoniy tushunchasi-adolat. Uning ezgulik va yovuzlik hamda yaxshilik va yomonlikdan asosiy farqi shundaki, adolatning o'zi biror bir qadriyatni anglamaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda miqdor o'lchovchi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o'lchab turadigan tarozudir. Adolat bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo'l yo'q. Adolatning mezoniylik xususiyati, ayniqsa, huquqda darhol ko'zga tashlanadi. Huquq vazirligining hatto adliya vazirligi deb atalishi, jinoyatga yarasha jazoni belgilovchi, xukm chiqaruvchi idoralarning xalq sudi, odil sud degan nomlar bilan yuritilishi buning dalilidir. Lekin adolatni faqat huquqiy tushuncha sifatida talqin etish to'g'ri emas. U, yuqorida aytganimizdek, keng qamrovli axloqiy tushuncha. U nafaqat fuqarolar orasidagi munosabatlarni, balki davlat bilan xalq, jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi aloqalar mezonini ham o'z ichiga oladi. Xalq orasida ming yillar mobaynida odil podsho idealining yashab kelgani bejiz emas.

Deyarli bir yarim asr mobaynida adolatsizlikni milliy kamsitishni, milliy iftixor hissining oyoq osti qilinishini, begona irodaning zo'rlab qabul qildirish kabi holatlarni boshdan kechirgan xalqimiz, endlikda, mustaqillikka erishib, adolatli fuqarolik jamiyati tuzishga kirishdi. Adolat bugungi kunda bizning mustaqil, kelajagi buyuk davlatimizning mohiyatini anglatuvchi tushunchaga aylanib bormoqda.

Axloqshunoslikning nihoyatda ta'sir doirasi keng tushunchalaridan biri vijdon. Vijdon - Zigmund Freyd ta'biri bilan aytganda, "men" ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi, yuqora darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog'liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o'z-o'ziga bog'liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog'liqlik tashqi bog'liklikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma'lum bir vaqt ichida odamning o'z nojo'ya harakati tufayli yuzaga kelgan o'ng'aysizligi bo'lsa, vijdon azobi, bu oddiy o'ng'aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagi odamiylikka e'tiqodning faryodi, talabi, uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to'xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagi muz tog'iga - aysbergga o'xshatish mumkin: yuzaga uyat tarzida chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan yuz, balki ming barobar kichik.

Vijdon ham boshqa ba'zi axloqshunoslik mezoniy tushunchalari kabi baholash xususiyatiga ega. Lekin bu baholash hech qachon ob'ektga qaratilmaydi, u sub'ektning xatti-harakatlarini baholaydi, ya'ni unda sub'ekt o'zi uchun ichki ob'ekt vazifasini o'taydi. Ba'zan jamiyat talablari bilan vijdon o'rtasida ixtiloflar chiqishi mumkin. Bunda vijdon emas, jamiyat talablarining o'tkinchilik xususiyati, ma'lum ma'noda eskirganligi aybdordir. Zero, vijdon ko'zga ko'rinmas, lekin ulkan va mutlaq aybsiz axloqiy hodisadir.

Ko'pincha vijdon tushunchasi o'rnida iymon iborasini uchratish mumkin. Iymon aslida diniy tushuncha. Lekin hayotda vijdon tushunchasining sinonimi tarzida ishlatiladi. Masalan, kimnidir birov «iymonli odam» deganida, uning musulmonlikka iymon keltirgan-keltirmagani haqida

o'ylab o'tirmaydi, buning ustiga, u odam musulmon emas, nasroniy bo'lishi ham mumkin. Chunki gap bu yerda o'sha odamning dindorligi haqida emas, balki vijdonli, halol, rostgo'y ekanligi to'g'risida ketyapti. Shu ma'noda vijdon bilan iymonni egizak tushunchalar deyish mumkin.

Afsuski, odatda, ko'pchilik adabiyotlar vijdon mezoniy tushunchasiga «sub'ektiv» hodisa tarzida qarab, adolat, burch, nomus singari tushunchalarni unga qaraganda ijtimoiy ahamiyatliroq deb baholash, ularni, «to'rga chiqarish» hollari tez-tez uchrab turadi. Vaholanki, vijdonsiz odamdan hech qachon adolatni ham, burchga sadoqatni ham, or-nomusni ham kutish mumkin emas. Vijdonli odamlargina haqiqiy erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini yarata oladilar. Zero vijdon, eng avvalo, o'zgalarga nisbatan burch va mas'uliyatni taqozo etadi.

Yana bir muhim mezoniy tushuncha - burch. Burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U yuqorida aytganimizdek, vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog'liq. Umuman, hayotda insonning har bir xatti-harakati zahirida burch tushunchasi - burchga sadoqat yoki xiyonat yotadi. Burchning insonlik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, farzandlik burchi singari keng qamrovli, barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalari ham, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud. Burch tushunchasining o'ziga xos jihatlaridan yana biri - uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati. Chunonchi, bir tuzum yo jamiyatda ijobiy hisoblangan burch talablari ikkinchi bir tuzum yoki jamiyat uchun salbiy ma'no kasb etishi mumkin. Sobiq sho'rolar fuqarosining o'sha davrdagi mavjud tuzum oldidagi burchi hozirgi kunda o'ta salbiy hodisa sifatida baholanishi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Harbiylashgan va o'ta mafkuraviylashgan, ya'ni yagona mafkura xukmronlik qilgan jamiyatlarda esa burch omma hamda shaxs hayotida fojeaviy hodisaga aylanadi. O'ta ustalik bilan yo'lga qo'yilgan targ'ibot natijasida bunday jamiyatlar a'zolari oqni - qora, qorani - oq deb qabul qiladilar. Buni umumbashariy milliy qadriyatlarni oyoq osti qilgan beshafqat sho'rolar sotsializmi yoki fashistlarning milliy sotsializmi yaqqol isbotlab berdi. Yuz minglab, hatto millionlab odamlar aldandilar, keyinchalik, uzoq yillar mobaynida vijdon azobida yashadilar. Demak, jamiyat qurishda totalitarchilikka yo'l qo'yilishi o'sha jamiyat a'zolarini burchni noto'g'ri tushunishga va buning oqibatida axloqsizlikka olib keladi.

Shuni ham aytish kerakki, ba'zi hollarda burch shaxsning ko'pgina mayl-istaklariga qarshi boradi: uni huzur halovatdan, turmush lazzatlaridan mahrum etadi. Masalan, Furqat mustamlakachilar mafkurasiga xizmat qilganida, uning hayoti rohat farog'atda kechishi mumkin edi. Lekin u Vatan oldidagi, millat oldidagi burchni deb muhojirlikning og'ir qismatiga duchor bo'ldi: uni mustamlakachilar mamlakat hududidan chiqarib yuborib, qayta kiritmadilar. Furqat horijda vafot etdi.

Ba'zan burch tufayli odamlar o'z sevgisidan, jon-dilidan sevgan kishisidan kechishga ham majbur bo'ladilar. Xullas, burch axloqshunoslik mezoniy tushunchalari ichidagi eng «qattiq qo'l», eng «shafqatsizi».

Mezoniy tushunchalardan yana biri - nomus. Nomus tushunchasi bir tomondan, burch bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, qadr-qimmat tushunchasiga aloqadir. Zero, nomus mohiyatan shaxsning o'z qadr-qimmatini anglab yetishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligi munosabati bilan belgilanadi. Goho uni or tushunchasi bilan chalkashtirish hollari ham uchrab turadi. Lekin aslida, nomusga nisbatan «or» ancha tor qamrovdagi, nisbatan zalvarsiz tushuncha. Chunonchi, oriyatli odam deganda, o'z so'zining ustidan chiqadigan, sadaqa tarzida qilingan muruvvatlardan baland turadigan shaxs tushuniladi. Beor odam esa - o'z sha'niga aytilgan gaplarga parvo qilmay, ishini bajarib ketaveradigan, aytilgan-aytilmagan joylarga suqilib kiraveradigan surbetnamo kishi. Nomusning esa toshi og'ir - ijtimoiylik xususiyatiga ega, keng qamrovli. Nomus yo'lida inson hatto o'z hayotidan kechishi mumkin, odamlar o'z nomusi, oila nomusi, millat nomusi deb kurashadilar. Bu haqda ko'plab badiiy asarlar yaratilgan. Mehnat, sport singari sohalarida jamoa nomusi ham alohida ahamiyatga ega; shu o'rinda nomus obro' tushunchasi bilan bog'lanib ketadi. Bularning hammasi o'zini hurmat qilish, o'ziga nisbatan atrofdagilarning hurmat-izzatini yo'qotmaslik uchun o'z-o'zini nazorat qilish hissidan kelib chiqadi.

Bir qaraganda, idealda ham baholash xususiyati mavjuddek tuyuladi. Lekin aslida u qiyoslashga asoslanadi. Antiqa tomoni shundaki, idealda nomavjud, xayoldagi insonga, voqelika real, mavjud hayotdagi xodisalar qiyoslanadi, ya'ni bor narsa yo'q narsa bilan o'lchanadi. Zero, ideal hayotda mavjud bo'lishi mumkin emas - bu hammaga ayon gap. Buning ustiga, ideal hozirgi zamonda ham, kelajakda ham bo'lmaydi, uning mavjudlik sharti-o'tgan zamon. Lekin, shunga qaramay, inson ideal sari intiladi, o'z hayotini unga qiyoslaydi, unga taqlid qiladi. U inson hayotidagi eng oliy axloqiy talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka yetkazadi. Albatta, hayotda bunday bo'lmaydi, lekin inson ana shu komillikni o'ziga namuna bilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy komillikka erishadi.

Dunyoviy ideal bilan, to'g'rirog'i, ijtimoiy-axloqiy ideal bilan diniy ideal, bir qaraganda, o'xshashdek ko'rinsa-da, aslida keskin farq qiladi. Chunonchi, musulmonlar uchun-Muhammad alayhissalom, nasroniylar uchun - hazrati Iso, yahudo dinidagilar uchun - hazrati Muso ideal hisoblanadi. Ular ideal sifatida hech qachon o'zgarmaydi, boqiy. Ijtimoiy-axloqiy ideallar esa o'zgarishi mumkin va ko'p hollarda o'zgarib turadi. Masalan, sho'rolar davrida o'sha tuzum asoschisi Lenin - eng yuksak axloqiy ideal sifatida talqin etilardi va ko'pchilik tomonidan shunday qabul qilanardi. Hozir esa «Kuch-adolatda!» degan shiorni hayotining ma'nosi deb bilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur ko'pchilik tomonidan ijtimoiy-axloqiy ideal, adolatli davlat rahbarining ideal timsoli tarzida qabul qilinadi. Demak, muayyan tuzum talablaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy-axloqiy ideallar o'zgarishi mumkin. Faoliyati niqoblangan axloqsizlikdan iborat bo'lgan. Lenin, Stalin, Gitler kabi ijtimoiy ideallarning umri uzoq bo'lmasa-da, har holda ideal edilar, aldangan ko'pchilik ularni namuna deb bildilar.

Bunday salbiy hodisalarga qaramay, ideal, umuman, insoniyat jamiyatida, shaxs hayotida ijobiy, yorug' mayoq vazifasini o'tab kelmoqda, bundan keyin ham uning asosiy vazifasi shunday bo'lib qolajak. Chunki idealda har bir inson o'z baxtining hissiyotli ifodasini ko'radi, hayotining ma'nosini unga qarab intilishda deb biladi.

Asosiy mezoniy tushunchalar - kategoriyalar singari axloqiy tamoyillar ham axloqiy anglash shakllaridan hisoblanadi. Ularda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda ko'zga tashlanadi.

Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo'yiladigan talab tarzida namoyon bo'lib, insonning axloqiy mohiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan o'zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarini belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson xatti-harakatining umumiy yo'nalishini ko'rsatgan holda, ko'pgina axloqiy me'yorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri - insonparvarlik. U - insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, kadr-qimmat, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini, Ovro'po Uyg'onish mutafakkirlari dastlab ilgari surganlar, degan fikr mavjud.

Insonparvarlik - umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi. Uni sho'rolar davridagi sinfiylik nuqtai nazaridan soxtalashtirish proletar diktaturasi va totalitar sotsialistik tuzum hamda ular ijodkorlarining insonparvarligi haqidagi afsonalar juda qisqa umr ko'rди. Sotsializm mafkurachilarining bu boradagi say'-harakatlari o'sha davrlardayoq noilmiyligi, yolg'onga sug'orilganligi bilan kishilarning g'ashini keltirgan edi. Bunday insonparvarlikni xalq qabul qilmaydi. Chunki u aynan o'ta mavhum «xalq» tushunchasiga qaratilgan, vaholanki insonparvarlik markazida muayyan shaxs turmog'i lozim. Har bir shaxs insoniy huquqlarini ta'minlash uchun kurashish - insonparvarlikning asosiy vazifasi. Bu borada umumbashariy ma'naviy qadriyatlarni ustuvor deb bilgan bizning davlatimiz ham mamlakat ichkarisida, ham dunyo miqyosida ko'zga ko'rinarli ishlar qilmoqda.

Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq-huquqlari himoyasida tursa, ya'ni ancha keng qamrovli va umumiy intilish bo'lsa, erkparvarlik tamoyili uning ma'lum ma'noda muayyanlashgan bir qismi hisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi - erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Zero, erksiz inson - asir, erksiz millat - qul, erksiz mamlakat-mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o'z millati, o'z Vatani erki uchun, qolaversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib qo'ygan insonlar

tamoyilidir. Ayni paytda, bu tamoyil keng ijtimoiy siyosiy ma'noda ham qo'llaniladi. Buni erkparvar davlatlar faoliyatida ko'rish mumkin.

Odatda, erkparvar shaxslar muayyan davrning qahramonlariga aylanadilar. Zero, ular o'zgalar erki uchun o'z erkini, o'z hayotini qurbon qilishdan ham cho'chimaydilar. Buning yorqin misoli buyuk ingliz mumtoz shoiri Jorj Bayron siymosidir. U ingliz bo'laturib, o'z Vatani Angliyada Irlandiya ozodligi, irlandlar erki uchun kurashdi: ko'pchilikning hayrati va nafratiga uchradi, Vatanni tark etishga majbur bo'ldi. Italiyadagi ozodlik harakati mag'lubiyatga uchragach, u qadim Yunonistonni Turkiya zulmidan ozod qilish uchun kurashdi. U Yunonistonda, botqoqlik yonidagi Missolungi shahrida og'ir bezgakdan vafot etdi. Uning o'limi ham istibdodga qarshi shiorga aylandi: qo'zg'olonchilar: «Bayron uchun!» degan jangovar hayqiriq bilan jangga otildilar. Benazir, Yunonistonning ozod qilingan qismi general-gubernatori, erksevar qo'mondon va ulug' inson xotirasiga yunon xalqi yigirma bir kun qora qiyib, motam tutdi. Hamma cherkovlarda Bayron haqqiga ibodat qilindi.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab yetishga o'rgatish, vatanparvarlik - yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish fanizmning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu - millatparvarlik. U ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatanisiz millatning bo'lishi yoki rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas.

Lekin millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o'z millatini ajratib olib, unga buyuklik maqomini berishga intilish bo'lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan holda, o'z millati ravnaqi uchun kurashish, bu yo'lda, lozim bo'lsa, o'z hayotini ham fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki o'z millatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

Asl millatparvar - milliy o'zligini anglab yetgan inson. U o'z millati bilan faxrlanadi, o'z millati bilan butun jahonning faxrlanishini istaydi. Chunonchi, Navoiy do'ppi bilan to'n kiygan o'zbekni har qanday shoh jamolidan afzal ko'radi:

Shohu toju xil'atekim, men tomosha qilg'ali

O'zbekim boshida qalpoq, egnida shardog'i bas.

Lekin Navoiy shu faxrlanishi, g'ururlanishi barobarida o'zgalarga kibr bilan qaragan emas, aksincha, o'zga til vakili bo'lmish Jomiyga bag'oyat hurmat-izzat ko'rsatib, unga, pirim, deb qo'l bergan. Shunga qaramay, o'zbekchilik va mehmondo'stlik tamoyillari xalqimizning o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Jahonning juda ko'p xalqlari bu tamoyillar egasi bo'lmish o'zbek millatiga doimo ehtirom, havas va hayrat bilan minnatdorchilik bildiradilar.

Inson hayotida axloqiy me'yorlar ham katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda ma'lum axloqiy tamoyillarning amalga oshish murvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy shakli sifatida ro'yobga chiqadi. Halollik, rostgo'ylik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik singari me'yorlar ayniqsa, diqqatga sazovor. Shuni ham aytish kerakki, halollikni uning dastlabki tor diniy mazmunida-qaysi taom harom-u, qaysinisi halol, degan ma'noda tushunmaslik lozim. U allaqachon umuminsoniy ma'no kasb etgan me'yorga aylangan. Halollik, rostgo'ylik vijdon tushunchasi bilan bog'liq, insonning o'zgaga munosabati o'ziga munosabatidek sof bo'lishini talab etuvchi ma'yorlardir.

O'nlab me'yorlar orasida bu ikkisiga to'xtalishimizning sababi shundaki, mustamlakachilik davrida, ayniqsa, sho'rolar hukumronlik qilgan chorakam bir asr vaqt mobaynida yolg'on, aldov, nopoklik, xaromxo'rlik, munofiqlik singari illatlar xalqimizga shu qadar ustalik bilan singdirildiki, hozirgi paytda ko'pchilik odamlar halollik va rostgo'ylik ustidan hatto kuladigan bo'lib qolganlar. So'z bilan ish birligi yo'qolgan, qog'ozdagi chiroyli gaplar hayotga to'g'ri kelmaydi. Lekin bularning hammasi afsuski, odatiy xoldek qabul qilinadi. Shu bois mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu illatlarga qarshi kurash boshlandi. Hozirgi kunda davlatimiz milliy ma'naviy qadriyatlarni tiklashni, odamlarni halol, insofli, adolatli bo'lishga chaqirishni o'z ichki siyosatining muhim qismi deb bilgan holda ish tutmoqda. Zero ko'z o'ngimizda yolg'on, aldov, ikkiyuzlamachilik nimaligini deyarli bilmaydigan jamiyatlar, millatlar

gullab-yashnamoqda. Yaponiya, Olmoniya, Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya singari mamlakatlar shular jumlasidan.

Aхлоqiy madaniyat mohiyati. Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini ular fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri-muomala odobi. U mohiyatan o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmona yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinson Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o'ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinsonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy me'yoriy talablarni bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlari tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuhanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llilik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi.

Muomala odobining yana bir «ko'zgusi» bu -insoniy qarash, nigoh. Ma'lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo'l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so'zga aylanmagan hissiyoti, talablari o'z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo'l siltab ketish - muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Ba'zan qarab qo'yishning o'zi so'zdan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Deylik, bir quruvchi usta o'z shogirdining xatti-harakatlaridan noroziligini bildirish uchun bosh chayqab, jilmayib qo'yishi mumkin. Ikkinchi usta esa, bir lahza o'qrayib qarash bilan munosabatini ifodalaydi. Birinchi usta yuz ifodasi va xatti-harakati bilan; «Obbo shovvoz-yey, sal shoshilibsan-da, ha, mayli, zarari yo'q, shunaqasi ham bo'ladi», degan ma'noni anglatga, ikkinchi ustaning qarashidan; «Yana ishni rasvo qilibsang, padarla'nat, qachon odam bo'lasang?!», degan so'zlarni uqish mumkin. Shubhasiz, birinchi usta muomalada odobga rioya qilgan bo'lsa, ikkinchisi uning aksi - shogirdining emas, o'zining odobsizligini ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat va odob o'rgatishsiz bir-biriga ta'siri, tarbiya va o'z-o'zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovor. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan. Bunda ota-onaning, mahalla-ko'yni ta'siri katta. Undan foydalana bilash kerak. Zero axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi.

Axloqiy madaniyat yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishidan biri, bu - etiket. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zni tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya'ni bir holatda bir necha muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo'yilgan xatti-harakatni taqozo etadi.

Etiketning qamrovi keng, u, ma'lum ma'noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va h. k. Etiketga rioya qilishning mumtoz namunasi biz tez-tez televizor ekrani orqali ko'rib turamiz. Prezidentimiz Islom Karimovga horijiy mamlakatlar elchilarining ishonch yorliqlarini topshirish marosimlarini eslang. Unda faqat bir xil holat, halqaro miqyosda o'rnatilgan qoida hukmron. Uni Prezidentning ham, elchilarning ham buzishga haqqi yo'q. Yoki juda oddiy, kichkina bir misol: dasturxonda tanovul payti, pichoqni o'ng qo'lda ushlash zamonaviy mehmondorchilik etiketining

qat'iy qoidalaridan biri sanaladi - uni buzish atrofda qilarda hayrat va istehzo uyg'otadi. Shu bois etiketni odat tusiga aylantirilgan, qat'iylashtirilgan muomala odobi deyish ham mumkin.

Etiket - takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan muomala hodisasi. Lekin, ayni paytda, u asl axloqiy asosini yo'qotgan majburiy mulozamat tarzida ham namoyon bo'ladi: etiket qoidalarini bajarayotgan kishi aslida o'z xohish-ixtiyoriga qarshi ish ko'rayotgan bo'lishi ham mumkin. Bu jihatdan u munofiqlikning bir ko'rinishiga aylanadi. Masalan, siz ertalab ishga shoshilib, darvozadan chiqdingiz, deylik. Ro'parangizda tanishingiz yoki qo'shningiz uchraydi. Siz ko'rishib, hol-ahvol so'rashib uni: «qani uyga kiramiz, choy qilamiz, bir hangomalashamiz», deb ichkariga taklif qilasiz. Lekin, aslida, siz uning uyga kirishini aslo istamaysiz, vaqtingiz yo'q, hatto, shu uchrashganda ketgan vaqtingizni o'ylab, pitirlab turibsiz. Demak, siz o'z istagingizga qarshi, etiket-mulozamat yuzasidan yolg'on gaplarni aytasiz, hunuk eshitilsa ham na chora - munofiqlik qilasiz. Shunga qaramay, umuman olganda, etiket shaxsni muayyan tartib-qoidaga, qanday ichki ruhiy sharoitda bo'lmasin, bosiqlikka, muloyimlikka va sabr-toqatga o'rgatishi bilan ahamiyatlidir.

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri, uning jamiyat axloqiy hayotidagi o'rni yuksak. Shu bois kasbiy odobga bafurjaroq to'xtalish joiz.

Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko'pchilik jamiyat a'zolarining hayot-mamotlari, sog'ligi, ma'naviy sog'lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar o'shanday imtiyozli kasb egalarining o'z kasbiy burch mas'uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga bog'liqligi hammaga ma'lum. Chunonchi, tabobat xodimini, jarrohnı olaylik. Deylik, u har bir operatsiya kunida bir necha kishini hayotga qaytaradi; yuzlab odamlar uning yordamiga muhtoj, unga umid va ishonch ilinji bilan qaraydilar. Bordi-yu, shaxsiy manfaat yo'lida jarroh o'z bemoriga xiyonat qilsa-chi, ya'ni, uni qasddan halok etsa-chi? Kim uni shunday qilmasligini kafolatlaydi? Yoki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yo'lida, kasbining kamyobligidan foydalanib, begunoh kishilarni ma'naviy azobga qo'yishi, atayin jamiyat oldida sharmanda qilishi va shuning hisobiga o'zining ba'zi bir muammolarini hal qilib olishi mumkin emasmi? Mumkin. Zero, to haqiqat yuzaga chiqquncha, nohaq tanqidga uchragan shaxsning adoi tamom bo'lishi hech gap emas. Xo'sh, jurnalistning shunday qilmasligini kim kafolatlaydi? Shu bois boshqalarning qo'lidan kelmaydigan ishlarni bajara oladiganlar faoliyatida o'zboshimchalik, manfaatparastlik, xudbinlik va kasbni suiste'mol qilish singari illatlarga yo'l qo'ymaslik uchun, shuningdek, ular axloqiy darajasini yuksak bosqichda turishini ta'minlash maqsadida ko'p hollarda o'zaro qoidalar majmui yaratilgan. Bu qoidalar majmui, odatda, qasamyod yoki me'yorlar ko'rinishini olgan. Uni buzish o'ta odobsizlik va axloqsizlik, hatto jamiyatga xiyonat tarzida baholanadi. Bunday qasamyodlar juda uzoq tarixga ega. Misol tariqasida hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan qadimgi Yunon Hakimi hippokrat (milodgacha V-IV asrlar) tomonidan qisqa va lo'nda shaklda tuzilgan, tabobat xodimlari kasbiy odobi, qonun-qodolari jamlangan mashhur «Hippokrat qasami»ni keltirish mumkin.

Tarixda o'z dushmanini davolagan tabiblar ham ko'p uchraydi. Chunonchi, qadimgi hind eposi «Ramayana»da (II-asr) behush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shohining xos tabibi kechinmalari shu jihatdan muhim. Tabib oldida ikki yo'l bor edi: biri - saltanat dushmanini muhtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo'l davolashdan bosh tortish bilan uni o'limga mahkum etish. Tabib uzoq mulohazadan so'ng, tabiblik odobi qoidalariga bo'ysunishni - Lakshmanni davolashni afzal ko'radi. Zero kasbiy odob qonun-qoidalari talabiga ko'ra, bemor to'shagi ustidagi tabib uchun do'st yoki dushman degan tushunchalar o'z ma'nosini yo'qotadi, uning qoshida faqat tibbiy yordamga intizor, shafqatga muhtoj, zaif inson yotadi. Davolanib hayotga qaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk jangchisi va saltanat valiahdi Indirjidni jangda halok etadi

hamda tabib fuqaro bo'lgan Lanka davlatining tanazzuliga yo'l ochadi. Lekin, kitobxon tabibni xiyonatkor yoki sotqin demaydi, aksincha, uning ma'naviy jasaratiga, halolligiga, kasbiy burchiga sodiqligiga hayrat bilan tasannolar o'qiydi. Yoki mashhur rus olimi akademik Andrey Saxarovning taqdirini olaylik. Buyuk nazariyotchi, fizik, termoyadro sohasida tengi yo'q mutaxassis, vodorod bombasining asosiy kashfiyotchisi, Vatan mudofaasini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun o'nlab orden va medallar sohibi, ikki marta Sotsialistik Mehnat qahramoni, obro'li, badavlat bu insonga nima yetishmasdi? Nega u hammasidan kechishga - ommaviy qirg'in qurollarini, jumladan, o'zi yaratgan vodorod bombasi sinovlariga ochiq bayonotlar bilan qarshi chiqishga ahd qildi. Natijada qatag'onlarga asoslangan Sho'rolar tuzumi uni ilmiy jamoatchilikdan ajratib, poytaxtdan olisdagi Rossiya shaharlaridan biriga badarg'a qildi, uning nomini matbuotda yoki kitoblarda qayd etilishini ta'qiqladi. Vaholanki, u hammadan izzatliroq yashay olishi mumkin edi. Saxarov yuksak axloq yo'lini tanladi - olimlik burchi, odobi talablarini bajarishni har qanday boylik, izzat-ikromdan baland qo'ydi. Buyuk olim o'z kashfiyoti insonning eng oliy huquqi bo'lmish - yashash huquqiga rahna solishi mumkinligi va qisman solayotgani uchun uni amalda qo'llanilishiga qarshi kurashdi. U sho'rolar mafkurasining o'zini Vatan mudafaasi quvvatini susaytirishga harakat qilgan salkam xiyonatkor fuqaro deb e'lon etishiga, boshiga behisob tuhmatlar, ta'na-dashnomlar yog'dirishiga sabot bilan chidadi, ahddan qaytmadi, yovuzlik saltanati qo'lida o'z olimlik iste'dodining qo'g'irchoq bo'lishiga, harbiy murvatga aylanishiga yo'l qo'ymadi. Oxir-oqibatda u inson huquqlarining jahon tan olgan eng buyuk himoyachilaridan biri sifatida butun insoniyat tahsiniga sazovor bo'ldi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Zero axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi, o'zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me'yorlar asosida yashashga o'rganadi. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri-qanday yashamoq kerak, ikkinchisi - nima qilmog'-u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir.

Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma'nosi, avvalo, ota-onaning o'zi axloqiy tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak degani. Zero qush inida ko'rganini qiladi: ota-ona oilada yuksak axloq namunasini ko'rsatishi lozim.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlari ko'p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To'g'ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne'mat. Shu ma'naviy ne'mat - asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz. Aks holda maymun va itlardan ham axloqiy mavjudot tarbiyalab yetkazishimiz mumkin bo'lur edi.

Shunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo'llaridan biri. Uning vositalari ko'p. Ularning bir qismi an'anaviy tarbiya vositalari bo'lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo'lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an'anaviy tarbiya bilan o'yinchoqlar va o'yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo'llaniladi; bunda bolaning qizg'anchiqlik, g'irromlik qilmaslikka, halol bo'lishga o'yinlar yordamida da'vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televidenie, radio, qo'g'irchoq teatri, kino san'ati katta rol o'ynaydi.

Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi-san'at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san'atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib, romangacha bo'lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko'rsatadilar. Ular orqali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo'ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, yuqorida ko'rganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: «Kalila va Dimna», «qobusnoma», «Guliston», «Zarbulmasal» singari bunday mumtoz asarlar

an'anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan-qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo'lib qolajak.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan yo'li bu - namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota-onalar bolaga axloqiy namuna bo'lishi kerak. Maktabda va oliy o'quv yurtida muallimlarning ta'lim berish usullaridan tortib, to «mayda-chuyda» xatti-harakatlarigacha o'z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo'ylik yoshlar axloqiy tarbiyasining shakllanishini ta'minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televideniye keltirish mumkin. U deyarli barcha san'at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko'rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan muntazam ko'rsatuvlar ham berib boriladi. O'zbek tilidagi «O'talar so'zi-aqlning ko'zi», «Rivoyat», «Oqshom ertaklari» singari ko'rsatuvlar bunga misol bo'la oladi. Shu bois televideniye hech qachon yengiltaklikni targ'ib etuvchi qo'shiqlar, salkam pornografik reklamalar, inson qalbini qattiq lashtiradigan «o'ldir-o'ldir»lardan iborat videofilmlar korxonasi bo'lib qolmasligi kerak. Axloqiy tarbiyaning aqliy-ma'naviy va jismoniy tarbiya bilan qo'shib olib borilishi maqsadga muvofiq. O'shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan fuqarolik jamiyatiga aylanadi.

8-mavzu: Estetika nazariyasi.

1. Estetika fanining tadqiqot doirasi va maqsadi
2. Estetikaning falsafiy fan sifatidagi mohiyati
3. Estetikaning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabati
4. Estetikaning amaliy ahamiyati va vazifalari

Estetika eng qadimiy fan, ikki yarim-uch ming yillik vaqtni o'z ichiga oladi. Biroq u o'zining hozirgi nomini XVIII asrda olgan. Ungacha bu fanning asosiy muammosi bo'lmish go'zallik va san'at haqidagi mulohazalar har xil san'at turlariga bag'ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o'z aksini topgan edi. «Estetika» atamasini birinchi bo'lib buyuk olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714—1762) ilmiy muomalaga kiritgan. Bunda u boshqa bir ulug' olmon faylasufi Leybnis (1646-1716) ta'limotidan kelib chiqqan holda munosabat bildirgan edi. Leybnis inson ma'naviy olamini uch sohaga – aql, ixtiyor, hissiyotga bo'ladi va ularning har birini alohida falsafiy jihatdan o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. Baumgartengacha aqlni o'rganadigan fan–mantiq, ixtiyorni o'rganuvchi fan esa-axloqshunoslik (etika)ni falsafada ko'pdan buyon o'z o'rnini bor edi. Biroq hissiyotni o'rganadigan fan falsafiy maqomdagi o'z nomiga ega emasdi. Baumgartenning bu boradagi xizmati shundaki, u «his qilish», «sezish», «his etiladigan» singari ma'nolarni anglatuvchi yunoncha *aisthetikos*–“*oyestetikos*” so'zidan «estetika» (olmoncha «*yestetik*»- «*eshtetik*») iborasini olib, ana shu bo'shliqni to'ldirdi. Baumgarten Estetikani hissiy idrok etish nazariyasi sifatida ilgari surdi. Lekin, ko'p o'tmay, u goh «go'zallik falsafasi», goh «san'at falsafasi» sifatida talqin etila boshlandi. Estetika fanining eng buyuk nazariyotchilaridan biri Gegel esa o'z ma'ruzalarining kirish qismida yozadi: «Estetika» degan nom muvaffaqiyatsiz chiqqani va yuzaki ekani sababli boshqa atama qo'llashga urinishlar bo'ldi. So'zning o'z-o'zicha bizni qiziqitmasligini nazarda tutib, biz «estetika» nomini saqlab qolishga tayyormiz, buning ustiga, u odatiy nutqqa singishib ketgan. Shunga qaramay, bizning fanimiz mazmuniga javob beradigan ibora, bu–“san'at falsafasi” yoki yana ham aniqroq qilib aytganda–“badiiy ijod falsafasi”.

Gegelnig «estetika» atamasidan ko'ngli to'lmaganligiga jiddiy sabablar bor. Bulardan biri–yuqorida uning o'zi aytib o'tgan fikrlari bo'lsa, ikkinchisi–mazkur so'zning barcha his-tuyg'ularga taalluqliligi. Vaholanki, fanimiz faqat estetikali his tuyg'ular va ularning ziddini

nazarda tutadi. Ayniqsa, mana shu ikkinchi sababga ko‘ra, «estetika» atamasining talabga javob berishi shubhali. Buning ustiga allaqachon fanimizning tadqiqot doirasi san‘at hududidan chiqib, inson hayotining deyarli barcha sohalariga yoyilib ketgan. Shu bois biz «Estetika» atamasini ilmiy muomalaga kiritishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Zero mazkur atamaga asos bo‘lgan «nafis», «nafislik», «estetika» so‘zlari o‘z qamrovi bilan fanimiz talabiga to‘la javob bera oladi. «Nafis» so‘zi «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da-go‘zal, nozik, latif, yoqimli, badiiy jihatdan juda yuksak ma‘nolarida izohlanadi. Bundan tashqari «estetika» («eshtetik») so‘zi olmonlardagi yoki ruslardagi kabi bizda keng yoyilib, xalqimiz nutqiga singishib ketgan emas.

Endi fanimizning mohiyatini anglatadigan «san‘at falsafasi» va «go‘zallik falsafasi» iboralariga to‘xtalamiz. Estetika tarixida birinchi ibora tarafdorlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Lekin, yuqorida aytib o‘tganimizdek, san‘at fanimizning yagona tadqiqot ob‘ekti emas. Hozirgi paytda texnika estetikashunosligi va uning amaliyotdagi sohasi dizayn, atrof-muhitni go‘zallashtirish, tabiatdagi estetika borasidagi muammolar bilan ham bizning fanimiz shug‘ullanadi. Shu bois uning qamrovini san‘atning o‘zi bilangina chegaralab qo‘yishga haqqimiz yo‘q. Zero bugungi kunda inson o‘zini o‘rab turgan barcha narsa-hodisalarning go‘zal bo‘lishini, har qadamda estetikani his etishni istaydi: biz taqib yurgan soat, biz kiygan kiyim, biz haydayotgan mashina, biz uchadigan tayyora, biz yashayotgan uy, biz mehnat qiladigan ishxona, biz yurgizayotgan dastgoh, biz yozayotgan qalam, biz dam oladigan tomoshabog‘lar–hammasidan nafis bir ruh ufurib turishi lozim.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqsak, demak, «go‘zallik falsafasi» degan ibora fanimizga ko‘proq mos keladi. Negaki, fanimiz faqat san‘atdagi go‘zallikni emas, balki insondagi, jamiyat va tabiatdagi go‘zallikni ham o‘rganadi. Shuningdek, go‘zallikdan boshqa ulug‘vorlik, fojiaiviylik, kulgililik, mo‘jizaviylik, uyg‘unlik, noziklik singari ko‘pdan-ko‘p tushunchalar mavjudki, ularni tadqiq etish ham Estetika fanining zimmasida. Lekin, bu o‘rinda, shuni unutmaslik kerakki, mazkur tushunchalarning har birida go‘zallik, bir tomondan, unsur sifatida ishtirok etsa, ikkinchi tomondan, ularning o‘zi go‘zallikka nisbatan unsur vazifasini o‘taydi. Ana shu xususiyatlarning voqelikda namoyon bo‘lishini biz estetika deb ataymiz.

Shunday qilib, estetika san‘atni to‘la qamrab oladi va uning ich-ichiga kirib boradi: badiiy asarning yaratilish arafasidagi shart-sharoitlardan tortib, to u bunyodga kelib, asl egasi-idrok etuvchiga yetib borgunigacha bo‘lgan va undan keyingi jarayonlarni tadqiq etadi hamda ulardan nazariy xulosalar chiqaradi. Zotan «San‘at falsafasi» iborasining siri ana shunda.

Estetika-falsafiy fanlar tarkibiga kiruvchi maxsus soha. Falsafani esa, o‘zingizga ma‘lumki, fanlar podshosi deb atashadi. Darhaqiqat, u fanlar podshosi sifatida barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlarni o‘z qamroviga olib, ulardan umumiy xulosalar chiqarib, shular asosida insoniyatni haqiqat tomon yetaklaydi. Shu bois tafakkurni falsafaning tadqiqot ob‘ekti deb atash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Estetika-falsafiy fan sifatida, barcha san‘atshunoslik fanlari erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, shu xulosalar asosida insonni go‘zallik orqali haqiqatga yetishtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari Estetika ishlab chiqqan qonun-qoidalar barcha san‘atshunoslik fanlari uchun umumiylik xususiyatiga ega. Masalan, uslub, ritm, kompozitsiya v. h. borasidagi qonuniyatlar barcha san‘at turlariga taalluqli. Hech bir alohida san‘at turi haqidagi fan bunday imtiyozga ega emas. Masalan, adabiyotshunoslik ishlab chiqqan qofiya nazariyasini musiqa yoki me‘morlik san‘atiga tadbiiq etib bo‘lmaydi.

Estetikaning falsafiy mohiyatini yana uning san‘at asariga yondoshuvida ko‘rish mumkin. Ma‘lumki har bir san‘atshunoslik ilmi o‘z tadqiqot ob‘ektiga uch tomonlama- nazariy, tarixiy, tanqidiy jihatdan yondoshadi. Masalan, adabiyotshunoslikni olaylik. Adabiyot nazariyasi faqat adabiyotgagina xos bo‘lgan badiiy qonuniyatlarni, badiiy qiyofa yaratish usuli va vositalarini o‘rganadi. Adabiyot tarixi muayyan tarixiy-badiiy jarayonlar orqali badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Adabiy tanqid esa adabiy-badiiy ijodning zamonaviy jarayonlarini tadqiq etadi va har bir yangi asarni baholaydi, asar ijodkorining ijodiy rivojlanishini kuzatib boradi. Musiqada ham, tasviriy san‘atda ham va h. k

san'at turlarida shunday. Estetikada esa tadqiqot ob'ektiga yondoshuv uch emas, birgina-nazariy jihatdan amalga oshiriladi: tarix ham, tanqid ham nazariyaga bo'ysundiriladi. To'g'ri, estetika tarixi degan ibora va shu nomda kurslar o'qitiladi. Lekin bu nom, ibora-shartli tarzda qo'llaniladi. Vaholangki, u fanning tarixi emas, balki tarixan davrlarga bo'lingan estetika nazariyalarining tahlilidir.

Ma'lumki, san'at asarining mavjud bo'lishi uchun to'rt shart-unsur albatta zarur. Bular: ijodkor-badiiy asar-badiiy asarni idrok etuvchi-vositachi. Yuqoridagi misol nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak: yozuvchi-roman-kitobxon-tanqidchi. Adabiyotshunoslik bularning har birini odatda alohida-alohida o'rganadi. Deylik, yozuvchi Odil Yoqubov ijodiy faoliyati haqida adabiy portret-alohida, uning «Ulug'bek xazinasi» romani to'g'risida tadqiqiy maqola alohida, zamonaviy kitobxonning didi, saviyasi va talablariga bag'ishlangan mulohaza-maqola alohida, «Ulug'bek xazinasi» romaniga taqriz esa alohida yozilishi mumkin. Estetika fani hammasini biryo'la, muayyan tizim sifatida tadqiq etadi va bu tadqiqot umumlushtiruvchilik, nazariylik xususiyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib, estetikaning falsafiy mohiyatini ko'rib o'tdik. Endi uning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatlariga to'xtalamiz.

Estetika qadim-qadimlardan ko'pgina fanlar bilan mustahkam aloqada rivojlanib kelgan. Shulardan biri bo'lgan falsafa haqida, ular orasidagi bog'liqlik to'g'risida yuqorida aytib o'tdik. Estetika uchun yana bir aloqador, «qadrdon» fan axloqshunoslikdir. Bu ikkala fan shu qadar bir-biriga yaqinki, hatto ba'zi davrlarda ular yetarli darajada o'zaro chegaralanmagan. Chunki insonning xatti-harakati va niyati ko'pincha ham axloqiylikka, ham estetikaga tegishli bo'ladi. Ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik, ham estetika xususiyatlarini o'zida birvarakay mujassam qiladi. Shu sababli «Avesto», «Bibliya» va «Qur'on» kabi muqaddas kitoblarda, Suqrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ta'limotlarida axloqiylikni-ichki go'zallik, estetikani-tashqi go'zallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ko'rib o'tganimizdek, san'at Estetikaning asosiy tadqiqot ob'ektlaridan hisoblanadi. Har bir san'at asarida esa axloqning dolzarb muammolari ko'tariladi va ijodkor eng yuksak axloqiy darajani badiiy qiyofalar orqali in'ikos ettiradi. Bu in'ikos bevosita ijobiy qahramonlar qiyofasida amalga ohsa, bilvosita salbiy voqea-hodisalarga muallif nuqtai nazari orqali ro'y berishi mumkin. Ya'ni biror bir badiiy asarda ijobiy qahramonlar, umuman, bo'lmaydi, lekin undagi voqea-hodisalarga ijodkor o'z zamonasi erishgan axloqiy yuksaklikdan turib baho beradi. Shu bois mutlaqo axloqsiz tarzdagi badiiy asarning bo'lishi mumkin emas. Demak, Estetika o'rganayotgan har bir badiiy asar ma'lum ma'noda axloqshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo'ladi. Biroq, bunday yaqinlik, yuqorida aytganimizdek, aslo aynanlikni anglatmaydi. Bu ikkala fanning tadqiqot ob'ektlari orasidagi farqni birinchi bo'lib buyuk Arastu nazariy jihatdan isbotlab bergan edi; u, ezgulik faqat harakatda, go'zallik esa, harakatsiz ham namoyon bo'ladi, degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, axloqiylik faqat insonning xatti-harakati, qilmishi orqali yuzaga keladi; odam toki harakatsiz ekan, biz uning na yaxshiligini, na yomonligini bilamiz; muayyan xatti-harakat sodir qilinganidan keyingina biz uni yo ezgulik, yo yovuzlik, yo yaxshilik, yo yomonlik sifatida baholaymiz. Go'zallik esa, o'zini harakatsiz ham namoyon etaveradi. Olaylik, Ko'kaldosh madrasasi. U hech qachon harakat qilmaydi, lekin go'zallik sifatida mavjud, harakatsizligidan uning go'zalligiga putur yetmaydi. Bundan tashqari, axloqning qonun-qoidolari, nasihatlar, hikmatlar umumiylikka, barchaga bir xilda taalluqlik xususiyatiga ega. Estetika esa muayyanlikni, aniqlikni yoqtiradi. Masalan, axloqshunoslikdagi «yaxshi odam» tushunchasi hammaga-ayolga ham, erkakka ham, yoshu-qariga ham tegishli bo'lishi mumkin. Estetikada esa, «go'zal odam» tushunchasi yo'q; yo «go'zal yigit», yo «go'zal qiz» degan tushunchalargina mavjud. Shuningdek, go'zallik bir vujudda ham faqat o'z o'rnini talab qiladigan «o'ta injiqlik» xususiyatiga ega. Shu joyda olmon estetikashunosi Fexner qo'llagan misolni keltirish o'rinlidir. Uning fikricha qiz bolaning yuzidagi qizillik uning go'zalligidan dalolat beradi. Biroq, qizillik uning burun ustiga ko'chsa-xunuklikka aylanadi. Demak, axloq uchun-umumiylik, estetika uchun esa-muayyanlik, mavjudlik sharti hisoblanadi. Estetika ruhshunoslik (psixologiya) bilan ham mustahkam aloqada. Ma'lumki, insonning ruhiy hayotini o'rganar ekan, ruhshunoslik, hissiyotlar

masalasiga katta o‘rin beradi. Go‘zallikni, san‘at asarini yaratish va idrok etish ham, ma‘lum ma‘noda hissiyotlar bilan bog‘liq. Masalan, oddiy harsang tosh kishida alohida bir hissiy taassurot uyg‘otmaydi. Lekin toshga haykaltarosh qo‘l urganidan so‘ng, undan hayot nafasi, insoniy hissiyotlar ufurib turadi. Gap bunda toshga odam qiyofasi berilganida emas, balki shu qiyofaga bir lahzalik insoniy tuyg‘ularning jamlanganidadir; boshqacharoq qilib aytganda, ijodkor toshga o‘zi tomoshabinga yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan hissiyotlarning suratini chizadi va oddiy toshni haqiqiy san‘at asariga aylantiradi. Agar ijodkor-haykaltarosh ana shu hissiyotlarni o‘zi mo‘ljallagan darajada tomoshabinga yetkaza olsa va tomoshabinda o‘sha hissiyotlarga yo aynan, yo monand tuyg‘ular uyg‘ota olsa, mazkur haykal haqiqiy san‘at asari hisoblanadi. Estetika haykaltaroshdan haykalga, haykaldan tomoshabinga o‘sha hissiyotlarning qay darajada o‘tgan-o‘tmaganligini, ya‘ni, badiiy qiyofa qanchalik puxta yaratilganligini o‘rganadi va shu asosda asarni baholaydi. Ruhshunoslik esa ana shu xissiyotlarning o‘zini o‘rganadi. Bundan tashqari ruhshunoslik asar g‘oyasidan tortib, to badiiy asar–estetikali qadriyat vujudga kelgunga qadar bo‘lgan ijodkorning hissiyotlar olamini o‘rganadi. Albatta, bu o‘rganishlar alohida-alohida, muxtor holda emas, balki ikkala fanning bir-biri bilan hamkorligi, birining ikkinchisi hududiga o‘tib turishi vositasida ro‘y beradi. Shu bois ruhshunoslikka ham, Estetikaga ham teng aloqador bo‘lgan san‘at ruhshunosligi va badiiy ijod ruhshunosligi deb atalgan yo‘nalishlar mavjud.

Shuningdek, Estetikaning sotsiologiya (ijtimoiyshunoslik) bilan aloqadorligi ham muhim. Ma‘lumki, har bir san‘at asari alohida inson shaxsiga e‘tibor qilgani xolda, jamiyatni ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida badiiy tadqiq qiladi. Hatto inson va jamiyat bevosita aks etmagan manzara janridagi asarda ham, ijtimoiylik jamiyat a‘zosi–muallif qarashlarining bilvosita in‘ikosi bo‘lmish uslubda o‘zini ko‘rsatadi. Zero asar muallifi hech qachon o‘zi mansub jamiyatdan chetda «tomoshabin» bo‘lib turolmaydi. Chunonchi, yirik asarlar sotsiologik tadqiqotlar uchun o‘ziga xos material bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, sotsiologiya jamiyat bilan san‘atning o‘zaro aloqalarini, san‘atning ijtimoiy vazifalarini o‘rganadi; san‘atkorning jamiyatdagi o‘rni, mavqei, o‘quvchi va tomoshabinlarning ijtimoiy demografik holatlarini tadqiq etadi; shaxs ijtimoiylashuvida san‘atkor va san‘at asarining ahamiyatini tahlil qiladi. Bu muammolarni atroflicha o‘rganish uchun maxsus san‘at sotsiologiyasi sohasi ham mavjud. U ham ijtimoiyshunoslikka, ham Estetikaga birday tegishlidir. Ayni zamonda, muayyan san‘at asarlari, janrlari va turlarining jamiyatdagi mavqeini aniqlab beruvchi maxsus sotsiologik so‘rov usullari ham mavjudki, ular shubhasiz, san‘at taraqqiyotiga, Estetikaning san‘at sohasida to‘g‘ri yo‘nalish tanlashiga ko‘maklashadi.

Estetikaning dinshunoslik bilan aloqasi alohida diqqatga sazovor. Chunki din va san‘at doimo bir-birini to‘ldirib keladi va ko‘p hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti bo‘lib maydonga chiqadi. Buning ustiga, har bir umumjahoniy dinning «o‘z tasarrufidagi» san‘at turlari bor: buddaviychilik uchun-haykaltaroshlik, nasroniylik uchun-tasviriy san‘at, musulmonchilik uchun-badiiy adabiyot. Shuningdek, barcha umumjahoniy dinlar o‘z ibodatxonalarini taqazo etadi. Ibodatxonalarning esa me‘morlik san‘ati bilan bog‘liqligi hammamizga ma‘lum. Umuman olganda, dinlar deyarli barcha san‘at turlari bilan aloqadorlikda ish ko‘radi. Asrlar mobaynida, ana shu aloqalar natijasi o‘laroq, san‘at asarining o‘ziga xos ko‘rinishi–diniy-badiiy asar vujudga keldi. «Abu Muslim jangnomasi», Shohizinda me‘morlik majmuidagi inshootlar, Kyoln jomesi, Rembrandtning «Muqaddas oila» asari, Hindi-Xitoy mintaqasidagi Budda ibodatxonalari ana shunday diniy-badiiy asarlardir. Ularda diniy g‘oyalar badiiyat orqali ifoda topgan. Estetika bunday asarlarni tadqiq etar ekan, albatta, dinshunoslik bilan hamkorlik qilmay iloji yo‘q: u o‘sha diniy g‘oyalarning mohiyatini, har bir umumjahoniy dinning san‘at oldiga qo‘ygan talablarini yaxshi bilmog‘i va hisobga olmog‘i lozim.

Estetikaning pedagogika bilan aloqasini biz tarbiya muammolarini hal qilishda ko‘ramiz. Chunki pedagogika ham ma‘lum ma‘noda estetika tarbiyasi bilan shug‘ullanadi. Lekin bu tarbiya alohida-alohida, mustaqil qismlarga bo‘lingan holda, turli yosh va sohalar uchun maxsus belgilangan tarbiya tarzida, ya‘ni muayyan, aniq chegaralarda olib boriladi.

Masalan, maktabgacha tarbiya, o'quvchilar tarbiyasi, sportchilar tarbiyasi v. h. Pedagogika ana shu soha va yoshlar bo'yicha olib borilayotgan estetikali tarbiya muammolarini o'rganadi. Estetika esa estetika tarbiyasining umumiy qonun-qoidalarini ishlab chiqadi, ya'ni, inson tug'ilganidan boshlab to o'lgunigacha bosib o'tadigan bosqichlar uchun umumiy bo'lgan tarbiya falsafasi sifatida ish ko'radi. Demak, rus estetikashunosi M. Kagan aytganidek, pedagogika tarbiya borasida taktik tabiatga ega bo'lsa, Estetika uning strategiyasidir.

Shuningdek, Estetika semiotika-belgilar va belgilar tizimi haqidagi fan bilan ham aloqador. Chunki san'at asari belgilar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, harflar, notalar v.h. Boshqacharoq qilib aytganda, bilish va baholash faoliyati natijalarini, ya'ni semantik va pragmatik axborotni o'zida mujassam qilgan san'at asari o'sha axborotni yetkazib berishga ham mo'ljallangan. Ana shu san'atning belgi bilan bog'liq tomonini, kommunikativ-vositachilik jihatini semiotika o'rganadi. Ayni paytda, fanimizda tuzilmali-semiotik Estetika deb atalgan nazariya ham mavjud. Unda san'at maxsus til yoki belgilar tizimi, alohida san'at asari esa ana shu tizim belgisi yoki o'sha tizim belgilarining izchilligi sifatida olib qaraladi. Zero bunda belgi san'at asarini idrok etuvchiga yetkazib beruvchi hodisa tarzida o'rganiladi.

Bundan tashqari, Estetika kibernetika, ekologiya va yuqorida aytib o'tganimizdek, barcha san'atshunoslik fanlari bilan ham yaqin aloqadorlikda ish olib boradi. Har bir fanning inson va jamiyat hayotida o'ziga xos amaliy ahamiyati bor. Estetika ham bundan mustasno emas. Fanimiz, avvalo, kundalik hayotimizda estetika tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish borasida katta ahamiyatga ega. Erkin, demokratik jamiyatimizning har bir a'zosi go'zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bo'lishlari lozim; haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay bilishlari, «ommaviychilik san'ati»ni rad qila olishlari lozim. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, Estetika jamiyatning barcha a'zolari uchun muhim ahamiyatga ega.

Estetikaning, ayniqsa, badiiy asar ijodkorlari uchun amaliy ahamiyati katta. Chunonchi, biror bir san'at turida ijod qilayotgan san'atkor birinchi galda, ma'lum ma'noda, o'z sohasining bilimdoni bo'lishi kerak. Deylik, bastakor notani bilmasdan, musiqali asar yaratish qonun-qoidalarini, shu jumladan, musiqaga ham taalluqli bo'lgan Estetikaning umumiy qonuniyatlaridan behabar xolda tuzukroq asar yaratishi dargumon. Ba'zilar da ho san'atkorlar qonun-qoidalarsiz ham ijod qilaveradilar, degan noto'g'ri tasavvur paydo bo'lgan.

Badiiy asarni tadqiq etuvchi olimlar, tanqidchilar-san'atshunoslar va adabiyotshunoslar uchun ham Estetikani bilish zarur. Deylik, «sof teatr» - faqat sahna san'atinigina yaxshi bilgan san'atshunos u qanchalik iste'dodli bo'lmasin, yuksak talab darajasida tadqiqot olib borolmaydi, hatto e'tiborga molik maqola ham yoza olmaydi. Chunonchi, u dramaturgiyadan, musiqadan, uslub va kompozitsiya qonun-qoidalaridan, bir so'z bilan aytganda, Estetika qonuniyatlaridan habardor emas. Natijada uning tadqiqoti, maqolasi yoki taqrizi biryoqlama, falsafiy umumlashmalardan xoli, jo'n va sayoz jumlar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi.

Estetikaning san'atni xalq orasida yoyadigan, targ'ib etadigan tashkilotlar rahbarlari uchun ahamiyati, ayniqsa, muhim. Bordiyu ma'naviyat va mafkura sohalariga matasaddi rahbarlar Estetikadan behabar bo'lsalar, Xudo urdi deyavering. O'sha viloyat, tuman, shahar yoki tashkilotlarda yuzaki qaraganda kulgili, latifanamo, aslida esa san'at uchun fojiali holatlar yuzaga keladi.

Dizaynchi-injenerlar, atrof-muhitni obodonlashtirish bilan shug'ullanadigan mutahassislar faoliyatiga estetika ilmining sezilarli ta'siri mavjud. Shuningdek, korxona rahbarlari, sex boshliqlari mazkur korxona yoki sexda dastgohlar dizaynidan tortib, devorlar ranglari-yu, «ichki gulzor»larning joylashtirilishigacha estetika qonun-qoidalari asosida bo'lishini ta'minlashlari lozim. Zero o'shandagina ish joyida mehnat unumdorligining oshishi tabiiy. Buning uchun esa mazkur rahbarlar Estetikadan albatta habardor bo'lishlari shart.

Umuman olganda, Estetika hamma uchun ham zarur. Chunki inson zoti bari-bir, hayotda tez-tez san'at asarini idrok etuvchi sifatida maydonga chiqadi. Deylik, siz Samarqandga «sayohat qilib kelgani» bordingiz. Agar Estetikadan behabar bo'lsangiz, Go'ri Mir maqbarasining gumbaziga, Registondagi madrasalar yonida qad ko'targan minoralarga, peshtoqlaridagi ko'hna arabiy yozuvlarga qiziqib qaraymiz, chiroyli ekan deb mamnuniyat

hosil qilasz. Bordi-yu, aksincha, estetika ilmidan habardor bo'lsangiz, u xolda na faqat ularning chiroyliligini, balki gumbaz shunchaki gumbaz emas, Xudo go'zalligining ramzi ekanini, «jamol» deb atalishini, minoralar–Tangri qudratining timsoli o'laroq «jalol» deyilishini, peshtoqlardagi go'zal yozuvlar-oyatlar, Xudoning belgisi «sifat» deb nomlanishini eslaysiz va olayotgan taassurotingiz bir necha barobar kuchayadi. Zero Estetika orqali biz faqatgina ko'rganlarimizning shakliy go'zalligini emas, balki ayni paytda shakl bilan birga uning falsafiy mohiyatini ham idrok etamiz. Shu sababli, fermerga yoki temir yo'l ishchisiga, yoki tijoratchi-tadbirkorga Estetika haqida bosh qotirib o'tirish zarur kelibdimi, degan gaplar xato va zararlidir.

Yuqorida ko'rib o'tganlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bugungi kun Estetika fani oldida ulkan vazifalar turibdi. Zotan biz qurayotgan fuqarolik jamiyati a'zosi har jihatdan kamol topgan, yuksak nafis did egasi bo'lmog'i lozim. Qolaversa, hozirgi mashinasozlikni, aviasozlikni, umuman, sanoatni zamonaviy dizaynsiz tasavvur etish mutlaqo mumkin emas. Bunda bevosita texnika estetikashunosligining ahamiyati katta. Bunlardan tashqari, ayniqsa yoshlarning estetika tarbiyasiga alohida e'tibor berish–zamonning dolzarb talabi bo'lib bormoqda. Shu bois «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillaridan biri: «Ta'limning ijtimoiylashuvi-ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish», deb aniq belgilab qo'yilgani bejiz emas.

Go'zallik- estetikaning asosiy tushunchasi. Zero, go'zallik- estetika olamining mag'zi, bosh xossasi, mohiyati, asosini tashkil qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, estetika, Estetika, go'zallik falsafasi tarzida ham talqin etib kelinadi. Go'zallik muammosiga murojaat etgan barcha mutafakkirlar go'zallik haqida fikr yuritib va uni tadqiq qilish nihoyat darajada mashaqqatli masala ekanligini doimo ta'kidlaydi. Mazkur qiyinchilik, birinchi navbatda, go'zallik tushunchasining o'zaro hech bir umumiyligi bo'lmagan turli-tuman hodisalarning keng doirasiga taalluqliligi bilan bog'liqdir. Go'zal bo'lgan, ya'ni bizda ijobiy tuyg'u qo'zg'atgan narsani ko'rsatib berish nisbatan ancha oson. Lekin nima uchun mazkur narsa go'zal ekanligini tushuntirib berish ancha mushkul. Xuddi shu tarzda go'zallik muammosiga falsafiy yondoshish tarixan shakllangan.

Go'zallik - bu voqelik (tabiat, jamiyat, san'at) hodisasi bo'lib, aniq hissiy ta'sir o'tkazish orqali insonda jismoniy va ma'naviy kuchlar oqimining ko'payishiga, shodlik, zavqlanish, to'la ma'naviy qoniqish holati vujudga kelishiga imkon yaratadi. Go'zallik doimo foydalidir, lekin bu foydalilik jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga mo'ljallangan bo'ladi. Va nihoyat, go'zallik, Shillerning o'rinli iborasi bilan aytganda, inson ozodligining ramzi sifatida ifoda topadi. Mustaqil Respublikamizda erkin ma'naviyatli shaxs tarbiyasi muhim vazifaga aylangan tarixiy bir sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi. Go'zallik cheksiz xilma-xillikka ega bo'ladi. Tabiatdagi go'zallik ijtimoiy hayot go'zalligidan, foydali amaliy faoliyatidagi go'zallik badiiy ijoddagi go'zallikdan farq qiladi. Lekin go'zallik qanchalik o'zining rango-rangligi bilan ajralib turmasin, ularning barchasi qandaydir umumiy tub belgilarga ega bo'lib, mana shu umumiy tub belgilar tufayli ularning barchasini maxsus ilmiy-falsafiy istiloh-go'zallik tushunchasi orqali talqin etish imkoniyati mavjud.

San'atda ilg'or estetik orzuning bo'lishi san'at go'zalligi bilan bog'liq zaruriy, lekin yagona bo'lmagan omildir. San'at go'zalligi uning haqqoniyligidan ajralmagan holda qaror topadi. Badiiy haqiqatsiz san'atda go'zallik bo'lishi mumkin emas. Haqiqat va go'zallik birligi san'at taraqqiyotining qonuniyatlaridan biridir. Mazkur qoidani nozik fahmlash, ifoda qilar ekan, Shekspir o'zining sonetlaridan birida: «Go'zallik qimmatli haqiqat bilan yakunlanib, yuz chandon go'zallik kashf etadi», — deb yozgan edi. Go'zallikni hayot haqiqatidan ajratib tashlashga har qanday urinish san'atga halokatli ta'sir qilib, uning faol, o'zgaruvchan ahamiyatini pasaytiradi. San'atdagi go'zallikni haqli ravishda shaklli va mazmuniy birligi bilan bog'lab mushohada etadilar. Kamolotga, go'zallikka intilish ko'p jihatlardan eng muvofiq shaklini izlab topish bilan bog'liq bo'lib, bu shakl yaratilmish narsaning mazmuniga mos

kelishini taqozo etadi. Go‘zallik qonunlari bo‘yicha yaratish mutanosib shakl izlab topishni o‘z ichiga oladi.

Shaklning mazmunga mos kelishi san‘atdagi go‘zallikning mezonni ekanligi haqidagi qoidaga ba‘zi bir aniqliklar kiritishimiz bu yerda o‘rinlidir. Masala qanday mazmun haqida gap borayotganligidadir. Yolg‘on, zararli, g‘oyaviy buzuvchi mazmun o‘ziga yarasha ifoda topadi, lekin buning natijasida san‘at asari go‘zalligining mezonlaridan biri sifatida qarash mumkin bo‘ladiki, agar gap ijtimoiy ahamiyatli, g‘oyaviy, ilg‘or, hayot haqiqatiga ega mazmun haqida borsa hamda unga muvofiq, barkamol shaklda bu mazmun ifodalansa.

Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalardan hulosasi yasab shuni aytish mumkinki, san‘atdagi go‘zallik, uning kamolot darajasi ko‘p tomonli, murakkab tizim birligini anglatib, uning tarkibiy qismlari sifatida tasvir ob‘ektining go‘zalligi, estetik orzuning haqqoniyligi va ilg‘orligi, voqelikni bilishning haqiqiy va chuqur mazmundor ekanligi, badiiy mahoratning yuksakligi namoyon bo‘ladi. Mazkur omillar orasida estetik orzu o‘zining haqqoniyligi, demokratikligi, insoniylik bilan belgilovchi, sistema tashkil etuvchi ahamiyatga molikdir.

Ulug‘vorlik-estetikali va ahloqiy mezonlar bilan bog‘lanib, nihoyat darajada yaqqol va bevosita amal qiladigan estetikali mezoniy tushunchani tashkil etadi. Ulug‘vorlik ko‘lami go‘zallik ko‘lamidek cheksiz va benihoya. Ulug‘vorlik tabiatda, jamiyatda, inson ishlarida, uning faoliyat mahsulotlarida jamlangandir. Ulug‘vorlik belgisiga ega bo‘lgan barcha narsalarning, hodisalarning hammasiga hos bo‘lgan umumiylik-ularning me‘yoriy barkamolligi, shu qadarki, undan tashqarida me‘yor qonuni buzilishi mumkin.

Ulug‘vorlik kategoriyasi odamlar uchun alohida ahamiyatli hodisalar sirasiga kiradi. Bunday hodisalar mohiyatan shu qadar keng ko‘lamli, ular ijtimoiy taraqqiyotning ma‘lum bosqichida to‘la o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lmaydi, shuning uchun odamlarni faol harakatga, o‘zlaridagi ijodiy imkoniyatlarni ishga solishga doimo rag‘batlantiradi.

Tabiatda ulug‘vorlik baland tog‘lar, qudratli sharsharalar, cheksiz okeanlar, moviy mavj urayotgan dengizlar, tubsiz osmon va h. k. timsolida namoyon bo‘ladi. Bu yerdagi umumiylik-uldagi kengko‘lam, ulkanlik, buyuklik, tuganmaslikdir. Tabiatdagi ulug‘vorlik insonda o‘zidagi zaiflik emas, balki tabiat bilan qo‘shilib ketishga intilish hissini uyg‘otadi. Ulug‘vorlik hissi o‘z-o‘zidan estetikali mazmunga ega bo‘lmagan quvonch, hayratlanish, ehtirom, tan berish tuyg‘ularini o‘z ichiga qamrab oladi. Bularga ba‘zida qo‘rquv ham qo‘shiladi, lekin u insonni kamsitmaydi. Balki to‘siqlarni yengib o‘tishga turtki beradi.

Ulug‘vorlik hissi umuminsoniy, umumiy belgilari bilan birga ijtimoiy shartlangan, aniq-tarixiy tabiatga ham molik bo‘ladi. Ulug‘vorlikka, ijtimoiy hayotga, tarixiy taraqqiyotga alohida ta‘sir o‘tkazuvchi hodisalar va jarayonlar ham kiritilishi mumkin. Ijtimoiy hayotda ulug‘vorlik bilan qahramonlik, mardlik shu qadar qorishib ketadiki, ularni alohida-alohida mushohada etish ulug‘vorlikning asosiy mazmunidan mahrum qilib qo‘yish bilan barobar bo‘lar edi. Qahramonlikda ulug‘vorlikka hos estetik va ahloqiy birlik ayniqsa to‘la va bevosita namoyon bo‘ladi. Halki fidoiylari, elu-yurt jonkuyarlarining qiyofalari bir vaqtning o‘zida ham ulug‘vor, ham mardona namoyon bo‘ladi.

Aqlu qahramonlik ko‘pchilik omma tushunchasida odatdan tashqari noyob, nodir, kam uchraydigan hodisalar, lekin u kundalik hayotda, oddiy sharoitda eng sodda, hamma amal qiladigan ahloqiy qoidalar doirasida ham sodir bo‘lishi mumkinligining o‘zi ulug‘vor ahamiyat kasb etadi. Bu haqda jahon san‘ati tarixida birinchi bo‘lib, A.P. Chexov aytgan va yozgan edi. Chexov orzusidagi qahramonlik, mardlik-ulug‘vorlikni kundalik halol mehnatda, ahloqiy aqidalarga doimiy tarzda amal qilishda o‘z qadrini topadi.

Ulug‘vorlik me‘morilikda alohida ahamiyat kasb etadi. Misr piramidalari, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi me‘morilik obidalari, yunonlarning Parfenoni, rimliklarning Kolizey, o‘rta asr gotik bosh cherkovlari, rus cherkov me‘moriligidaning eng yaxshi namunalari, Rossi, Rastrelli kabi me‘morlar yaratgan go‘zal binolari, o‘zlarining salobati, ulug‘vorligi bilan kishini hayratda qoldiradi.

Shu narsani alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, ulug‘vorlik tuyg‘usiga faqat miqyos o‘lchovi bilan erishilmaydi. Agar ayrim obidalar (Bobil minorasi, Minorai Kalon, Misr piramidalari va

h. k.) o'zlarining miqyoslari ko'lami bilan hayron qoldirsalar, boshqalari esa o'zining alohida nafisligi, nozik ifodasi, hamohangligi, yuksak ruhlanganligi, atrof-muhit bilan uzviy qo'shilib ketganligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Go'ri amir, Shohizinda, Ichan Qal'a, Registon maydoni, Mir Arab madrasasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Minor, Bola hovuz maschiti va b. me'morchilik asarlari idrok etilganda insonda o'zgacha ulug'vorlik tuyg'usi vujudga keladi.

San'atda ulug'vorlik fojealilik bilan ko'pincha yonma-yon turadi va namoyon bo'ladi, sirasini aytganda, bu ikki estetik kategoriya o'rtasida o'ziga xos dialektik aloqadorlik mavjud bo'lib, unda umumiylik va farqli tomonlari ham bordir. Navoiy va Shekspir asarlari, shoshmaqom go'zal me'morchilik obidalarini bir vaqtning o'zida ham ulug'vorlik, ham fojealilik ruhi bilan sug'orilgandir. Bundan, albatta fojealilik-ulug'vorlik, ulug'vorlik-fojealilikdir degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Masalan, Samarqandning Registon maydonidagi madrasalar, shubhasiz, ulug'vor bo'lishlari bilan birga hech qanday fojeali his qo'zg'atmaydilar. Shekspirning Makbet xonim qiyofasi fojeali, lekin u hech ham tomoshabinda ulug'vorlik tuyg'usi tug'dirmaydi. San'atdagi ulug'vorlik badiiy mazmun va shakl barcha imkoniyatlari vositasida ifodalanadi, lekin bunda hal qiluvchi rolni g'oya o'ynaydi. Muhim ahamiyatli g'oya yuksak ruhlangan, mukammal shaklning zarurligini yuzaga keltirib, san'at asarining buyuklik darajasini belgilab beradi. Bu holat hayotiy haqiqatni ochishga emas, unga xizmat qilishga da'vat etadi.

Fojealilik muammosi har doim falsafiy va estetikali tafakkur e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Fojealilik tabiati to'g'risida fikr-mulohaza bildirmagan biror bir mutafakkirni topish amri mahol bo'lsa kerak, chunki fojealilikda voqeyi hayotning eng muhim, chuqur ziddiyatlari va to'qnashuvlari hayot va o'lim, ozodlik va zarurat, aql va tuyg'u, qonun va burch, shaxsiy va ijtimoiy tomonlari namoyon bo'ladi.

Kulgililik insonning dunyo voqea-hodisalariga o'ziga xos munosabatlaridan biri-dunyoga kulgili nigoh bilan qarashdir. Bunday qarashni mavjud voqelik va uning beo'xshov tomonlari to'ldiradi. Barcha tadqiqotchilar bir ovozdan kulgililik kategoriyasining murakkabligi va uni tushunchalar sistemasini anglab, in'ikos etish juda qiyinligidan noliydilar va ogohlantiradilar. Masala shundaki, kulgi qo'zg'aydigan hodisalarning benihoyat ko'pligi, eng muhimi, kulgililik ko'lami hamda chegarasining o'ta harakatchan, qo'nimsiz, o'zgaruvchan bo'lishi natijasida nima, qachon, qaerda, qanday sharoitda kulgi qo'zg'aydiyu, nima, qachon, qaerda, qanday sharoitda kulgini to'xtatadi yoki umuman gulgiga olib kelmaydi degan savolga bir mazmunda javob topib bo'lmaydi. Kulgililik ta'rifiga, ilmiy tushunchasiga nisbatan ishlab chiqilgan nuqtai nazarlar, fikr-mulohazalarning o'ta xilma-xilligi, rangorangligi shundan kelib chiqqandir. Kulgililikka nisbatan mavjud bo'lgan qarashlarning xilma-xilligi, tabiiyki, nafaqat narsa, hodisa bilan bog'lanibgina qolmay, balki uning ijtimoiy aloqadorligi, go'zallik va kulgililik tushunchalarining u yoki bu talqini bilan bog'langanligidir.

Kulgililik tushunchasi talqinining har biri odatdagidek o'zining aniq, oqil mag'ziga ega bo'ladi, kulgililikka haqiqatda ham xos bo'lgan ba'zi tomonlarini ochib beradi, lekin shu bilan birga bir tomonlamalik kasaliga uchrab, kulgililikning qandaydir bir tomoninni bo'rttirib, haddan tashqari oshirib yuboradida keyin uni kulgililikning mutloq qoidasiga aylantirishadi.

Kulgililik boshqa estetikali hodisalar singari faqat ob'ektiv tomonga ega bo'lmay, sub'ektiv tomonlarni ham o'zida birlashtiradi. Kulgililikning sub'ektiv tomoni-keng ma'nodagi hazil (yumor) tuyg'usidir. (Moler hazil tuyg'usini insonni hayvondan ajratib turadigan xususiyati deb atagan edi.) Kulgililikning sub'ektiv tomoni bo'lgan hazil tuyg'usi shaxsning tabiiy va erkin, bevosita idrok etish natijasida xilma-xil kulgili beo'xshovliklarni ko'rib, anglab, ularga kulgi bilan javob berish qobiliyati ifodasidir. Hazil tuyg'usi juda murakkab aqliy tuyg'u bo'lib, unda shaxs o'zining butun borlig'i bilan namoyon bo'ladi, uning his-tuyg'u va aql madaniyati, orzu-umidlari matni va tabiati namoyish etiladi. Xalq orasida keng tarqalgan: «Do'stlaring kimligini menga aytsang, sening kimligingni men aytib beraman» naqliga qiyos qilib, bu yerda biz ham: «Nima haqda kulayotganingni menga aytsang, sening kimligingni men aytaman» deyishimiz mumkin bo'lar edi.

Estetikali anglash ijtimoiy ongning maxsus shakli sifatida estetikali faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, estetikali faoliyat jarayonida shakllanadi va qaror topadi. Estetikali ong aslida estetikali faoliyat mahsulidir.

Estetikali ong badiiy ong bilan chambarchas bog'liq. Ular bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lsada, aynan bir ma'noni anglatmaydi. Estetikali ong voqelikni butun borlig'icha idrok etib, qayta ishlash jarayonida vujudga kelsa, badiiy ong san'atni yaratish va idrok etish jarayonida namoyon bo'ladi. Badiiy ong badiiy asarlar tizimida ifodalansa, estetikali ongning aks etish ko'lami ancha keng bo'lib, u odamlarning mehnat faoliyatida, uning natijalarida, moddiy va ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topadi.

Estetikali ongning ijtimoiy ong shakli sifatidagi ko'rinishidan yakka odam estetikali ongi ko'rinishi farq qiladi. Yakka odam estetikali ongi-aniiq bir shahs ongi, ma'naviy dunyosining bir qismi bo'lib, keng ma'noda u ham ijtimoiy mazmun kasb etadi, ya'ni ijtimoiy hayot jarayonida shakllanib, rivojlanib, jamiyat mahsuliga aylanadi.

Estetikali ong bilan yakka odam estetikali ongi o'z sub'ektlariga egalik jihatidan ham farqlanadilar. Ijtimoiy tabaqalar, qatlamalar, guruhlar, millatlar, elatlar, xalqlar estetikali ong sub'ekti sifatida namoyon bo'lsa yakka odam, estetikali ongning sub'ekti - muayyan bir shaxsdir.

Estetikali ong va yakka odam estetikali ongi o'z mazmuni jihatidan ham farqlanadi. Jamiyat estetikali ongi ijtimoiy hayotdagi estetikani to'la qamrab oladi. Yakka odam estetikali ongi esa faqat bitta shaxs ma'naviy dunyosidagi estetikali sohani o'z ichiga oladi.. Yakka shaxs estetikali ongi ijtimoiy estetikali tarkibida harakat qiladi, ya'ni u bilan ichki bog'liqlikka ega bo'ladi. Ularni bir-biridan faqat ilmiy-nazariy tahlil qilish orqali ayrim-ayrim holda olib ko'rish mumkin.

Eng yaxshi san'at asarlari ilm-fan kishisida xayol-faraz vujudga keltiradi va yaxlit, estetika his-tuyg'usini uyg'unlashtiradi, g'ayritabiiy tafakkur qilish qobiliyatini oshiradi, erkin dunyoqarash baxsh etadi, yuksak muloqot madaniyatini shakllantiradi, hozirgi fan ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan qobiliyat-imkoniyatlarini safarbar qilishga undaydi.

9-mavzu Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot

Reja :

1. Globallashuv tushunchasi
2. Globallashuvning iqtisodiy jihatlari va muammolari
3. Ommaviy madaniyat va axborot taxdidlari globallashuv natijasi

Insoniyat taqdiri falsafasi. Kelajakka intilish va uni bilish o'ta qiziq muammoligidan inson hayotiy-amaliy ehtiyojlarining in'ikosidir. Shu bois inson umidi ila yashashga choglanadi. Bu hol hayot dialektikasini ideal loyihasini hosil etib insonni kiyinchiliklarni yengishga kuch beradi.

Bashorat kilish ijtimoiy taraqqiyot burilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda globallashuvning bosh muammosi insoniyat taqdirini oldindan bimlish desak xato ketmaymiz. Estrasensorlik va folbinlik shu davrda kuchayishi tabiiy xoldir.

Ilmiy prognozlashtirish ilgarilanma in'ikosdir. Ilmiy oldindan ko'rishning voqelikda hali mavjud bo'lmagan, lekin ob'ektiv va sub'ektiv omillar ko'rinishida potensial reallik insonni doimiy extiyoji bo'lgan. Masalan, axolining demogafik kayfiyatiga qarab kelajakda respublika ijtimoiy holatini bilish mumkin., Tikuv mashinasi ixtirosi yoki Mendelev o'zining kimyoviy elementlar jadvalida o'rganilgan kimyoviy elementlardavriy sistemasi oldindan ko'rishga misol bo'ladi. Insoniyat taraqqiyot zinapoyalaridan yuqori ko'tarilib borgani, ijtimoiy rivojlanish templari tezlashgani sari kelajakni oldindan ilmiy ko'ra bilishning ahamiyati o'sib boradi.

Mutaxassislar fikricha, siyosiy hodisalar, sotsial-iqtisodiy o'zgarishlar, texnologik yangiliklarga boyligi fan va madaniyat aloqalarining intensivlik darajasi nuqtai nazaridan XX asrning so'nggi yillari XIX asrning 10 yiliga, antik va o'rta asrlarning 100 yiliga, qadimgi davrning

1000 yiliga tengdir. Bu insoniyat istiqbolini muhim hayotiy-amaliy ahamiyatga ega falsafiy muammo sifatida o'rganish zarurligini yana bir karra tasdiqlaydi!

Jamiyat takdiri globallashuv sharoitida yanada murakkablashadi. Insoniyat ilmiy texnika yutuklari osasida kelajakni oldindan taxsmiyniy xolatini bila oladi. Bu taxminlar to'la bo'lmasligi, ijtimoiy hayotning ayrim hodisalari rivojlanishini oldindan ko'rib bo'lmasligi hamda davomlilikning buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Yer yuzida 7 mlrd. odam yashayotganini hamda tug'ilish va o'lishning nisbati, umr uzoqligi kabi omillarni inobatga olib, 2025 yilda bu ko'rsatkich 8 milliardni tashkil etadi, deb taxminlanmoqda.

Yaqin kelajakdan farqli ravishda kuzatiladigan kelajak haqidagi bilimlar haqiqatga yaqinroq bo'ladi. Chunki uning qanday bo'lishi yaqin kelajakda ro'yobga chiqadi, deb hisoblangan hodisalarning amalga oshishi yoki oshmasligiga bog'liq bo'ladi. Xususan, mutaxassislar 2025 yilga tatbiquan prognoz to'g'ri chiqsa, 2100 yilga kelib Yer yuzi aholisi 10-12,5 milliardni tashkil etadi, deb hisoblashadi.

Kelajakni bashorat qilish metodlari. Bu jarayonda ekstrapolyatsiya, tarixiy analogiya, ssenariy tuzish, ekspert baholashi, kompyuter modellashirishi kabi ilmiy metodlarning ahamiyati beqiyosdir. Jumladan, ekstrapolyatsiya metodida predmet hodisaning ma'lum bir qismi haqidagi xulosa uning boshqa qismlariga, butun hodisaga, predmetga ko'chiriladi. Xususan, mantiqiy ekstrapolyatsiya yordamida bugungi kunda O'zbekiston hayotida kuzatilayotgan ayrim tendensiyalarga asoslanib, ularning yaqin istiqboldagi ko'rinishi qanday bo'lishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Yuqorida keltirganimiz, Yer yuzi aholisining istiqboli haqidagi taxminlar esa "statistik ekstrapolyatsiya" metodiga asoslanadi.

Tarixiy analogiya metodi ham ijtimoiy jarayonlar rivoji istiqbolini ko'rishda o'ziga xos qimmatdorlik kasb etadi. Masalan, tarix ko'plab davlatlar o'z hududini, ta'sir doirasini muntazam kengaytirishga intilishi, mamlakat boshliqlari va siyosiy kuchlarning butun dunyoga hukmronlik qilishdek xayoliy orzulari natijasida o'zining ichki imkoniyatlarini sarflab bo'lib, halokatga yuz tutganidan dalolat beradi. Bunday voqelik bugungi kunda dunyoga hukmronlik qilishga intilayotgan ayrim davlatlar o'zlarining gegemonistik siyosatini davom ettiradigan bo'lsalar ularning yaqin istiqboldagi taqdiri ayanchli bo'lishi mumkinligi haqidagi xulosani chiqarish imkonini beradi.

Dunyoning iqtisodiy globallashuvi o'ta murakkab muammo hisoblanadi. Muammoni falsafiy tadkikida A.Moiseev ilk bora globallashuvda barkaror taraqqiyot omili o'ta muhimligini ta'kidlagan. Darhaqiqat globallashuv degani globus so'zidan olingan bo'lib iqtisodiy sohada aniq va tinik o'zitni namoyon etadi. Yuz yil oldin ot,eshak, tuya asosiy transport vositasi bo'lsa bugun u million marta tezlashdi. Bir kishlokdan ikkinchi kishlokkada odamlar utmay tugilgan gushada jon taslim etgan. Bugun ananaviy taraqqiyot noananaviyga o'zgardi.

Transnatsional kompaniya va firmalar dunyoni uch kism bo'linishini ishlab chiqaruvchi va iste'molchi kabi ikki bo'lib tashladi. Zamonaviy falsafada ba'zi davlatlarning iqtisodiy jadal o'sishi bilan ikkinchilarini iqtisodiy tanazzuligini kuzatish mumkin. AQSh va Xitoy dunyoda eng katta eskporter davlatlarga aylanib o'zga davlatlarni o'ziga iqtisodiy qaram kilib qo'ydi. Mutaxassislan globallashuv iqtisodiyot soxasida elon kilinmagan **urush** deya baxolashi, bu davlatlarning elchixonolari oldidida antiglobalistlarning doimiy chiqish va piketlari fikrimizni tasdiqlaydi. Darxaqiqat urushning maksadi nima? AKSh va Xitoy urush kilmay o'zga yurtlarni bosib oldi-ku.

Dunyo kuchalarida AKSh avtomoilari va tovarlari kupligi, xitoy tovari dunyoni bosib ketgani butun dunyo xitoyga ishlayotganini tasdiklaydi. Xar uchinichi odam Nokiya telefonini sotib olishi bilan pul nokiyaga okmoqda. BILL Geyts xammadan o'tadi. U insonmatsion kirol sifatida dunyoni kuldoriga aylandi.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi, uning o'zgaruvchan xarakteri. O'zga hududlarni zabt etish harakatlari takomillashib, usul va vositalar mukammalashgan. Ularning miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlari yanada murakkab xarakterdadir. Insoniyat to'plagan urush qurollari butun Yer sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo'q qilib tashlash darajasiga yetdi. Shunday bo'lsada, kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi davrida turli siyosiy kuchlar va harakatlarning mafkuraviy

vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilishi oqibatida mutlaqo yangicha sifatga ega bo'lgan jarayonlar ham kuzatilmoqda. Bu o'z rivojlanish tarixiga ega dunyoning mafkuraviy manzarasining bugungi kundagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilab bermoqda.

Insoniyat taraqqiyotining ilk davrlarida deyarli barcha xalqlarda mifologiya universal xarakterga ega bo'lgan bo'lsada, bir tomondan, o'ziga xos xususiyatlarga ega ijtimoiy guruhlar va ularning ayri-ayri manfaatlari ifodasi bo'lgan tom ma'nodagi mafkuraviy tizimlar shakllanmagani, ikkinchi tomondan, Yer yuzining turli nuqtalari o'rtasidagi aloqalar rivojlanmagani, kishilik jamiyati yagona organizmni tashkil etmagani uchun dunyoning yaxlit mafkuraviy manzarasi haqida gapirish mumkin emas.

Xalqlar, davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar kuchsiz bo'lgan bir davrda monoteistik dinlarning yuzaga kelishi, ularning o'z hukmronligini o'rnatish yo'lida olib borgan kurashi natijasida esa dunyoning diniy qarashlar ustuvor bo'lgan ilk mafkuraviy manzarasi shakllandi.

Jahon dinlari tarqalgan hududlar nisbatan barqarorlashgan (to'g'rirog'i muayyan diniy ta'limotlarni yoyish uchun olib borilgan urushlar asosan to'xtagan) bir sharoitda dunyoda iqtisodiy hukmronlik uchun kurashning boshlanishi, ilmiy bilimlarning rivojlanishi, xalqlar, davlatlar o'rtasidagi aloqalar qamrovining kengayishi dinning g'oyaviy regulyatorlik rolining asta-sekin pasayishiga olib keldi.

Qisqa vaqt davomida alohida mavqega talabgorlik qilgan natsizmni inobatga olmaganida, asosan sotsialistik va burjua mafkuralara orasida borgan kurash esa ("uchinchi yo'l"ga da'vogarlik qilganlar ham aslida u yoki bu darajada ularning ta'siri ostida edi) dunyoning mafkuraviy manzarasi rivojidadagi yangi bosqichni boshlab berdi. U hukmronlik uchun kurashda g'oyaviy omilning o'rni va ahamiyati yanada oshganini ko'rsatish barobarida global konfrontatsiya asosiga qurilgan mafkuraviy manzaraning shakllanishiga olib keldi.

Ushbu g'oyaviy tizimlar o'rtasidagi kurash barham topgan hozirgi davrda esa o'ziga xos xususiyatlarga ega dunyoning yangi mafkuraviy manzarasi qaror topib bormoqda.

Dunyoning mafkuraviy manzarasiga xos jarayonlarning yuqorida amalga oshirilgan tahlili uni yaxlit ijtimoiy fenomen sifatida ta'riflash imkonini beradi.

Eng umumiy ma'noda, *dunyoning mafkuraviy manzarasi deganda, jamiyat taraqqiyoti qonunlari, uning rivojlanish tendensiyalarini muayyan ijtimoiy guruh, etnik birliklar, siyosiy kuchlarning o'ziga xos manfaatlariidan kelib chiqib talqin qilish va unga asoslangan holda insoniyat istiqbolini belgilashga qaratilgan mafkuraviy tizimlar majmui tushuniladi.*

Dunyoning mafkuraviy manzarasiga xos ana shu mohiyatni chuqurroq va teranroq anglash inson ongi va qalbi uchun olib borilayotgan tinimsiz kurashning asl maqsadlarini to'g'ri tushunib yetishga, mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikka tahdid soluvchi g'oyalarning oldini olishga qaratilgan tegishli ma'rifiy ishlarni izchil va tizimli tashkil etishga xizmat qiladi.

Bugungi kundagi dunyoning mafkuraviy manzarasida bunyodkor va buzg'unchi g'oyalarning o'rni, ularning tarixiy ildizlari va namoyon bo'lishi. Bugungi kunda aksariyat davlatlarning mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga, tinchlik va taraqqiyot, inson haq-huquqlari va erkinligi, milliy va diniy totuvlik g'oyalariga asoslanadi

Shunday bo'lsada, insoniyat istiqbolini belgilashda universallikka da'vogarlik qilayotgan va transmilliy xarakterga ega g'oyaviy qarashlar dunyoning mafkuraviy manzarasi mazmunini belgilab berishda ustuvorlikka intilayotganini ham ta'kidlash zarur.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi davrida "turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham ko'ra shiddatli tus olmoqda, - deb yozadi Prezidentimiz. - Rang-barang, ba'zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda".

Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan jug'rofiy - siyosiy makonda ham o'zining mutlaq hukmronligini o'rnatish uchun kurashda namoyon bo'ladi".

Buning oqibati o'laroq, o'z atrofidagi mamlakatlar va xalqlar bilan munosabatda ustunlikka da'vogarlik, o'zini ular ichida tanho, yagona deb bilish, insoniyat taqdiri va xalqlar kelajagini belgilashda alohida mavqega talabgorlikning ifodasi bo'lgan mumtozlik mafkurasi tarix sahniga chiqdi. Uning davlat siyosati asosini tashkil qilishi esa, butun bir mintaqalarning vayron bo'lishi, ko'plab xalqlarning qaram qilinishiga olib kelgan qonli urushlarni keltirib chiqargan.

Inson ongi va qalbi uchun e'tiqod umumiyligiga asoslangan holda yakka mafkura hukmronligini ta'minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan o'ziga qaram qilishga bo'layotgan xatti-harakatlar ham mavjud. Masalan, islom dinini qurol qilib olgan aqidaparastlar ijtimoiy, milliy xususiyati, qaysi davlatga mansubligidan qat'i nazar, barcha musulmonlarning ma'naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib, ularning yagona xalifalik ostida, sodda qilib aytganda, diniy asosda siyosiy birlashuvi g'oyasini ilgari suradilar. Ular o'z qarashlarini aksariyat hollarda diniy-ma'naviy zamindagi uyg'unlik mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ilmiy-texnik sohalaridagi hamkorligi, ular salohiyatining birlashishi taraqqiyotga yo'l ochadi degan "beozor" shaklda taqdim etishga harakat qiladilar.

Hozirgi paytda dunyoda diniy - ekstremistik xarakterdagi sekta va harakatlar, ularning inson ongi va qalbi uchun kurash yo'lidagi faoliyatining jonlanishi kuzatilmoqda.

Xususan, ommaviy axborot vositalari xabarlariga ko'ra, birgina Rossiyaning o'zida "Bogorodichiy sentr", "Serkov ob'edineniya", "Serkov Isusa", "Serkov Novogo Zaveta", "Beloe bratstvo", "Bojestvenniy orden Pervogo Angela" kabi o'nlab diniy sektalar noqonuniy ravishda faoliyat olib bormoqda. "Kult satani" deb ataladigan sekta ham keng tarqalgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, o'ta xavfli bo'lgan bu sektaning yer yuzida 5 milliondan ortiq tarafdorlari bor. 1992 yilda Xitoyda Lyu Xunchji tomonidan tuzilgan va 2 milliondan ortiq tarafdori bo'lgan "Falungun" sektasini ham ana shu qatorga kiritish mumkin.

Globallashuvning mafkuraviy jarayonlar rivojiga ta'siri. Bugungi kunda globallashuv aholi sonining tez o'sib borishi sharoitida ularni boqish, ehtiyojlarini qondirish, tabiatning zo'riqishi bilan bog'liq masalalarni yaxlit holda ifodalovchi demografik-ekologik muammolarda o'zligini namoyon qilmoqda.

Hech qanday milliy chegaralarni tan olmaydigan, dunyoda umumiy texnologik va axborot maydoni yuzaga kelayotganini xarakterlovchi texnosferaning globallashuvi ham globallashuvning yana bir xarakterli xususiyatidir.

Iqtisodiy va siyosiy globallashuv bilan bir qatorda fan, madaniyat, ta'lim, axloq, mafkura sohasidagi globallashuvni xarakterlovchi ijtimoiy-madaniy globallashuv ham sodir bo'lmoqda.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida sodir bo'layotgan o'zgarishlar mafkura jabhasidagi globallashuvni ham keltirib chiqardi.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi, uslub va vositalarining takomillashuvi, yangi texnik va texnologik tizimlarning yuzaga kelishi natijasida unga Yer yuzining barcha mintaqalari tortilganini, g'oyaviy ta'sir o'tkazish va mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganini ifodalaydi.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo'nalish, tendensiya namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, muayyan hududda yuzaga kelgan, umuminsoniy mazmunga ega qadriyatlar, moddiy va ma'naviy ne'matlar o'zi shakllangan tarixiy makon doirasidan chiqib baynalminallashib, universallashtirib bormoqda. Ikkinchidan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanish darajasidagi turfa xillik, etnik, madaniy, konfessional, sinfiy, irqiy, hududiy, mintaqaviy yoki boshqa shakllardagi o'ziga xosliklarni mutlaqlashtirish insoniyat istiqboliga jiddiy xavf tug'diradigan salbiy xodisalarning mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelmoqda. Biron bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzot ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining g'oyaviy-mafkuraviy vazifalari. "Hayotimiz – sayohat, g'oya esa yo'lchi yulduz", -deb yozgan edi V.Gyugo. G'oyaning

ulug'ligi ertangi kun buyukligini ta'minlashning zaminidir. Ayni paytda, g'oya qanchalik ulug' bo'lsa, uni amalga oshirish shunchalik kuch-qudrat, ulkan matonat va shijoatni talab qiladi.

O'zbekiston – ko'p millatli davlat. Demak, uning buyuk kelajagi mamlakatda istiqomat qilayotgan xalqlarning hamjihatligi va hamkorligidan tashqarida voqe bo'lishi mumkin emas. Shu bilan birga, o'zga millatlar va elatlar ehtiyoji va manfaatlarini to'g'ri anglash, ularga nisbatan odilona munosabatda bo'lish millatning yetukligini belgilab beruvchi, o'ziga o'xshaganlar ichida tengligini anglaganini ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi.

Har bir xalqning insoniyat tarixida o'ziga xos, noyob va betakror o'rni bor. Shu ma'noda ularning har biri buyukdir. Ammo buyuklik sifati faqat noyoblik, betakrorlik kabi xislat, fazilatlar bilan ham cheklanmaydi. Buyuklik insoniyat ilm-fani, adabiyoti, san'ati, umuman madaniyati rivojlanishiga qo'shgan, qo'shayotgan va qo'shishi mumkin bo'lgan hissasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy salohiyati va imkoniyatlari, davlatlararo munosabatlarda, mintaqa va dunyo darajasida o'ynay oladigan ulkan roli kabi bir qator omillar bilan ham belgilanadi.

Millatimiz bosib o'tgan yo'lga nazar tashlar ekanmiz, madaniyat, maorif, san'at, axloq kabi o'nlab sohalarda yaratilgan o'lmas asarlari, ijodlari bilan insoniyat ma'naviyatining bugungi qiyofasi shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan bunday daholarga boyligimizni ko'ramiz. Ularning asarlarisiz jahonning bugungi ilm-fani, ma'rifati, insonning ma'naviy-ruhiy izlanishlarini, umuman olganda, madaniyati rivojini tasavvur qilish amaliy jihatdan mumkin emas.

O'zbek kurashining dunyo sahniga chiqqani, jahon chempionatlarining o'tkazilishi va 70 dan ortiq davlatlarda kurash federatsiyalari va assotsiatsiyalarining tuzilishi ham mazkur jarayonning nechog'li qamrovli ekanidan dalolat beradi.

Fan va ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyatni yanada keng rivojlantirish uchun ham barcha ishlar qilinmoqda. Yangidan-yangi akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliygohlar faoliyat olib bormoqda. Bularning barchasi ulkan intellektual va ma'naviy-ma'rifiy salohiyatimizdan dalolat beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi yangilanish ham chuqurlashib bormoqda va o'zining dastlabki natijalarini bera boshladi. Xususan, bugun "O'zbekistonda tayyorlangan" tamg'asi bosilgan mahsulotlarni dunyoning turli chekkalarida uchratish mumkin. Bularning barchasi buyuklikka da'vo qilishimiz zamonaviy zaminga ham egaligining dalolatidir.

Demak, "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat" degan g'oya har tomonlama rivojlangan buyuk davlat qurishdek maqsadimizni aniq ayon etadi. Bir so'z bilan aytganda, bu g'oya ertangi kunimizga ishonch tuyg'ularni tarbiyalashga, o'z yo'limiz, istiqbolimiz va istiqbolimiz yo'lida mustahkam e'tiqod va kuchli iroda bilan harakat qilishga undaydigan kuch sifatida chiqadi.

Mazkur fikrlar ijtimoiy g'oyaga tatbiqan olinganda, u jamiyatdagi barcha ijtimoiy harakatlar, siyosiy kuchlar uchun birday qadrli bo'lishi, qo'llab-quvvatlanishi kerakligini, aks holda u qanchalik jozibali bo'lmasin g'oyaligicha qolib ketishini anglatadi. Chunonchi, Afg'oniston uchun ahamiyatli bo'lgan "Milliy kelishuv" g'oyasi hanuz shior bo'lib qolayotgani fikrimizga dalil bo'la oladi. Buning aksi o'laroq «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat» degan g'oya yoshlarimiz ongidan mustahkam o'rin egallab bormoqda.

Yuqoridagi mulohazalardan "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" degan g'oya kishilarimiz ongiga singdirilgan, undan chuqur joy olgan, e'tiqod darajasiga ko'tarilgandagina o'zining ulkan yaratuvchilik salohiyatini, harakatlantiruvchi kuchini namoyon qila oladi, degan xulosa kelib chiqadi. Mana shu holatni nazarda tutib, Sh.Mirziyoev «biz rakabatbardosh maxsulotlar ishlab chikarib dunyo bozoriga kirib borishimiz importni kamaytirishimiz kerak. Tadbirkorga yordam bermaylik. Biz unga xalal bermasak u o'zi dunyo bozorini egallaydi», - deb xak gapni aytgan.

"Odamlarni rozi kilish uchun xar bir mansabdor shaxsning shaxsiy javobgarligi zamonaviy taraqqiyotda muhtim falsafiy xarakter dasturi bulishi darkor.

Tayanch tushunchalar

Globalashuv va ilmiy bashorat. Barkaror taraqqiyot muammosi. Informations texnologiyalar. Milliy xavfsizda globalashuv taxdidi. Dunyoning mafkuraviy manzarasi, unda

bunyodkor va buzg'unchi g'oyalarning o'rni. Mafkuraviy globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari.

«O'zbekiston Xarakterlar strategiyasi jaxon xamjamiyatidan o'z urnini egallash yuli.

Takrorlash uchun savollar

1. Globallashuv va globus?
2. Barkaror taraqqiyot va globallashuv?
3. Jamiyat rivojida informatsion taxdidlar?
4. Dunyoning mafkuraviy manzarasida globallashuv omili.

10-mavzu: Global korrupsiya ijtimoiy-madaniy inqiroz oqibati

Reja:

1. Global korrupsiya tushunchasi
2. Korrupsiya shakl va xususiyatlari
3. Jahon tajribasida korrupsiyaga kurash usullari.

Oddiy xalq orasida korrupsiya deganda ko'pincha davlat amaldorlarining shaxsiy boylik orttirish hamda davlat, jumladan xalq manfaatlari va resurslariga ziyon yetkazish maqsadidagi poraxo'rlik tushuniladi. Gap xususiy soha to'g'risida ketayotgan bo'lsa, unda odatda yirik ko'lamdagi poraxo'rlik yoki xususiy korxona mulkini talon-taroj qilish nazarda tutiladi. Aslini olganda korrupsiya tushunchasi anchayin keng bo'lib, quyi tabaqadan tortib to yuqori tabaqagacha bo'lgan aholining deyarli barcha ijtimoiy qatlamlari, nafaqat davlat, balki xususiy sohalarni ham qamrab oladi.

Mazkur tushunchaga aynan 2003 yilda qabul qilingan va 2008 yilda O'zbekiston qo'shilgan Korrupsiyaga qarshi BMT konvensiyasida keltirilgan ta'rifga ko'ra, korrupsiya davlat amaldoriga shaxsan yoki boshqa shaxslar orqali lavozim majburiyatlari doirasida qandaydir harakat yoki harakatsizlikni amalga oshirishi uchun mansabdor va boshqa shaxs uchun g'ayriqonuniy bo'lgan imtiyoz va'da berish, taklif qilish yoki taqdim qilish hisoblanadi. Bunday ta'rif ma'lum bir lavozim majburiyatlariga ega xususiy shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Korrupsiya harakatlariga: (1) amaldor, huquqni muhofaza qilish, sud, soliq, bojxona, ta'lim, tibbiyot yoki ma'muriy muassasalar, shuningdek, har qanday xususiy korxonaning mansabdor shaxsiga pora berish, (2) mahalliy yoki chet el amaldori va xalqaro tashkilot amaldorini pora berish orqali sotib olish, (3) davlat mansabdor shaxsi tomonidan mulkni talon-taroj qilish, g'ayriqonuniy o'zlashtirish yoki undan maqsaddan tashqari foydalanish, (4) shaxs tomonidan shaxsiy boylik orttirish yoki uchinchi shaxsning boyishi maqsadida o'z obro'si yoki xizmat mavqeidan foydalanish, (5) korrupsiya harakatlaridan daromad olish, (6) oshna-og'aynigarchilik yoki urug'-aymoqchilik misol bo'la oladi.

Korrupsiyada doim kamida ikki tomon ishtirok etadi: bunda bir tomondan noqonuniy yo'l bilan boylik orttirayotgan (o'zi yoki uchinchi shaxs uchun) mansabdor shaxs va boshqa tomondan mansabdor shaxsdan aktiv yoki passiv usulda uning manfaatini ko'zlovchi qaror qabul qilinishini kutayotgan shaxs.

Rivojlanayotgan davlatlarda korrupsiya. Aslini olganda, gap qaysi (rivojlanayotgan yoki rivojlangan) davlat haqida ketmasin, korrupsiya hodisasi har yerda uchraydi. Biroq u turlicha ifodalanadi. G'arb mamlakatlarda, masalan, Fransiyada tibbiyot va ta'lim sohasida korrupsiya deyarli mavjud emas. Bu Fransiyada tibbiy xizmat asosan xususiy sektorda taqdim etilishi bilan bog'liq, ya'ni tibbiyot xodimini moliyaviy jihatdan rag'batlantirish "zarurati"ga hojat qolmaydi, chunki bemor rasman uning xizmati uchun gonorar to'laydi. Bunda tibbiy xizmat uchun deyarli barcha gonorarlar nafaqat xususiy, balki davlat tibbiyotida ham tibbiy sug'urta bilan qoplanadi. Ko'rinib turibdiki, xususiy tibbiyot tizimi bu sohada korrupsiyaning rivojlanishini qo'llab-

quvvatlamaydi. Bu mamlakatda ommaviy ravishda xususiy tibbiyotga o'tishga da'vat emasligini qayd etmoqchiman, chunki fikrimcha, buning uchun avvalambor tibbiy sug'urtaning amaliy tizimini yaratish talab etiladi.

Tibbiyot xodimining past daromadi rivojlanayotgan davlatlarda bu sohada korrupsiya kuzatilayotganligini qisman izohlaydi. Bemorlar tibbiyot xodimlarini moliyaviy rag'batlantirish zarur va ko'pincha tabiiy hol deb hisoblaydi. Bemorlarning fikricha, tibbiyot xodimlarning yetarli darajada bo'lmagan ish haqi shunday g'ayriqonuniy moliyaviy rag'bat olishlarini oqlaydi. Afsuski bu holat, aholining faxrli kasb egalari, shifokorlar va o'qituvchilarga bo'lgani shonch va hurmatiga putur yetkazadi.

Ayrimlar an'anaga ko'ra, bajarilgan ish uchun minnatdorlik izhor qilish tabiiy, degan o'rinli e'tiroz bildirishi mumkin. Ko'plab g'arb korxonalarida sovg'a olish masalalarini tartibga soluvchi ichki reglament qabul qilingan bo'lib, unda xodimlardan sovg'a olish yoki berishda shaffoflik talab qilinadi, ruxsat berilgan va ruxsat berilmagan sovg'a va iltifot belgilari, ularning belgilangan qiymati, sovg'a olgan shaxsning uni maxsus registrda deklaratsiya qilish majburiyati mustahkamlab qo'yilgan, pul ko'rinishidagi sovg'alarni olish man etiladi. Shunga o'xshash reglamentni joriy etish va unga rioya etish, masalan, o'qituvchi va shifokorlarni poraxo'rlikda o'rinsiz ayblash xavfini kamaytiradi.

Ta'lim sohasida korrupsiyaning rivojlanishi meritokratiya yo'qligiga, yoshlarda bilimlarga bo'lgan qiziqish pasayishiga, oliy ta'lim muassasalariga kirish va baholar sotib olinadi degan g'oyalarni singib olgan yoshlar soni ko'payishiga kabi achinarli oqibatlariga olib keladi. Natijada universitetni yetarlicha yoki mutlaqo tayyorlanmagan mutaxassislar bitirib chiqmoqda va bu so'nggi yillarda mamlakatimizda kuchayib borayotgan inson kapitali muammosini qisman izohlaydi. Shu munosabat bilan O'zbekistonda kirish imtihonlari natijalarini qalbakilashtirishga barham berishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar qabul qilinmoqda.

Darhaqiqat, yuqorida ta'kidlangandek bugun rivojlangan mamlakatlarda tibbiyot va ta'lim sohalarida korrupsiya holatlari juda kam uchramoqda. Bu nafaqat aholi hayotining yuksak iqtisodiy darajasi, balki bolalarga kichik yoshdan to'g'rilik va halollik kabi fazilatlarini singdirish, shuningdek, davlat va xususiy sektorda yo'lga qo'yilgan nazorat mexanizmlari bilan bevosita bog'liq. Biroq paradoksal tomoni shundaki masalan Fransiya da so'nggi bir necha yillarda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarni kuchayib borilishi kuzatilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar kuchaytirilishining sababi matbuotda xalqaro korrupsiya ayblovlari bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan Fransiyaning Technip, Alstom, Total yirik korxonalari bilan bog'liq bir necha shov-shuvli voqealar keng yoritilgan. Mazkur kompaniyalar rivojlangan mamlakatlarda o'tkazilgan tenderlarda ishtirok etganida shartnomalarni "olishning mahalliy usuli"ga asoslangan holda ularni qiziqtirayotgan shartnomalarni olish uchun "konvert" usulini qo'llagan.

Ushbu shov-shuvli ishlargacha Fransiya uzoq vaqt IHTT va Transparency International tomonidan Fransiya korxonalari, xususan, xorijda, jumladan, korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan mamlakatlarda faoliyat yuritadigan kompaniyalar tomonidan korrupsiya harakatlariga qarshi amaliy chora-tadbirlarni qo'llamaganlikda ayblanar edi. Fransiya yetakchi korxonalari katta jarimalar qo'llagan holda Amerika instansiyalari tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilishi ushbu mamlakat uchun bu boradagi muhim turtki bo'ldi. Masalan, Technip 240 million AQSh dollari, Total — 245 million AQSh dollari, Alstom — 772 million AQSh dollari va Alcatel-Lucentga- 92 million AQSh dollari miqdorida jarimaga tortildi. Katta jarimalardan tashqari amerikalik sudyalari bu kompaniyalarga korrupsiyaga qarshi kurash dasturining samaradorligini tekshirish maqsadida uch yil mobaynida mustaqil audit o'tkazish majburiyatini yukladi. Bunga muvofiq, sudlangan kompaniyalar Amerika instansiyalari buyruqlari bo'yicha ish tutishga majbur edilar. Amaliyot ko'rsatganidek, ekstra-hududiy vakolatga ega bo'lgan (AQSh hududining chegarasidan chiquvchi) talabchan va qat'iy Amerika odil sudlovi Fransiya da 2016 yilda korrupsiyaga qarshi kurash qonuni qabul qilinishiga turtki bo'ldi. Aytgancha, aynan shu sxema bo'yicha Britaniyaning BAE Systems va Germaniyaning Siemens kompaniyalariga qarshi qo'llanilgan jiddiy AQSh sanksiyalaridan so'ng Buyuk Britaniya xamda Germaniyaning korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qat'iy

qonunchiligi qabul qilindi. Aslida, aynan Amerikaning jiddiy sanksiyalari “xavfli“ sektorlarda faoliyat yuritadigan (shu jumladan, davlat xaridlari hisobiga yashaydigan yoki korrupsiya rivojlanayotgan davlatlarda faoliyat yuritadigan) barcha g‘arb transmilliy kompaniyalari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash dasturi qabul qilinishiga olib keldi.

Shunday qilib, Fransiyaning korrupsiyaga qarshi kurash qonuni nafaqat davlat korxonalari, balki xususiy korxonalardan Fransiya korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan amalga oshirilishi nazorat ostiga olinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli kompleks dasturlar qabul qilishni talab etadi. Xo‘sh, O‘zbekiston ushbu mamlakatlar tajribasiga suysansa bo‘ladimi? Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurash dasturi korrupsiya yuzaga kelishida eng xavfli sohalardan biri hisoblangan davlat xaridlari sohasida ham uni oldini olishning amaliy mexanizmlaridan biri bo‘lishi mumkin.

Davlat tashkiloti yoki xususiy korxona tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash dasturi. Fransiya korrupsiyaga qarshi kurash dasturini 500 nafar kishidan ortiq shtat birligi yoki muayyan mulk oborotiga ega har qanday korxona yoki tashkilot joriy etishga majbur. Bu dastur sakkiz muhim unsur asosida tuzilishi kerak. Bular:

1. Nafaqat korxona, balki uning tashqarisida ham xodimlarning man etilgan xulq-atvor ko‘rinishlarini namoyon etadigan, korrupsiya harakatlarining turli shakllari aniq belgilaydigan Xulq-atvor Kodeksi.

2. Xulq-atvor Kodeksi buzilgan hollarda tashkilot/korxona xodimlarini javobgarlikka tortish imkonini beruvchi xulq-atvor sanksiyalarining qat’iy tartibi.

3. Tashkilot yoki korxonaning xulq-atvor kodeksiga zid bo‘lgan xulq-atvor yoki vaziyat mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot yig‘ishga yordam beruvchi xabarchi-xodim himoyasini kafolatlaydigan xabar qilishning ichki anonim ya’ni yashirin tizimi.

4. Tashkilot yoki korxona faoliyati sohasiga bog‘liq holda, korrupsiya oid muhim hatarlarlarini aniqlab, tahlil qilib belgilaydigan muntazam yangilanib turadigan xatarlar kartografiyasi.

5. Mijoz va ta’minotchilar, shuningdek, vositachilarning ehtimoliy korrupsiya xavflarini baholash amaliyotlari.

6. Korrupsiya dalillarini yashirish uchun buxgalterlik kitobi, reestr va hisob-kitob yozuvlaridan foydalanmaslik kafolatini ta’minlovchi ichki yoki tashqi buxgalterlik nazorati.

7. Korrupsiya xavfiga uchrash ehtimoli yuqori bo‘lgan hamda mavqeyidan foydalanish xavfidan xoli bo‘lmagan rahbar va xodimlarni muntazam ravishda majburiy o‘qitish uchun o‘quv rejasi.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturining yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlar bo‘yicha ijrosini ichki nazorat va baholash tizimi.

Bunda so‘z tashkilot yoki korxonaning o‘zi tomonidan amalga bajarilganligi muntazam nazorat qilinishi kerak bo‘lgan kompleks dastur to‘g‘risida bormoqda. Bundan tashqari, Fransiya Adliya vazirligi huzurida tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurash agentligi istalgan vaqtda har qanday davlat tashkiloti yoki xususiy korxona tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash dasturi joriy etilgani yuzasidan tekshiruv o‘tkazish vakolatiga ega. Agentlik shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash dasturiga muvofiq kelmasligi yoki unga rioya qilinmagani uchun ularga nisbatan jiddiy ma’muriy sanksiyalar qo‘llash vakolatiga ega.

Korrupsiyaga qarshi kurashda faqatgina jazo choralari qo‘llash samara keltirmasligini e’tiborga olish lozim. Fransiya agar javobgar kompaniya yoki tashkilot Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi nazorati ostida belgilangan muddatda o‘z korrupsiyaga qarshi kurash dasturini ko‘rib chiqish va takomillashtirish majburiyatini olsa, jinoiy va ma’muriy sanksiyalarni cheklash imkoniyati mavjud. Bu mexanizm AQShda Foreign Corrupt Practice Actga muvofiq va Buyuk Britaniya Anti Bribery Actga muvofiq allaqachon qo‘llanilayotgan mexanizmga o‘xshash bo‘lib, amaliyotda kutilgan ijobiy natijalarni bermoqda.

Fransiyalik keng xalqaro faoliyatga ega, turli mamlakatlar bozorlarida ularning obro‘sig a putur yetkazmaslik uchun hayotiy zarur bo‘lgan mexanizmlarni qo‘llashga tayyor bo‘lgan korxonalar kabi hozircha O‘zbekistonda korxonalar mavjud emas. Shunga qaramay, nazarimda,

har bir alohida korxona va tashkilot darajasida korrupsiyaga qarshi kurash dasturi doirasida qabul qilingan amaliy choralar mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashda kutilgan natija berishi mumkin.

Sanoat korxonasining korrupsiyaga qarshi kurash dasturi vazirlik va davlat idoralarining korrupsiyaga qarshi kurash dasturidan ko'p jihatdan farq qilishi va har bir alohida tashkilot va korxonaning qoidalariga javob berishi kerakligi turgan gap. Qo'shni korxonaning yoki qo'shni davlatning korrupsiyaga qarshi kurash dasturini ko'chirib olishga urinishlari ish bermasligi tayin.

Jahon tajribasida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha o'zini oqlagan boshqa usullar. Yuqorida qayd etilganidek, jazo choralari samarasi uncha muhim emas. Korrupsiyaga qarshi kurashda asosiy e'tibor uni oldini olish choralariga qaratilishi kerak. Yuqorida qayd etilgan korrupsiyaga qarshi kurash dasturi aynan uning oldini olish turiga kiradi, shuningdek, korxonada g'ayriqonuniy xulq-atvorlarni deteksiya usuli hisoblanadi. Lekin har qanday usul aholining ongidagi o'zgarishlarsiz samarasiz bo'lib qolaveradi. Ushbu yo'nalishdagi ishlar maktab yoshidan odob-axloq bo'yicha maqsadli ta'lim dasturlarini o'z ichiga oladi. Ular mamlakat iqtisodiyotiga katta zarar keltiruvchi va aholi turmush darajasiga ta'sir salbiy ko'rsatuvchi korrupsiya harakatlarining yaqqol misollari va ularning oqibatlarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Bu mavzuga sinfda, shuningdek maktabdan tashqari ham qo'shimcha o'qitish kerak. Bunday darslar o'quvchilar "yaxshi sovg'alar evaziga yaxshi baholar" tamoyilini odatiy me'yor sifatida qabul qilayotgan bir vaqtda juda zarur. Va albatta, bunday darslar ko'p yillar mobaynida qonunga zid sovg'alar qabul qilishni amalda sinab kelayotgan xodimlar tomonidan o'qitilishi nojo'ya. Shuning uchun, korrupsiya va uning oqibatlari to'g'risidagi mavzusiga bag'ishlangan mashg'ulotlarni joriy etish bilan parallel ravishda o'quv yurtlari xodimlari tomonidan sovg'alar va boshqa ko'rinishdagi mukofotlar olish masalalarini tartibga soluvchi, yuqorida eslatib o'tilgan ichki reglamentni maktablarda qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ayrimlar o'qituvchi va shifokorlar yaxshi yashaganidan emas, balki, gohida maoshi yashash uchun oddiy xarajatlarni ham qoplashga yetmaganidan "oladi-da" deb e'tiroz bildirishi mumkin. O'qituvchi, shifokor va barcha boshqa budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori munosib bo'lishi va har qanday holatda ham ularni noqonuniy sovg'a yoki pora olishga majbur qilmasligi kerak. Mamlakat hukumati tomonidan bu yo'nalishda chora-tadbirlar qabul qilinmoqda. 2019 yilning 1 yanvaridan o'qituvchilar va maktab rahbarlari ish haqini 10 foizga oshirish, malaka toifasiga ega o'qituvchilarga — 15 foizdan 25 foizgacha ustama haq to'lash ko'zda tutilgan. Bunday choralar tibbiyot xodimlari ish haqiga nisbatan ham ko'zda tutilgan. Umid qilamanki, budjet tashkilotlari xodimlarining munosib ish haqi darajasini qo'llab-quvvatlash siyosati ushbu chora-tadbirlar bilan cheklanmaydi va bu yo'nalishda yangi samarali choralarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Mentalitetni tubdan o'zgartirishni ta'minlashda amaliy yondashuv pora berishni fosh qilishning zamonaviy tendensiyalaridandir. Bu masalan, fuqaro huquqni muhofaza qilish organi xodimiga pora taklif qilsa, o'sha shaxs nafaqat uni olishdan bosh tortishi, balki pora berishga urinish to'g'risida tegishli ravishda xabar berishi majburiy bo'lgan sxemadir. Amaliyot va mentalitetni o'zgartirishga yo'naltirilgan ba'zi chora-tadbirlar bugunning o'zida kutilgan natija berayotganini ta'kidlash joiz.

Bularning barchasi quyi va o'rta mansab darajalarida pora, sovg'a olish, urug'-aymoqchilikka taaluqli. Yuqori darajadagi amaldorlar o'rtasida korrupsiya holatlariga kelsak, G'arb mamlakatlarida quyidagi choralar samarali amalga oshiriladi:

Davlat amaldorlari va ularning oila a'zolari daromadi va mulki haqidagi deklaratsiya;

Korrupsiya yoki talon-taroj qilish holatlariga yo'l qo'yilganlikda gumon qilinganda bu haqda anonim ya'ni yashirin xabar berish mexanizmi;

Bank operatsiyalarida sarmoya yuvish ustidan nazorat mexanizmlari. Shunday qilib, Yevropada mijozning hisobiga yirik pul mablag'lari ularning manbasini tasdiqlovchi hujjatsiz kelib tushganda, barcha bank va moliya muassasalari noqonuniy kapital yoki noqonuniy kapitalni yuvish bilan bog'liq gumonlarini deklaratsiya qilishga majburdir. Albatta, qoidaga ko'ra "puxta" amaldorlar katta hajmda pora olayotganda uni soliq jannati deb ataladigan ofshor hududidagi bank

hisobiga to'g'ridan-to'g'ri o'tkazishni afzal ko'radi. Bu borada noqonuniy kapitalni yashirishning bunday joylari, "panama qog'ozlari" bilan bog'liq shov-shuvli voqea isbotlaganidek, noqonuniy kapitalni maxfiy ravishda saqlashning mutlaq kafolati hisoblanmaydi. Ushbu ishda mahfiy hujjatlar oshkor bo'lishi oqibatida, hujjatlar tergovchi-jurnalistlarning Xalqaro konsorsiumiga topshirilgan hamda jurnalistik tergov natijasida 12 nafar davlat va hukumat rahbarlari hamda 128 nafar yuqori darajadagi amaldorlarning bankdagi ofshor hisoblari aniqlangan.

Shu borada jurnalistlarning roliga to'xtalsak. Dunyoning 100dan ortiq mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqot ishlari sotsial faollar va OAV korrupsiyaga qarshi kurashda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi, shu munosabat bilan Transparency International muntazam ravishda davlatlarni so'z erkinligi, OAV mustaqilligi, shuningdek, fuqarolik jamiyatining ochiqligi va ishtirokini rag'batlantirishga da'vat etadi.

Reporters without Bordersga ko'ra, matbuot erkinligi so'nggi indeksi bo'yicha O'zbekiston 180 mamlakat ichida 165 o'rinni, Transparency Internationalga ko'ra, korrupsiyani o'zlashtirish indeksi bo'yicha 180 mamlakat ichida 157 o'rinni egallaydi. Ikki ko'rsatkich o'rtasidagi aloqa mutlaqo ravshan. Transparency Internationalning hukumat va korxonalarga ularning faoliyati, jumladan, davlat budjeti, davlatga tegishli korxonalar, davlat xaridlari va siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni open data formatida faol ravishda e'lon qilish tavsiyasiga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Chunki ushbu ma'lumotlarni faol ravishda e'lon qilish jurnalistlar, fuqarolik jamiyati va boshqa manfaatdor tashkilotlarga korrupsiyaning turli shakllarini yanada samarali aniqlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda 2017-2018 yillarda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qabul qilingan dastur korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ishlarning ibtidosi hisoblanishi va ushbu yo'nalishda uzoq muddatli siyosatni amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirilishi lozimligini aytish joiz. Shu ma'noda talaba yoshlar bu illatga qarshi kurashda o'zlariga ma'naviy immunitet tvarbiyalashi davlat siyosatining yoshlarga oid tarbiyaviy xarakteriga aylandi.

SEMINAR MASHGULOTLARI

FALSAFA FANI

MA'RUZA MASHG'ULOTARIDA GQITISH TEXNOLOGIYASI VA XARITASI

1 mavzu: Falsafa fan va dunyoqarash mohiyati

Reja:

1. Falsafa- jamiyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismi olamni anglash usuli
2. Falsafa predmeti. Falsafaning asosiy masalasi.
4. Falsafaning jamiyatdagi roli: dunyoqarash, bilish va tarbiyalash, mifdan falsafagacha taraqqiyot.
5. Falsafa fan sifatida ijtimoiy

2- mavzu: Borlik falsafasi falsafiy talkin.

Reja:

1. Borlik tushunchasining ma'nosi.
2. Borlik shakllari. Yer tarixi .
3. Substansiya va substrat
4. Materiya kategoriyasi va uning asosiy xossalari.
5. Materiya va harakat.

3-mavzu. Rivojlanish falsafasi

Reja:

1. Rivojlanish, o'zgarish va taraqqiyot.
2. Qonun va uning asosiy shakllari.
3. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor va miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish qonunlari. Sinergetika

4- mavzu: Bilish falsafasi

Reja

1. Bilish - gnoseologiyasi talimoti. Ratsionalizm va empirizm.
2. Hissiy bilish shakllari
3. Haqiqat asoslari va shakllari
4. Amaliyot falsafasi
5. Metod va metodika.
6. Axborotlashgan jamiyat va informatizatsiya.

5-mavzu: Mantiq bilish nazariyasining tadqiqi

Reja:

1. Tafakkur mantik ifodasi, logika tushunchasi va qarashlar.
2. Mantiq shakllari va xususiyatlari
3. Tushuncha, xukm va xulosa

6- mavzu: Jamiyat va Inson falsafasi

1. Jamiyatning mohiyati va strukturasi, vujudga kelishi va shakllanishi
2. Inson borligi muammosi. Inson biosotsial mavjudod.
3. Ong mohiyati, struktura va funksiyasi
4. Individual va ijtimoiy ong masalasi.
5. Tarixda madniyat va sivilizatsiya
6. Madaniyat, ommaviy madaniyat va submadaniyat

7- mavzu: Axloqiy qadriyatlar

Reja:

1. Axlok va ning mohiyati: Shark va G'arb axloqi
2. Axloqiy qadriyat va kategoriyalar
3. An'anaviy va zamonaviy oila. Muxabbat.
4. Baxt va baxtsizlik axloqi

8-mavzu: Estetika nazariyasi

Reja:

1. Estetikaning mohiyat va mazmuni: sanat va ijod nafosati
2. Estetika va dizayn, tabiat nafosati.
3. Sanat va ning olamni estetik idrok etishdagi o'rni.
4. Sanatning estetik jihat va xususiyatlari.
- 5.

9-mavzu: Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot

Reja:


1. Globalizm tushunchasi va barqaror taraqqiyot muammolari
2. Globallik muammolari: urbanizatsiya va migratsiya.
3. Global jarayonlarda ta'lim va tarbiyaning o'rni.
4. Dunyoda axborot va axborotlashuv, sanat, madaniyat va ta'limda axborotlashuv

10-mavzu: Global korrupsiya va unga qarshi kurash

Reja:

1. Korrupsiya va unga allomalarning munosabati,
2. Korrupsiya shakllari: ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy, rangli turlari
3. O'zbekistonda bu illatga karshi kurashning asoslari

MUSTAQIL TA'LIM



MUSTAQIL ISHNI TASHKILI: SHAKL VA MAZMUNI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Darslik va qgquv qgllanmalarining bob va mavzularin grganish.

Bunday tashkiliy shakl talabalarda gtilgan mavzular bgyicha mustaqil bilim olishda konspekt usulidan foydalanilinishni talab qiladi.

2. Tarqatma materiallar bgyicha ma'ruza qismini o'zlashtirish.

Bunda gqituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo'ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir ma'ruza uchun 5-6 sahifa bo'lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

3. Fanning boblari va ma'ruzalari ustida ishlash. Bu maxsus va ilmiy adabiyot (monografiya va maqolalar), referatlar, bitiruv malakaviy ishlarini bajarish chog'ida amalga oshiriladi. Uning natijalari ham reyting nazoratida aks etadi.

4. Fanlar bgyicha adabiyotlarni grganish va tahlil qilish, qgshimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni grganish. Bu ish ham barcha semesterlarda amalga oshiriladi va reyting tizimida baholanadi.

Mustaqil ish yozma ravishda tavsiya etilgan adabiyotlar asosida yozma ravishda bajariladi. Mustaqil ish natijalarini amaliy mashg'ulotlar davomida va darsdan tashqari belgilangan vaqtda talabalar tamonidan topshiriladi. Mustaqil ishga ajratilgan ballar joriy nazorat tarkibida hisobga olinadi. Mustaqil ishga kiritilgan savollar yakuniy nazorat variantlariga kiritiladi.

Mustaqil ishlar mazmuni va shakli ishlab chiqilishida talaba mavzuni ochish uchun kerakli axborotni axtarish usullarini grganadi, kgnikmalar hosil qilishi e'tiborga olinadi. Mustaqil ravishda savollarga javob berishga harakat qilish, uchun turli variantlarni tahlil qiladi, erkin, mustaqil tafakkur qilishni shakllantiradi. Hozirgi davrda informatsion jarayon sharoitida talaba hamma mavjud bilimlarini yodlab

ololmaydi, bunga ehtiyoj ham ygq. Eng muximi informatsiya olamida kerakligini topish va to'g'ri tahlil qilish usullarini o'zlashtirish ulardan mohirona foydalanadi.

Kafedrada navbatchilik qilayotgan g'ituvchi mustaqil ishlar b'gyicha talabalarga maslahatlar berish uchun ma'suldir. Mustaqil ishga mgljallangan topshiriqlar ma'ruzalar mavzulari ma'nolarini talaba tomonidan chuqur grganilishiga, o'zlashtirilishiga qaratilgan.

Talabaning kutubxonadagi faoliyati

Kutubxonadagi kitoblardan foydalanish mahorati. Alfavit katalogi, sistematik katalog tushunchalari. Kartotekadan foydalanish mahorati. Elektron kutubxona XXI asr kashfiyoti. Elektron kutubxonadan foydalanish mahorati. Kutubxona fondi. Virtual kutubxona tushunchasi. Kitob mutoalasi.

Qo'shimcha mavzular

1. Sh.M.Mirziyoev-O'zbekistonda fukarolik jamiyati va Harakatlar smtrategiyasi nazariyotchisi
2. Yuksak ma'naviyat- fukarolik jamiyati rivoji kafolati
3. Global muammolar- tarakkiyotning natijasi
4. Ommaviy madaniyat taxdidiga karshi milliy manaviyat omili
5. Korruptsiyaga qarshi kurash tarakkiyot gsharovi
6. Abu nasr Farobiy -ustoz soniy

Jami – 56 soat.

Mustaqil ish uchun mavzular

4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Falsafiy dunyoqarashning o'z-o'zini anglashdagi ro'li.
2. Abu Nasr Farobiy va Gazzoliyning falsafiy qarashlari
3. Evropa falsafiy fikrida Platon, F. Bekon, R.Dekart qarashlari .
4. Sharq falsafasi va falsafa tarixi uyg'unligi.
5. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri", A.Nasafiy "Zub-batul haqoyiq" asarida falsafiy qarashlar
6. Platon va Timey dialogi: ontologiya
7. Noklassik ontologiya tushunchasi
8. Globallashuv sharoitida antropologik inqirozning oldini olishning zaruriyati.
9. Abu Nasr Farobiy va Kant falsafasi: ontologiya
10. Tabiatshunoslik falsafasi
11. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi.
12. Diniy madaniy an'analarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.

13. A Fitrat Oila va oilaviy qadriyatlar, “Baxtsiz odamlarning ikki toifasi” asarida ma’naviy omillar.
14. Sharq va G’arb falsafasida inson masalasi.
15. Jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy tizimi.
16. Falsafa qonun va kategoriyalarining ijtimoiy jarayonlar dialektikasidagi roli.
17. O’zbekistonda korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi, korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati.
18. Davlat va din xususiyatlari.
19. Islom dini qadriyatlari.
20. Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari.
21. Buyuk mutafakkirlar fanatizm xaqida.
22. J. Rumi inson tabiati xaqida.
23. J. Rumi “Quyoshda ham dog bor” asari
19. Barqaror taraqqiyotda korrupsiya oqibati
20. Islom dini ma’naviyati
21. Quron va Hadislar
22. Oila nomusi va sha’nini saqlashda ota-ona va farzandlar mas’uliyati.
23. Milliy ma’naviyatimizda nikox va oilaga doir axloqiy qadriyatlar.
24. M. Behbudiy “Eoshlarga murojaat” asari
25. Falsafa mening hayotimda (esse).
26. Falsafiy dunyoqarashning mifologik va diniy dunyoqarashdan asosiy farqi nimada?
27. Falsafada usul va uslub
28. Urta asr falsafasi. Tomizm
29. A.N. Farobiy va Aburayxon Beruniy falsafasi
30. Globallashuv jarayoni
31. Insonning biologik va ijtimoiy asoslari
32. Global muammolar tasnifi nima uchun kerak?
33. «Barqaror rivojlanish konsepsiyasi»ning mazmuni

FALSAFIY ATAMALAR (GLOSSARIY)

Agnostitsizm – inson ob’ektiv borliqni tgliq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

Antissientizm – fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Antropogen – inson faoliyati bilan bog’liq.

Antropotsentrizm – dunyoni bilishda insonni ustun qgyuvchi falsafiy yondashuv.

Aprior – tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada kgrilgunga qadar, tajribadan qat’iy nazar paydo bo’lgan obraz, g’oya, tushuncha.

Ateizm – xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.

Atribut – xossa.

Bashorat – kelajak haqidagi, ya’ni hali amalda mavjud bo’lmagan, lekin rivojlanishning kutilayotgan rivojini belgilovchi ob’ektiv va sub’ektiv omillar kgrinishida hozirgi zamonda potensial mavjud bo’lgan hodisalar va jarayonlar haqidagi bilim.

Belgi – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

Garmoniya – bir butun narsa qismlarining o’zaro muvofiqligi.

Germenevtika – falsafada – tarix, madaniyatni, o’zga individuallikni tushunish san’ati.

Gipotetik – ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.

Globalashuv – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

Globalistika – globalashuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab yetishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

Gnoseologiya – bilish nazariyasi.

Deduksiya – tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo’lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy ygl bilan keltirib chiqariladi.

Dezintegratsiya – butunning ayrim qismlarga parchalanishi.

Deizm – Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi va uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Determinizm – barcha voqealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog’langanligi haqidagi falsafiy ta’limot.

Dialektika – harakat, rivojlanish, o’zgarish haqidagi falsafiy ta’limot.

Diskret – uzlukli.

Differensiatsiya – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo’linishi, parchalanishi, ajralishi.

Ideal – mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.

Ierarxiya – bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga kgra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bgysunishi.

Ijtimoiy prognoz qilish kelajakni muayyan tarzda davriylashtirishni nazarda tutadi

Izotrop – barcha ygnalishlarda bir xil.

Indeterminizm – determinizmga qarama-qarshi ta’limot.

Integratsiya – birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.

Introvertiv – o’ziga, o’z ichki dunyosiga qarab mgljal oluvchi.

Imitatsiya – taqlid qilish, soxtalashtirish.

Axborot inqilobi – fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi bo’lib, bunda axborot gta muhim resursga aylanadi.

Irratsionalizm – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.

Kauzallik – sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi.

Kommunikatsiya (keng ma'noda) – muloqot. Ekzistensializm – muloqot turi bo'lib, uning yordamida «Men» o'zini boshqa odamda topadi.

Konstitutsiyalash – yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.

Konsyumerizm – iste'mol qilishga bo'lgan kuchli ehtiyoj.

Koevolusiya – birgalikda tadrijiy rivojlanish.

Kreatsionizm – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy ta'limot.

Materializm – dunyoning moddiyligidan va ongdan qat'iy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yonalish.

Mahalliy muammolar tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu yerda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Metafizika – Gegeldan oldingi va hozirgi G'arb falsafasida borliqning gta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlatiladigan atama.

Metodologiya – metod haqidagi ta'limot, bilishning yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.

Milliy muammolar tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mintaqaviy muammolar ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi

Mistika – sirli, g'ayritabiiy, tushunarsiz narsa yoki hodisa.

Moddiylashtirish – ma'no strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.

Modus – predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo'lgan muvaqqat xossasi.

Monizm – plyuralizmga zid glaroq, muayyan bir asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.

Nano yunoncha “nanos” so'zidan olingan bo'lib, mitti degan ma'noni bildiradi.

Nanotexnologiya-mitti texnologiya bo'lib, uning prototipi tabiatning o'zida mujassam. Ko'zga kgrinmas bakteriyalar, chumoli, grgimchak va shunga gxshash hasharotlar tabiiy nano jismlardir.

Negativ – salbiy, biror narsaga zid.

Noumen – mushohada ygli bilan anglash mumkin bo'lgan mohiyat.

Noosfera – aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

Obraz – amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.

Okkultizm – maxsus ruhiy mashqlar, alohida marosimlar orqali ayrim insonlarga bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini e'tirof etuvchi ta'limot.

Oppozitsiya - qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan-ochiq yoki zimdan qarshilik kgrsatish.

Panteizm – Xudoni tabiat bilan tenglashtiruvchi falsafiy ta'limot.

Paradigma – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot ygnalishini belgilovchi prinsiplar majmui.

Passionar – ichki energiyaga egalik yoki gta g'ayratlilik.

Permanent – doimiy, uzluksiz.

Persepsiya – idrok etish.

Prognoz qilish – bu maxsus ilmiy metodlar yordamida kelajak haqida bilimlar olish jarayoni

Ratsionalizm – aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e'tirof etadigan falsafiy ygnalish.

Reduksionizm – murakkab narsa yoki hodisani soddaroq narsa yoki hodisaga bog'lash.

Relyativizm – bizning barcha bilimlarimiz, qadriyatlarimiz va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.

Refleksiya – o'z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.

Sakral – muqaddas.

Sensualizm – hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qgyuvchi falsafiy ygnalish.

Simvol – biron-bir g'oyani ifodalovchi belgi, obraz.

Sinkretizm - qismlarga ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralashuvi.

Skeptitsizm – inson bilimining ishonchliligiga shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy deb e'lon qiluvchi falsafiy konsepsiya.

Stereotip – kgpincha jamiyat tomonidan faol ilgari suriladigan va individ tanqidsiz qabul qiladigan borliqning nisbatan barqaror va soddalashtirilgan obrazi.

Substansiya – birinchi asos, barcha narsalar va hodisalarning mohiyati.

Ssientizm – madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtirish.

Tabu – biron-bir narsa, harakat, so'zga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.

Teologiya – diniy ta'limotlar tizimi.

Teotsentrizm – dunyoni tushunish markaziga Xudoni qgyuvchi falsafiy yondashuv.

Texnogen – texnika bilan bog'liq, uning ta'siri bilan belgilangan.

Texnokratik – texnikani birinchi gringa qgyuvchi.

Texnooptimizm – turli muammolarni yechishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib kgrsatuvchi falsafiy yondashuv.

Texnopessimizm – fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai va omili deb e'lon qiluvchi falsafiy yondashuv.

Texnotron jamiyat – kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

Transsendental – gta umumiy.

Universum – yagona Olam, yaxlit dunyo.

Xususiy muammolar davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy ob'ektlarga tegishli bo'lgan muammolardir

Fauna – barcha turdagi hayvonlar majmui.

Faoliyat atributlari (xossalari) faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida avvalo sub'ektlilik va moddiylik qayd etiladi.

Fenomen – insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.

Fenomenologiya – bevosita kuzatish mumkin bo'lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta'limot.

Flora – gsimliklar dunyosi.

Fluktuatsiya – o'zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy og'ish.

Futurologiya – kelajak haqidagi fan.

Fundamental globallashuv dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq. Bu jarayonlar natijasida dunyo o'zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, XX asr o'rtalariga kelib esa u tgla darajada borliqqa aylandi.

Evolusion epistemologiya – bilishni jonli tabiat evolyusiyasining momenti va uning mahsuli sifatida ggranuvchi fan.

Evristik – ijodiy, noma'lum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi.

Egalitarizm – umumiy tenglikni targ'ib qiluvchi g'oyaviy-siyosiy oqim.

Ekzistensializm – diqqat markazida hayotning ma'nosi, inson erkinligi va mas'uliyati muammolari turuvchi falsafiy ygnalish.

Ekologiya – jonli mavjudotlarning o'zini qurshagan muhit bilan o'zaro munosabatlari haqidagi fan.

Ekologik muammo – jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.

Ekologik tanglik – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlari orqaga qaytarib bo'lmaydigan xususiyat kasb etadi.

Eksplikatsiya – u yoki bu predmet (yoki madaniyat ob'ekti)ning mohiyatini aniqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.

Ekspertiza usulida baholash- bu ilmiy metodning mohiyati ekspertlar (fan va texnikaning turli sohasidagi yetakchi mutaxassislar) tomonidan muammoni tahlil qilish va sgngra natijalarni formallashtirilgan asosda qayta ishlashdan iborat

Ekopessimizm - asosiy e'tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni yechish imkoniyatlari salbiy tusda kgrilgan hol.

Ekstravertiv – sirtga qaratilgan.

Ekstrapolyatsiya metodlari - qonuniyatlari gtmishda va hozirgi davrda yaxshi ma'lum bo'lgan tendensiyalarni kelajakka tatbiq etishga asoslanadi.

Empirizm – hissiy idrok etish va tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

Empirik – tajribada kgrilgan.

Etimologiya – u yoki bu so'z yoki iboraning kelib chiqishi.

Epistemologiya – bilish haqidagi falsafiy ta'limot.

Etnogenez – xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

O'z imkoniyatlarini rgyobga chiqarish – o'zining betakror mohiyatini faoliyatda namoyon etuvchi va gavdalandiruvchi har bir individ axloqiy faoliyatining maqsadi.

Qidiruv prognozi – ijtimoiy ob'ektning kelajagi qanday bo'lishi mumkinligini kgrsatish uchun tuziladigan prognoz.

FALSAFA

FANIDAN ILOVALAR

TO'PLAMI

1. FALSAFA fanidan oralik baholash umumiy savollar

1-oraliq nazorati

1. Falsafa tushunchasi va uning shakllanish boskichlari.
2. Dunyokarashning intellektual, emotsional va ruxiy asoslari.
3. Dunyokarashning tuzilishi.
4. Dunyokarashning shakllanishida ijtimoiy muxit.
5. Dunyokarashning tarixiy shakllari.
6. Mif va diniy dunyokarash.
7. Dinning asosiy funksiyalari.
8. Dinning psixologik, gnoseologik, ijtimoiy va siyosiy ildizlari.
9. Feteshizm, animizm, totemizm, magiya.
10. Falsafiy dunyokarash-dunyoni falsafiy idrok etish.
11. Falsafaning o'zgaruvchan xarakteri.
12. Falsafaning yangi soxalari.
13. Falsafaning asosiy masalalari.
14. Falsafaning amaliy ijodiy xarakteri.
15. Fan dunyokarash shakli.
16. Ssientizm va antissientizm.
17. Kadimgi Shark va G'arb falsafasi.
18. Xind va Xitoy falsafasining uziga xosligi.
19. Kadimgi Yunoniston falsafasi.

20. Markaziy Osiyoda falsafiy karashlar.
21. Aristotel va Platonning falsafiy ta'limoti.
22. Zardushtiylik falsafasi.
23. Urta asr G'arb va Sharq falsafasi rivoji
24. Teotsentrizm goyasining ustuvorligi.
25. Urta asrlar falsafasi: apologetika va patristika.
26. Avliyo Avgustin goyalari. Sxolastika.
27. Nominalizm va realizm.
28. Foma Akvinskiy ta'limoti.
29. Markaziy Osiyo falsafasidagi ijtimoiy-siyosiy sharoit.
30. A.N. Forobiy va A.R. Beruniyning falsafiy qarashlari.
31. Ibn Sino - komusiy alloma.
32. Sufizm falsafasi. Baxovuddin Naqshbandiy.
33. Yangi davr falsafasi.
34. F.Bekon va T.Gobbsning falsafiy karashlari.
35. R.Dekart va B.Spinoza ta'limoti.
36. G.Leybnis va J.Lokk falsafiy qarashlari.
37. Yevropa falsafasining ma'rifiy xususiyatlari.
38. I.Kant. F.Shelling va G.Gegel falsafasi.
39. XIX-XX asr Garb falsafasi.
40. XX asr uzbek falsafasi asosiy yunalishlari.
41. Ontologiya-borlik kategoriyasi.
42. Borlik va yuklik dialektikasi.
43. Borlik shakllari: tabiat, inson, ma'naviy, ijtimoiy va virtual borlik.
44. Olam va odamning paydo bulishi va evolyusiyasi.
45. Birlamchi va ikkilamchi tabiatning uzaro mushtarakligi
46. Substansiya muammosi.
47. Substansiya va substrat tushunchasi.
48. Materiya shakllarining turli-tumanligi.
49. Dunyoning yaxlitligi va rang-barangligi.
50. Makon va vakt borlikning fundamental shakllari.
51. Nisbiylik nazariyasi.
52. Makonning kup ulchovligi. Ijtimoiy makon.
53. Xarakat va rivojlanish.
54. Xarakatning abadiyligi.
55. Harakatning shakllari.

11-oraliq nazorati

1. Tabiat tushunchasi.
2. Tabiat va jamiyatning uzaro alokadorligi.
3. Ekologik tanglik.

4. Geografik muxit parametrlari.
5. Ijtimoiy rivojlanish va geografik muxitning uzaro alokadorligi.
6. Geografik va ijtimoiy determinizm.
7. Geosiyosat. Ijtimoiy ekologiya.
8. Inson va noosfera.
9. Inson borligining uziga xos xususiyatlari.
10. Ongning tabiati.
11. Ongning strukturasi va funksiyalari.
12. Ongsizlik tabiati.
13. Ong bosh miya funksiyasi sifatida.
14. Til va ong. Uzlikni anglash.
15. Falsafa tarixida rivojlanish xakidagi karashlar evolyusiyasi.
16. Rivojlanish, uzgarish va tarakkiyot tushunchalari.
17. Tarakkiyotning turlari.
18. Konun tushunchasi va ularning turlari
19. Falsafa konunlarining a sosiy shakllari.
20. Karama-karshilik va ziddiyat.
21. Ziddiyatlarning tasnifi.
22. Ayniyat va tafovut.
23. Ziddiyatlarning turlari.
24. Miqdor uzgarishlari va sifat uzgarishlari dialektikasi.
25. Sifat, miqdor, me'yor, xossa, sakrash kategoriyalari.
26. Sakrashning turlari.
27. Inkorni-inkor.
28. Falsafiy qonunlarning ahamiyati
29. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari.
30. Aprior tushunchasi.
31. Dialektikaning asosiy tushunchalari
32. Sistema, element, struktura
33. Ayrimlik, yakkalik, xususiylik, umumiylik.
34. Butun va kism. Yaxlitlik antinomialari. Yaxlitlik tiplari.
35. Mazmun va shakl. Shakl narsaning goyasi.
36. Moxiyat va xodisa.
37. Sabab va okibat.
38. Sinergetika sababiyat xakida.
39. Zaruriyat va tasodif.
40. Imkoniyat va vikelik.
41. Bilish nazariyasining mohiyat mazmuni.
42. Ratsionalizm. Empirizm. Persepsiya va apersepsiya.

43. Gnoseologiya talimoti.
44. Optimizm, skeptitsizm, agnostitsizm.
45. Bilimning asosiy shakllari
46. Bilishda sub'ekt va ob'ektning uzaro alokasi.
47. Xissiy bilish va uning shakllari
48. Empirik bilish: kuzatish, eksperiment, ilmiy dalillar.
49. Nazariy bilim va uning shakllari: ilmiy muammo, muammo va masala.
50. Intuitsiya va ijod. Falsafa tarixida intuitsiyaga munosabat.
51. Xakikat tushunchasi va unga munosabat
52. Xakikatning shakllari: ob'ektiv, mutlak va nisbiy xakikat.
53. Xakikatni anglashda emotsiya, ideal, iroda, ishonch va shubxa.
54. Verifikatsiya tamoyili.
55. Amaliyot xakikat mezoni.
56. Amaliyot falsafasi.
57. Metod va metodologiya tushunchasi.
58. Fan metodlari: formal, empirik, nazariy tadqiqot, izohlash.
59. Falsafa metodlari: dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, sinergetika.
60. Ob'ektiv va sub'ektiv dialektika.
61. Sinergetikaning asosiy tamoyillari:
62. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari.
63. Axborot, axborotlashgan jamiyat, axborot texnologiyalari .
64. Informatika. Informatizatsiya.
65. Jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy asoslari.
66. Mafkura - ijtimoiy ong elementi.
67. Ijtimoiy jamoa va guruxlar.
68. Ijtimoiy va siyosiy institutlar.
69. Jamiyatning siyosiy tizimi.
70. Fukarolik jamiyati
71. Jamiyat xayotida sivilizatsiya.
72. Tarix falsafasi evolyusiyasi.
73. Tarixda shaxsning roli.
74. Inson falsafasi.
75. Shark falsafasida inson muammosi.
76. Insonga oid biologizatorlik va sotsiotsentrik konsepsiya va teotsentrik yondashuvlar.
77. Inson uchun hayotning mazmuni va biologik .
78. Kadriyat tushunchasi va uning yondashuvlari
79. Oliy kadriyatlar.
80. Faoliyat tushunchasi.
81. Ijtimoiy bashorat tiplari, metodlari.
82. Bashoratning turlari: kundalik, ilmiy, ijtimoiy va intuitiv bashorat.

Falsafa fanini o'rganishda

f o y d a l i m a s l a h a t l a r

Eng avvalo, mazkur fan majmuasini tayyorlashda Vazirlik tomonidan tajriba sinov Namunaviy dasturiga(2011 y.) tayanildi. Zero yangi dastur avvalgilaridan farqli falsafaning fundamental etik –estetik va mantiqiy asoslarini grganishga alohida urg'u bergan. Bu hol falsafani shakllanishida G'arbiy va Sharqona axloq va nafosatni anglash, asosiy g'oya va tamoyillarni atroflicha taxlil va talqinlarini talab etadi.

Ikkinchidan, mazkur fan bilan ijtimoiy fanlarning maruza va amaliy mashg'ulotlari paralel ravishda gqitilishi, unda asosan Sharqonalik asosiy grinni egallashi bilan masalani ilmiy tushunishga yordam beradi. Zero talimda takrorlanishdan extiyot bo'lish, talabaga yangi fikr va bilim berish niyatida bo'lishlik maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, institutda falsafa kursini gqitilishida kgp vaqt subektiv yondoshuvlarga ygl qgyilishi ham talabalarda xolis falsafiy fikr shakllanishiga imkon bermagan. Sharq falsafasiga alohida urg'u berilgan maruza matnlari, unda shaxsiy tajriba, o'zining ilmiy ygnalishini haqiqat mezoni deb berilishi ham maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz. Qolaversa Sharq falsafasida islom ruxida etika va estetikaning ustuvorligi kuzatiladi. Biz bu fikrlar bilan antik va o'rta asr Sharq falsafasiga soya solishdek nomaqbul g'oyadan juda yiroqmiz.

Tgrtinchidan, biz o'zbek milliy falsafasini yoshlarga targ'ib etishda bugungi kunda yetakchi faylasuflarning gquv qullanma va g'oyalariga asoslanganligimizni, ularni o'zimizning ustozimiz sifatida tan olganimizni etirof etamiz. Ayniqsa, keyingi yillarda falsafaning asosiy ygnalishlarini moxiyatan chuqur grganib, Falsafa, Ontologiya, Gnoseologiya, Metodologiya kabi darslik va gquv qgllanmalarini yaratgan prof. N.Shermuxammedova asarlariga tayandik. Shu grinda B.Tgychievning "Falsafa asoslari" darsligi ham milliy mustaqillik falsafasini shakllantirish va targ'ib etishdagi ajoyib hodisa degimiz keladi.

Beshinchidan, axloqshunoslik amaliy falsafa nuktai nazaridan qaralganda hayot falsafasi deb nomlash mumkin. Shu bois milliy qadriyat va turmush mezonlarimizni mazkur fanda qgllash foydalidir.

Oltinchidan, oila va nikohning axloqiy asoslarini grganish murakkabligidan Amaldagi qonunlarni yaxshi grganish va milliy oilaviy munosabatlarimizni tiklanishi ijobiy ahamiyat kasb etadi. Kgp xolatda oila buyicha darsliklar amali hayotga mos keltirib bo‘lmasligi ijtimoiy adolat tamoyilini axloqiy mezon qilib olishni talab etadi. Axlok va nafosat bir-biri bilan uzviy aloqador fandır.

Yettinchidan, biz uchun guzal bo‘lgan narsalar boshqa millatlar uchun oddiy xoldir. Adabiyot va sanat bilan yaxshi tanish bo‘lish, sher va xikmatlarni kgp gqish foydalidir.

Sakkizinchidan, mantik fikrlash madaniyati bo‘lganidan kgp gqing, u rganing uni egallash murakkabligidan fakat gqish va grganish orqali galabaga erishish mumkin.

Logikada tushuncha, xukm, xulosa xuddi arifmetikadagi amallardek muximdir. Shu uch amalni kunt bilan utirib eshitsangiz fanni mohiyat mazmunini tushunish ila hayotingizda jiddiy o‘zgarishlar yasashiningiz mumkin. Chunki fikrlagan odam eng zgr odam, eng xavfli odam xamdir.

Biz yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda falsafa fanida ulkan xizmatlari bilan tanilgan ustozlarimiz Said Shermuxammedov., Jondor Tulenovning falsafa bgyicha yaratgan ishlarini ham etiborga olish lozim deb hisoblaymiz.

NAZORAT UChUN SAVOLLAR

**Bakalavr ta'lim yig'nalishi 2-kurs talabalari uchun
Falsafa fanidan test savollari.**

1.	“Falsafa” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi nima?	Donishmandlikka chorlash	Donishmandlikni intixosi	*Donishmandlikni sevish	Bilimlar majmui
2.	“Vedalar” nechan-chi yilda yozilgan?	*Er. Avv 1,5 ming yil oldin	Er. Avv 2 ming yil oldin	O‘rta asrlarda	Er. Avv II-III
3.	“Dil-bayoru dast-bakor” shiorini kim aytib gtgan?	Najmiddin Kubro	G‘azzoliy	Imom-Buxoriy	*Baxouddin Naqshband
4.	“Sunna”-bu.?	Qu‘oni Karim majmui	*Hadislar majmui	Islom	Marosimchilik
5.	“Sxolastika” so‘zi qanday ma‘noni anglatadi?	“Madrassa”	“Masjid”	“Himoya qilish”	*“Gqish joyi, maktab”
6.	“Tib qonun”lari kitobi muallifi?	Beruniy	*Ibn Sino	Farobiy	Gippokrat
7.	“Upanishadalar” nima ma‘noni bildiradi?	Sirli tgplam	Hind qadriyati	Xind axloqi	*Sirli bilim
8.	“Falsafa” ata-masini birinchi marotaba qaysi buyuk alloma ish-latgan?	Arastu	*Pifagor	Farobiy	Suqrot
9.	“Falsafa” so‘zini “xikmatni qadrlash” deb qaysi mutafakkir talqin etgan?	Arastu	Suqrot	Fales	*Abu Nasr Farobiy
10.	“Fozil odamlar shaxri” asrining muallifi kim ?	Abu Rayxon Beruniy	Abu Ali Ibn Sino	*Abu Nasr Forobiy	Al-Xorazmiy
11.	“Ekzistensial falsafa” nechanchi asrda rivojlandi ?	XIX asrning 30 yilida	*XX asrning 30 yilida	XII asrning 34 yilida	VII-VIII asrda
12.	«Antissientizm» falsafasining mohiyati ?	Bu diniy falsafiy talimot	Bu inson va uning dunyoda o‘z anglashi haqidagi falsafa	*Jamiyat taraqqiyotida faning rolini inkor etadigan falsafiy oqim	Faning rolini mutoqlashtiradi
13.	«Apologetika»so‘zinin g lug‘aviy ma‘nosi nima?	“Ruhlantirish”	*“Himoya qilish”	“Ishontirish”	Tozalik
14.	«Kategoriya» so‘zi nima ma‘noni bildiradi?	*Narsa va xodisalar-ning xususiyatlarini ifodalaydigan falsafiy tushuncha	Baxolash, kgrs-tish, sezish kabi xissiy bilimlar omili	Narsa va xodisalar-ning o‘zaro munosabati	Taqsimlash, anglash kabi ilmiy metodlar
15.	«Kategoriya-lar» asarining muallifi kim?	A.N.Farobiy	*Arastu	O.Kant	Gegel
16.	«Patristika»suzi nima ma‘noni bildiradi ?	*“Ota” (“padre”)	“Ona”	“Opa”	Ximoya
17.	«Sistema» deganda nimani tushunasiz?	*Narsa va xodisalar-ning bog‘lanishi, aloqador-ligi, munosabatining tartibi tadrijiy rivojlanishni ifodalaydi.	Narsalar-ning munosabati, aloqasi muxim jixatlari, o‘zaro bog‘lanishlari struktura-viy bog‘lanishlarni ifodalaydi	Maxsus, zaruriy, muxim, tartibli tadrijiy rivojlanishni ifodalaydi	Olamda individual namoyon bo‘ladilar tadrijiy rivojlanishni ifodalaydi.

18.	1968 yilda ochilgan “Rim klubi” ga kim asos solgan	*A.Pechchei	B.Rassel	F.Kyuri	A.Eynshteyn
19.	Abu Nasr Forobiy yashagan dav-rni kgrsating ?	*873-950 yillar	880-941 yillar	890-960 yillar	1115-1196 yillar
20.	Agnostiklar bu ...?	*Olamni bilish mumkin emas deb xisoblovchi oqim vakillari	Olamni bilish mumkin deb xisoblovchi faylasuflar	Bilishning shakllari	Bilish oqibatida yuzaga keladigan bilimlar bu agnostiklar deyiladi
21.	Aqliy bilish deganda nimani tushunasiz?	Bilishning yuqori bosqichi faqat inson-largagina xos bo'lib, bilish deyiladi	Bu bilish barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lib, sezgilar vositasida bilishdir	*Bilishning muxim darajalaridan biri bo'lib, faqatgina insonga xos bo'lgan bilish	A va V
22.	Aksialogiya qanday falsafiy ta'limot?	Bilish haqida ta'limot	*Qadriyatlar to'g'risidagi ta'limot	Borliq haqidagi ta'limot	Axloq xaqidagi ta'limot
23.	Antropologiya nimani grganadi?	Biologik tabiatni grganadi	*Inson moxiatini, uning tabi-at va jamiyatdagi grnini grganish bilan shug'ullanadi	Tabiat va jamiyat-ning estetik tomonlarini grganadi	Jamiyatning iqtisodiy tomonlarini grganish bilan shug'ullanadi
24.	Arablar bosqini bilan birga Movarounnaxrga nima kirib keldi ?	*Islom dini	Ma'naviy meros	Texnologiya	Zardushtiylik
25.	Bilish darajalarini toping?	*Quyi, yuqori, oliy	Past, o'rtacha, yuqori	Ilmiy, falsafiy	Aqliy, falsafiy
26.	Bilish nima?	G'oya bilishning muammolarini xal etish bilan shugullanadi va urganadi	*Bilish – insonning tabiat, ja-miyat va o'zi to'g'risida bilimlar xosil qilishga qaratilgan, aqliy, ma'naviy, faoliyat turi	Ilmiy mezonni aniqlash	Insonni bilish imkoniyatlari
27.	Bilish nima?	*Bilish insonning tabiat, jamiyat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar xosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turi	Bilish insonni-hayvondan ajratib turadigan xislat bo'lib u faqatgina xissi-yotga tayanadi	Bilish jamiyat va tabiat struktura-siningmuxim elementi	Xammasi noto'g'ri
28.	Bilish ob'ekti?	*Insonning bilimlar xosil kilishga karatilgan xodisa, jarayon, munosabatlar	Bilim soxalari texnik fanlar, inson bilim, shugullanishi	Har bir xosidicalarni moxiatini bir tomondan namoyon bulishi	Eng kichik zarralarni bilish ob'ekti va munosabatlari
29.	Bilish predmeti nima?	*Sub'ektning bilish faoliyati qamrab olgan	Faqatgina jamiyatni grganishga	Tabobatni grganishga ygnaltirilgan ygnalish	B va V

		bilish ob'ekting oyrim soxalari va tomonlaridir	qaratilgan ygnalishi		
30.	Bilishning darajalari necha xil?	*3 xil : quyi, yuqori, oliy	2 xil : quyi va yuqori	4 xil : quyi, o'rta, yuqori va oliy	Bilishning darajasi bitta oliy
31.	Bilishning sub'ekti nima?	Tadqiqotchi-olim, faylasuf, san'atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar xosil qilish uchun ilmiy faoliyati qara-tilgan narsa, xadisa, munosabatlar	*Bilish bilan shug'ullanuvchi va butun insoni bilish sub'ekti xisoblarida	Jamiyatning muxim elementi bo'lib, faqatgina tabiatshunoslikni grganuvchilar	A va V
32.	Bilishning falsafiy muammo-lari bilan shug'ullanadigan falsafiy ta'limot?	Sotsiologiya	*Gnoseologiya	Estetika	Logika
33.	Boborahim Mashrab g'azal va ruboiy-larida nimalar tasvirlanadi?	*Iloxiy sevgi	Falsafiy atamalar	Siyosiy qarashlar	Tabiat
34.	Borliqni izoxlaydigan ta'limot?	*Ontologiya	Antropologiya	Aksiologiya	Astrologiya
35.	Borliqning shakllarini kgrsatib bering?	*Fazo va vaqt	Xajm va jism	Tartib va son	Ijtimoiy fikr
36.	Borliqning atributlari ?	Xarakat, fazo, vaqt, in'ikos, ong va bosh-qalar	Xarakat, fazo, makon, in'ikos, ong va boshqalar	*Fazo, vaqt, makon, zamon, in'ikos, xarakat	Harakat, makon, zamon, in'ikos, aql va boshqalar
37.	Butun dunyo, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lmagan muammolar qanday muammolar ?	*Umumbashariy, global muammolar	Jamiyatda inson-larning o'zaro xal qila oladigan	Oilaning o'zaro mu-ammolari	Insoning jamiyatdagi individual muammosi
38.	Germeneytika qaysi g'oyalarga asosiy diqqatini qaratadi ?	*Tushunish, taxlil etish g'oyalariga	Isbotlash g'oyalariga	Sharhlash g'oyalariga	Ishontirish g'oyalariga
39.	Gnostiklar bu ...?	Dunyoni tgliq bilish mumkin emas, deb xi-soblaydigan fayla-suflar	Faylasuflar jamiyati	Muallimlar	*Dunyoni bilish mumkin deb xisoblaydigan falsafiy oqim
40.	G'oya nima?	G'oya uzida yangilikni tashuvchi	Yaxlit fikrdir	G'oya – ilmiy fakt, muammo, faraz, naza-riya kabi voqelikni aks ettiradigan tushuncha	*Hammasi to'g'ri
41.	Davlat bu ...?	Jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan	Jamiyatning muxim bir elementi	Oila, guruh va shaxslardan iborat bo'lgan sistema	*B va V

		aloxida bir muassasadir			
42.	Davr gtishi bilan, taraqqiyot rivojlangan sari o'zgarib boradigan xaqiqat bu ?	Mutloq xaqiqat	*Nisbiy xaqiqat	Mifologik dunyo-qarashga asoslangan xaqiqat	Konkretlikka ega bo'lgan estetik xaqiqat
43.	Davr gtishi bilan, taraqqiyot rivojlangan sari o'zgarmaydigan xaqiqat bu ...?	*Mutloq xaqiqat	Nisbiy xaqiqat	Mifologik dunyoqarashga asoslangan xaqiqat	Konkretlikka ega bo'lgan estetik xaqiqat
44.	Demokratik jamiyati qurishning asosiy maqsadi ?	Inson xuquqlarini, ta'minlashni maqsad qilib qgyadi	Insonlarni yuksak g'oyalarga sodiq bo'lib yashashni ta'minlash	Kishilar ongida milliy manfaat va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan	*Xammasi to'g'ri
45.	Demokrit fikricha olam nima-lardan tashkil topgan?	*Atomlardan	Sonlardan	Suvlardan	Tuproq, suv,havo
46.	Dunyoqarash bu ...?	*Insoning tevarak atrofini qurshab tur-gan voqelik to'g'risida	Qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir	Olamning moxiyati qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir	Tuzilishi, o'zining undagi grni haqidagi qarashlar,tasavvurlar, bilimlar tizimidir
47.	Dunyoqarashning tarixiy shakllari qaysi qatorda to'g'ri kgrsatilgan ?	*Mifologik, diniy, falsafiy	Ilmiy, badiiy, g'oyaviy	Estetik, ma'naviy, xuquqiy	Faqat atissientizm va ssientizm
48.	Yer yuzi axolisi qancha?	9,5 mlrd	15 mlrd	10 mlrd	*To'g'ri javob ygq
49.	Jamiyat ma'naviy xayotiga nimalar kiradi?	Jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, g'oyalar	G'oyalar, mafkura	Ilm-fan muassa-salari	*Xamma javob to'g'ri
50.	Jamiyat moddiy xayot extiyojla-riga qaysilar kiradi?	Oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy	Moddiy ne'mat-lar ishlab chiqarish	Moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar	*Xamma javob to'g'ri
51.	Imkoniyat va voqelik?	*Narsa va xodisalar-ning makon va zamonda-gi rivojlanish tenden-siyasini ta'minlab qonuniyatlarga asoslangan rivojlanishning namoyon bulishidir.	Imkoniyat umumiy mantiqiy tamoyil	Narsa va xodisalar-ning riovjlanish jarayonini ichki birligi	Rivojlanish imko-niyatlarini namoyon qiladi..
52.	Individual ong bilan ijtimoiy ongning bir-biri-dan farqi nimada?	*Ijtimoiy ongning sub'ekti aloxida shaxs bo'lsa, ijtimoiy ongning sub'ekti jamiat xisoblanadi.	Individual ong bilan ijtimoiy ongning farqi ygq	Individual ongning sub'ekti jamiyat, ijtimoiy ongning sub'ekti aloxida shaxs	Individual ongning sub'ekti xalq, elat, millat bo'lsa, ijtimoiy ongning sub'ekti aloxida inson
53.	Insoniyat qadriyatini grganuvchi falsafiy ta'limot ?	Ontologiya	*Aksiologiya	Gnoseologiya	Logika

54.	In'ikos nima ?	*Voqelikda narsa va xodisalarning miyada aks etishi	Voqelikda narsa va xodisalarning o'zaro aloqasi	Voqelikda narsa va xodisalarning xajmi	Voqelikda narsa va xodisalarning ulchovi
55.	Qadimgi Xindistonda dastlabki yozma manba nimada o'z aksini topgan?	Tavrot	*Veda	Astika	Nastika
56.	Qadimgi Xindistondaqanday guruhlar mavjud?	Vedanta	Nyaya va mimansa	Yoga	*Astika va nastika
57.	Qarama-qarshilik birligi va kurashi qonunining mohiyati-ri ?	*Narsa va xodisa-larning bir-birini taqozo etuvchi va shu bilan birga inkor etuvchi kuchlarning qzaro munosabati	Narsa va xodisa-larning miqdoriy tarzda namoyon bg-lishi	Narsalarning umu-miylii, yaxlitligi, nisbiy barqaror-ligida	Predmetning xajmi, glchovi, og'irligi, xarakat tezligida
58.	Kishilarning o'zro ma'naviy aloqalarida keng kglamli ijtimoiy axamiyatga molik bo'lgan umumiylik nima?	*Jamoatchilik fikri	Oila fikri	Individning aloxida bir qarashi	Xammasi to'g'ri
59.	Kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va xuquqiy madaniyatga asoslanadigan demokratik jamiyat taraqqiyotning yuqori bosqichidir ?	*Fuqorolik jamiyati	Ijtimoiy munosabat	Milliy davlatchilik	Xammasi to'g'ri
60.	Qonunning vazifasi ?	Qonun zaruriy bog'la-nishlarni grganadi	Qonun aloqador-liklarni, xodisa-larni grganadi	*Olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi aloqadorliklarini grganadi	Barchasi noto'g'ri
61.	Quyidagilardan qaysi biri bilishning ob'ekti ?	Bilish bilan shug'ullanuvchi kishilar	*Umumiy insoniyatning bilimlari xosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa	Bilishning avloddan-avlodga gtish jarayoni	Bilishning asosiy funksiyalaridan, biri
62.	Qur'oni Karim nechta suradan iborat ?	116	118	115	*114
63.	Metafizika so'zining lug'aviy ma'nosi nima?	*Grekcha so'z bo'lib "fizikadan keyin" degan ma'noni anglatadi	Grekcha so'z bo'lib "uslub" degan ma'noni anglatadi	Yunoncha so'z bo'lib "uslubiyat" degan ma'noni anglatadi	Lotincha so'z bo'lib "donishmandlik" degan ma'noni anglatadi
64.	Mifologiya bu ...?	Mif-«sarguzasht», logos- «ta'limot»	Mif-«dunyovarash», logos- «ta'-limot»	Mif-«ilohiyat», logos- «ta'limot»	*Mif-«afsona», logos- «ta'limot»

65.	Nazariy ong deganda nima tushunasiz ?	Muayyan gurux, elat, millatga mansub bo'lgan ayrim kishi ongi bo'lib, jamiyatdagi voqelik va real borliqning aloxida olingan shaxsning ongi tushuniladi	*Nazariyotchilar, olimlar ishlab chiqqan nazariy qarashlar va ilmiy bilimlar tizimi	Xayotiy tajriba asosida vujudga kelgan oddiy xulosalar, qarashlar majmui	Xammasi tgr
66.	Neokantchilik ta'limotining asoschisi?	*I.Kant	O.Kont	Arastu	Farobiy
67.	Neopozitivizm qanday ma'noni anglatadi?	Neo-«yangi» va pozitiv-«amaliy»	Pozitiv-«qarshi» va neo-«yangilik»	*Neo-«yangi» va pozitiv – «ijobiy»	Neo-«yangi» va pozitiv-«faollik»
68.	Neopozitivizm oqimining vakillari qaysi qatorda to'g'ri berilgan	Karna	Ayer	Rassel	*Hamma javoblar to'g'ri
69.	Nechanchi yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasi-ning asosiy dini deb e'lon qildi?	365	375	*354	870
70.	Noosfera nima ?	*Inson aqlining olamga ta'sir kgr-satish chegarasi	Ison tafakkurini olamga ta'sir kgrsatmaydigan chegarasi	Tirik organizmlarning xayot kechirish muxiti	Insoning tabiiy muxitga ta'siri
71.	Odatiy ong bu ...?	*Xayotiy tajriba asosida vujudga kelgan oddiy xulosalar, qarashlar majmuidir	Nazariyotchilar, olimlar ishlab chiqqan nazariy qarashlar va ilmiy bilimlar tizimi	Jamiyatning ichki strukturasini belgilaydigan ijtimoiy ong shakli	A va B
72.	Odatiy ong deganda nimani etish tushunasiz?	*Hayotiy tajriba asosida vujudga kelgan	Nazariy bilimlar, badiiy obrazlar	Urf – odatlar asosida vujudga keladigan jarayon	Vokelikni bir kismi-ni aks ettirish
73.	Ong nima?	Ong - moddiylikni miyada aks etishi	Ong –miyaning maxsuli	*Ong –oliy in'kos shakli	Ong–biologik xarakat
74.	Pifagorchilar ta'limotiga kgra olamning asosida nima yotadi?	*Raqamlar	Insonlar	Tabiat	Xarflar
75.	Plyuralizm nima?	Yunoncha yakkalik «ma'nosini» anglatadi	Lotin tilida «ikki» degan ma'noni ifodolaydi	*Lotin tilidan olingan bo'lib «kgplik» degan ma'noni anglatadi	A va B javoblar to'g'ri
76.	Rivojlanish nima?	O'zgarishlarning shakli, muayyan sistema	*Orqaga qaytmaydigan, ilgarilama miqdoriy va sifatiiy o'zgarishdir	Orqaga qaytmaydigan, sifatiiy, shaklii o'zgarish	Olamdagi har qanday o'zgarish
77.	Sabab va Oqibat?	*Narsa va xodisalar-ning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiiy – tadriiijiy rivojlanish	Xodisalar-ning tadriiijiy uzgarishi	Narsa va xodisalar-ning rivojlanish tizimi.	Biror narsa va xodisa rivojlanish jarayo-ning okibati

		tamoyiliga kgra maz-mun va shakli o'zgarib turishi.			
78.	Sinergetika ta'limotining asoschisi kim?	Pifagor	Arastu	*N.Prigojin	Abu Nasr Farobiy
79.	Sistema nima?	*Sistema-grekcha so'z bo'lib, butunlik, yaxlitlik element-lardan tashkil topgan birikma	Elementlarning funksional faoliyati	Sistema muxim metadalogik faolyat	Samaradorlikni ta'minlaydigan faolyat
80.	Sifat deganda nimani tushunasiz ?	*Narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bg-lib, uning qator xossa,belgi,xusus iyalari birligi	Xajmi, glchovi, og'irligi, xarakat tezligiva shu kabilar bilan xarakterlanadi	Narsalarning gxshash tomonlarini ifodalaydi	Olamdagi narslarning umumiy va zaruriy tomonlarini grganadi
81.	Substansiya bu ...	*Olamdagi narsa va xodisalarning mohiyatini odalaydigan falsafiy tushuncha	Falsafiy dunyoqarash	Gnoseologiya tgg'-risida ta'limot	Borliq to'g'risida ta'limot
82.	Ssientizm bu ...?	*Ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy duneqarash	Borliq haqidagi qarashlar	Bilish falsafasi	Jamiyat falsafasi
83.	Ssientizm nima?	*Fanning ijobiyligini asoslaydi	Faning salbiy-ligini asoslaydi	Yangi falsafiy ta'limotga asoslanadi	Texnika taraqqiyotiga asoslanadi
84.	Taraqqiyotning o'zbek modeli kim tomondan ishlab chiqilgan?	J.A.Tulenov	*I.A.Karimov	I.Kant	Feyerbax
85.	Umumbashariy muammolar deganda ?	*Butun dunyo, barcha davlatlar va xalq-larning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lgan muammolarga aytiladi.	Jamiyatda inson-larning o'zaro xal qila oladigan mu-ammolariga ayti-ladi	Oilaning o'zaro muammosiga aytiladi	Insoning jamiyatdagi individual muamosiga aytiladi
86.	Umumbashariy muammolarni kgrsating?	Jaxon iqtisodiyoti va ijtimoiy xayotning gsishi uchun sharoit yaratish	Tabiy boyliklardan oqilona foydalanish	Dunyo okean boyliklari va imkoniyatlaridan unumliroq foydalanish, ozon qatlamining ygqo-lish xavfining oldini olish	*Xammasi to'g'ri
87.	O'z-o'zini anglash jarayoni deganda nimani tushunasiz?	*O'zini-o'zgalardan ajrata bilish, o'ziga munosabat, imkonyatlarini	O'zini aloxida organizmga man-subligi	O'z-o'zini anglashda madaniyatga mansublik	Insoni kamol topish jarayoni

		baxolashda namoyon buladi			
88.	O‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, yuksak ma‘suliyatni xis qilish, mustaxkam e‘tiqodga ega bo‘lish kabi xususiyatlar qaysi sub’ektga tegishli?	Shaxs	Jamiyat	Individ	*A va G
89.	F.Nisshe o‘zining “Zardgsht tavallosi” asarida qanday g‘oya ilgari surilgan?	*Kuchli shaxslarni tarbiyalash	Irodasiz kishilarni yetaklash g‘oyasini	Maxluqlik g‘oyasini	Xalqchillik g‘oyasini
90.	Falsafada diniy dunyoqarash nima deb ataladi ?	Gnoseologik	*Teologik	Sotsiologik	Sofistik
91.	Xaqiqat tushunchasiga ta’rif ?	*Inson bilimining voqeilikka muvafiq kelishdir	Xaqiqat nisbiylikka va mustaqillikka ega bo‘lgan falsafiy tushuncha	Xaqiqat xamisha ob’ekti va xarakterga ega bo‘lgan falsafa-fiy tushuncha	Xaqiqat konkretlikka ega bo‘lgan falsafiy tushuncha
92.	Harakat turlari?	*Mexanik, ximiyaviy, biologik, fizik, ijtimoiy	Ijtimoiy, sotsiologik, biologik, fizik, mexanik	Mexanik, ximiyaviy, biologik ijtimoiy	Mexanik, fizik, mexanik, biologik
93.	Xindular “Vedani” kim tomoni-dan aytilgan so‘zlar deb biladi?	Lakishman	Ramayana	Ram	*Braxma
94.	Xissiy bilish deganda kanday bilishni tushunasiz?	*Hissiy sezgilar vosi-tasida bilish	Xissiy belgilar-ni farklash	Tabiiy muxitga moslashmaslik	Insonlarga xos bulgan bilish
95.	Xissiy bilish nima?	Bilishning yuqori darajasi bo‘lib, ratsio-nal bilish deyiladi	Bilishning quyi darajasi, sezgilar vositasiga tayangan irratsio-nal bilish	*Barcha tirik mavjudotlarga xos bo‘lgan bo‘lgan bilish darajasi	B va V
96.	Xozirgi kunda O‘zbekiston Respublika-sining axolisi qanchaga yetdi?	*26 mln 400 mingga yaqin	35 mln 200 mingga yaqin	2,5 mln 500 mingga yaqin	11 mln 550 mingga yaqin
97.	Sharqda “Ikkinchi Arastu”, ikkinchi muallim deb qaysi mutafakkir e’tirof etilgan?	Abu Ali Ibn Sino	Ali Qushchi	Abu Rayxon Beruniy	*Abu Nasr Farobiy
98.	Shaxs nima?	*O‘zida sotsial sifatlarni mujassamlashtiradigan inson	Faqat jamiyatdan shakllanadigan inson	Jamiyat taraqqiyotiga o‘z ta’sirini kgrsata oladigan sub’ekt	Xammasi to‘g‘ri
99.	Ekzistensiya so‘zining tom ma’nosi nima?	Himoyalanish	Erkinlik	Ixtiyorlik	*Mavjud bo‘lmoq
100.	Yunon tilida “baxs va suxbatlashish” san’ati degan ma’nolarni ifodalaydigan falsafiy ta’limot?	*Dialektika	Materializm	Metafizika	Plyuralizm

2- MODUL. Dinshunoslik

O‘quv materiallari

Din -madaniyat fenomeni

Reja:

1. Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari
2. Dinshunoslik fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.
3. Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti.

Dunyo xaritasida mavjud mamlakat borki, unda yashovchi xalqlarning o‘z dini, urf-odatlar va an‘analari mavjud. Ana shu qadriyatlar xalqlarning Yurish-turishi, kundalik faoliyati va umuman hayot tarzini belgilashda asosiy omil bo‘lib madaniyat hisoblanadi. «Dinshunoslik» fani ana shu muhim omilni tadqiq etib, tahliliy o‘rganadi.

“Dinning madaniy vazifasi – dinlarning ma’lum xalq hayotida tutgan o‘rni haqida umumiy nazariy tushunchalar, ularning davlat va din munosabatlari, dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi va madaniyati to‘g‘risidagi tasavvurlarda ifodalanadi. O‘zbekiston Respublikasida dinga nisbatan munosabatning tubdan o‘zgarganligi, xususan, islom dini qadriyatlarini tiklash yo‘lida qilinayotgan ishlar madaniy taraqqiyotni hosil qiladi.

Din fenomeni. Fenomen, namoyon bo‘luvchi, ko‘zga ko‘rinuvchi narsa bo‘lib, fenomenologiya ko‘zga ko‘rinuvchi narsaning sistematik shaklda tadqiq qilinishidir. Dinning ko‘zga ko‘rinuvchi, tashqarida aks etuvchi jihatlarini o‘rganuvchi ilm sohasiga «Din fenomenologiyasi» deyiladi. Din fenomenologiyasi, tarixiy shakllanishlarni e’tiborga olmagan holda diniy fakt va voqelikning bizga namoyon bo‘lgan jihatlarini asosiy o‘ringa ko‘taradi. Turli dinlarning ibodat va marosimlarini, muqaddas joy, zamon, narsa va shaxsiyatlarini tadqiq qilib, mushtarak jihatlarini topishga harakat qiladi. Din fenomenologiyasi diniy tuyg‘u va bu tuyg‘uning ko‘rinishlari deyarli butun dunyoda bir-biriga o‘xshashiga ishora qiladi; barcha dinlarning asli va g‘oyasining bir ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Shuning bilan birga diniy ramz (belgi) larda yashirgan ma’nolarni ochish va majoziy so‘zlarning muqaddas mazmunini yoritish kabi ishlar ham uning vazifalariga kiradi.

Din fenomeni dinlar tarixiylikdan ham ko‘ra ko‘proq sistematik jihatdan yondashadi. SHunday qilib diniy asoslar, diniy fenomen va shakllanishlarni muqoyasa qiladi. Din fenomenologiyasi boshqa din ilmlarini bilan ba’zi nuqtalarda birlashishiga qaramasdan, mustaqil bir ilm sohasi sifatida, ba’zan farqlangan jihatlar ham bo‘lib turadi.

Din falsafasi. Din sotsiologiyasi, psixologiyasi kabi asosiy mavzusi «din» bo‘lgan din falsafasi, «din»ni falsafadan kelib chiqib tadqiq qiladi. Bu tadqiqot

asnosida aqliy va betaraf yo'l tutadi. Bu ilm turi, qandaydir bir yaratuvchi kuch e'tiqodiga falsafiy bir asos topishga harakat qiladi. Shu tufayli ham din falsafasi sohasida faoliyat ko'rsatuvchilarning maqsadi dinning haq yoki botil ekanligi masalasi bilan mashg'ul bo'lish emas, diniy hukmlarning mantig'i va mohiyatini ochib berishdir. Bu maqsad bilan ular, eng avvalo xudoning mavjudligi bilan bog'liq dalillarning tanqid yoki tahlilini qiladi, bu dalillarning qanchalik asosli yoki asossiz ekanligi masalasini ko'rib chiqadi. Din falsafasini boshqa din ilmlaridan ajratib turuvchi jihat bu, undagi hukm berish, xulosa yasash xususiyatidir. Boshqa din ilmlari, baho berish, munosabat bildirish metodiga suyangan holda diniy masalalarni hal qilishsa; Din falsafasi, ular yasagan xulosa va erishgan natijalardan keng miqyosda foydalanadi va bu natijalar sababli bir qancha hukmlarni chiqaradi. Hatto din falsafasi, dinni maqsad qilib olgan ilm turlari qo'lga kiritgan natijalar va bu natijalarga erishish uchun ular qo'llagan metodlar haqida ham hukm chiqarishi mumkin.

Din falsafasi, dinning mohiyati, insonning diniy haqiqatlar bilan bo'lgan bog'liqligini o'rganadi. Bu ilm turining e'tiborida bo'lgan mavzularning boshida Xudoning borligi, sifatlari, yaratuvchi-koinot munosabati, yaratish, olamning yaratilishidagi maqsad, qayta tirilish, payg'ambarlik va vahiy kabi keng miqyosda metafizik bir xarakterga ega masalalar asosiy o'rinni egallaydi. Bundan tashqari ilm-imon, ilm-din, din-madaniyat (din-san'at, din-til-adabiyot) diniy tajriba, diniy his kabi asoslar ham bu ilm turining sarhadlariga kiradi.

Din antropologiyasi. Dinlarning inson bilan aloqasining turli jabhalarini o'rganuvchi soha. U din psixologiyasi va sotsiologiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Uning asosi qadimgi miflarga borib taqaladi.

Jumladan, barcha dinlar va diniy tasavvurlarda birinchi odamning paydo bo'lishi Xudo yoki xudolar tomonidan yaratilish g'oyasi bilan bog'lanadi. Masalan, qadimgi Bobilda yaratilgan «Enum Elish» dostonida dastlabki inson xudolar o'rtasida bo'lib o'tgan urushdan so'ng loy va qondan paydo bo'lgani, Qadimgi Misrdagi afsonalardan birida esa Xnum nomli iloh odamni kulolchilik charxi yordamida loydan yasagani aytiladi. Shu bilan birga, islom, xristianlik va Yahudiylik dinlarida ham insoniyat yagona xudo tomonidan tuproqdan yaratilgani aytilib, ilk inson Odam yoki Adam deb nomlanadi. Umuman olganda, din antropologiyasi barcha dinlardagi inson haqidagi g'oyalarni o'rganib, tizimlashtiradi.

Din antropologiyasini o'rganishda qator metodlar mavjud bo'lib, falsafiy, materialistik maktab vakillari Dinshunoslikning bu sohasini ham evolyutsion nazariyaga moslashtirishga harakat qilganlar. Jumladan, ko'plab adabiyotlarda Jahon dinlari o'zlarining aksar e'tiqodlarini qadimgi Bobil, Misr, Mesopotamiya, fors va hind afsonalaridan o'zlashtirgani aytib o'tiladi. Bu, bir yoqlama yondashuv

bo‘lib, teologik metod tarafdorlari dinlardagi bu o‘xshashlikni ularning bir o‘zakdan kelib chiqishi bilan bog‘laydilar. Dinshunoslikda esa, barcha dinlarning antropologik qarashlari, hech qanday shaxsiy fikr bildirmagan holda, boricha o‘rganish nazarda tutiladi.

Dinshunoslik yuqoridagi fan sohalaridan tashqari, boshqa bir qancha ilm turlari bilan ham bog‘liq. Ularning ichida birinchilardan bo‘lib tarix o‘rin oladi. Tarix, makon va zamon ta‘yin qilgan holda o‘tmishdagi voqea-hodisalarni o‘rganuvchi bir ilm turi bo‘lishi bilan birga moziy va hozirdagi dinlarning tarixiy shakllanishi jihatidan dinlari tarixiga yaqindan ko‘makchi bo‘ladi.

Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti. Dinlarni o‘rganish uzoq tarixga ega. Har bir inson yon-atrofida g‘ilarning e‘tiqodi, qaysi dinga mansubligiga qiziqadi, ular haqida bilishni istaydi. Bu boradagi ilk ma‘lumotlarni Qadimgi Gretsiya va Rim yozuvchilari asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Ulardan eng mashhuri «tarix otasi» nomini olgan Gerodot (mil. avv. V asr) o‘zi tadqiq qilgan xalqlarning dinlari haqida ma‘lumotlar keltirgan. Bu qiziqish O‘rta asr Evropasida ham mavjud bo‘lgan. Lekin boshqa dinlar haqida fikr bildiruvchilar, xristianlarning e‘tiborini jalb qilmaslik va ularni o‘sha dinlarga kirib ketmasliklari ta‘minlash maqsadida, u dinlarga nisbatan salbiy fikr bildirish, ularni yomonlash orqali ularga yondashishni ma‘qul deb topganlar.

Islom olamida ham dinlarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar uzoq tarixga borib taqaladi. Milodiy VII-VIII asrlardayoq diniy tortishuv (munozara)larni o‘z ichiga olgan «maqola»lar (keyinchalik «maqolot»), VIII -IX asrlardan e‘tiboran esa boshqa dinlarga «raddiya»lar yozila boshlangan. Keyingi asrlardan esa «al-Firaq» (Firqalar), «ar-Radd» (Raddiya), «ad-Diyonot» (Dinlar) va «al-Milal» (Xalqlar) yo‘naliShidagi adabiyotlar vujudga kelgan.

«Ad-Diyonot» (Dinlar) yo‘nalishida yozilgan ilk asar Hasan ibn Muso an-Navbaxtiyning (vaf. 910 y.) «al-Aro’ vad-diyonot» (E‘tiqodlar va dinlar) kitobi hisoblanadi. Keyinchalik Mas’udiy (vaf. 957 y.) o‘zining «ad-Diyonot» (Dinlar), Masbihiy (vaf. 1029 y.) «Darkul bug‘yati fiy vasfid diyonoti val ibodoti» (Dinlar va e‘tiqodlar vasfida maqsad me‘yori) kitoblarini yozganlar. SHuningdek Beruniyning (vaf. 1048 y.) «Tahqiqun ma lilhind min maqulatin, maqbulatin fil-aqli av marzulatin» (Aqlga maqbul yoki noma‘qul bo‘lgan Hindistonga oid izlanishlardan) nomli kitobi ham shular sirasiga kiradi.

Darhaqiqat, musulmon sharqi o‘lkalarida bu sohada ko‘plab asarlar yaratilgan bo‘lib, keyinchalik ular «Dinshunoslik» fanining taraqqiyoti uchun fundamental manba bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning «al-Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya» («O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar»), «Hindiston», Muhammad ibn Abdulkarim SHahristoniyning «al-Milal va-n-nihal» («Dinlar va oqimlar»), Ibn Hazm Andalusiyning «al-Fasl fi-l-milal va-l-ahvo va-n-nihal»

(«Dinlar, adaShgan firqalar va mazhabni ajratiSh») kabi asarlari, Shuningdek, Ibn Nadim (987-988) va Abul Hasan Omiriy kabilarning tadqiqot iShlari ko‘plab Evropa tillariga tarjima qilingan. Bu esa, islomiy va arab ilmlarini o‘rganuvchi G‘arb mutaxassislarining dinlar tarixiga oid islomiy tadqiqot iShlaridan asosiy manba sifatida foydalaniShlari uchun qulay imkon yaratdi. Bunday asarlarda mualliflar tarixiy voqe‘likni to‘g‘ri va xolis yoritganlar. Ular o‘zlari musulmon bo‘la turib, boshqa din va e‘tiqodlar haqida ma‘lumot beriSh yoki ularni tavsif qiliShda noxolislikka olib keliShi mumkin bo‘lgan har qanday Shaxsiy hissiyotlarni suiiste‘mol qilmaganlar. Buni Shahristoniyning quyidagi so‘zlari tasdiqlaydi: «Men har bir firqani (din yoki diniy yo‘naliShlarning hech birini) yoqlamay, kamsitmay, ularning kitoblarida qanday bo‘lsa, Shundayligicha, undagi xatolarni ajratib ko‘rsatmay bayon qiliShga ahd qildim».

Beruniy o‘zining «Hindiston» asari haqida Shunday yozadi: «Bu kitob bahs-munozara kitobi emas, tarix kitobidir. Hindlarning dinlarini ularning o‘zlaridan o‘rganib, fikrlarini tanqid qilmay bayon qilaman». Bu Beruniy asarlarining butun dunyoga mashhur bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Dinning jamiyatdagi funksiyalari. Dinning «funksiya» va «rol» tuShunchasini farqlash lozim, ular bir biri bilan bog‘liq, lekin o‘xshash emas. Funksiya - bu dinning jamiyatdagi harakat usuli bo‘lsa, rol - bu funkسيyani bajarish natijalarining jami yig‘indisidir. Dinning bir nechta funksiyalari mavjud: dunyoqarashni shakllantirish, kompensator, kommunikativ, regulativ, integrallash-dezintegrallash, madaniyatni targ‘ib qiliSh (kulturotransliruyushaya), legitimirallash-legitimiralni olib tashlash.

Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi dinda inson, jamiyat, tabiatga nisbatan aniq bir qarashlarning turlari mavjudligi tufayli amalga oShiriladi. Din hayotni (mavjudotni) ma‘lum nuqtai nazardan tushunish (dunyoni to‘la va undagi ayrim hodisa va jarayonlarni alohida tushuntirish), dunyoni kuzatish (his qilish va idrok etish orqali dunyoni aks ettirish), dunyoni his qilish (hissiy qabul qilish yoki rad etish), dunyoviy munosabat (baho berish) va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Diniy dunyoqarash yaratganga nisbatan eng oliy tuyg‘u va mezonlarni belgilaydi. Bunda mavjud borliqqa tushuncha berish dinga ishonganlar uchun turli cheklashlar doirasidan chiqish imkonini beradi, yorqin kelajak, huzur-halovatga eriShiSh uchun umid, azob-uqubat, baxtsizlik, yolg‘izlik, tushkunlikdan ozod bo‘lishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Kompensator funksiya ham odamlarning ongini qayta ShakllaniShini, ham turmuShning ob‘ektiv shart-sharoitlarini o‘zgartirishdagi cheklanish, qaram bo‘lish va ojizlikni to‘ldiradi. Ruhiy erkinlik orqali real jabr-zulm bartaraf etiladi; ijtimoiy guruhlar gunohga botiSh va azob chekiSh borasida teng huquqlik bo‘ladi; diniy tashkilotlar tomonidan beriladigan xayr-ehsonlar, mehr-shafqat, tarbiya,

daromadlarni qayta taqsimlash mazlumlarning musibatini engillashtiradi va h.z. Umuman olganda, ruhiy zarbalarni bartaraf etish, tasalli berish, katarsis va ma'naviy ozuqa oliSh kabi kompensatsiyaning psixologik aspektlari muhim ahamiyatga egadir.

Kommunikativ funksiya muloqotni ta'minlaydi. U ham diniy, ham diniy bo'lmagan faoliyat va munosabatlarda vujudga keladi, axborot almashish, o'zaro ta'sir ko'rsatiSh, insonni inson tomonidan idrok etish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Diniy ong ikki xil muloqotni belgilaydi: dindorlarning o'zaro bir-birlari bilan muloqoti va dindorlarning ibodat, namoz, meditatsiya, maxfiy qarashlar paytidagi mediator va vositachilari tomonidan gipostazir jonzotlar (xudo, farishta, o'lganlarning ruhi, avliyolar va b.) bilan muloqoti.

Regulyativ funksiya ma'lum bir g'oyalar, qadriyatlar, yo'l-yo'riqlar, stereotip qoliplar, fikrlar, an'analar, rusumlar, institutlar orqali individ, guruh va jamoalarning faoliyati, munosabatlari, ongi va axloqini boshqarishdan iborat. Ayniqsa, me'yorlar tizimi (diniy huquq, axloq va h.z.), namunalar (taqlid uchun ko'psonli misollar), nazorat (qoidalar bajariliShini kuzatish), rag'batlantirish va jazo berish (haqiqiy va o'limdan keyin taqdirlanishiga va'da berish) muhim ahamiyatga ega.

Integratsion-dezintegratsion funksiyasi individ, guruh va institutlarni bir tomondan birlashtiradi, boShqa tomondan ularni ajratadi. Integratsiya shaxslar, ayrim ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, bir butun jamiyatdagi barqarorlik va chidamlilikni saqlasa, dezintegratsiya uni zaiflashishga olib keladi. Integratsion funksiya ma'lum bir ma'noda yagona diniy e'tiqod mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Agar Shaxslarning diniy ongi va xulq-atvorida bir-biriga muvofiq bo'lmagan g'oyalar, ijtimoiy guruh va jamiyatda bir-biriga qarama-qarshi konfessiyalar paydo bo'lsa, dinning funksiyasi dezintegratsion bo'ladi.

Madaniyatni targ'ib qilish funksiyasi oldin madaniyatning ma'lum bir qatlamlari - yozuv, kitob bosish, san'atning umuman rivojlaniShiga yordam bergan bo'lsa, hozirda ba'zi madaniy fenomenlarni rag'batlantirib, ba'zilarini inkor etgan holda diniy madaniy qadriyatlarni saqlash va ko'paytirish, ilmiy-ma'naviy merosni nasldan naslga qoldiriSh vazifalarini bajaradi.

Legitimlashtirish-delegitimlashtirish funksiyasi ba'zi jamoat tartiblari, institutlar, munosabatlar, me'yorlar, namunalarni majburiyat sifatida qonuniy qiliSh yoki ularning ba'zilarini qonundan chiqariSh vazifalarini amalga oshiradi. Din ma'lum huquqiy talab va majburiyatlarni ilgari suradi va uning asosida ba'zi ko'rinishlarga, ularga ma'lum munosabatni shakllantirgan holda baho beradi. Bunda majburiy va e'tiroz qilib bo'lmaydigan xarakter muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan qisqa xulosa qilib aytganda, din insoniyat tarixida, *birinchidan*, umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy hulq-atvor qoidalariga aylantirgan; *ikkinchidan*, odamlarning

bahamjihat yaShaShiga ko'malaShgan; *uchinchidan*, odamlarda iShonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tiShlarida kuch bag'iShlagan; *to'rtinchidan*, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qoliSh hamda avloddan-avlodga etkazishga yordam bergan va shu yo'l bilan madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Bugungi kunda, Dinshunoslikka bag'ishlangan adabiyotlarda asosan quyidagi tasnif keltiriladi:

1) primitiv diniy tasavvurlar (urug'-qabila dinlari) - totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehrar, shaman yoki qabila boShliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2) millat dinlari - ma'lum millatga xos bo'lib, boShqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga Yahudiylilik (Yahudiy millatiga xos), hinduiylilik (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoiylilik (yaponlarga xos) kiradi;

3) jahon dinlari - dunyoda eng ko'p tarqalgan, kiShilarning millati va irqidan qat'i nazar unga e'tiqod qiliShlari mumkin bo'lgan dinlar. Ular safiga odatda buddaviylilik, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

Bundan tashqari dinlar ta'limotiga ko'ra monoteistik - yakkaxudolik (Yahudiylilik, islom) va politeistik - ko'pxudolik (hinduiylilik, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo'linadi. Dinshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlarda Yahudiylilik, xristianlik va islom dinlarini Ibrohimiy dinlar (Avraamicheskie religii) yoki samoviy dinlar deb ataSh ham kuzatilmoqda.

Yuqoridagilardan qisqa xulosa qilib aytganda, din insoniyat tarixida, *birinchidan*, umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy hulq-atvor qoidalariga aylantirgan; *ikkinchidan*, odamlarning bahamjihat yaShaShiga ko'malaShgan; *uchinchidan*, odamlarda iShonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tiShlarida kuch bag'iShlagan; *to'rtinchidan*, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qoliSh hamda avloddan-avlodga etkaziShga yordam bergan va Shu yo'l bilan madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Din sotsiologiyasi. Din – jamiyat munosabatlarini, bu munosabatlar ortidan kelib chiquvchi voqea-hodisalarni o'rganadi. shu tufayli bu ilm sohasi ijtimoiy diniy muassasalarni, dinning davlat, xalq, oilaga nisbatan munosabatini, din sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy voqea-hodisalarni, turli din jamoalarining jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarini asosiy mavzu sifatida tadqiq qiladi. Demak, din sotsiologiyasining mavzusi, jamiyatning asosiy shakllari va dinning tashqi ko'rinishlari bilan ijtimoiy jarayonlar, ularning tuzilish va qonunlaridan iborat ekan.

Boshqacha qilib aytganda bu ilm sohasi, tarix bo'yicha xususiy va mushohadaga suyanuvchi din va jamiyat tadqiqotlarini; dinning ijtimoiy hayotdagi ko'rinishlarini o'rganadi.

Din sotsiologiyasi, bir tomondan jamiyat, bir tomondan diniy ilmlarga tayanadi; bu ikki asos ustida yakdillikni keltirib chiqarishga harakat qiladi.

Din psixologiyasi. Bu ilm sohasi, zamonaviy psixologiya bilan birgalikda shakllangan va uning bir tarmog'i holiga aylangan. Din psixologiyasi, avvalo insonga oid bo'lgan diniy hayotning turli jihatlarini psixologik jihatdan o'rganadi. YA'ni din psixologiyasi dinning psixologik jihatini, shaxsning diniy tajribasini va bu tajribaning turli ko'rinishlarini bayon qilishga harakat qiladi. Natijada u dinning inson ruhidagi asosiy xususiyatlari xatti-harakatlarga bo'lgan ta'siri to'g'risida atroflicha to'xtaladi. Ruh-jasad aloqasi bilan atrof-madaniyat ta'sirlarining barchasini ichida o'rganuvchi diniy e'tiqod, shaxslarning ichki olamidagi turli rivojlanishlarni ko'rsatib beradi. SHu sababli Din psixologiyasi diniy tajribadan bo'shlagan holda inson turlarini atroflicha o'rganib, xos tipologiyalarni kashf qiladi. Kishining diniy his, tushuncha va yashash tarzi din psixologiyasining asosiy mavzusidir. U shaxsda din tuyg'usi va hissining qanday qilib kelib chiqqanligi va shakllanishini, ihtido (hidoyat topish) yoki inkor hodisalarini, dindan kelib chiqqan ruhiy keskinlik va shubhalarni tadqiq qiladi.

Din psixologiyasi umumiy psixologiya barcha metodlaridan foydalangan holda o'ziga taalluqli bo'lgan mavzularni muhokama qiladi. Bu ilm turi, dindorlikning shaxs ruhiyatidagi siljish va ta'sir jarayonining tadqiq qilinishida umumpsixologiyadagi tamal asoslar, berilgan ma'lumotlarga (raqamlar)ga qarab anketalar, testlar va kuzatuvlardan foydalanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Dinshunoslik fanini o'qitishdan maqsad nima?
2. Dinshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Dinshunoslik alohida fan sifatida qachon shakllangan?
4. Evropalik ilk Dinshunoslardan kimlarni bilasiz?
5. Dinshunoslikning qanday sohalari mavjud?
6. Dina qanday ta'riflar berilgan?
7. Dinni o'rganishda qanday yondoshuv turlarini bilasiz?
8. Din jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?
9. Dinning regulyatorlik vazifasi deganda nimani tushunasiz?
10. Dinning kompensatorlik vazifasi nimalardan iborat?
11. Dinning integratorlik vazifasiga nimalar kiradi?

12-mavzu: Jahon dinlari: Buddizm va xristianlik tarixi va falsafasi

Reja:

1. Buddaviylikning ta'limoti, uning Markaziy Osiyoga tarqalishi.
2. Buddaviylikning Mohayana va Hinoyana yo'nalishi.
3. Xristianlikning ta'limoti va uning O'zbekistonga tarqalishi.
4. Xristianlik yo'naliShlari (katolitsizm, provoslaviya, protestantizm), axloqiy hayotdagi o'rni.

Buddaviylikning ta'limoti, uning Markaziy Osiyoga tarqaliShi. Buddaviylikning asoschisi miloddan avvalgi 1-ming yillikda yaShagan Budda hisoblangan. U tarixiy Shaxs bo'lib, 80 yil yaShagan. Uning xususida turli rivoyatlar mavjud. Uning nomi hind tilida nurlangan, oliy haqiqatga eriShgan degan ma'noni anglatadi. Rivoyatlarga qaraganda, keng ma'noda ko'p marta ilohiy tug'iliShlar tufayli mutloq barkamollikka eriShgan; boShkalarga ham diniy najot yo'lini ko'rsata oladigan odam bo'lgan.

Tarixiy manbalarning dalolat beriShicha buddaviylikning asoschisi Shahzoda Sidxartxadir. U vafot etgandan so'ng Budda -"haqiqatga eriShgan" deb atalgan. U uShbu oliy maqsadga eriShiSh uchun Gautama urug'idan bo'lgan eng obro'li SHak'ya qabilasini tanlagan. Ana Shundan bu diniy rivoyatda Budda-Gautama nomi keng tarqalgan. Diniy rivoyatlarga ko'ra Gautama hind qabilasi hukmdorlaridan birining o'g'li bo'lib, u befarzand bo'lgan, ammo uning xotini g'oyibdan homilador bo'lib, 45 yoShida o'g'il tuqqan. Bola tug'ilganda mo'jiza Yuz bergan. Tabiiy hodisalar - er qimirlab, chaqmoq chaqib, momaqaldiraq gumbirlab turgan. Uning ovozi Koinotdagi ilohiy kuchlardan taShqari barcha tirik mavjudodlar ham eShitib turganlar. CHaqaloqqa Sidxartxa (topShiriqni bajaruvchi) deb nom qo'yganlar. U 7 kundan keyin Yurib ketgan va gapira boShlagan.

Sidxartxaning otasi o'g'lini din yo'liga bag'iShlaShga rozi bo'lmay, unga yaxshi ma'lumot bergan hamda yaxshi sharoitlarda tarbiyalagan va u hech qanday qiyinchilik ko'rmay o'sgan. Sudxartxa o'spirinligidayok o'zining donoligi, kuchliligi va epchilligi bilan xammani hayratga solar ekan. U kasal yotgan kiShini, o'likni ko'rgach hayotning mohiyati, maqsadi, og'irliklari, kasallik va o'lim bilan bog'liqligini o'ylay boshlagan. Binobarin, hayotning behudaligani anglab, tarki dunyo qilgan, darvesh yo'liga kirgan. Bu bilan u kiShilar boShiga tuShadigan kulfatlar, azob-uqubatlari sabablarining mohiyatiga tezroq etib, ulardan qutuliSh yo'lini topmoqchi bo'lgan. Nihoyat, 36 yoshida "haqiqiy bilim" egasi bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Shundan so'ng u Budda deb nom oladi. ("budda" so'zi ilohiy

haqiqatga eriShgan, degan ma'noni anglatadi). Shu tariqa unda ulug'vor haqiqat siri ochilgan, ular buddaviylik ta'limotiga asos qilib olingan.

Har qanday dinlar kabi buddaviylikning ham kelib chiqishi sababini xalqlarning yashash sharoiti va hayotidan, muayyan davrdagi ijtimoiy munosabatlaridan izlash va topish lozim.

Qadimgi Hindistonda buddaviylik shakllanganga qadar murakkab sinfiy munosabatlar mavjud edi. KiShilar oliy, o'rta va quyi tabaqalarga ajratilib, oliyga braxmanlar, xarbiylar, o'rta tabaqaga - dehqonlar, eng quyi tabaqaga oddiy xalq, xizmatkor, cho'rilar kiritilar edi.

Buddaviylik quldorlik jamiyatida braxmanlik mazhablaridan biri sifatida paydo bo'lgan. U braxmanlikni jonning ko'chib YuriShi, jannat va do'zax qaqidagi aqidalarni saqlab qolgan. Buddaviylik Braxmanlikni jamiyatning tabaqalarga bo'linishi to'g'risidagi ta'limotga qarshi chiqib, barcha kiShilar e'tiqodda teng huquqli deb e'tirof etgan. Buddaviylikning diniy tenglik haqidagi goyasi odamlarning kastalarga bo'linib ketishiga qarshi kuraShda ijobiy rol o'ynagan. Ayni paytda buddaviylik kiShilar "azob-uqubat" chekiShda va undan xalos bo'lishda ham tengdirlar deb hisoblangan.

Buddaviylik diniy ta'limotining asosiy manbai muqaddas kitob - "Tripitaka" (Uch savat donolik) deb atalgan. Bu ta'limotda Budda uchta savatda ta'limot qoldirgan deyiladi. Birinchi savat - Vinoyapitana (pand - nasihatlar, axloqiy me'yorlar); ikkinchi savat Sutgapitaka (duolar, dostonlar); uchinchi savat Abxidhammapitaka (diniy-falsafiy masalalar bayoni) lardan iborat.

Markaziy Osiyo xalklarining qadimgi tarixi va madaniyatida buddaviylik muayyan o'rin egallagan. U Zardushtiylik dini ta'sirida va u bilan yonma-yon Shakllangan dinlardan biri bo'lgan. Buddaviylik miloddan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonning Shimolida vujudga kelgan. Keyinchalik Janubi-SHarqiy va Markaziy Osiyo xamda Uzoq sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Uning vujudga kelishi hind jamoalarida ro'y bergan muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar - urug'-qabilachilik aloqalari va tartiblarining emirilishi, sinfiy jamiyatning vujudga keliishi va yirik quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. III-asrga kelib dunyoviy jamiyat (imperator AShoka) ning faol qo'llab-quvvatlashi natijasida mulkchilik darajasida yagona bo'lgan budda tashkiloti (monaxlik jamoasi-singxa) va diniy aqidachilik Shakllangan.

Buddaviylikning Markaziy Osiyo va SHarqiy Turkistonda tarqalishi miloddan avvalgi II asrlarda bu erlardagi qabilalarning avlodlari tugatgan g'rek-baqtriya podShohligining o'rnida qaror topgan KuShon imperiyasining rivojlangan davriga to'g'ri keladi.

KuShon imperiyaoi o'zining eng gullagan davrida (milodning I-III asrlarida) hozirgi Markaziy Osiyoning bir qismini, Afg'oniston, Pokiston, SHimoliy

Hindiston, ehtimol Uygʻuristonni ham oʻz ichiga olgan. KuShon podSholigi davrida buddaviylik Hindistondan Markaziy Osiyoga, undan esa BuYuk ipak yoʻli orqali Xitoy va Uzoq Sharqqa tarqalgan.

Keyinga oʻn yilliklar mobaynida olib borilgan arxeologik izlanishlarning natijalari va tarixiy maʼlumotlarni umumlashtirgan holda tahmin qiliSh mumkinki, yaslomgacha boʻlgan davrda buddaviylik Markaziy Osiyo gʻoyaviy hayotining muhim tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan. Buddaviylik faqat maxsus ibodatxonalargagina emas, balki podSho saroylaridan boShlab, oddiy kambagʻal deqqon va hunarmandlarning kulbasigacha kirib borgan dindir. Buddaviylikni qabul qilgan Markaziy Osiyo xalqpari diniy ibodatlar uchun har xil maxsus inshootlar kurganlar.

Buddaviylik bilan bogʻliq obidalar, ibodatxonalar, haykallar, devorlarga solingan rasmlar Markaziy Osiyoda topilgan qadimgi tarixiy obidalar orasida muhim oʻrin egallaydi. Buddaviylik bilan bogʻliq imoratlar, qurilishlar hozirda ham SHimoliy Qirgʻiziston, Oʻzbekiston va Turkmanistonning Janubiy tumanlarida, Tojikistonda va Qozogʻiston janubida mavjuddir. Bular orasida eng yirik inshoot eski Termizdagi Qoratepa nomli gʻor ibodatxonasidir. Bu ochiq sariq rangli katta tepalik boʻlib, unga qumtoShli gʻor binolar oʻyib solingan, er ustida binolar barpo etilgan, bularning hammasi bir butun uygʻun boʻlgan buddaning 20-25 ibodatxonasini tashkil qilib, KuShon podShohligida buddaviylikning muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Devorlarga solingan rasmlarni, haykallarni, toat-ibodat buyumlarini, tangalarga, sovgʻa qilingan sopol idishlarga bitilgan har xil yozuvlarni oʻrganishlar qoratepaning milodning I asr oxiri va II asrning boshlarida bunyod qilinganligidan, arablar Oʻrta Osiyoga kirib kelganlaridan keyin ular tugatilgan va keyinchalik vayronaga aylanganligidan dalolat beradi.

Buddaviylik taʼlimoti va uning mazmuni. Buddaviylik taʼlimotida har qanday borlik (moddiylik) barcha koʻrinish va shakllardagi har qanday haet - hamma mavjudodlarga azob beruvchi yomonlikdir. Yomonlik va azob-uqubatlarning sababi - insonning va barcha tirik mavjudotlarning bu dunyoga qayta tugʻilib keliSh dunyosi (sansara) ga bogʻlanganligi, unga koʻngil koʻyganligidir. Uningcha har qanday insoniy tuygʻu, hissiyot, ehtiros va istak azob-uqubatni chukurlashtiradi, "borliq girdobi" dan chiqib olish uchun gʻaflatdan uygʻonish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan koʻngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechiSh lozim va faqat shundagina "najot topish yoʻli"ga kiritish mumkin. Ilk buddaviylikda bunday najotdan faqat zohid, yoki monaxgina umid qilishi mumkin edi. Faqat yaxshiroq qayta tugʻilishni umid qilishi, buning uchun esa u monaxlarga moʻl-koʻl xayr-sadaqa berish hamda quyidagi 5 axloqiy talab (pancha-Shila) ga amal qilishi kerak:

1. Har bir kiShi yomonlik qiliShdan o'zini tiyiShi, tirik mavjudotni o'ldirmaslik.
2. O'g'rilik qilmaslik, ya'ni birovning mulkini olmaslik.
3. His-tuyg'ularga ortikcha berilmaslik, begona ayollarga ko'zolaytirmaslik.
4. YOlg'on gapirmaslik, rostgo'y bo'liShlik.
5. Ichkilik ichmaslik.

Buddaviylikda hamma narsa bilib bo'lmaydigan ruh - nirvanaga asoslanadi, dunyo real mavjud emas, u faqat kiShilarning xayolida, bilib bo'lmaydigan ruhning namoyon bo'liShida, deb noto'g'ri ta'lim bergan. Bu bilan u sub'ektiv idealizm botqog'iga botgan. Buddaviylikdagi ruh - nirvananing ta'limoti "muqaddas haqiqat" deb atalgan. Unga ko'ra, ijtimoiy hayot va Shaxsiy turmuSh azob-uqubatlarning sababi - kiShilarning istaklari va nafslarida. Azob-ukubatdan kutuliSh uchun kiShilar o'zlarining istak va nafslarini tiyiShlari, Budda kaShf etgan aqidalarga amal qiliShlari zarur. Buddaviylik azob-uqubat tuShunchasini mutlaklaShtirgan, borliqning barcha Shakllarini, uning mazmunini, har qanday turmuSh tarzini azob-uqubat deb noto'g'ri hisoblagan. SHuning uchun buddaviylik nirvanani borliqning intihosi, deb asossiz tuShungan. Buddaviylik ta'limoticha, jonli mavjudotlarning o'liShi uni tashkil etgan dxarma (element, zarracha) larning ajralib ketish jarayonidir. Bularning yangidan birikiShi ilgari qilingan "savob va gunoh" lar bilan bog'liq bo'ladi. Dxarma nirvana darajasiga etgandagana kayta tug'iliShlarga barham berilib, azob-uqubatlardan butunlay xalos etilar ekan.

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, azob-ukubatlardan xalos bo'liShning eng maqbul yo'li rohiblik (monaxlik) jamiyati (sangxa) ga o'tiSh hisoblanadi. Rohiblik boShqa dinlarga qaraganda buddaviylikda barvaqt vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda buddaviylik mazhablaridan bo'lmiSh hinoyana tarqalgan mamlakatlar xalqlarining ijtimoiy hayotida g'oyat salbiy rol' o'ynamoqda. Rohiblar buddaviylikka e'tiqod qiluvchilar orasida noo'rin tarzda juda katta obro'ga sazovar bo'lib, ularga itoat etish va aytganini bajariSh zarur, deb hisoblanadi.

Buddaviylik ta'limotida olam uch bosqichli deb tavsiflangan. Birinchisi eng Yuqori olam bo'lib, unda mutlaq osoyiShtalik hukmron. Unda faqat sof ruhgina mavjud. Bu olam ruxning makonidir. Buddaviylikning ta'lim beriShicha, mutlaq illoiy kuch - ruhni mutlaqo bilib bo'lmaydi. Birinchi olamda ruh moddiy olamdan taShqarida, u hech harakatsiz mutlak, osoyiShta holatda yaShaydi. Ikkinchi olam, rivoyatlarga ko'ra, ruhiy mavjudotlar bilan to'la jannat - bodisatvadir. Bu olamning hokimi Amitabadir. Uning olamida ruh o'z gunohidan xalos bo'lgan, lekin eng oliy olamga, nirvanaga, mutlaq bo'Shliq va osoyiShtalik olamiga ko'tarilmagan avliyolar yaShar ekan. Buddalar kiShilarga budda ta'limotini o'rganiSh, yaxshi yo'lga boShlab boriSh uchun erga Yuborilar ekan. Uchinchi olam, eng quyi olam bo'lib, unda odamlar va hayvonlar yaShar ekan. Bu olamdagi ruh, qafasda yaShar

ekan, u hayot davomida ozod bo‘liSh hamda Yuqori olamga ko‘tariliShga harakat qiladi. Ruhning Yuqori olamga ko‘tariliShi odamlar qiladigan savobli iShlarga bog‘liq. Agar odam buddaviylik ta‘limotiga e‘tiqod qilsa, yaxShilikka intilsa, uning joni qayta tug‘iliShlardan so‘ng jannatga va undan nirvanaga ko‘tarilar ekan. YOmonlikka mansub gunohkor kiShilarning ruhi esa quyi dunyoda azoblanib, qafas ichida Yuraverar’ va Yuqori olamga hech ko‘tarila olmas ekan. Agar insonning din talimotiga zid iShlari ko‘payib ketsa, hirs yoki tovlamachilikka berilib, undan qutula olmasa, bunday odamning ruhi bir necha qayta tug‘iliShlardan keyin do‘zaxga tuShar va unda abadiy azoblanar ekan.

Buddaviylikda qayta tug‘iliSh deganda yangidan paydo bo‘liSh tuShunilmaydi, balki ilgari o‘lgan odamlarning jismidan tarqalgan dxarmalarning yangi asosda birlaShib, kelajak avlodga o‘tiShi tuShuniladi. SHuning uchun buddaviylik inson o‘z qilmiShlari uchungina javobgar bo‘lib qolmaydi, balki kelajak avlod uchun ham javobgar deb hisoblaydi. Agar odam yaxShi bo‘lsa, budda ta‘limotiga to‘liq rioya qilsa, boy va e‘tiborli bo‘lsa, uning dxarmalari asosida qayta tugilgan odam xam boy va badavlat, sofdil bo‘ladi. Aksincha, odam yomon bo‘lsa, kambag‘al, qaShShoq bo‘lsa, budda ta‘limotiga rioya qilmasa, uning dxarmalaridan paydo bo‘lgan odam ham kambag‘al, qaShShoq bo‘lar ekan. Buning sababi avvalgi avlodlar yomon hayot kechirgani uchun berilgan jazodir, deb hisoblangan. Buddaviylik o‘zining bu ta‘limoti bilan jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni tub mohiyatini yaShiriShga harakat qiladi. BoShqa dinlar kabi buddaviylik ham hayotda passiv bo‘liShni, taqdirga tan beriShni targ‘ib qiladi, zohidlikni yoqlab, ekspluatatsiyani oqlaydi.

Buddaviylikning parchalanib ketishi. Barcha jahon dinlari kabi buddaviylik ham ijtimoiy taraqqiyot natijasida va turli mamlakatlardagi ijtimoiy guruxlar tuzumlarning xususiyatlariga qarab, turli mazhablarga bo‘linib ketgan.

Buddaviylikda bir necha mazhablar paydo bo‘lgan. Bulardan eng yirigi I - asrda undan ajralib chiqqan hinoyana ("kichik arava", tor yo‘l ma’nosida) SHri Lanka, Birma kabi mamlakatlarda keng tarqalgan; maxoyana ("katta arava", keng yo‘l ma’nosida) Tibet, Xitoy, YAponiya, Mongoliyada hamda Oltoy va Uzoq SHarqda yaShovchi ba’zi xalqlar o‘rtasida keng tarqalgan.

Buddaviylikka xos mazhablardan biri Tibet Mongoliyada tarqalgan bo‘lib, u lamaizm degan nom bilan Yuritiladi. Buddaviyliknnng bu mazhabi mahalliy xalqlar o‘rtasida qadimdan mavjud bo‘lgan diniy tasavvur va urf-odatlarini o‘zlashtirgan. Lamaizmda buddaviylikka xos tasavvurlar bilan bir qatorda, Buddaning yana kaytib keliShi va er Yuzida adolatli hokimiyat o‘rnatilishi to‘g‘risidagi rivoyatga keng o‘rin berilgan. Lamaizmni ko‘chmanchi, qoloq, savodsiz xalq hayotiga moslashtirishga urinish mavjud, va undagi ibodat qiliSh tartibi ham ancha soddalashtirilgan.

Hindistonda quldorlik tartiblari barham topishi bilan buddaviylik braxmanizmga tobora yaqinlashib borgan, va keyinchalik hinduizmga qo'shib ketgan. XI-XII asrlarda buddaviylik Hindistonda o'z ta'sirini deyarli yo'qotgan.

Buddaviylik ta'limotini tartibga solish maqsadida 1871 yilda Birmada buddavistlarning maxsus ibodatxonasida Tripitakaning turli tarjimalari va variantlarini taqqoslash natijasida yagona teksti ishlab chiqilgan edi. Yangi tekst mazmuni 729 ta marmar plitaga tushirilgan edi. Bu yozuvlar saqlangan ibodatxona dunyo buddistlarining muqaddas joyiga aylantirilgan.

Buddaviylik ruhoniylari xalqaro miqyosda uning mavqeini kuchaytirishga harakat qilmoqdalar. Shu maqsadda buddaviylikning turli tashkilotlarini birlashtirmoqdalar, buddistlarning xalqaro konferensiyalari, s'ezdlarini muntazam o'tkazmoqdalar.

Buddaviylikning bir necha xalqaro tashkilotlari mavjud. Shulardan eng yirigi Jahon buddistlari qardoshligidir. U 1950 yili tuzilgan. 1956 yilda otaxon buddistlarining bu din paydo bo'lganligini 2500 yilligi nishonlandi.

Markaziy Osiyoda bir necha Yuz mingdan iborat koreys millatiga mansub kishilar yashaydi. Ularning oilaviy-maishiy an'analari, milliy udumlarining ayrim tarkibiy qismlari mahoyana (Shimoliy) ko'rinishdagi buddaviylik ta'sirida shakllangan. Xozirgi vaqtda bu mintaqada, ayniqsa, O'zbekistonda koreys buddistlarni xristianlik ta'siriga olishga qaratilgan harakatlar avj olmoqda.

Xristianlik ta'limoti va uning O'zbekistonga tarqalishi. Xristianlik jahon dinlaridan biri bo'lib, eramiz 1-asrining 2-yarmida Rim imperiyasining Sharqiy viloyatlarida ko'p xudolik dinlari o'rniga qullar va mazlum elatlarning dini sifatida yakka xudolik (monoteistik) tarzda shakllangan. Xristianlik Falastin va O'rta er dengizi Yahudiylari dinlari doirasida vujudga kelgan va o'nlab yillardan keyin esa bo'shqa, asosan geografik jihatdan qaralganda Rim imperiyasi bilan bog'liq yoki uning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan xalqlar orasida tarqalgan. Yangi va eng yangi tarix davrlarida u mustamlakachilik siyosati va missionerlik natijasida evropadan tashqariga ham tarqalgan. Xristianlik evropa, Amerika, Avstraliya hamda qisman Afrika va Osiyo qit'alariga tarqalib dunyo xalqlarining deyarli uchdan birini (2 milliardini) tashkil etadi.

Xristianlik vujudga kelishini Bibliyaning xabar berishicha, Iisus Xristos faoliyati bilan bog'lab tushuntiriladi.

Xristianlikning vujudga kelishida Sharq dinlarining ham ta'siri bo'lgan. Jumladan, misrliklarning Osiris va Isida, eronliklarning Mitra, Yahudiylarning Muso haqidagi rivoyatlari, oxirat to'g'risida hikoya qiluvchi har xil rivoyatlar ham xristianlik ta'limotiga kiritilgan.

Xristianlikdagi odam-xudo to'g'risidagi tushunchani ishlab chiqishda yagona imperiyaga birlashgan Rim imperatorlarining yakka xudolik to'g'risidagi ichki siyosati ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Lekin shakllanayotgan xristian mafkurasi asosida birinchi galda iudaizm monoteizmining "qadimgi axdnoma" kitobiga kirgan barcha "muqaddas g'oyalar", ya'ni xudo yaratganligi, o'simlik va hayvonot dunyosining vujudga keliishi, insonning yaratilishi, uning tili, axloqi, huquqi, oxirat rohatlari haqidagi g'oyalar katta rol o'ynagan.

1947 yili O'lik dengiz qirg'og'idagi qumron yaqinida qadimgi qo'l yozmalar topilgan edi. Bular hukmron jamoaning diniy ta'limotlari - iudaizm va xristianlik o'rtasidagi oraliq butunni tashkil qilganligini ko'rsatmoqda.

SHunday qilib, xristianlik Rim imperiyasida yashagan ko'pchilik elatlarning dinlari, rivoyatlari, urf-odatlarini asosida tashkil topgan. Bu din dastlab qullar, ezilgan kambag'allarning talablarini, "xaloskorlik" g'oyalarini o'ziga singdirgan holda din sifatida vujudga kelgan. Keyinchalik uning ijtimoiy, diniy strukturasi o'zgariishi bilan hukmron tabaqalar qo'lida mazlum xalqlarni ekspluatatsiya qilishning g'oyaviy quroliga aylangan.

O'sha davrda jamiyatda yuzaga kelgan hukmron doiralar bilan mazlum xalqlar o'rtasidagi ziddiyatni yumshatishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan xristianlikdagi diniy g'oyalarni xisobga olgan imperator Konstantin 324 yili bu dinni davlat dini deb e'lon qilgan. 325 yilda uning ko'rsatmasi bilan Nikey soborida xristianlarning birinchi yig'ini bo'lib o'tgan. Unda episkoplar va ilohiyotchilar xristianlikning asosiy aqidalarini tasdiqlab, cherkov tashkilotini takomillashtirgan holga keltirganlar.

Shundan buyon, davrlar o'tishi bilan xristianlik butun evropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika, Avstraliya qit'alariga yoyilgan. Keyinchalik Markaziy Osiyo respublikalari xududlariga ham qisman etib kelgan jahon dinidir.

Xristianlikning diniy ta'limoti. Xristianlikning muqaddas diniy yozuvi - Bibliyaning ikkinchi qismi - "Yangi ahdnoma" bo'lib, u eramizning I-II asrlarida grek tilida yaratilgan.

Bibliyaning xristianlik paydo bo'lmashdan avval yaratilgan birinchi qismi "qadimiy ahdnoma" deb atalib, u iudaizmining muqaddas yozuvi hisoblanadi. Bibliyaning ikkinchi qismi - "Yangi ahdnoma" deb atalib, u xristianlikning muqaddas yozuvi deb hisoblanadi.

"Yangi ahdnoma" 27 kitob (bob) dan tashkil topgan. Uning tarkibiga 4 ta "Injil" (Evangeliye, ya'ni Xushxabar), havoriylarning (Iso Shogirdlari, xristianlikning dastlabki tartibotlari) amallari, 21 risola va Ioanning "Vaqiynomasi" kiritilgan.

Xristianlik bo'shqa jahon dinlari kabi mutlaq, abadiy, o'zgarmas karomatni, bilimni, benihoya qudratning egasi bo'lgan yakka xudo haqidagi g'oyani asoslaydi.

U uch ko‘riniShdagi yakka xudoni o‘zida mujassamlaShtirganlik aqidasini yaratgan. Uch xil ko‘riniShdagi xudo haqidagi ta’limotga binoan, xudoning ichki haeti sababi o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lgan uchlikdagi uch asos yoki "muqaddas uchlik" bo‘lgan - ota-xudo, o‘g‘il-xudo va muqaddas ruhning o‘zaro munosabatidir. O‘g‘il Iso bayon qilingan tarjimai holiga ko‘ra ota-xudodan, muqaddas ruh ham ota-xudodan yaratilgan (pravoslav yo‘naliShi ta’limoti), (katolitsizmda esa ota-xudo va o‘g‘il-xudo ham xudodan tug‘ilgan).

Xudoning mujassamlaniShi yoki Isoning ikki mohiyati - odam mohiyati, xudo mohiyati haqida, "Gunohni YuviSh", ya’ni Isoning o‘zini ixtiyoriy tarzda kurbon qiliShi" haqidagi ta’limot bilan mustahkamlangan. Xristianlik muqaddas ruh - ota xudo, bola xudo va muqaddas ruh - uch Yuzli xudo to‘g‘risidagi ta’limoti, targ‘iboti, tashkilotchiligi, jannat va do‘zax, oxirat ya’ni dunyoning oxiri borligi, Isoning qayta tiriliShi haqidagi va boShqa aqidalarni o‘z ichiga oladi.

Xristianlik davlat dini deb e‘lon qilingandan so‘ng, 325-yilda imperator Konstantin boShchiligida Nikey Shahrida xristianlarning birinchi jahon yig‘iliShi bo‘lgan. Yig‘iliSh xristian dinining qonun-qoidalarini iShlab chiqqan va xudoni uch Shaxsning ota xudo, o‘g‘il xudo rux xudo, birlikda ifodalaiiShidir deb uqtirgan. 381 yili xristianlarning Konstantinopolda bo‘lib o‘tgan ikkinchi jahon yig‘iliShida cho‘qiniSh va tiriliSh haqidagi yangi aqida qabul qilingan.

Ota xudo tabiat, odam va farishtalarni yaratgan, deb hisoblanadi. Iso o‘g‘il xudo hisoblangan. Xudoning gavdalaniShi aqidasi ko‘ra, Iso xudoligicha qolgan holda Mariya ismli qizdan tug‘ilgan. Butga parchalangan xudo Iso tortgan azoblari va o‘limi bilan o‘zini odamlarning gunoxlari uchun ota xudoga qurbon qilgan va shu bilan gunohini yuvgan. Ushbu aqidaga ko‘ra, Iso odamzodga gunoxlardan xalos bo‘lish yo‘lini ko‘rsatib bergan. Isoning tirilishi aqidasi kelgusida hamma odamlar tirilishining garovi, deb e‘lon qilingan. U tirilgandan so‘ng osmonga - ota xudo huzuriga chiqqanligi, ya’ni osmonga chiqib tushishi (islomda me’roj) aqidasi bu dunyodagi hayot oxiratidagi mangulikka nisbatan hech narsaga arzimaydi, deb uqtiradi.

Xristianlikda iymon kalimasi "yagona, muqaddas sobor va opostol cherkovi"ga ishonishni, cho‘qintirish zarurligini tan olishni, qiyomatda o‘liklarniig tirilishiga, shundan so‘ng savob egalariga mangu rohat-farog‘at ko‘riSh, gunohkorlarga doimiy azob-ukubat tortish davri kelishiga ishonishni buyuradi.

Diniy g‘oyalar tarkib topishi bilan bir qatorda xristian ibodat marosimlari ham shakllanib borgan. Xristian marosimchiligining eng muhim elementlari sirli ibodat (tainstvolar) deb Yuritiladi. Bular qatoriga cho‘qintiriSh (suvga Sho‘ng‘itib oliSh), miropomazanie (cho‘qintirilgan kimsaga xuShbo‘y katron-miropa surtilgach, "muqaddas ruh" ning huzur-halovati unga o‘tishi); evxaristiya yoki prichishenie (non va vinoni Isoning tanasi va qoni deb tasavvur etgan holda iste’mol qilish), tavba

qilish (dindorning ruhoniy vositasida xudodan kechirim so'raShi va o'z gunohlarini unga aytib berishi), nikoh, ruhoniylikka fotiha beriSh, soborlaShtiriSh, ya'ni bemorni muqaddaslashtirilgan zaytun moyi - elega bo'yash kabilar kiradi.

Xristianlikning boSh ibodati liturgiya (obednya, msssa) bo'lib, u har xil afsungarliklar, muzika chaliSh, aShula aytiSh, "muqaddas" yozuvlarni o'qiSh, qad bukib ta'zim bajo keltiriSh, Sham va chiroqlarni yondiriSh, xuShbo'y narsalarni chekiSh bilan qo'Shib olib boriladigan diniy amallardan iborat.

"Muqaddas uchlik" ning har biri, orqali Bibi Maryamni ulug'laSh "xudoga xuSh kelgan avliyolarga", xudo yarlaqaganlarga sig'iniSh vujudga kelgan. Xristianlikda butga cho'qiniSh ham muhim o'rin egallaydi. Unda pasxa (Isoning tiriliShi), tariqa (yoki pyatidesatnitsa), rojdestvo (Isoning tug'iliShi) va boShqa bayramlarga katta o'rin berilgan.

Xristianlikdagi yo'nalishlar. Xristianlikning shakllanib turli mamlakatlarga yoyiliShi, ijtimoiy hayotda yuzaga kelgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy, manaviy siljiShlarga ham duch kela boShlagan. Boshqa jaxon dinlari kabi unda ham turli yo'naliShlar, mazhablar, sektalarga bo'linish jarayoni sodir bo'lgan.

Eng birinchi ajraliSh xristianlikda IV-V asrlarda ro'y bergan, ya'ni Iso masihni¹ talqin qiliShda farklanadigan ikkita diniy-aqidaviy yo'nalishlar - monofizitlar va nestorianlar yuzaga kelgan.

Ko'pchilik xristian ilohiyotchilari Iso masihni ham xudo, ham odam mohiyatiga ega deb bilsa, Konstantinopol arximandrati evtaxiya ta'limotining tarafdorlari bo'lgan monofizitlar u faqatgina xudo mohiyatining birligidan iborat deb hisoblaganlar. Kostantinopol patriarxi Nestor qarashlari tarafdori bo'lgan nestorianlar esa u xudo insonlar hayoti kabi yashashi uchun vujudga kelgan odamdir, deb targ'ib qildilar.

Efes soborida (431 yil) iestorianchilikka bid'at deb karalib, uning tarafdorlarini ta'qib qiliSh boShlangan. Natijada ommaviy harakatlar boShlaShlariga sabab bo'lgan.

Hozirgi kunda monofizitlikka Yaqin Sharqdagi Yakobitchilar, Janubiy Hindiston va efiopiya xristian aholisining 96 foizi amal qiladi.

471 yildan e'tiboran Yuqorida qayd etilgan cherkovlar qadimgi Sharq cherkovlari deb atala boShlangan. Nestorianlar, eng avval, Ossuriylar orasida tarqalgai. Bularning diniy jamoalari hozirda ham Suriyada, Iroqda, eronda va Hindistonda bor. 1054 yilga kelib xristianlikning pravoslav va katolik cherkoviga bo'liniShi rasman tan olingan. Bu bo'linish Rim imperiyasining sharqiy va g'arbiy qismlari orasidagi feodal munosabatlarning tafovutlarini o'zida aks ettirgan. Rim papasi bilan Konstatinopol patriarxi o'rtasidagi barcha xristian cherkovlari ustidan

yakka hokimlik o'rnatish uchun Shiddatli kuraShlar bo'lgan. Xristianlikning aloxida va mustaqil g'arbiy tarmog'i Rim katolik cherkovi, ya'ni umumiy, jahon Rim cherkovi deb atala boShlagan. Dunyoviy hokimiyatga tobe bo'lgan SHarqiy xristianlik grek-kefilik (grekcha - butun dunyo) yoki izchil, sobitqadam (ortodoksal) xristianlik deb atala boShlangan. Pravoslavie va katolitsizm erlarida umumiylik ham, bir-biridan farklanadigan jihatlari ham bor.

XVI asrdagi reformatsiya jarayonida feodalizm va kapitalizmga karshi keng quloch yozgan harakatlar evropadagi burjua revolyutsiyalarining eig birinchi ifodalari edi. Katolitsizmdan bir necha evropa cherkovlari ajralib chiqiShi patijasida xristiailikda protestantlik harakatlari vujudga kelgan. Buning doirasida lYuteranlik, anabaptizm, anglikanlik va kalninizm cherkovlari shakllangan. Har bir chsrkovning asosiy marosimlari jihatidan o'zlariga xos bo'lgan tomonlarga ega bo'liShi bilan bir qatorda, bular ham o'z navbatida bir necha yo'naliShlar, mazhablar va oqimlarga bo'lindi.

Hozirgi zamon xristianligida turli yo'naliSh va oqimlar orasidagi keliShmovchiliklarning kamaytiriliShi bugungi kun uchun xosdir. Bunga 1948 yilda tashkil topgan Jahon cherkovlari kengaShining faoliyatlari va ekumenik xristianlar ko'maklashmoqda.

Katolitsizm - bu xristianlikda eng ko'p tarkalgan yo'naliShdir. U evropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo'lib, muxlislari taxminan 800 mln. kiShini tashkil qiladi.

Katolitsizm ta'limotida jannat va do'zax oralig'idagi dunyo, gunohkorlarning ruhi, joni haqidagi, Iso masihni benihoya xurmatlash, uning tanasi va jonimi ko'klarga ko'tariSh sohalaridagi diniy aqidalar mavjud.

Katolitsizmda Bibliyani sharhlash huquqi faqatgina ruhoniylarga bsriladi, chunki ular uylanmaslik haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va sahnalaShtirilgap ko'riniShga ega bo'lib diniy o'qiSh, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Pravoslaviedagi kabi katolitsizmda ham fariShta, ilohiy kuch, chirimaydigan marhum jasadlarga sig'iniSh odatlari saklanib qolgan.

Katolitsizm boShqa yo'naliShlardan farqli o'laroq markazlaShgan tizimga ega. Vatikan ana Shunday markaz sifatida (maydoni 44 gektar) 1924 yildan boShlab Papa Piy XI ning Mussolini hukumati bilan tuzgan bitimiga muvofiq mustaqil teokratik davlat hisoblanadi. Rim Papasi cherkovning yakka rahbari bo'lib, u Iso Masihning erdagi noibi hisoblanadi. 1870 yili e'tiqod va axloq masalalarida uning bsnuqsonligi haqidagi aqida qabul qilindi. 1978 yilda sobiq PolSha kardinali Korol Voytila 264-Rim papasi etib tayinlandi va u hozirga qadar Ioann Pavel II nomi bilan bu vazifani bajarmoqda.

Son jihatdan unchalik katta bo'lmagan katolik jamoalari Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida ham mavjud. Toshkentda 1990 yilda katolik markazi tuzilgan

bo'lib uning qoShida jumhuriyatimizning boShqa hududlaridan ro'yxatdan o'tgan katolik diniy jamoalari ham o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

Pravoslavie Xristianlikning SHarqiy tarmog'i bo'lmish pravoslaviening rivojlaniShi jarayonida 15 ta mustaqil (avtokefal) cherkovlari: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, quddus, Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, ellada, Albaniya, PolSha, CHexoslovakiya, Amerika cherkovlari Shakllangan.

O'zining ahamiyatiga ko'ra pravoslav dunyosida beShinchi bo'lgan, lekin muxlislari soni jihatidan birinchi bo'lgan rus pravoslav cherkovi X-XI asrlarda vujudga kelgan. Uning paydo bo'liShi endigina Shakllanayotgan feodal munosabatlarni himoya qiliSh uchun, yangi g'oyaga muhtoj bo'lgan Kiev davlatining ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarini qondiriSh uchun kerak edi. Rusning xristianlaShuvi darrov amalga oShgan ijtimoiy jarayon bo'lmay, bir necha asr davom etgan ziddiyatli tarixiy hodisa edi.

Pravoslaviening Markaziy Osiyo aholisi orasiga kirib keliShi XVI-XIX asrlarga to'g'ri keladi. Avval savdo-sotiq, keyin bu mintaqa xalqlarini mustamlakaga aylantiriShdan iborat bo'lgan harbiy harakatlar jarayonida u kirib kelgan. 1870 yili Pokrovsk monastiri koShida missionerlik jamiyati tashkil qilingan. Jamiyat a'zolari mahalliy millatlarga mansub aholi orasida, garchi jiddiy natijalarga ega bo'lmagan bo'lsa ham, xristianlik bilan bog'liq katta targ'ibot iShlarini olib borganlar. SHu maksadda 1844 yili "Karomat ko'rsatuvchi Nikolayning hayot yo'li" nomli risolani qirg'iz tiliga tarjima qildilar va chop etdilar. 1872 yili Rus pravoslav cherkoviga karaShli Turkiston (keyinchalik Toshkent, O'rta Osiyo) eparxial boShqarmalari maxsus diniy maktablar ochildi.

Pravoslav cherkovi hozirgi kunda jamiyatimizning YuksaliShi bilan bog'liq tadbirlarni qo'llab-quvvatlamoda, ayniqsa dindorlarni axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalaSh borasidagi o'zining rejalarini iShlab chiqmoqda. Bunda inson Shaxsining qadr-qimmatini ulug'laydigan, oila asosini mustahkamlaydigan va mehnatga, butun jamiyatga nisbatan sofdil va vijdonlilik ruhida bo'lgan munosabatlarni qaror toptiriSh nazarda tutilgan. CHerkovning ichki tartibini qayta quriShni amalga oShiriShga, cherkov hayotini yangilaShga, ruhoniylar orasida uchraydigan ba'zi bir musulmonlarni bartaraf etishga juda katta e'tibor berilmoqda. 1988 yilda bo'lib o'tgan rus pravoslav cherkovining ming yillik sanasini tantanavor, ulug'vor niShonlaniShi, rus pravoslav cherkovining xalqaro obro'sini ko'tarilib boriShiga ta'sir etdi. Muhim sanani niShonlaSh bilan bog'liq bo'lgan tantanalar, bayramlar va boShqa turli-tuman tadbirlar ruhoniylar uchun o'zlarining faqatgina ilohiyotchilik, cherkovning ichki hayoti va tartibi bilan bog'lanib qolmadi; balki jahonda, xususan Osiyo mintaqalarida tinchlik uchun kuraSh, irqiy kamsitiShlarga barham beriSh, tabiatni muhofaza kiliSh, sog'liqni saqlaSh, demokratik jarayonlarni rivojlantiriSh, jamiyatda adolatli hayotni qaror toptiriSh bilan bog'liq ko'pgina

masalalarni muhokama qilmoqdalar. Ulug' bayram kunlari diniy e'tiqod va marosimchilik masalalarini hal qiliShga ham harakat qilmoqdalar.

Toshkent va O'rta Osiyo eparxial boShqarmasi (unga 22 diniy jamoa bo'ysunadi) ham mustaqil jumxuriyatlarda vijdon erkinligi talablariga rioya kiladigan tadbirlar o'tkazmokda, xalqlar o'rtasida osoyiShtalik qaror toptiriSh uchun harakat kilmokda.

Pravoslav cherkovi ko'p millatli mintaqada millatlararo va har xil yo'naliShdagi dinlar orasidagi munosabatlarga dindorlarni axloqiy jihatdan tarbiyalaShga va jamiyatni ma'naviy jihatdan sog'lomlaShtiriSh uchun ko'maklaShiShlarga aloxida e'tibor bermokda. SHuningdek u ilohiyotchilikka oid bo'lgan qaraShlar sistemasining ayrim elementlarida pravoslaviedagi boShqa, Shuni islom bilan bir-biriga tutaSh bo'lgan umumiy aloqalarni izlamoqdalar va fan namoyandalari va jamoatchilik vakillari bilan aloqalarni rivojlantirmoqdalar. Ular pravoslavlar bilan musulmonlar diniy boShqarmalari o'rtasidagi muloqotlarni rivojlantiriShga qaratilgan ko'pgina yirik tantanali anjumanlar chaqiriliShining taShabbuskori bo'lmoqdalar.

Bundan taShqari rus pravoslavie cherkovi xayriya Shaklidagi faoliyatlarga, chunonchi, halok bo'lgan jangchilarga yodgorliklar o'rnatish, urushda jabr ko'rgan baynalminalchi jangchilar sog'liklarini tiklash, tinchlik va bolalar uchun mo'ljallangan jamg'armalari ko'paytiriSh va Shu kabilarga katta e'tibor bermokdalar.

Pravoslaviening ijtimoiy, siyosiy qaraShlarini va dindorlarning diniy onglari bilan bog'liq hamma o'zgariShlar ularning dunyoqaraSh mavqelarini majburan o'zgartiriShlariga olib bormaydi. Zero, rusga xristianlik kirib keliShining ming yilligini tantanali tarzda bayram qiliniShining o'zi jamoatchilikning keng doiralari orasida muayyan taassurot qoldirdi.

Protestantlik - bu ham xristianlikdagi yana bir yo'naliSh bo'lib, katolitsizm va pravoslaviedan farqli o'laroq, diniy qaraShlar hamda, cherkovlar orasidagi munosabatlar jihatidan bir xil bo'lmagan yo'naliShlarni faqatgina kelib chiqiShi jihatidan bir-birlari bilan, XVI asrdagi yangilaniSh harakati bilan bog'liq bo'lgan kupgina diniy jamoalar, cherkovlar, mazhablar Yuzaga keldi.

Protestantlik umumxristianlik asoslari va qaraShlarini e'tirof etish bilan bir qatorda, u gunoxdan xalos bo'lishning yangi usullarini ilgari surdi. Iso Masihning kiShilar gunohini yuviShga qaratilgan o'zini-o'zi qurbon qiliShiga iShonch, dinga iShonuvchi barcha kiShilarning ruhoniyligi bo'lishi mumkinligiga iShonch, Bibliyaning oliy nufuziga iShonch orqali xalos bo'lish ana Shular jumlasiga kiradi. Shunday qilib protestantlik xudojo'ylikning asosiy talabini dinda odamning taShqi ko'rinishidan ichki hayotiga olib o'tdi va uni ixtiyoriy diniy iShonch bilan bog'ladi. Protestantchilik Bibliyaga sig'iniShning o'ziga xos Shaklini qaror toptirdi. Bu bilan

protestant islohotchilari dastlabki xristianlikning oliy maqsadlarini, dindorlarni axlokyay jihatdan tarbiyalashga va jamiyatni ma'naviy jihatdan sog'lomlashtirish uchun ko'maklashishlarga aloxida e'tibor bermoqda. SHuningdek, u ilohietchilikka oid bo'lgan qarashlar sistemasining ayrim elementlarida pravoslaviedagi boShqa, Shu qatorda islom bilan bir-biriga tutashtirib bo'lgan umumiy aloqalarni izlamokdalar; fan namoyandalari va jamoatchilik vakillari bilan aloqalarni rivojlantirmoqdalar. Ular pravoslavlar bilan musulmonlar diniy boShqarmalari o'rtasidagi mulokotlarni rivojlantirishga qaratilgan ko'pgina yirik tantanali anjumanlar chaqirilib shuning taShabbuskori bo'lmoqdalar.

Protestantlik diniy marosimlarning ko'pchiligini bekor qilgan (faqatgina LYuteranlikda non va vino bilan cho'qintirishlar saqlanib qolgan). O'lganlarga bag'ishlab duo o'qish, aziz-avliyolarga sig'inish, ular Sharafiga turli-tuman bayramlar o'tkazish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinishlar bekor qilingan. Ibodat uylari ortikcha bezaklardan, mehrob, sanam, haykallardan xoli qilingan, monostirlar va monaxlikdan ham voz kechilgan, ruhoniylarning uylanmaslik sharti bekor qilingan. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi va uni sharhlash har bir xudojo'ying eng muhim burchi bo'lib qoldi.

LYuteranlik, anabaptizm, anglikanlik, kalvinizm, svingchilik protestantlikning ilk shakllari bo'lgan. Keyinchalik "so'ngi protestantlik" umumiy nomi bilan ma'lum bo'lgan bir qancha diniy oqimlar, tashkilotlar paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyoda ham protestantlik muxlislari uchraydi. LYuteran jamoalari a'zolari Kirg'izistonda, Qozog'istonda va Tojikistonning Janubiy tomonlarida, Turkmanistonda, O'zbekistonda, chunonchi Sirdaryo, Farg'ona viloyatlarida yashaydilar. Bular asosan nemis millatiga mansub bo'lgan dindorlardir. Toshkentdagi LYuteranlarga, diniy toat-ibodatlarini bajarihlari va umumiy diniy ehtiyojlarini qondirish uchun ular ixtiyoriga 30-yillarda qurilgan kirxa berilgan. DuShanbada ana shunday diniy maqsad uchun dindorlarning mablag'lari xisobiga va keng jamoatchilikning, jumladan xorijiy mamlakatdagilarning ishtirokida yangi kirxa qurilgan. Bu jamoada diniy hayot bilan bog'liq cho'qintirish, marhumga janoza o'qish, balog'at yoshiga etganlarni dindorlar safiga qo'shish va nikoh o'qitish marosimlari o'tkaziladi. Diniy bayramlar muntazam niшонlanadi, diniy targ'ibotlar, va'zlar o'qiladi, diniy muloqotlar tashkil qilinadi.

Markaziy Osiyoda boShqa protestant yo'nalishlari ham mavjud bo'lib, ular baptistlar, adventistlar, iegovistlar, pyatidesyatniklar, menonitlar deb ataladi. Bu sektalar hozirgi sharoitdagi tarixan o'zgarihlari ta'sirini o'zida muayyan tarzda ifoda etgan diniy jamoalar va guruxlardan iborat. Ular kelib chiqishi jihatidan eski rus sektantchilik shakllariga, protestantchilik harakatiga, pravoslaviyadagi eskicha marosimchilik va boShqa yo'nalishlarga, ya'ni 1917 yildan oldingi cherkovlar orasida ziddiyatlar kuchaygan sharoitlarga borib taqaladi.

Eski an'anaviy rus sektantchiliga Rossiyadagi krepostnoy Sharoitlariga, uning g'oyaviy himoyachisi bo'lgan hukmron pravoslav cherkoviga, chorizmga nisbatan keng dehqonlar ommasining ijtimoiy noroziliklarini o'zida ifoda etuvchi diniy harakatlar asosida XVII asr oxiri va XVIII asr bo'shlarida vujudga kelgan duxobarlar, molokonlar, xristoverlar, subbotniklar, ekopchilar, iegovist-ilinchilar va bo'shqalar kiradi. Ular sektantchilikning birinchi toifasini tashkil qiladi.

An'anaviy rus sektantchiligining muxlislari ularni chor hukumati va pravoslav cherkovi ta'qib etishi natijasida Stavropol o'lkasiga (keyinchalik u erdan Kanadaga), Sibirga, Kavkaz ortiga, Markaziy Osiyoga) ko'chib ketganlar. Markaziy Osiyoda xristian sektantchiligining paydo bo'lishi va tarqalishi bu erlarni Rossiya chorizmi bosib olishi va pul-tovar munosabatlarining rivojlaniishi bilan uzviy bog'langan. Hozirgi kunlarda Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston hududlarida son jihatidan uncha ko'p bo'lmagan molokan, duxobar, xristoverlar mavjud. Toshkentdagi molokan birodarlari jamoasi va Jizzaxdagi jimgurmas (prigun) molokanlar jamoalari respublikadagi eng katta jamoalar hisoblanadilar. Molokanlarning katta bo'lmagan guruxlari Samarqand, Xorazm, Farg'ona viloyatlarida ham bor.

Sektantchilikning ikkinchi toifasiga G'arb mamlakatlarida kapitalizm taraqqiyotining turli bosqichlarida vujudga kelgan va Rossiya imperiyasi hududida, jumladan, Turkistonda ham burjua munosabatlari shakllanish jarayonida va faol missionerlik harakatlari natijasida qaror topgan sektantchilik kiradi. O'z muxlislarining soni jihatidan eng kattasi - baptistlar (Yunon. suv bilan cho'qintirish) birlashmasidir. O'zbekistondagi xristian sektalarining 65 foizdan ko'prog'ini baptistlar tashkil qiladi. Diniy ta'limot va marosimchilik borasida baptizm an'anaviy protestantchilik asoslariga tayanadi va o'zining yangi asoslarini ham yaratadi, ular balog'at yoshiga etganlarni yangitdan cho'qintirishadi va o'z saflariga qo'shishib, bu marosimni tabiiy suv havzalarda bajaradilar. Cho'qintirish, non va vinoni tatib ko'rish kabi sirli marosim sifatida emas, balki ramziy marosimlar, harakatlar sifatida qabul qilinadi. Ibodat uylarini jihozlashda xristianlikning ramziy belgilari ishlatilmaydi. Ibodat Bibliyani o'qish va sharhlashdan iborat bo'lib, targ'ibot va ashula aytilishlar bilan qo'shib olib boriladi.

1944 yili sobiq SSSR dagi baptistlar jamoalari injilchi-xristianlar bilan birlashganlar. 1945-1947 yillarda bu birlashma ittifoqiga pyatidesyatniklar jamoasi, 1963 yili esa mennonitlar jamoalari ham qo'shildilar. Injilchi-xristian-baptist jamoalari sobiq SSSR da injilchi-xristian baptistlar kengashi tomonidan boshqarilib turildi. (Bu 1990 yilda injilchi-xristian baptistlarning ittifoqi degan nom oldi). 60-yillarda bularga qarshi bo'lgan markaz tashkil topdi va injilchi-xristian baptistlar cherkovining kengashi degan nom oldi. Uzoq yillardan buyon bu markaz norasmiy raviashda faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekistonda baptizm XIX asrning oxirlaridan beri mavjud bo'lib, uning Toshkentdagi jamoalari, Shu jumladan, "Etinchi kun" adventistlari Islohchi-adventist, pyatidesyatniklar, menonchilik, injilchi-xristian baptistlar kengaShi, iegova Shohidlari kabi protestantchi jamoalari mavjud.

Protestantlik boShqarmalarining Markaziy Osiyo rahbariyati o'z diniy faoliyatlarini yanada faollaShtiradigan vositalarni muntazam tarzda izlamokda, Shuningdek jamoalarning tuziliShlarini mustahkamlaydigan jidsiy tadbirlar bilan Shug'ullanib targ'ibot-taShviquot iShlariga alohida e'tibor qaratib, diniy g'oyalarni, ibodatlarini hozirgi Sharoitga moslaShtirib, zamonaviylaShtirmoqda. Bu hol Markaziy Osiyo protestantlik yo'naliShlaridagi jamoalar va ularning muxlislari soni jihatidan birmuncha ko'payiShiga, dindorlar orasidagi muayyan boShboShdoqlik kayfiyatlari Yuzaga keliShiga ham sabab bo'lmokda.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi protestantlik birlaShmalari yangi mustaqil respublikalarda demokratik o'zgariShlarni muvofiqlaShtiriShga intilayaptilar va islohot jarayonlarining rivojlaniSh to'lqinlarida targ'ibot iShlarini faollaShtirmoqdalar, qolaversa dindorlarning ijtimoiy jarayonlardagi faol iShtiroklarining o'zlariga ma'qul Shakllarini belgilamoqdalar.

Ma'lumki, dinlar va dindorlar orasidagi o'zaro xamfirklik va muloqotlar jamiyat taraqqiy etgan sari rivojlanib boradi. Dinlar orasidagi muloqotlar, hozirgi davrning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan masalaga aylanmoqda. O'rta Osiyo dindorlari orasidaga aloqalar, munosabatlarning yanada chuqurlaShuvi ular rahbariyati va oddiy dindorlarning eng dolzarb ma'naviy-axloqiy muammolarini, tabiatni asraSh va uni muhofaza qiliSh, bolalar va qariyalar haklda g'amxo'rlik, tinchlikni saqlaSh va xayriya iShlari, jamiyatiing demokratik jarayonlariga va uning ijtimoiy, siyosiy jihatdan rivojlaniShiga ko'maklaShiSh bilan bog'liq masalalarni hal qiliShga qaratilgan hamkorliklar asosida rivojlanmoqda.

Xristianlikning Sharqqa tomon tarqaliShi, O'zbekistonda xristian cherkovining tutgan o'rni. XI asrning oxirida xristianlikniig SHarqqa tomon harakati va tarqaliShi ommaviy tus oldi. Bu dinni mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar Sharqning ayrim viloyatlariga ilgariroq kirib borganlar. 280 yildayoq Talos (Merke) da xristian cherkovlari qurilgan bo'lib, Samarqandda (301 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotida (430 yildan), Xorazmda, Marida va Markaziy Osiyoning boShqa Shaharlarida episkoplik, kafedra, missiyalar, keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotida (558 yillar) 6-12 episkopliqsan iborat diniy hududiy jamoalar, birlaShmalar bo'lgan. Xurosonliklar va sug'diyonaliklar buddistlar, Zardushtiyar, moniyar bilan bir qatorda xristianlar ham bo'lgan. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qaram erlarda ta'qib qilinganlar.

O'rta Osiyo hududida islom tarqatilgan davrlarda bu din bilan xristianlik o'rtasidagi keliShmovchiliklar keskinlasha boShlagan. Biroq, X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo'lgan. Hagg'o Beruniy yaShagan davrda ham (973-1050) Marvda pravoslav mitropoliyasi bo'lgan.

Ana Shu davrda xristianlik Kavkazda ham tarqala boShlagan. Armaniston (301 yil) va Gruziyada (318 yili) davlat diniga aylangan. Kavkaz Albaniyasi hududida esa (hozirga Ozarbayjon va Janubiy Dog'iston xududi) IV-VIII asrlarda hukmron din hisoblangan.

O'Sha davrdagi ko'pdan-ko'p va bir-biriga qarshi kuraShayotgan dinlar orasidaga Sharqning hukmronlari tomonidan eng ko'p homiylik ko'rsatilgan din xristianlikning Sharqiy yo'naliShi bo'lmish nestorianlik bo'lgan. Xalif saroylarida nestorianlik patriarxlariga butun Sharq xristianligining homiysi sifatida qaralgan, patriarxning qarorgohi esa Konstantinopoldan Bag'dodga ko'chirilgan. Nestorianlar xristianlikni Turkistonda, Amurgacha bo'lgan SHimoliy va g'arbiy Xitoyda targ'ib qilganlar. Nestorianlikning Markaziy Osiyodagi tayanchi va islomga qarshi kurashdagi markazi 1257 yildan so'nggina o'z faoliyatini to'xtatgan Samarqand mitropoliyasi bo'lgan.

Hozirgi mustaqil O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat yaShaydi. Bular orasidagi dindorlar 17 konfessiyaga, ya'ni diniy uYuShmaga e'tiqod qiliShadi. Bular doirasida islomdan so'ng 2-o'rinni xristianlikning pravoslavie oqimi egallaydi. Uning bir necha cherkovi va markaziy uYuShmasi, chunonchi baptist, iegovist, adventist kabi sektalari bor.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib iShlab chiqilgan vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi yangi tahrirda e'lon qilingan konunga asosan respublikadagi barcha diniy uYuShmalar erkin, oShkora, teng huquqli tarzda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bu huquq va erkinliklar qonun bo'yicha kafolatlangan.

Respublikamizdagi barcha konfessiyalar orasida totuvlik. hamjihatlilik mavjud bo'lib, xalqimizni tarbiyalashga, tinch va xavfsizlikni saqlashga xristianlik jamoalari ham salmoqli hissa qo'Shmoqdalar.

Nazorat uchun savollar

1. Buddizm ta'limoti qachon, qayerda paydo bo'lgan?
2. Buddaviylikning qanday yo'naliShlari bor?
3. Xristianlik qachon va qayerda paydo bo'lgan?
4. O'zbekiston hududiga xristianlik dini qachon kirib kelgan?
5. Hozirgi zamon xristian sektalari haqida nima bilasiz?

13-mavzu: Islom dini tarixi va falsafasi

Reja:

- 1. Islom dini paydo bo'lgan ijtimoiy - tarixiy va g'oyaviy muhit.**
- 2. Makka va Madinada Muhammad payg'ambar targ'iboti.**
- 3. Islomning turmush tarzi va madaniyatdagi o'rni.**
- 4. Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi.**
- 5. Islomdagi asosiy yo'nalish va mazhablar.**

Islom dini dunyoda keng tarqalgan monoteistik dinlardan biridir. Afrika qit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Somali mamlakatlarining xalqlari, Habsiston, g'arbiy Sudanda yaShovchilarning bir qismi, Osiyo qit'asidagi Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Xitoy aholisining bir qismi, Evropa qismida bo'lsa, Bolqon yarim orolida yaShaydigan xalqlarning bir qismi islom diniga e'tiqod qiladi. Aholisining ko'pchiliga mutloq musulmonlardan iborat bo'lgan 39 mamlakat, xatto aholisining yarmini musulmonlar tashkil etgan ba'zilar ham (Misr, Malayziya) 49 o'zlarini musulmon mamlakatlari deb ataydilar. YA'ni ularning ba'zilarida (Mavritaniya, Eron, Pokiston, Kamar orollari) mamlakatlarining nomiga islom so'zi qo'shib aytiladi. Rasmiy statistika bo'yicha, bir necha mamlakatlarda aholining deyarli barchasi, musulmonlardan iborat 28 mamlakatda islom rasman davlat dini sifatida tan olingan.

Shuningdek, Markaziy Osiyo, Kavkaz ortida Shimoliy Kavkaz, Volga bo'yi, G'arbiy Sibir va bo'shqa hududlarda yaShovchi aholi orasida tarqalgan. Hozirda islomga e'tiqod qiluvchilarning soni o'shib bormoqda. Ayniqsa e'tiqod haqidagi yangi qonunning qabul qilinishi, vaqtli matbuot sahifalarida, radioeshittirishlar va oynai jahon ko'rsatuvlarida din mavzuidagi chiqishlarning ko'payishi, maxsus gazeta va jurnallarning keng tarqalganligi islomga bo'lgan e'tiborni oshirib Yubordi.

Islom jahondagi ayniqsa Osiyo va Afrika qit'asi madaniyatining umumiy qiyofasida muhim iz qoldirdi. Bunga eng avvalo bu hududda arab tili va arab yozuvining keng tarqalganligi islom mafkurasi zaminida ishlab chiqilgan muayyan turmush tarzining hukmronligi musulmonlar ijtimoiy hayotining turli sohalari Shariat tomonidan idora etilganligini ymkon berdi. Shonga qaramay mahalliy madaniy an'analar yo'qolmay, yangi islom yo'nalitida rivojlangan va u ko'pincha qadimiy musulmon an'analari sifatida qabul qilingan. Musulmonlar madaniy merosi milliy ozodlik harakati va rivojlanayotgan mamlakatlarning mustaqillik uchun qurish jarayonida asosiy masalalardan biriga aylandi va ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Islomning paydo bo'lishining tahlil etish davri xususiyatlari, arab qabilalari o'rtasida hukmron bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning diniy-g'oyaviy hayoti bilan qisqacha taniShib chiqishni taqozo etadi.

Arabiston yarim oroli noqulay iqlim Sharoitiga ega bo'lgan qum sahrolaridan va tog'lardan iborat bo'lib, uning aholisi V–VI asrlarda ko'chmanchi chorvachilik bilan Shug'ullanar edi. Yarim orolning cheksiz sahrolarida yaShovchi ko'chmanchi chorvachilik bilan Shug'ullanuvchi arab qabilalari– bundan ham og'ir Sharoitda yaShar edilar. Ular taraqqiyot jihatdan ancha orqada qolgan, hali urug'chilik, qabilachilik tuzumida edilar. Yarim orolning g'arbiy qismida Qizil dengiz qirg'oqlari bo'ylab cho'zilgan va qadimdan Hijoz deb nomlangan joylar bu davrlarda birmuncha iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo'lib, asosan janubdan Shimolga o'tgan qadimiy karvon yo'li bilan bog'liq edi. Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda VI asr YAmandan Shimolga Suriya, Misr va Falastinga olib boradigan karvon yo'li faqat bu davlatlarning o'zlariga emas, balki janubda Yaman orqali HabaShiston va Xindiston, Shimolda Suriya orqali Misr, Vizantiya va eronni ham bir-biri bilan bog'laydigan o'z davri uchun yirik va katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan savdo yo'li edi. Hijozdagi ayrim aholi yaShaydigan manzillar, yo'l ustida joylaShgan Makka, Madina, Toyif Shaharlari VI asrda ancha rivojlangan. Bular Shuningdek ko'chmanchi arab qabilalarining savdo munosabatlariga jalb etuvchi markazlar sifatida ham xizmat qililar edilar.

Makka diniy markaz va savdo markazi sifatida arab qabilalari orasida e'tiborlisi edi. Makka markazida joylaShgan Ka'ba islomda eng «muqaddas» hisoblangan va «Ollohnin uyi» (Baytulloh) sajdagoh hisoblangan. Undagi qoratoSh (Hajar al –asvod) va uch Yuz oltmiSh sanam arab qabilalari uchun e'tiqod manbaiga aylangan. Ziyoratta keliSh oylari muqaddas hisoblanib bu vaqtlar ichida qabilalarda uruSh va janjallar to'xtatilar edi.

V–VI asrlarda Makkada QuraySh nomli arab qabilasi hukmron bo'lib, qurayShlarning Yuqori tabaqalari savdo–sotiq bilan ancha boyib ketgan, bu erda pul muomalalari, sudho'rlik keng rivojlangan. SHuningdek qul savdosi va qullarning mehnatidan foydalaniSh ham ancha kengaygan edi. Bu davrlarda YAmanni qo'lga kiritiSh uchun Vizantiya va eron o'rtasida kuraSh avj olgan edi.

Yaman sosoniylar hukmronligiga o'tgan davrlari (572–628) eron ko'rfazi orqali Hindistonga boradigan yo'l tez rivojlana boShladi va Shu munosabat bilan Hijoz orqali o'tgan yo'l inqirozga uchraydi. Bu hol faqat Hijoz Shaharlarigina emas, balki barcha arab qabilalari hayotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi va umuman Arabiston bo'yicha ijtimoiy – iqtisodiy tanazzulning boShlaniShiga sabab bo'ladi.

Arabiston Shaharlari va qabilalari o'rtasida mavjud bo'lgan tarqoqlik va keliShmovchiliklarga xotima berib, barcha arab qabilalarini bir davlatga birlaShtiriSh, ularning tarqoq bo'lgan iqtisodiy va harbiy imkoniyatlarini yagona kuchga aylantiriSh zarur edi.

Ijtimoiy hayot taqozosi natijasida vujudga kelgan arab qabilalari o'rtasidagi markazlashishga intilish harakatlari arab jamiyatida VI asr oxiri VII asr boshlarida Yuz bergan jiddiy tarixiy voqealar asosida yotar edi. Bu intilishni o'zida aks ettirgan mafkura sifatida islom dini vujudga keladi va markazlashtirilgan arab davlatining paydo bo'lishi qo'shni mamlakatlarning bosib olinishi va arab halifaligining kengayishi jarayonida bu din kuchli g'oyaviy qurol sifatida xizmat qiladi.

Islom dinida payg'ambar hisoblangan Muhammad (s.a.v.) 570 yilda Makkada quraysh qabilasining hokimiyat avlodidan bo'lgan Abdulloh va Omina xonadonida tug'iladi. Muhammad (s.a.v.) yoshligida etim qolgan, avval bobosi Abu Mutallib so'ng amakisi Abu Tolib qo'lida tarbiyalanadi. Balog'atta etgach, savdogarlar qo'lida xizmat qilib, 24 yoshida beva boy ayol– Hadichaga uylangach, uning mablag'lari bilan mustaqil savdogarlik qila boshlab, juda ko'p davlatlarga borgan. Muhammad (s.a.v.) 610 yili qirqqa kirganda Makkada yakka xudoga e'tiqod qiliش to'g'risida targ'ibot Yurgizgan. U targ'ibot boshlagan dastlabki yillarda, nisbatan juda oz kishi (Hadicha, Abu Bakr, Talxa, Zubayr, Usmon va qarindoshlari, ayrim savdogarlar) bu targ'ibot izidan borganlar. SHuning bilan birga, o'Sha davridayoq qurayshlarning ummaviylar xonadoniga mansub bo'lgan va Makkada siyosiy xokimiyat tepasida badavlat zodagonlar targ'ibotiga jiddiy qarshilik qo'rsata boshlagan. Mamlakatda ahvol jiddiylashtirganini ko'rib Muxammad (s.a.v.) Makkadagi Aus va Hazraj nomli qabilalarning vakillari bilan Madinaga ko'chib kettan.

622 yili Yuz bergan bu ko'chiش (arabcha «hijra»)dan musulmonlarning xijriy yil hisobi boshlanadi. Makkadan ko'chib borganlar islom tarixida «muhojirlar» (ko'chib kelganlar), Madinalik qabilalardan islomni qabul qilganlar esa «ansorlar» («yordamchilar») deb nom olgan.

Muxammad (s.a.v.) Madinaga kelgach, o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi va islomni targ'ib qiliشni davom ettiradi.

Nihoyat makkaliklar va madinaliklar o'rtasida bir necha janglar bo'lgan. Ulardan biri. Badr qudug'i yonida II hijriy yilning ramazon oyida (17 yoki 19 kun) bo'ladi. Ikkinchi jang 625 yil iYul – avgust oylarida va 626 yili «Handoq jangi» nomini olgan uchinchi to'qnashuvlar ham bo'lib o'tdi. Ushbu janglarda Muhammad (s.a.v.) g'alaba qozongandan keyin Madinada o'z mavqeini mustahkamlab bu erda faol siyosat olib boradi.

628 yili musulmonlar jamoasi uchun muhim bo'lgan voqea Yuz beradi. Muhammad (s.a.v.) Ka'bani muqaddas deb e'tirof etishni namoyish qiliش maqsadida 1500 ga yaqin musulmonlar bilan barcha qabilalar hajga boradigan mavsumda Makkaga jo'naydi. Bundan xavotirlangan ummaviylar rahbarlari Abu Sufyon bilan birga Makkada 30 kilometrcha narida bo'lgan Hudaybiya vodiysida uni to'xtatadilar. Muzokaralar boshlanib, o'rtada Shartnoma, «xudaybiya sulhi»

tuziladi, qasam ichiladi, qasam «bayha» deb ataladi. Bitimlarga muvofiq makkaliklar madinaliklarga kelasi yildan boShlab hajga keliShga ijozat beriShadi.

630 yili: Madina qo'Shinlari Makkani qarShiliksiz egallaydilar. Ummaviylar bilan raqobat qilgach, ular Payg'ambar yaqin yordamchilariga aylanadilar. Islom Arabiston yarim orolining asosiy hukmron diniga aylanadi, SHunday qilib Muhammad (s.a.v) islom bayrog'i ostida arab qabilalarini birlaShtirib yagona markazlaShgan mamlakatni tashkil etadi.

Muxammad (s.a.v) 632 yili iYun oyida 62 yoShida Madinada vafot etadi. Bu davrlarga kelib anchagina mustahkamlangan musulmonlar davlati vujudga kelgan va bu davlat YAmandan Sino yarim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan markaziy qum sahrolarigacha cho'zilgan katta hududni o'z ichiga oladi. Muxammad (s.a.v.) vafotidan keyin halifalar (yordamchilar) davlatni boShqaradilar va Shu munosabat bilan musulmonlar davlati o'zining bundan keyingi tarixiga «arab xalifaligi» deb nom beradi. Muhammad (s.a.v.) vafot ettandan keyingi birinchi kunlardayoq musulmonlar jamoasi yo'lboShchilari hokimiyat uchun kuraSh boShlaydilar. Bu kuraShda muhojirlar guruhi g'olib chiqadi va Muhammadning qaynotasi, OyShaning otasi Abu Bakr halifa deb e'lon qilinadi, Abu Bakr hukmronligining (632–634) dastlabki yillarida bir qator arab qabilalari o'rtasida Madina hukmronligiga qarshi o'z mustaqilligi uchun harakat boShlanadi. Bu voqealar diniy manbalarda «ar–ridda» deb nom olgan. Islom tarixida Madina hukmronligiga qarshi boSh ko'targan qabilalar harakati «islomdan chiqiSh», «dindan qaytiSh» deb ta'riflangan. Dindan qaytgan kiShilar qattiq ta'qib qilingan. Halifa Umar (634 – 664) zamonida istilolar yana kuchaydi. 634 yili Basra, 633 yili DamaShq, 640 yili Quddus va Falastin, Suriya erlari to'la raviShda halifalik qo'liga o'tadi.

YAna Shunga ahamiyat beriSh kerakki, keyingi halifalar Usmon (644–656 va Ali (656–661) zamonlarida ham istilolar davom etadi. Kavkaz va Turon tomoniga YuriSh kuchayadi. Qisqa vaqt ichida Gruzin, Ozarbayjon, eronning Shimoliy qismi, Xuroson, Mavr erlari arab qo'l ostiga o'tadi va halifa qo'Shinlari Amudaryo sohillariga chiqadi. SHunday qilib 30 yildan ozroq vaqt ichida arab halifaligi o'Sha zamondaga eng katta imperiya bo'lgan Vizantiyaga nisbatan ham katta hududni bosib oladi, sosoniylar imperiyasi barham topadi.

Buning natijasida Amudaryo sohillarida SHimoliy Afrikagacha Tbilisi va Darbanddan Yaman va Usmongacha cho'zilgan yangi imperiya vujudga keladi. Qisqa vaqt ichida arab qo'Shinlarining bunday engil g'alaba qozoniShining sababi nimada degan savol tug'iliShi tabiiy. Arab qo'Shinlarini yaxshi tashkil qilingan yoki Yuqori harbiy texnikaga ega bo'lgan deb aytiSh to'g'ri bo'lmaydi, chunki bu qo'Shinlar badaviylar va boShqa har xil qabilalardan tuzilgan bo'lib, o'z zamonida ma'lum bo'lgan harbiy san'at va texnika darajasidan ham ancha orqada turar edi.

Osonlik bilan eriShgan g'alabalarning asosiy sababi bu davrda arab qo'Shinlariga jiddiy qarShilik ko'rsatadigan kuchning yo'qligi edi.

Muhammad vafotidan keyin o'rinbosarlari – xalifalar davlatni boShqara boShlaganlar. SHu munosabat bilan musulmonlar davlati o'zining bundan keyingi tarixida «Arab xalifaligi» deb nom olgan, Muhammad vafot etgan birinchi kunlardan oq musulmonlar jamoasining yo'lboShchilari o'rtasida hokimiyat uchun kuraSh va o'zaro ixtiloflar boShlangan. Bu kuraShda muhojirlar guruhi g'olib chiqqan va Muhammadning ilk safdoShlaridan biri Abu Bakr xalifa deb e'lon qilingan.

Abu Bakr (r.a.) hukmronligining dastlabki yillaridanoq arab qabilalari o'rtasidagi keliShmovchilikni tartibga soliSh uchun harakat boShlagan. Bundan taShqari, ayrim joylarda o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan Mahalliy targ'ibotchilar rahbarligi ostida islomga qarShi diniy – g'oyaviy mustaqillik uchun kuraSh boShlangan. Vizantiyaning kuchsiz qo'Shinlari jiddiy qarShilik ko'rsatishga ojizlik qilganlar. Xalifa Umar zamonida istilolar yanada kuchaygan; 634 yili arab qo'Shinlari Sosoniylar poytaxti Ktesifonga bostirib kirganlar, 639 yilda Misrga qarShi hujum boShlangan, Shimoliy va Shimoliy–Sharqiy tomonga YuriSh boShlagan arab qo'Shinlari 640 yilda Armanistonni qirg'oqlarini Tunisgacha bosib olganlar,

Ulardan keyingi xalifalar – Usmon (644–656) va Ali (656–661) zamonlarida ham istilolar davom etgan. Kavkaz va Markaziy Osiyo tomoniga nisbatan harbiy YuriShlar kuchaygan. Qisqa vaqt ichida Gruziya, Ozarbayjon, eronning Shimoliy qismi, Xuroson, Marv erlari arablar qo'l ostiga o'tgan va xalifalik qo'Shinlari Amudaryo sohillariga chiqqan. SHunday qilib, 30 yildan ozroq muddat ichida arab xalifaligi Yuqorida eslatilgan Yurtlarni, o'Sha zamondagi eng katta imperiya bo'lgan Vizantiyaga qaraShli–katta territoriyani ham bosib olgan.

4-savolni yoritishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim. O'rta Osiyo xalqlari hayotiga islomni kirib keliShi bilan kalom, ya'ni islom falsafasini va diniy talablarni bajariShda arab tili ustuvorligi o'rnatilgan. So'ngra fan, adabiyot, falsafa va madaniyatning turlariga ham arab tilining ta'siri kuchli bo'lgan. Ammo mahalliy xalqlar islomdan ancha oldinroq o'z ona tillarida yozuvni, ma'rifatu madaniyatni, ilm–fanni rivojlantirishga muvaffaq bo'lganlar. Bu jarayon keyinchalik islomning ta'sirida yanada rivojlantirilgan. Masalan, kiShilarning turmuSh tarzi islom talabiga moslasha borgan, urf–odat va marosimlar diniy tus olgan, yoShlarga bilim beriSh uchun ko'plab madrasalar, qiroatxonalar tashkil etilgan.

Demak, O'rta Osiyo xalqlarida hayotida ilm–ma'rifat va madaniyatning rivojlaniShida islomning ijobiy rol o'ynaganini e'tirof etishimiz lozim. O'rta asrlarda Shakllanib ijod etgan savodli kiShi, olim, Shoir, ma'rifatparvar,

mutafakkirlarning hayoti va faoliyatida islomning ijobiy roli bor desak xato qilmaymiz.

Islom O'rta Osiyo xalqlari turmuSh tarziga, madaniyatiga turli qirralarda o'z ta'sirini ko'rsatgan, Masalan, me'morchilik yodgorliklarini olib ko'raylik. Madrasa, masjid, maqbara va boShqalar din manfaati yo'lida qurilgan va unga xizmat qilgan. Ammo u inshootlarni xalq qurgan, xalq ijodiga bog'liq madaniy boylik ekanligini bilamiz. SHuningdek, xalqlar orasida Shaxsiy uylarni quriShda uy peShtoqlarini, ustunlarini, eShiklarini o'ymakorlik qilib iShlaSh, ganchlardan turli Shakllar yasab yopipggiriSh kabilar ham xalq ijodiy qadriyatlariga mansubdir.

Islomda, eng avvalo, din asoslari – «arkon – ad-din» hisoblanuvchi beSh asosiy amaliy va marosimchilik rukn talablarini bajariShni talab etilgan. Hozir ham Shunday, Bular, birinchidan, kalimai Shahodatni biliSh; ikkinchidan, har kuni beSh vaqt namoz o'qiSh, uchinchidan, har yili ramazon oyida bir oy ro'za tutiSh; to'rtiinchidan, yiliga bir marta Shaxsiy molidan zakot beriSh beShinchidan, imkon bo'lsa, umrida bir marta haj qiliShdan iborat. Islomga xos marosimlar va odatlar mana Shu beSh rukn bilan chambarchas bog'liqdir. Islomning bu amaliy va marosimchilik talablari xalqlar turmuSh tarziga kiritilib, o'ziga xos ma'naviy madaniyatning turiga, an'anaga aylantirilgan.

5 –savolni yoritishda ya'ni islomdagi yirik yo'naliShlarning paydo bo'lishi haqida Shuni aytiSh, lozimki, islom ham o'z tarixiy taraqqiyoti davomida bo'linishdan chetda qolmagan.

Jahondagi barcha yirik dinlar o'z taraqqiyotining muayyan bosqichida turli yo'naliSh va oqimlar bo'lingan. CHunki mazkur din tarqalgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kuraShning kuchayishi, muayyan dinga e'tiqod qiluvchi turli xalqlarning ijtimoiy manfaatlari va madaniy darajalari turlichaligidadir.

Islom ham o'z tarixiy taraqqiyotida bunday bo'linishlarni o'z boShidan kechirdi. VII asrning ikkinchi yarmidayoq dastavval. xorijiylar (Al –xavorij, xaraja –dindand chiqmoq mazmunida) yo'naliShi Shakllangan, so'ngra yana ikki yirik oqim – sunniylik va Shialikka ajralgan.

Islomdagi yirik yo'naliShlarning paydo bo'lishi va ularning mohiyati haqida qisqacha to'xtalib o'tiSh lozim.

Sunniylik – bu islomda izchil, sobitqadam yo'naliSh hisoblanadi. Musulmonlarning juda ko'pchilik qismi –92 foizi sunniylikka e'tiqod qiladi. Qolgan 7 foizi Shialikka e'tiqod qiluvchilardir. Sunna arabcha odat, an'ana, hatti-harakat tarzi degan ma'nolarni bildiradi. Sunniylik degan so'z arabcha «Sunna» – «muqaddas rivoyat», ya'ni Muhammad to'g'risidagi rivoyatlar va uning hadislari to'plami degan tuShunchadan olingan.

Yana sunna farzdan farqli ravishda bajarilishi ixtiyoriy bo'lgan ko'rsatmalar, amallardir.

Sunniylar ummaviylar sulolasidan bo'lgan xalifalarning oliy hokimiyatiga bo'lgan huquqini tan olganlar. Sunniylikda sunna Qur'ondan keyingi asosiy muqaddas manba, hadislar to'plami deb qaraladi. U VII asr o'rtalarida Shakllana bo'shlagan. Unda xalifalikdagi sinfiy munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlar, islom mafkurasi atrofida kuraSh o'z ifodasini topgan. Uni to'plash, Sharhlash va nashr qilishda vatandoshlarimiz Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy asosiy rol o'ynaganlar.

Sunniylikdan keyinchalik hanafiy, hanbaliy, molikiy va Shofiy mazhablari Shakllandi.

Shialik. Guruh, partiya, tarafdorlar degan ma'nolarni beradigan arabcha «Shia» so'zidan kelib chiqqan. Shialik o'z ahamiyati va tarafdorlari soniga ko'ra islomdagi ikkinchi yo'nali'shdir. U VII asrning ikkinchi yarmida musulmonlarning maxsus va siyosiy guruhi sifatida Yuzaga kelgan. U choryorlarning to'rtinchisi Ali tarafdorlarini birlashtirgan. U juda ko'p sektalarga bo'linib ketgan. Bular orasida ismoiliylar hozir 35 millionga yaqin tarafdoriga ega bo'lib, hozir ham islom drirasida, katta rol o'ynamoqda.

Shialar Arabistonda paydo bo'lgan teokratik davlat-xalifalikdagi oliy hokimiyat uchun olib borilgan keskin kuraSh jarayonida kelib chiqqan.

Shia yo'nali'shi islomiy ibodiy, zaydiy, druz, ja'fariy mazhablarini o'z ichiga oladi.

Xorijiylar. (Al-xavorij) Bu oqimning nomi, «chiqing», «qarshi bo'lish», «isyonchilar» ma'nolarini anglatuvchi arabcha «haraja» so'zidan olingan. Bu oqim islomdagi ilk sektalardan hisoblanadi. Islom olamini 1% ni tashkil etadi. U Ali bilan Muoviya o'rtasida xalifalikning oliy lavozimini qo'lga kiritish uchun olib borilgan keskin kuraSh jarayonida paydo bo'lgan.

Xorijiylar 661 yili Alini o'ldirishgan. Muoviya hukmronligi yillarida (661 – 680) va undan keyin xorijiylarning yirik qo'zg'olonlari bo'lib o'tgan.

Islom bo'shqa jahon dinlari orasida davlat va huquqqa nisbatan juda yaqin aloqada bo'lib bu Shariat Shaklida mavjud bog'liqlikning uzviyligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shariat-islom diniy huquq qonun-qoidalarning mavjudligidir. Ammo Shariatni dinning huquq majmuidan kengroq tushuncha deb bilish lozim. Chunki bu diniy huquqdan tashqari ahloqiy va diniy marosimchilik talablarining majmuini o'z ichiga oladi.

Qur'onda bo'lmagan yoki bo'lsa ham noaniq holda tasvir qilingan hatti-xarakatlar yoki ta'qiqlarni Shariat aniq va ravshan qilib

belgilashi ham uzoq muddatlar davomida undan foydalanib keliShga zamin bo'lgan.

Islomdagi diniy huquqiy mazhablar va ularning asoschilari, himoyachi va oqlovchilariga oid tartib qoidalari, qasam ichiSh, va'da beriSh va qasamyod qiliSh, qarzni uziSh, kafillik, kafolat beriSh, omonat saqlaSh tahlili va ularga mansub tartib – qoidalar Shariatning asosiy bo'limlaridan hisoblanadi. SHariat musulmonlarnipt ichki hayoti, e'tiqodi va diniy vijdonini bevosita nazoratga oluvchi diniy va ahloqiy qoidalarni qamrab oladi.

XIX asrning oxiri, XX asrning boShlarida ijtimoiy–iqtisodiy hayotda vujudga kelgan siljiShlar ayniqsa islom keng tarqalgan hududlarda Yuzaga kelgan ilg'or fikrlarning davlat taraqqiyotidan orqada qolayotgan g'oyalarga qarshi kuraShda ko'zga taShlanadi. Bu jarayon islomga nisbatan qaraShlarda ham o'z aksini topgan. Bunga quyidagilarni misol keltiriSh mumkin. Islom modernizmi – islomning diniy ta'limotidagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarga taalluqli aqidalarni yangi zamon Sharoitlariga muvofiklaShtiriSh, zamonaniylaShtiriSh orqali taraqqiyotning yangi yo'llarini iShlab chiqiShdir.

Islom graditsionalizmi oqiminint tarafdorlari o'rta asr aqidalariga qattiq amal qilib, ularni o'zgarmas deb hisoblagan holda dinni har qanday isloh qiliShga: modernizmga qat'iy qarshi chiqqanlar va hozir Shunday qilayotirlar. Islomga e'tiqod qiluvchi har bir mo'min, qaysi millatga mansubligidan qat'iy nazar, o'z hayotida islom aqidalariga amal qiliShi, ularni og'iShmay bajariShi, islom traditsionalizmining asosiy prinsiplari hisoblanadi.

Islom fundamentalizmi esa «sof» islomni tiklaSh harakati asosida Markaziy Osiyo musulmonlari, ko'pincha yoSh musulmonlar orasida paydo bo'lgan diniy oqim. UShbu mavzuga bag'iShlaigan – diniy fundamentalizm, ekstremizm haqida alohida ma'ruzalar mavjud.

Nazorat uchun savollar:

1. Islom qachon va qanday Sharoitda Shakllandi?
2. YAngi din da'vati qachon boShlangan?
3. Makka va Madina tarixi haqida nima bilasiz?
4. Islomda qanday yo'naliSh mazhab va oqimlar bor?
5. Islom modernizmi, traditsionalizmi va fundamentalizmi nima?

14-mavzu: Islom qadriyatlari

Reja:

1. Davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning tiplari.
2. O'zbekistonda vijdon erkinligini ta'minlanishi.
3. O'zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar.

Din va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning tiplari. Rivojlangan demokratik yo'ldan ketayotgan davlatlarning hozirgi zamonda dinga munosabati asosan vijdon erkinligini ta'minlash va diniy bag'rikenglikka asoslangan. SHunga qaramay, bugungi kunda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar o'z mazmuni, mohiyati, shakllari va usullariga ko'ra turli davlatlarda o'ziga xoslikka ega. SHu munosabat bilan din va davlat o'rtasidagi munosabatning tiplari, modellari haqida fikr YuritiSh mumkin.

Hozirda davlat bilan din (diniy tashkilotlar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning turli shakllari mavjud bo'lib, ular bugunga kelib quyidagi uchta asosiy turkumga ajratiladi:

1. Davlat-diniy tashkilot modeli – identifikatsion model. Bunday modelni biz, misol uchun, Daniya, Angliya, Gretsiya, SHvetsiya, Finlyandiya, Norvegiyada (ya'ni Evropa ittifoqining deyarli uchdan bir qismida), Saudiya Arabistoni, Brunej qirolligi, Qatar, Eron islom respublikasida kuzatishimiz mumkin.

2. Separatsion, ya'ni davlat dindan ajratilganligiga asoslangan model. Davlat bilan din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning bu turiga AQSH, Fransiya, Niderlandiya, Turkiya, MDH davlatlari, jumladan O'zbekiston Respublikasi kabi davlatlarni misol sifatida keltirish mumkin.

3. Kooperatsion – neytralitet modeli. Germaniya, Ispaniya, Italiya, Belgiya, Lyuksemburg, Avstriya kabi mamlakatlarida o'z aksini topgan.

Identifikatsion model muayyan tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, Evropaning ayrim mamlakatlarida davlat dinini rasmiy belgilash prinsipiga amal qiladi. Jumladan, hozirgi kunda anglikan cherkovi (rasmiy nomlanishi – Angliya cherkovi) davlat maqomiga egadir. Qirolidagi diniy tashkilotlarning o'rnimavqei bir qator parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar hamda davlat va diniy tashkilot o'rtasidagi keliShuv-bitimlari bilan belgilanadi. SHunday hujjatlardan eng muhimi – 1534 yili qabul qilingan «Suprematiya (ustuvorlik) to'g'risidagi akt»dir. Unga binoan qirol anglikan cherkov rahbari hisoblanadi (1952 yildang buyon qirolicha). Monarx hukumat tavsiyasiga binoan episkoplarni tayinlaydi. Bunday episkoplarning aksariyat qismi lordlar palatasining a'zolaridir.

Barcha din xizmatchilaridan san (diniy unvon)ga bag'ishlash jarayonida qirolga itoatkorlik to'g'risida qasamyod qiliShi talab etiladi. SHuningdek,

cherkovning muhim hujjatlari, Shuningdek anglikan cherkovining BoSh sinodi qarorlari, qonuniy kuchga kirishi avval, parlament tomonidan tasdiqlanishi va qirol tomonidan ma'qullanishi lozim. Anglikan cherkovi xizmatchilari tomonidan rasmiylashtirilgan nikohlar Yuridik kuchga ega. Diniy tashkilot o'zining barcha mablag'larini bevosita emas, balki «Cherkov vakolatdorlari» nomli davlat moliyaviy tashkiloti orqali tasarruf etadi. Bu tashkilot qo'lida Angliya cherkoviga rasmiy tegishi bo'lgan barcha moliya-mablag'lar to'planadi.

Shvetsiya, Daniya va Norvegiyada diniy tashkilotning maqomi boshqa mamlakatlarda bo'lgan maqomidan jiddiy farq qiladi. Skandinaviya mamlakatlarining xarakterli belgisi – protestantizmning qat'iy ustuvorligi hisoblanadi - bu mamlakatlarda aholining 90 foizidan ko'prog'i protestant cherkoviga mansubdir.

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining aksariyatida davlat dini sifatida islom dini e'tirof etilgan bo'lib, ko'pincha, bu haqda ularning nomlarida ham ko'rsatiladi: Pokiston Islom Respublikasi, Eron Islom Respublikasi. SHu bilan birga islom Afg'oniston, Misr, Iroq, Jazoir, Tunis va Iordaniyada ham davlat dini sifatida e'tirof etilgan.

1979 yili 23 dekabrda tasdiqlangan Eron Islom Respublikasining Konstitutsiyasida aytilishicha, «Eronda 12 ta imomlarning mavjudligini nazarda tutuvchi ja'fariya mazhabi rasmiy din sifatida e'tirof etiladi hamda bu qoida abadiy o'zgarmas bo'lib qoladi» (12-modda). «Barcha fuqarolik, moliyaviy, iqtisodiy, ma'muriy, madaniy, harbiy, siyosiy va boshqa qonun-qoidalar islom normalari asosida belgilanishi lozim» (4-modda).

Qirol bir vaqtning o'zida hukumat rahbari, oliy bosh qo'mondon va diniy rahbar sifatida namoyon bo'ladigan, mutlaq teokratik monarxiyaga Saudiya Arabistonini misol qilib keltirsa bo'ladi. Bu mamlakat Konstitutsiyada Qur'oni karim va Payg'ambar alayhis-salom sunnatlari har qanday normadan ustun ekani e'tirof etilgan. Saudiya Arabistonida mahalliy aholi to'liq islom diniga e'tiqod qiladi. SHuningdek, Makka va Madina Shaharlariga islomdan boshqa dinga e'tiqod qiluvchi Shaxsning kirishi taqiqlanadi. Qirollikda sud hokimiyati asosan Shariat sudlari tomonidan Qur'on ko'rsatmalariga amal qilgan holda amalga oshiriladi.

Isroilda esa Yahudiylar davlat dini bo'lib, bu mamlakatda din davlat mexanizmining bir qismi sifatida o'z aksini topgan. Mamlakatda yagona konstitutsiya mavjud bo'lmay, uning o'rniga Knesset tomonidan qabul qilinadigan qonunlar amal qiladi. 1952 yilgi qonunga binoan Isroil fuqaroligi Yahudiylardan boshqa dinga e'tiqod qiluvchi yoki umuman dinsiz Yahudiylarga berilmaydi. Sinagoga va ravvinatning jamiyat turli sohalardagi aralashuvi nihoyatda keng bo'lib, ular o'zlari tomonidan chiqarilgan turli ko'rsatmalar orqali e'tiqod qiluvchi hayotining turli jabhalarini tartibga soladi.

Ayrim mamlakatlarning konstitutsiyalarida diniy tashkilotning davlatdan ajratilganligi (separatsion model) mustahkamlangan bo'lib, bunda davlat dinni o'z fuqarolarining Shaxsiy iShi sifatida ko'radi. Bunday holatni «erkin jamiyatda erkin e'tiqod» degan ibora bilan izohlasa bo'ladi.

Separatsion model vakillaridan bo'lgan AQSHda davlat va dinning bir-biri iShlariga ikki tomonlama aralaShmaslik, diniy jamoalarning erkinligi, diniy konfessiyalar o'rtasida davlatning betaraf ekanini nazarda tutuvchi diniy tashkilotning davlatdan qat'iy ajratiliShi tamoyili keng yoyilgan.

Diniy tashkilotning davlatdan ajratiliShi prinsipi boShqa Shaklda ham namoyon bo'liShi mumkin. Evropada bunday tizim diniy tashkilotga qarShi kuraSh jarayonlari natijasi sifatida Shakllandi. XIX asr davomida Fransiyada davlat-din munosabatlari hamkorlikdan butunlay uziliShga qadar o'zgarib, 1905 yildan cherkov davlatdan rasmiy raviShda ajratiladi. SHunga bog'liq raviShda 1905 yili Fransiyada qabul qilingan qonun quyidagilarni tan oladi:

1. Vijdon va e'tiqod erkinligi;
2. Davlat tomonidan diniy tashkilotlar va ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaniShining taqiqlaniShi;
3. Barcha dinlarga, hech bir istisnosiz teng munosabatda bo'liSh.

Fransiyada qabuli qilingan dinning davlatdan ajratiliShi to'g'risidagi qonun diniy marosim va urf-odatlarini bajo keltiriSh davlat hokimiyati ruxsati va nazorati bilan amalga oShiriliShini belgilab qo'ydi.

Kooperatsion, ya'ni neytralitet modeliga Germaniya federativ respublikasini misol tariqasida keltiriSh mumkin. GFR da davlat bilan diniy tashkilot o'rtasidagi munosabatlarda davlat hokimiyatining ustuvorligi e'tirof etilgan, davlat-diniy tashkilot huquqi vujudga keldi.

Veymar Konstitutsiyasi davridan boShlab Germaniyada davlat-cherkov munosabatlari sekulyarlik tamoyiliga asoslanadi. SHuningdek, davlat hokimiyati bilan diniy tashkilot muunosabatlarida muayyan masofa saqlanadi. Hozirgi kunda bunday masofani «neytralitet» termini bilan ataSh odat bo'lgan.

Hozirgi kunda davlat-cherkov munosabatlari GFR Asosiy qonunining 140-moddasi asosida tartibga solinadi. O'z navbatida konstitutsiyaning mazkur moddasi 1919 yilgi Veymar Konstitutsiyasining 136-139, 141- moddalaridan tashkil topgan. Mazkur qoidalarga binoan GFR da davlat biror dinga rasmiy davlat dini maqomini bermaydi.

GFRda diniy maShg'ulotlar davlat bilan diniy tashkilot o'rtasidagi o'zaro munosabatning o'ziga xos ifodasi bo'lib, diniy maShg'ulotlar davlat bilan diniy tashkilotning umumiy iShi sifatida e'tirof etiladi. GFR Konstitutsiyasining 7-moddasiga binoan, ommaviy maktablarda diniy ta'lim majburiy predmet sifatida o'qitiladi.

Ko'rib chiqilayotgan model doirasida 1920 yilgi Avstriya konstitutsiyasida ham o'ziga xosliklar bor. Unda ham vijdon va e'tiqod erkinligi to'liq e'tirof etiladi. Avstriyada ham, GFRda bo'lgani kabi, cherkov davlatdan ajratilmagan. Katolik cherkovi davlat maqomiga ega bo'lmasa-da, diniy sohada hukmronlik qiladi va mafkuraviy hayotning turli jabhalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. E'tiqod qiluvchilarning taxminan 90% ni katoliklar tashkil etadi.

Yuqoridagi davlatlar misolidan ko'rinib turibdiki, xorijiy mamlakatlarda diniy tashkilotlarning huquqiy maqomini, davlatning dinga, vijdon va e'tiqod erkinligiga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy va qonunchilik normalari nihoyatda turli-tumandir. Konstitutsiyalar odatda, diniy tashkilot bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabat asoslari, jamiyatda dinning tutgan o'rni bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi maxsus moddalarni, ayrim hollarda esa bir-butun bo'lim va boblarni ham o'zida aks ettiradi. Umuman olganda esa, konstitutsiyalar konfessiyalar va e'tiqod qiluvchilar huquqlarining kafili bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda tarkib topgan davlat va din o'rtasidagi munosabat o'z mohiyati, mazmuni va huquqiy asoslariga ko'ra separatsion modelga, ya'ni davlatdan din, umumta'lim maktablaridan diniy ta'limning ajratilganligi va vijdon erkinligi, konfessional bag'rikenglik ta'minlanganligiga asoslanadi.

O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, mamlaktimizda din davlatdan alohida bo'lib, bu haqda mamlakatimiz Konstitutsiyasining 61-moddasida Shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi».

Bu g'oya «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida ham mustahkamlangan bo'lib, unda ham dinning davlatdan ajratilganligi, hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan. Bu esa mamlakatimizda davlatning diniy ishlariga, dinning esa davlat ishlariga (qonun hujjatlarida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno, albatta) aralashmasligini anglatadi.

Buning zahirida davlat tomonidan turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va dinga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, Shu kabi tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashishi, ular o'rtasida vujudga keliishi mumkin bo'lgan qarama-qarshilik va keskinliklarning oldini olishi, diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlashi, diniy tashkilotlar zimmasiga davlat o'zining hech qanday vazifasini bajariшни yuklamasligi, ularning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmasligi kabilar yotadi.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi demokratik prinsiplarga sodiqligini ifodasi sifatda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatda quyidagi prinsiplarga amal qiliShini e'lon qildi:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qiliSh;
- diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy iShi deb tan oliSh;
- diniy qaraShlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlaSh hamda ularni ta'qib qiliShga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklaniSh, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptiriSh iShida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalaniSh uchun ular bilan muloqot qiliSh yo'llarini izlaSh zarurati;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalaniShga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, xulosa qiliSh mumkinki, biz Yuqorida tahlil etgan davlat va din o'rtasidagi munosabatning uch modeli davlat va din o'rtasidagi munosabatning turli-tuman qirralarini jihatlarini va xossalarini to'raligicha qamrab ololmaydi. Davlat va din o'rtasidagi munosabatning bir modelida boShqa model elementlari ham uchrab qoliShi mumkin. SHu jihatlarini hisobga olgan holda aytiSh mumkinki, davlat va din o'rtasidagi munosabatning qaysi modelda bo'liShi Shu davlatning taraqqiyoti, undagi aholining mentaliteti, dinning xususiyati, mamlakatdagi demokratik vaziyat, inson huquqlarining ta'minlanganligi, xalqaro ahvol, jamiyatning onggi kabi omillar ta'sir etishi Shubhasizdir.

O'zbekistonda vijdon erkinligini ta'minlaniShi. Vijdon erkinligi tabiiy huquq va erkinliklar sirasiga kiruvchi, har bir Shaxsning ajralmas huquqlaridan biridir. Shaxsning tabiiy huquqlari davlatning insonga bergan «tuhfasi» emas, balki insonning munosib turmuSh va hayot tarzini tanlaSh bilan bog'liq real imkoniyati hisoblanadi.

Shu bilan birga, tabiiy huquqlar jumlasiga kiruvchi erkinliklarni qonun chiqaruvchi o'zi xohlaganda qisqartiriShi yoki cheklaShga ham haqli emas. CHunki bu huquqlar insonlarga tabiatan (Xudo tomonidan) berilgan in'om sanaladi. Vijdon erkinligi ham xuddi Shunday.

Vijdon erkinligi insonning asosiy erkinliklaridan bo'lsa-da, qonunda o'z ifodasini topib, muhofaza ostiga olingandagina chin ma'noda huquq darajasiga ko'tariladi. Aks holda Shaxsning qalb kechinmalarini ifodalovchi bu huquq haqiqiy ma'nosini yo'qotadi.

Bu erkinlik deyarli barcha davlatlarning konstitutsiya va qonunlarida, Shuningdek, qator xalqaro hujjatlarda huquqiy jihatdan himoyaga olingan.

Atama sifatida «vijdon» soʻzi koʻp maʼnoni anglatadi. Bu atama turli soha va ijtimoiy qatlamga mansub insonlar tomonidan turlicha qoʻllaniladi. A.Madvaliev tahriri ostida naShr etilgan «Oʻzbek tilining izohli lugʻati»da «vijdon» soʻziga quyidagicha taʼrif berilgan:

«Vijdon» (*arab.* ehtiros, his-tuygʻu, insof, diyonat) kiShining oʻz xatti-harakati, qilmiShi, YuriSh-turiShi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi masʼuliyat hissi, insoniylikning asosiy belgilaridan biri; diyonat, insof», deya izoh berilgan. Bundan koʻrinib turibdiki, vijdon soʻzining birinchi maʼnosi insoning oʻz xatti-harakatlari uchun oʻzgalar oldidagi masʼuliyat hissi hisoblanar ekan.

Aslida olib qaraganda «vijdon» soʻzi koʻp maʼnoli boʻlgani bois uning huquq atamaShunosligida iShlatiliShi unchalik ham ijobiy hol emas. CHunki «Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida»gi Qonun talablariga koʻra qonun hujjatlarida foydalaniladigan tuShuncha va atamalar turlicha izohlaSh imkoniyatini istisno etishi lozim. SHuningdek, qonunda eskirgan hamda koʻp maʼnoni anglatadigan soʻzlar va iboralar, majoziy taqqoslaShlar, sifatlaShlar, kinoyalar qoʻllaniliShi mumkin emas. Lekin bu atama endi qonunchiligimizga kirib boʻldi. Uni foydalaniShdan chiqarib, yangi soʻz ixtiro qilgandan koʻra, atamaning mazmun-mohiyatini keng ommaga tuShuntiriSh, izohlab beriSh maqsadga muvofiq.

Shunday ekan, vijdon erkinligining birinchi maʼnosi aynan Shaxsning eʼtiqodi bilan bogʻliq huquqi sifatida qabul qilgan holda Shu mazmunni yoritishga harakat qilamiz.

Huquqiy mezonda vijdon tuShunchasi «vijdon erkinligi» Shaklida keladi. Oʻzbekistonning asosiy qomusi – Konstitutsiyada taʼkidlanishicha «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga eʼtiqod qiliSh yoki hech qaysi dinga eʼtiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qaraShlarni majburan singdiriShga yoʻl qoʻyilmaydi» (31-modda), degan qoida mustahkamlangan.

Bu qoidaga koʻra «vijdon erkinligi» degan tuShunchaning mazmun-mohiyati Shaxsning xohlagan dinga eʼtiqod qiliShi bilan birga, hech qanday dinga eʼtiqod qilmaslik ixtiyorini ham qamrab oladi. Bu modda soʻngida « diniy qaraShlarni majburan singdiriShga yoʻl qoʻyilmaydi», degan muhim qoida asosida, har bir inson haqli boʻlgan huquqning buzilmasligi uchun qonuniy zamin tayyorlangan. Buning zahirida vijdon erkinligiga nisbatan har qanday tahdidni bartaraf etish istagi yotadi.

Shunday qilib, Konstitutsiyamizdagi norma asosida vijdon erkinligi uch jihatni anglatadigan huquqiy kategoriya sifatida namoyon boʻladi:

- Muayyan Shaxs Xudoga iShoniShi, xohlagan diniga eʼtiqod qiliShi mumkin;
- Xudoga va dinga iShonmasligi, ularga nisbatan betaraf boʻliShi mumkin.
- Dahriy, yaʼni hech bir dinga eʼtiqod qilmaygina qolmasdan, balki ularni inkor etishi mumkin.

Bu vijdon erkinligi huquqi aynan Shu masalalar bilan cheklanadi degani emas. Odatda, konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lib, yoritiladigan normaning umumiy jihatlarini o'zida qamrab oladi. Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlarida norma kengroq yoritiladi va Sharhlanadi. Konstitutsiyadagi 31-modda zahirida qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasi birinchi va ikkinchi banlarida bu tuShuncha kengroq ochib berilgan. Unda aytilishicha, «Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qiliSh yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qiliShga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qiliShda, diniy rasm-rusmlar va marosimlarda qatnashiSh yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi».

Demak, vijdon erkinligi faqat Xudoga iShoniSh yoki iShonmaslikdan taShqari, ibodat qiliSh, diniy rasm-rusmlar va marosimlarda iShtirok etish erkini, Shuningdek, diniy ta'lim olish yoki olmaslikni o'z ixtiyori asosida belgilash huquqlarini ham o'z ichiga oladi. SHu o'rinda maslanning ikkinchi jihatini ham e'tiborga olish zarur, ya'ni O'zbekistonda diniy ta'lim maktab ta'limidan ajratilgan. SHuningdek, O'zbekiston qonunchiligida xususiy tartibdagi diniy ta'lim taqiqlanadi. SHunday ekan, diniy ta'lim maxsus vakolatga ega bo'lgan diniy ta'lim muassasalarida o'rganiladi.

Shaxs dinga nomigagina iShoniShi yoki xudojo'y bo'lishi, but va sanamlar yoki jonivorlarga sig'inishi, dinsiz dahriy yoki butunlay dinga qarshi inson ham bo'lishi mumkin. Ammo Shaxsning bu kabi qarashlari uni ayblash yoki tahqirlash uchun asos bo'lmaydi. Bu vijdon erkinligi huquqi asosida kafolatlangan imtiyoz hisoblanadi. Kimning qanday e'tiqodga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi uning vijdoniga havola etiladi. Lekin havola etilayotgan e'tiqod qonunga xilof bo'lmasligi shart. Ya'ni e'tiqod qilaman deb taqiqlangan diniy tashkilotlarga e'zo bo'lishi yoki ularning g'oyalarini targ'ib qiliShi qonunga xilof sanaladi. SHu bilan birga, bir Shaxs boShqa Shaxsni e'tiqodiy qarashlaridan kelib chiqib tahqirlashi ham taqiqlanadi. O'z navbatida, bunday xatti-harakat javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ba'zi huquqiy adabiyotlarda «vijdon erkinligi» o'rnida «e'tiqod erkinligi» tuShunchasini ham uchratish mumkin. Aslida «e'tiqod» (arabcha «i'taqada» fe'lidan) so'zi ham ko'p ma'noli so'zlar jumlasiga kirib, iShonch, imonli bo'lish, ko'ngilda tasdiqlash kabi bir necha ma'nolarga ega. Biz uchun kerakli bo'lgan ma'nosiga keladigan bo'lsak, Xudoga yoki umuman g'ayritabiiy kuchlarga imon keltirishni anglatadi.

E'tiqod erkinligi ham vijdon erkinligi singari Shaxsning biror dinni ixtiyor etib, unga e'tiqod qiliShi huquqini anglatadi. Lekin bu huquq vijdon erkinligi

qoidalari ruxsat beradigan dahriy bo'lish huquqini kafolatlamaydi. SHu kabi farqlar sababli ayrim davlatlar qonunchiligida (musulmon arab davlatlarida) vijdon erkinligi emas, e'tiqod erkinligi kafolatlangan. SHunga asosan agar inson amal qilib turgan dinidan chiqadigan bo'lsa, ayrim hollarda qonuniy jazo sanksiyalarining qo'llanilishi ham e'tiqod erkinligining o'ziga xos xususiyatini ko'rsatadi.

Shunga ko'ra, aytiSh mumkinki, vijdon erkinligi e'tiqod erkinligidan kengroq tuShuncha hisoblanadi.

Vijdon erkinligi tuShunchasi xalqaro huquqiy hujjatlarda ham atroflicha bayon etilgan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasida Shaxsning vijdon erkinligi huquqi kafolatlangan. Unda aytilishicha, «Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirishi erkinligini va ta'limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, Shuningdek, boShqalar bilan birga amal qilishi erkinligini o'z ichiga oladi».

Mazkur normaga ko'ra vijdon erkinligi Shaxsga quyidagi huquqlarni kafolatlaydi:

- Shaxsning o'z dini yoki e'tiqodiga ega bo'lish;
- Shaxsning o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirishi;
- ta'limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish;
- o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, Shuningdek, boShqalar bilan birga amal qilishi.

Bundan taShqari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 19-moddasida ham vijdon erkinligiga ayni Shu mazmunda izoh berilgan.

Shu o'rinda bir masalaga alohida e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Vijdon erkinligi Shaxsning o'z dini va e'tiqodini o'zgartirishi huquqini kafolatlashi aniq. Lekin bunday o'zgartirishi boShqa Shaxsning ta'sirida bo'lmasligi shart. Aks holda, bu qonunchiligimizda taqiqlangan missionerlikning bir ko'rinishiga aylanib qolishi mumkin.

Xulosa qilib aytiSh mumkinki, vijdon erkinligi Shaxsning konstitutsiyaviy tabiiy huquqi bo'lib, davlat bu erkinlikni huquqiy kafolatlash va amalda ta'minlash tadbirlarini ro'yobga chiqarishi bilan bir qatorda, uni poymol etishga nisbatan har qanday tahdidning oldini olishga ham intiladi. Qonun ustuvorligi eng oliy mezon bo'lgan fuqarolik jamiyatining har bir a'zosi uShbu qonuniy talabga to'g'ri munosabatda bo'lib, uning hayotga tatbiq etilishiga hissa qo'shishi lozim. Chunki eng muhim konstitutsiyaviy huquqlardan bo'lgan vijdon erkinligi huquqining amalda ro'yobga chiqarilishi fuqarolik jamiyatining ma'naviy-madaniy rivojlanganlik darajasining ham muhim ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar. Inson va fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini amalga oshirishlarida diniy tashkilotlarning muhim o'rni bor. Davlat bilan din o'rtasidagi munosabatlarda sub'ekt sifatida bir tomondan e'tiqod qiluvchilar, ya'ni fuqarolar, ikkinchi tomondan davlat va uchinchi tomondan diniy tashkilotlar qatnashadi.

O'zbekiston dunyoviy xarakterdagi davlat va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lishiga qaramay, ularni jamiyatdan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Shu sababli davlat diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyatini qo'llab quvvatlaydi, jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini tiklashi va rivojlanishida diniy tashkilotlar ko'magiga tayanadi, ya'ni O'zbekistonda din davlatdan ajratilgan bo'lsada, jamiyatning ajralmas bo'lagi hisoblanadi.

Bugungi kunda din bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi fuqarolar va davlatning o'rni va ahamiyati birmuncha oydin bo'lsa-da, diniy tashkilotlar haqida, ularning maqomi va vazifalari, faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'lish vijdon erkinligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarning yanada o'rtaShiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunining 8-moddasi diniy tashkilotlarga bag'ishlangan bo'lib, unda aytilishicha, «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi».

Diniy tashkilotga berilgan bu kabi ta'rif boshqa davlatlar qonunchiligida ham uchraydi. Jumladan, Armaniston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunida «Diniy tashkilot – bu fuqarolarning dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (cherkovlar, diniy jamiyatlar, eparxiyalar, monastirlar, diniy kongregatsiyalar, diniy o'quv yurtlari, nashriyotlar) dir» deya ta'rif berilgan.

Rossiya Federatsiyasining «Vijdon erkinligi va diniy birlashmalar to'g'risida»gi federal Qonunining 8-moddasi 1-bandida: «Rossiya Federatsiyasi fuqarolari, Rossiya Federatsiyasi hududida doimiy va qonuniy asoslarda istiqomat qiladigan boshqa shaxslarning dinga birgalikda e'tiqod qilish va tarqatish maqsadlarida tuzilgan va Yuridik shaxs sifatida qonun bilan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan ko'ngilli birlashmalari», diniy tashkilot deb e'tirof etiladi.

Demak, diniy tashkilot tushunchasiga berilgan ta'riflar o'rtasida muhtarak jihatlar mavjud. Umuman olib qaraganda diniy tashkilot inson va fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini amalga oshirishlariga ko'maklashuvchi notijorat ko'ngilli tashkilot hisoblanadi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritadigan barcha diniy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuniga va amaldagi boShqa qonunchilik hujjatlariga asosan tashkil etiladi va faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuniga asosan diniy tashkilotlar faoliyati fuqarolarning *dinga e'tiqod qiliSh, ibodat qiliSh, diniy rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etishlariga ko'maklaShiSh*ni maqsad qiladi.

Qonunchilikda diniy tashkilotlarning bir necha turlari e'tirof etiladi. Unga ko'ra, *diniy jamiyatlar, diniy o'quv Yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar* va boShqa tashkilotlarga diniy tashkilot maqomi beriladi.

Diniy tashkilot huquqiy jihatdan e'tirof etiliShi uchun, avvalo, u qonuniy asoslarga ega bo'liShi lozim. Respublikamizda tuziladigan diniy tashkilotlar ustav (nizom)i O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki uning joylardagi organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng, Yuridik Shaxs maqomiga ega bo'lib, qonunchilikda belgilangan tartibda o'z faoliyatini olib boriShi mumkin.

Respublikamizning «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi» Qonuni va «O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkaziSh tartibi to'g'risida» Vazirlar Mahkamasi qarori asosida diniy tashkilot tuziSh uchun to'rtta muhim shartga amal qilish kerak. Unga ko'ra diniy tashkilot tuzish uchun tashabbuskorlar:

- 18 yoshga to'lgan bo'lishlari lozim. Bu holat deyarli barcha davlatlarning qonunchiligida mustahkamlangan qoida bo'lib, Shaxs 18 yoShga to'lgach o'z xatti-harakatining mazmun-mohiyatini to'liq anglab etadi va sudda da'vogar va javobgar bo'liSh huquqiga ega bo'ladi.

- O'zbekistonda muqim yaShayotgan bo'lishlari lozim. Diniy tashkilotda o'tkaziladigan ibodat va rasm-rusmlar asosan Shu hududda muqim yaShovchi insonlarga mo'ljallanadi. Bundan taShqari xorijda yaShovchi insonning boShqa mamlakatda tashkil etiladigan diniy tashkilotni tuziShdan ko'zlangan maqsadi har doim ham ezgu bo'lavermaydi. Bunga yaqin o'tmiShimizda ayrim diniy ekstremistik oqimlar tomonidan sodir etilgan jinoiy xatti-harakatlar misolida ham ko'riSh mumkin.

- O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lishlari kerak.

- Bu esa, mamlakatimizdagi diniy tashkilotlar Shaxsning millati, dinidan qat'i nazar faqat O'zbekiston xalqi tomonidan tuziliShi mumkin ekanini anglatadi. Lekin diniy tashkilotga a'zo bo'liShda Shaxsning biror davlatning fuqarosi bo'liSh-bo'lmasligining unchalik ahamiyati yo'q. CHunki, diniy tashkilotga a'zo bo'liSh vijdon erkinligining tarkibiy qismi bo'lib, har bir Shaxs bu huquqdan foydalaniShga haqlidir.

- Son jihatdan 100 nafardan kam bo'lasliklari Shart qilinadi.
- Respublikamizning dastlabki tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi» Qonunining 13-moddasida diniy tashkilot kamida o'n kishidan iborat o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolar taShabbusi bilan tuzilishi qayd etilgan edi. Diniy tashkilotlar jamoat birlashmalaridan ayrim jihatlarida farq qiladi va mas'uliyati ham kattaroq. SHu bilan birga qonunchilikda belgilangan qoidalar jamiyat rivoji va zamon talabi bilan o'zgariShi muqarrar.

Dunyo davlatlarining vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchiligiga e'tibor qaratilsa, diniy tashkilot tuzilish uchun zarur bo'lgan taShabbuskorlarga qo'yilgan minimal miqdor turlicha ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'istonda 10 nafar, Polsha, Litvada 15, Latviyada 25, Vengriyada 100, Armaniston va Qirg'izistonda 200, CHexiyada 300, Turkmanistonda 500 nafardan iborat fuqarolar taShabbusi bilangina diniy tashkilot tuziladi. Bu esa, diniy tashkilot tuzilish borasidagi qoidalar har bir davlatning o'z Shart-Sharoitidan kelib chiqqan holda belgilanishini ko'rsatadi.

Diniy tashkilot tuzilib, ustav (nizom)i qabul qilingach, u bir oylik muddatda Adliya vazirligi yoki uning hududiy boShqarmalarida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. «O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilish tartibi to'g'risida»gi Qaror asosida diniy tashkilotlar ro'yxatdan o'tilish uchun tegishli hujjatlarni adliya organlariga taqdim etadilar. Taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar tuzilgan diniy tashkilotning qonuniyligini o'rganiShga xizmat qiladi.

Adliya organlari bir oylik muddatda ro'yxatdan o'tkazilish bo'yicha arizani ko'rib chiqadi va tashkilot ustavini ro'yxatdan o'tkazilish, ro'yxatdan o'tkazilishni rad etish yoki arizani inobatsiz qoldirish haqidagi qarorni qabul qiladi.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi» Qonunga ko'ra ro'yxatdan o'tgan va tegishli konfessiyaga qaraShli diniy tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va yo'naltirib borish uchun ularning O'zbekiston bo'yicha yagona *markaziy boshqaruv organlari* tuzilishi mumkin.

Markaziy boShqaruv organi Respublikaning kamida sakkizta hududiy tuzilmasida (viloyat, Toshkent Shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi) faoliyat ko'rsatayotgan, tegishli konfessiyalarning diniy tashkilotlari vakillari ta'sis yig'iliShi tomonidan tuziladi.

YUqorida aytib o'tilganidek, Markaziy boShqaruv organining asosiy vazifasi o'z konfessiyasiga tegishli bir nechta diniy tashkilotlarning faoliyatini, dinga e'tiqod qilish, ibodat qilish, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish, diniy ta'lim berish, dinni targ'ib etish borasidagi maqsad va vazifalarini, harakat dasturlarini muvofiqlashtirish va yo'naltirib borishdan iborat.

Respublikamizda davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar

to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qiliSh vazifasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din iShlari bo'yicha qo'mita zimmasiga yuklangan.

Qo'mita har bir Shaxsning vijdon va diniy e'tiqod erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar tengligini ta'minlaSh, Shuningdek diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soliSh sohasidagi vazifalarni hal etish vakolati berilgan davlat boShqaruvi organi hisoblanadi. U mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq diniy masalalarni hal qiliShda yagona siyosatni amalga oShiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Adliya organlaridan rasman ro'yxatdan o'tgan 16 ta diniy konfessiya (Islom, Rus pravoslav cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Nemis-IYuteran cherkovi, Arman-apostol cherkovi, To'liq injil xristianlari, Evangel-xristian baptistlar cherkovi, Novoapostol cherkovi, Ettinchi kun adventistlari, «Golos bojiy», Iegovo Shohidlari, Koreys protestant cherkovlari, Yahudiylik, Bahoiylik, KriShnani anglaSh jamiyati, Buddaviylik) faoliyat olib bormoqda. Ularning jamiyat hayotida birdek iShtirok etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratib berilgan.

Diniy tashkilotlarni vijdon erkinligini ta'minlaShdagi o'rni va ahamiyatini hisobga olib davlat tomonidan ularga bir qator imtiyozlar ham belgilangan. Jumladan, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunning 16-moddasida diniy tashkilotlar muayyan miqdorda davlat mulkidan foydalaniShlari mumkin ekani ko'rsatilgan. SHunga ko'ra, diniy tashkilotlar o'z ehtiyojlari uchun davlat organlari tomonidan Shartnoma asosida beriladigan binolar va mol-mulkdan foydalaniShga haqlidir. Bu esa tegiShli hokimiyat organlari ruxsati bilan amalga oShiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qiliSh va ulardan foydalaniSh to'g'risida»gi qonunining 27-moddasiga muvofiq tarixiy va madaniy yodgorliklar ob'ektlari va buYumlar diniy tashkilotlarga tekin foydalaniSh Shartnomasi Shartlarida berib qo'yiliShi ko'zda tutilgan.

Bundan taShqari, Vazirlar Mahkamasining «Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim iShlarini va faoliyatni takomillaShtiriShda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar beriSh to'g'risida»gi Qarorini bir so'z bilan diniy tashkilotlarga nisbatan belgilangan sanatsiya deb ataSh mumkin. CHunki, bu Qaror diniy tashkilotlarga kommunal xizmatlar uchun olinadigan to'lovlarni Yuridik Shaxs sifatida emas, balki jismoniy Shaxslardan olinadigan miqdorda to'laSh huquqini berdi.

Kommunal xizmat to'lovlaridagi farq tufayli Yuzaga kelgan tuShumlar va ziyoratgohlardan tuShadigan xayriya mablag'larini O'zbekiston musulmonlari idorasi tizimidagi masjidlarini ta'mirlaSh, diniy ta'lim muassasalarining o'quv va

moddiy-texnik bazasini mustahkamlaSh, o'qituvchi-mudarris va imom-xatiblarning mehnatini rag'batlantiriSh iShlariga sarflaSh belgilab qo'yildi.

Diniy tashkilotlarga hukumat darajasida bu kabi ijtimoiy yordamlarning beriliShini ham davlatning vijdon erkinligini ta'minlaSh va diniy konfessiyalarni rivojlaniShiga qaratilgan chora-tadbirlarining amaliy ifodasi sifatida baholaSh mumkin.

Shunday qilib, O'zbekistonda barcha Shaxslarning vijdon va e'tiqod erkinligi huquqini ta'minlaShga xizmat qiluvchi diniy tashkilotlarning hech bir to'siqlarsiz, qonunda belgilangan tartib va asoslarda faoliyat olib boriShlari uchun tegiShli huquqiy asos va tashkiliy Shakllar ta'minlangan. Bu holat davlatimizning dunyoviy demokratik davlat sifatida rivojlanayotgani hamda diniy bag'rikenglik tamoyillariga sodiq ekanini ko'rsatadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Vijdon erkinligi nima va uning e'tiqod erkinligidan qanday farqlari mavjud?
2. Diniy tashkilot nima va uning boShqa jamaot tashkilotlaridan qanday farqlari bor?
3. Davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soliShning qanday metodlarini bilasiz?
4. O'zbekistonda davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o'zaro munosabatlari qanday.
5. O'zbekistonda din davlatdan ajratiliShining o'ziga xos jihatlarini sanang.

15-Mavzu: Diniy mutassiblik va dindorlik

Reja:

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati.
2. Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari.
3. Islom niqobidagi ekstremizmning g'oyaviy ildizlari.
4. O'zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini oliShning huquqiy asoslari.

Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati. Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. SHunday ekan, uning oldini oliSh va unga qarShi kuraShiSh insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi.

Ekstremizm (lotincha – «aql bovar qilmas darajada», «haddan oShiSh») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qaraShlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus beriSh esa, diniy ekstremizmga olib keladi.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qiliShga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Ekstremistik qaraShlarni barcha dinlarda, buddaviylik, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchратиSh mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr Yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kiShilar – papa hokimiyati duShmanlarini ta'qib qiliSh uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo'liShiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o'ziga xos ko'riniShi sifatida baholaydilar. Ammo hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a'zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Fundamentalizm – (lotincha – «asos») tuShunchasining ma'nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko'riniShini anglatadi.

Diniy fundamentalizm – «ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytiSh va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qiliSh mumkin», degan fikrni ilgari suriSh ta'limotini anglatadi. Istilohda aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, muayyan diniy e'tiqod ShakllaniShining boShlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy va og'iShmay bajariliShini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalaShda qo'llaniladi.

«Fundamentalizm» atamasi aslida xristian dini bilan bog'liqdir. Fundamentalizm iborasi birinchi bor I Jahon uruShi arafasida vujudga kelgan protestantlikdagi ortodoksal oqimlarni ifodalaSh uchun iShlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin Shu nom bilan atala boShlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga iShoniShni mustahkamlaSh, uni so'zma-so'z SharhlaShga qat'iy rioya qiliShni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib ketdi. 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

XX asrning 70-yillaridan boShlab, bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boShladi. Bunda «fundamentalizm» atamasi – Qur'on va hadislarni so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytiShga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhda yo'naliShga nisbatan iShlatildi. Buning natijasida jahon matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarni «fundamentalistlar» deb ataSh ham odat tusiga kirdi.

Shunday ekan, ekstremizm yoki fundamentalizmni faqat muayyan din bilan bog'laSh mutlaqo asossiz. Xususan, islom dini, u bilan bog'liq turmuSh tarzi va qadriyatlar majmui hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go'yo din va musulmon

jamoasi ravnaqi yo'lida amalga oShirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaraliShi mumkin emas.

Islom Shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi Yuqoridagi kabi go'yoki, keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko'rsatiSh, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni Yuzaga keltiriSh uchun mablag' yig'iSh, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ongini egallaSh, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqariSh orqali hokimiyatga eriShiShdek ehtiyojlarini qondiriSh maqsadini ko'zlaydi.

Hozirgi davrda ko'plab ekstremistik uYuShmalar va mutaassib harakatlar turli dinlar, Shu jumladan, islom, xristianlik, Yahudiylik dinlarini niqob qilib olgan holda faoliyat Yuritayotganlarini ko'riSh mumkin.

Aqidaparastlik (arab. – «aqida» – «iShonch», «biror narsani ikkinchisiga bog'laSh») muayyan Sharoitda, biron-bir g'oyaga qat'iy iShonib, uni mutlaqlaShtiriSh asosida Shakllangan qoida va tartiblarni Sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llaSh yoki Shunga uriniShni anglatadi. U muayyan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy kengaytiriShga uriniShda yorqin namoyon bo'ladi.

Mutaassiblik (arab. – «g'uluv ketish», «chuqur ketish») o'z fikr-mulohaza va dunyoqaraShi to'g'riligiga o'ta qattiq iShonib, boShqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'liShni anglatadi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'naliShlar orasida keskin nizo va to'qnaShuvlar kelib chiqiShiga sabab bo'lgan.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tuShunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy mutaassiblik g'oyalarning tarqaliShiga sabab bo'liShi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihati dinni siyosiylaShtiriSh vositasida hokimiyatga intiliSh, dindan odamlar orasiga nifoq soliSh, qo'poruvchilik iShlarini amalga oShiriSh va g'arazli manfaatlarni ro'yobga chiqariShda foydalaniShga uriniShlarda namoyon bo'lmoqda.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqiShining birinchi va asosiysi sababi bu – mutaassib fikr va qaraShlarning paydo bo'liShidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. SHu o'rin qayd etish joizki, ko'p manbalarda «aqidaparastlik» so'zi hozirgi voqelikdan kelib chiqib «mutaassiblik» so'zi bilan almaShtirilgan holda istefoda etilmoqda.

Mutaassiblik va g'uluv Qur'oni karimda muhokama qilingan mavzulardan hisoblanib, uning har qanday ko'riniShi qat'iy rad etilgan. Jumladan, «Moida» surasida Shunday deyiladi:

«Ey, imon keltirganlar! Sizlar uchun Alloh halol qilib qo'ygan narsalarni haromga chiqarmangiz va haddan oShmangiz! Zero, Alloh haddan oShuvchilarni yoqtirmaydi» (*Moida*, 87).

Payg'ambarimiz (alayhis-salom) ham o'zlarining qator hadislarida diniy masalalarda haddan o'shganlar noto'g'ri yo'lda ekanini ko'p bor ta'kidlab, ularning aksariyati Allohning g'azabiga uchrab, halok bo'lganini aytib o'tganlar. Jumladan, Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisi Sharifda: *«Albatta, din osonlikdir. Kim dinda chuqur ketsa, u engiladi»*, deyilgan (Imom Buxoriy rivoyati). BoShqa bir hadisda esa, Rasululloh (alayhis-salom) *«Dinda chuqur ketadiganlar halok bo'ldi. Dinda chuqur ketadiganlar halok bo'ldi. Dinda chuqur ketadiganlar halok bo'ldi»*, (Imom Muslim rivoyati) deb uch bora takror aytganlarining o'zidan ham mutaassiblik va g'uluvning naqadar yomon illat ekanini ko'riShimiz mumkin.

2. Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari. Terrorizm (lotincha – «qo'rqitiSh», «vahimaga soliSh») – aholining keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otiSh, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqariSh orqali davlat hokimiyatini egallaSh maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir.

Terror – ommaviy va siyosiy maqsadlarga eriShiSh uchun zo'ravonlikdan hamda zo'ravonlik qiliSh bilan tahdid soliShdan muntazam foydalaniShdir. SHunday qilib, «terror» duShmanni jismoniy zo'ravonlik yo'li bilan qo'rqitiSh, hatto uni jismonan yo'q qiliShni anglatadi. «Terrorizm» esa terror amaliyotidir. Bu ikki tushunchani shu tarzda chegaralaSh maqbul bo'lsa, u holda terrordan kelib chiqqan terrorizm aslo yangi hodisa bo'lmay, bugungi kungacha asrlar qo'ynidan etib kelgan, deb hisoblaSh mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida «terrorizm»ga quyidagicha ta'rif berilgan: «Terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtiriSh, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur etkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtiriSh, aholini qo'rqitiSh maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy va yuridik shaxsni biron bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi bo'shqa qilinishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, ishlab turishini, moliyalashtirishni ta'minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga, bo'shqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat».

Yuqorida keltirilgan ta'riflarda terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati – uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalariga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aksado, shov-shuvga eriShishga qaratilgani ta'kidlangan. XX asrning 60-yillaridan bo'shlab, terrorizmning mojarolarni keltirib chiqaruvchi hodisa sifatidagi salohiyati,

butun-butun mintaqalar yo‘naliShi turlicha bo‘lgan terrorchi tashkilotlar va guruhlar faoliyat ko‘rsatgan joylarga aylanib qoldi. Buning natijasida, terrorchilik harakatining ko‘lamigina emas, balki metodlari ham o‘zgardi. Uning eng dahShatli ko‘rinishlaridan biri – o‘zini avvaldan o‘limga tayyorlagan terrorchi-kamikadzelar tomonidan amalga oShirilayotgan harakatlarni keltiriSh mumkin.

Musulmon mamlakatlarida terrorchi uYuShmalar ommaviy bo‘la olmagan uchun aholining keng qatlamlari nomidan harakat qiliSh taassurotini uyg‘otiSh maqsadida diniy Shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Demak, terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm Shaklini oldi.

«Xalqaro terrorizm» tuShunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlaShtiriShga qaratilgan siyosiy qo‘poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U og‘ir jinoyatlardan bo‘lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Xalqaro terrorizm fenomeni, ayniqsa, XX asr boShlarida avj ola boShladi, ya’ni xalqaro terrorizmga qarShi kuraShda davlatlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yiliShi o‘tgan asrning 30-yillaridan boShlangan. Masalan, 1934 yilda Madridda bo‘lib o‘tgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalaShtiriSh muammolariga bag‘iShlangan konferensiyada terrorizmning «Aholini dahShatga soliSh va har qanday ijtimoiy tashkillaShuvni yo‘q qiliSh maqsadida biror bir vositani qo‘llaSh» degan ma’nodagi ta’rifi qabul qiliniShiga eriShilgan. 1937 yilda 20dan ortiq davlat terrorizmning oldini oliSh va bunday harakatlar uchun jazolaSh haqidagi Konvensiyani imzoladi.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta’kidlaSh zarur. 1970-yillarda biror Shaxs yoki siyosiy arbobga qarShi uYuShtirilgan terror amaliyoti ko‘proq uchragan bo‘lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus va poezdlarda portlaShlarni sodir etish orqali ko‘plab tasodifiy kiShilarning qurbon bo‘liShiga olib keladigan qo‘poruvchilikni amalga oShiriShga e’tibor berilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo‘lganlardan ko‘ra, uning guvohlariga qaratilgan.

Xalqaro terrorchilik harakatlarining asosiy belgilari:

- xalqaro huquq himoyasidagi ob’ekt yoki sub’ektlarga qarShi qaratilgani;
- davlatlar chegaralarini buziSh orqali amalga oShiriliShi;
- a’zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, Shu jumladan, yollanma Shaxslar bo‘lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etiliShi;
- ekstremistik guruhlar tarkibida qo‘poruvchilik harakatlari bo‘yicha xorijlik yo‘riqchilarning qatnaShiShi;

– ekstremistik guruh a’zolarining boShqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko’riShi;

– tayyorgarlik ko’riSh va qo’poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uYuShmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog’ savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalaniliShi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo’liShi, unga xalqaro maqom beriliShi va Shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko’riliShiga olib keladi.

3. Islom niqobidagi ekstremizmning g’oyaviy ildizlari. Islom niqobi ostida paydo bo’lgan ekstremistik harakatlar tarixiga e’tibor beradigan bo’lsak, ularning ildizlari uzoq o’tmiShga, hatto islom tarixining birinchi asriga borib taqaliShini ko’riSh mumkin. Uning ilk vakillaridan biri sifatida 657 yili xalifa Ali (r.a.) askarlaridan ajralib chiqqan, o’zlarini haqiqiy musulmon, saflariga qo’Shilmaganlarni «dindan qaytgan» deb e’lon qilib, ularga qarShi murosasiz kuraSh olib borgan «xorijiyilar» (arabcha–ajralib chiqqanlar, isyonchilar) diniy-siyosiy oqimi faoliyati misol bo’la oladi.

Xorijiylik yo’naliShi va ta’limoti. Xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) (644-656) davriga kelib islom jamoasi ichida fitnalar paydo bo’ldi. Usmon (r.a.)ga uYuShtirilgan suiqasd (656 y.) ham ana Shu siyosiy kuraShlarning natijasi edi. Xalifa o’ldirilgach, uning o’rniga Ali ibn Abu Tolib (r.a.) (656-661) saylandi.

657 yil (37 hijriy)da SHomning (Suriya) Shimoli-Sharqida joylaShgan Siffin mavzesida xalifa Ali (r.a.) qo’Shini bilan u erning hokimi Muoviya (r.a.) qo’Shini o’rtasida «Jamal voqeasi»dan bir oy o’tib, to’qnaShuv sodir bo’lgan. UShbu to’qnaShuv 656 yil uchinchi xalifa Usmonning (r.a.) o’ldiriliShi munosabati bilan Ali (r.a.) va Muoviya (r.a.) tarafdorlari o’rtasidagi keskin qarama-qarShiliklar sabab bo’ldi. Marhum xalifaning yaqin qarindoshi bo’lgan Muoviya (r.a.) xalifalik taxtini egallagan Ali (r.a.)dan aybdor jinoyatchilarni jazolaShni talab qilib, Shundan so’nggina Ali (r.a.)ga bay’at qiliShni ma’lum qildi. Jang to’qqiz kun davom etdi. Ali (r.a.)ning qo’li baland kelib turganda, Muoviya (r.a.) tarafdorlari hiyla iShlatdilar. Ular Amr ibn Oss (r.a.) ko’rsatmasi bilan katta nayzalar uchiga yangi ko’chirilgan MuShaf varaqlarini ilib, Qur’on bilan hukm chiqariShni talab qildilar. Muoviya (r.a.)ning janjalni sulh orqali hal qiliSh haqidagi taklifini Ali (r.a.) qabul qilgach, jang to’xtatildi. Ali va Muoviya (r.a.)lar o’rtasida hijriy 37 yil safar oyining 15 kuni (mil. 657 yil 8 sentyabr)da sulh tuzildi. Mazkur «Siffin» jangi musulmonlar uchun juda katta yo’qotiSh bo’ldi. Unda hammasi bo’lib to’qson ming musulmon halok bo’ldi. Aynan «Jamal» va «Siffin» janglari musulmonlar o’rtasida dastlabki bo’liniShlar va turli fiqaralar kelib chiqiShiga sabab bo’ldi. Ahli sunna va-l-jamoa e’tiqodiga ko’ra, sahobiyalar orasida Yuz bergan bu vaziyatlarda ular ayblanmay, ularning bari haqni izlagan mujtahidlar hisoblanadilar. Umumiy qoidaga asoslanib,

ulardan qaysi birlari to'g'ri ijti'od qilgan bo'lsalar, ikki ajr, xato ijti'od qilgan tarafga esa bir ajr beriladi.

Xalifa Ali (r.a.) bilan Muoviya (r.a.) o'rtasidagi tuzilgan bitimdan Kufa yaqinida turgan 12 ming kishidan iborat qo'shinning bir qismi norozi bo'ldi. Ular «hukm chiqarish faqat Allohning iznidadir», degan shior bilan qo'shinni tark etib, Kufa yaqinidagi Harura qishlog'iga ketdilar. Bu firqaning Kufadagi «xypj» (bo'ysunmaslik) voqeasi ularning «xavorij» (qarshi chiquvchilar) nomini olishlariga sabab bo'ldi. Bu voqea Harura qishlog'ida Yuz berganligi bois avvaliga ularni «haruriylar» deb ham ataganlar. Ular o'zlarini «shurot» (Jonlarini Alloh yo'lida tikkan kishilar) deb nomlaganlar. Yana ularning «Muhakkima» («hukm Allohning iznida» deguvchilar) degan nomlari ham bo'lgan.

Xorijiyalar o'zlariga Abdulloh ibn Vahb ar-Rosibiyi amir etib saylab, Ali (r.a.) va Muoviya (r.a.)ni yo'q qiliSh payiga tushdilar. Xalifa Ali (r.a.)ni 661 yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o'ldirgach, xorijiyalar ikki firqaga bo'linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xorijiyalarga qarshi keskin kuraSh olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xorijiyalar kuchayib, Kirmon, Fors, Yamoma, Hadramavt, Toif va Yaman kabi Shahar va o'lkalarni egalladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749-1258) qo'lga o'tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o'z kuchini yo'qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kuraShlaridan so'ngina xorijiyalar inqirozga Yuz tutdi.

Demak, islomda dastlab paydo bo'lgan firqa «xorijiyalar»dir. «Xorijiyalar» o'z talqinlaridagi «sof» islom qoidalariga qat'iy rioya qiliSh tarafdori edi. Aynan ular o'z qarashlari va faoliyatiga qo'shilmaganlarni imonsizga chiqarish, ularga qarshi «jihod» olib boriSh haqidagi g'oyalarni ishlab chiqib, terror uslubini qo'llash orqali hukmdorlarni jismonan yo'q qiliSh amaliyotini boshlab bergan edi. Bunday g'oyalar kelib chiqishiga ko'ra hokimiyat uchun kuraShning zo'ravonlikka asoslangan usullaridan bo'lib, minglab kishilarning halok bo'lishiga olib kelgan. O'z davrida ular bilan bahs munozara qiliSh, ularning fikrlariga raddiya beriSh, to'g'ri yo'l ko'rsatiSh maqsadida mashhur sahobiy Abdulloh ibn Abbos (r.a.) ularning huzuriga jo'natilgan edi. Abdulloh ibn Abbos asosan ularning «Allohning hukmi» borasidagi xato qarashlariga raddiya bergan. Natijada jami olti minglik xorijiyalardan ikki ming nafari noto'g'ri yo'lida ekanliklarini anglagan holda undan qaytganlar.

VII asrning ikkinchi yarmida xorijiyalar orasida rahbarlarining ismi bilan ataladigan bir necha firqalar paydo bo'ldi. Ana shunday mutaassib firqalar orasida eng murosasiz va shafqatsiz jamoa nomini olgan Nofi' ibn Azraq (v.685y.) boshchiligidagi «Azraqiyalar» oqimi alohida o'rin egallaydi. Azraqiyalar gunohi

kabira (katta gunoh) qilgan barcha musulmonlarni «kofir» deb, ularning ta'limotiga qo'shilmagan kishilarga qarshi jihod e'lon qiliSh, hattoki, qariya, ayol va bolalarning qonini to'kishi halol, deb bilganlar.

IX asr oxirida Janubiy Iroqda Yuzaga kelgan qarmatiylar namoz, ro'za, zakot, haj kabi amallar farz qilinmagani, Qur'on oyatlarida masjid quriSh yoki u erda yig'iliSh haqida hukmlar yo'q, degan da'vo bilan masjidlarga boriShni man qiliSh darajasigacha borgan edi. Harakat o'z nomini uning asoschisi Hamdon ibn ASh'asning laqabi Qarmat so'zidan olgan bo'lib, uning ma'nosi manbalarda turlicha «kalta oyoq» yoki «qizil ko'z» kabi ma'nolarda ifodalangan. Islomdagi mavjud qoida va tartiblarning mohiyatini buzib talqin qiliSh oqibatida ular hattoki, hajga keluvchilar Ka'baga sig'inib, Allohga Shirk keltiriShmoqda, degan da'volar ostida 930 yilda Makkaga hujum qilib, uni talon-taroj qilib, hojilarning bir qismini qul qiliShgan, bir qismini esa o'ldiriShgan. Ka'bani vayron qilib, qora toShni ikkiga bo'lib, Bahraynga olib ketishgan, faqat 20 yildan keyin katta to'lov evaziga u Makkaga qaytarib berilgan. Qarmatiylar islom tarixida o'chmas dog' qoldirgan jinoyatlarni sodir etgan.

XI asr oxirida Eronda Yuzaga kelib, maxfiy raviShda iSh ko'rgan «haShShoShiylar» (arabcha – haShiSh (naSha) chekuvchilar, giyohvandlar) terrorchilik oqimi esa hokimiyatni egallaSh maqsadida ularga xayrixoh bo'lmagan hukmdorlarga suiqasd uYuShtiriSh amaliyotini oldinga surgan edi. Uzoq vaqt haShShoShiylar ko'plab hukmdorlarga tahdid solib turgan, hattoki, ayrim Evropa mamlakatlari rahbarlari o'z xavfsizliklarini ta'minlaSh uchun ularga to'lov to'laShga majbur bo'lgan. SHu bilan birga, «haShShoShiylar» zamonaviy terrorchilar tomonidan ham keng qo'llanilayotgan, oddiy kishilar va yoShlarga giyohvand moddalarni iste'mol qildirib, o'lsa Shubhasiz jannatga tuShiShiga iShontirgan.

Diniy mutaassiblikka asoslangan ixtiloflar oqibatida cheksiz nizolar, keliShmovchiliklar, hatto qonli urushlar kelib chiqib, katta talofatlarga va jamiyatning inqiroz tomon Yuz tutiShiga sabab bo'lgan. Buzg'unchilik va zo'ravonlikka asoslangan, e'tiqodiy birlikka tahdid solgan bunday oqimlar faoliyati o'z davri ulamolari tomonidan qattiq qoralangan va ta'qib qilinganini alohida ta'kidlaSh lozim.

Vaqt o'tiShi bilan, mazkur g'oyalardan yanada keng foydalangan holda, Shuningdek, o'zgacha talqin va mohiyat kasb etgan yangidan yangi mutaassib oqimlar faoliyati paydo bo'ldi. Zamonaviy voqelik diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning salohiyati sifat va miqdor jihatidan jiddiy o'sganini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida diniy ekstremizm va terrorizmning global xavfsizlikka yo'naltirilgan jiddiy tahdidga aylaniShiga zamin yaratmoqda. Diniy-ekstremistik va terrorchi guruhlar globallaShuv jarayonlari va yirik davlatlar orasidagi geosiyosiy manfaatlar

to'qnaShuvidan hamda fan-texnika Yutuqlaridan foydalangan holda ekstremizm va terrorizmga qarshi keng ko'lamli kurash olib borilayotgan muhitga moslashtirishga xarakat qilmoqda. Diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga salbiy ta'siri xalqaro terrorchilik tizimida etakchi o'rinlarni egallab turgan quyidagi diniy-siyosiy tashkilotlarning mohiyati tahlil qilinganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

«Musulmon birodarlar» jamoasi («Jamoat al-Ixvon al-muslimin»). «Musulmon birodarlar» harakatiga 1928 yil mart oyida Misrning Ismoilিয়া Shahrida Hasan al-Banno (1906-1949) tomonidan asos solingan. Tashkilotning asosiy g'oyalari Hasan al-Banno va Said Qutb tomonidan targ'ib qilingan.

«Musulmon birodarlar» o'z tarixida bir necha bosqichlarini bosib o'tgan. Dastlab «Musulmon birodarlar» tashkiloti XX asr birinchi yarmida mavjud bo'lgan ko'p sonli mayda islomiy guruhlardan biri hisoblanardi. SHuning uchun Hasan al-Banno o'z targ'ibotlarini odamlarga kengroq yoyish maqsadida, Misrning bir qancha Shaharlariga safar uyushtirgan. Keyinchalik esa turli Shahar va mintaqalarga o'zining vakillarini yuborgan. Bunday safarlar natijasida, qisqa vaqt ichida, ya'ni 1930-yillar oxiriga borib, mamlakatning deyarli barcha mintaqasida tashkilotning bo'limlari faoliyat Yuritib bo'shlagan. Tashkilot «Alloh – bizning maqsadimiz, Qur'on – qomusimiz, Payg'ambar – bizning etakchimiz, Jihod – bizning yo'limiz va Allah yo'lida qurbon bo'lish bizning eng oliy orzuimizdir» degan tamoyilni o'zining bo'sh Shiori qilib olgan.

1950-1960 yillarda «Musulmon birodarlar»ga rahbarlik qilgan Sayyid Qutb tashkilot faoliyatining yanada radikallashtirishga zamin yaratdi. Xususan, u 1965 yilda yozgan «Yo'ldagi belgilar» kitobida arab jamiyati «johiliya» davriga qaytib, ma'naviy tanazzulga uchradi, bunday vaziyatda asl dindorlar jamiyatdan ajralib, alohida jamoalar tuzishlari hamda johiliyaga aylangan jamiyatni islomlashtirish uchun jihod olib borishlari lozim, degan g'oyani ilgari surdi. Bunda u «jihod» tushunchasini dinsizlarga hatto, uning talqiniga qo'shilmagan musulmonlarga qarshi qurolli kurash ma'nosida qo'llay bo'shladi. Said Qutb ilk marta dunyoviy hukumat va o'ziga qo'shilmagan musulmonlarga nisbatan «takfir» (kofirlikda ayblash)ni qo'llagan holda islomga umuman yot bo'lgan – «fitna» (amaldagi davlat tuzumiga qarshi qurolli qo'zg'olon ko'tarish amaliyoti)ni yoqlab chiqdi. Hozirda faoliyat Yuritayotgan qator diniy-ekstremistik tashkilotlar uchun ham bunday yondashuv mafkuraviy asos bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, «Musulmon birodarlar»ning mintaqaviy bo'linmalari Bahrayn, Misr, Iordaniya, Yaman, Qatar, Kuvayt, Livan, Birlashtgan Arab Amirliklari, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Sudan, Suriya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Daniya, SHveysariya, AQSH, Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlarda faoliyat Yuritgan. O'tgan davr mobaynida «Musulmon birodarlar»ning mahalliy bo'limlaridan ajralib chiqib, mustaqil faoliyat

Yuritayotgan bir qator diniy-ekstremistik va terrorchi tashkilotlar mavjud. Ular qatorida Misrda faoliyati kuzatilgan «al-Jamoa al-islomiya», «al-Jihod», «at-Takfir val-hijra», Jazoiridagi «Qurollangan islom guruhi», «Islom jihodi», Saudiya Arabistonidagi «Jumaymana al-Uteybiy», ko'pchilik davlatlarda ildiz otiShga harakat qilayotgan «Hizbut-tahrir al-islomiy» kabi tashkilotlarni ko'rsatiSh mumkin.

XX asrning so'nggi yillariga kelib, diniy uYuShma sifatida ochiq faoliyat Yuritgan «Musulmon birodarlar»ning siyosiy qanoti terrorizmdan voz kechib, parlament tipidagi partiyaga aylanganini e'lon qildi va jamiyatdagi ta'siri yanada kengayib bordi. Hattoki, 2005 yilning noyabr-dekabr oylarida bo'lib o'tgan «Milliy Majlis» saylovlarida «Musulmon birodarlar» harakatining a'zolari «Islom – muammolar echimi» Shiori ostida parlament saylovlarida «mustaqil nomzodlar» sifatida qatnaShib, umumiy hisobda 20 foiz ovozga ega bo'ldi va mamlakat parlamentida eng yirik muxolifat (oppozitsiya) blokini tashkil etdi. Buning natijasida umumarab diniy harakatiga aylangan «Musulmon birodarlar» tashkilotining faoliyati oShkora siyosiy tus oldi. 2011 yil 25 yanvarda Misrning poytaxti Qohirada boShlangan yirik norozilik namoyiShlari 11 fevralda Prezident Husniy Muborakning iste'fosi bilan yakunlandi. 2012 yil mamlakat prezidentini saylaSh uchun bo'lib o'tgan ikki bosqichli saylov natijalariga ko'ra, 30 iYunda «Musulmon birodarlar» tashkilotning siyosiy qanoti hisoblangan «Adolat va ozodlik partiyasi» rahbari Muhammad Mursiy Misr prezidenti etib saylandi. Ko'p o'tmay, 2013 yil 3 iYulda «Musulmon birodarlar» harakati vakili bo'lgan Muhammad Mursiy ommaviy noroziliklar natijasida harbiylar tomonidan hokimiyatdan chetlaShtirildi.

YUqorida qayd etilgan tahlil «Musulmon birodarlar»ning uzoq yillar davomida olib borgan faoliyati Misrda davriy raviShda ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqariShi bilan bir qatorda musulmon dunyosiga mansub boShqa davlatlarda radikal diniy-siyosiy tashkilotlar vujudga keliShiga mafkuraviy va tashkiliy zamin yaratgani haqida xulosa chiqariSh imkonini beradi.

Hizbut-tahrir al-islomiy. (Islom ozodlik partiyasi). «Hizbchilar», «tahrirchilar» deb ham Yuritiladi. Falastinlik Taqiyiddin Nabahoniy (1909-1979) mazkur ekstremistik tashkilotning asoschisi hisoblanadi. Isroil davlatini tashkil etish haqidagi BMT qaroridan keyin 1947 yilda oilasini olib, Falastindan Bayrutga ko'chgan. Aslida Misrdagi «Musulmon birodarlar» tashkiloti a'zosi bo'lgan Nabahoniy 1953 yilda mazkur jamoa a'zolidan chiqib, Quddus (Ierusalim)da «Hizbut-tahrir al-islomiy» tashkilotini tuzgan. Nabahoniy vafotidan so'ng hizbga falastinlik Abdulqadim Zallum (1925-2003) boShchilik qildi. Uning rahbarligi davrida tashkilot sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalarda (asosan Markaziy

Osiyo hududida) o'z faoliyatini jadallaShtirgan. Abdulqadim Zallum vafotidan keyin «Hizbut-tahrir» harakatiga Ato Abu RuShta (Abu YOsin) rahbarlik qiladi.

Dastavval Falastinni ozod qiliShni maqsad qilgan Nabahoniy, keyinchalik butun dunyo musulmon mamlakatlarini birlaShtiruvchi yagona xalifalik davlatini quriShni boSh maqsad deb e'lon qilgan. SHundan keyin esa, uShbu Shakllangan islom ummatining da'vatlari orqali butun dunyoda xalifalik davlatini quriSh mumkin, deb hisoblaydi.

«Hizbut-tahrir»ning Markaziy Osiyo mintaqasidagi faoliyati XX asr 80-yillarning oxiri 90-yillariga to'g'ri keladi. «Hizbut-tahrir»ning o'zagini 1990 yillar boShida Namanganda tuzilgan «Adolat», «Islom laShkarlari» va «Tavba» singari ekstremistik tashkilotlarning sobiq a'zolari tashkil qildi. 1992 yilda diniy ekstremistik guruhlar boShliqlari O'zbekistondan qochib ketgach, ularning o'rnini «Hizbut-tahrir» egalladi. Bu davrda «Hizbut-tahrir»ning ta'limotlariga oid chet davlatlarda naShr etilgan mutaassiblikka yo'g'rilgan turli xildagi kitob, risola va jurnal Shaklidagi materiallar noqonuniy yo'llar bilan Yurtimizga kirib keldi.

So'nggi yillarda «Hizbut-tahrir»da g'oyaviy yakdillik yo'qolib, faoliyatida Yuzaga kelgan samarasizlik tarkibiy bo'liniShlarga olib keldi. Undan «Hizbun-nusra» guruhi ajralib chiqdi. SHuningdek, «Hizbut-tahrir»ning «Ayollar qanoti» kuchaytiriliShi barobarida, ular orasida o'zini o'zi o'ldiriSh amaliyotidan keng foydalanilmoqda. Ular yoSh qiz va ayollarga «uy tutiSh sirlari» (pazandalik, tikuvchilik)ni o'rgatiSh orqali harakatning g'oyalarini targ'ib etish, tuzoqqa ilingan ayollarni go'yoki, «hijrat» qiliSh yo'lida chet davlatlardagi o'z «birodarlari»ga yordam beriSh uchun jo'natiSh yoki jazo muddatini o'tayotgan jamoa a'zolariga turmuShga chiqiShga da'vat etish kabi amaliyotlar bilan Shug'ullanmoqdalar.

«Akromiylar». Asoschisining nomidan kelib chiqqan holda, «Akromiylar» firqasi «imonchilar», «birodarlar», «xalifachilar» deb ham ataladi. «Hizbut-tahrir» tashkiloti asoschisi Taqiyiddin Nabahoniy kitoblaridan ta'sirlangan holda, 1992 yilda Akrom Yo'ldoShev (1963-2009) tomonidan Andijonda Shakllantirilgan.

«Akromiylar»ning boSh g'oyasi – islomiy boShqaruv Shaklidagi davlatni barpo etish hisoblanib, buning uchun bosqichma-bosqich harakat qiliSh, avval Farg'ona vodiysida xalifalik tuzumi barpo etish va keyinchalik uni mintaqaning boShqa hududlariga yoyiSh maqsad qilingan.

Akrom Yo'ldoShev «ilk diniy saboqlar»ini aynan «Hizbut-tahrir» uYuShmasida olganligi bois, o'z Shaxsiy ta'limotini yaratiShda harakatning nazariy va amaliy fikrlaridan yiroqlaSha olmagan. SHu bois, «Hizbut-tahrir» adabiyotlaridan foydalangan holda o'n ikki darsdan iborat «Imonga yo'l» nomli kitobi orqali o'z «diniy falsafiy» qaraShlarini baen qiladi. Sekin-asta o'z atrofiga xayrixoh bo'lgan kiShilarni yig'ib, mazkur kitob asosida darslar tashkillaShtirgan va «Akromiylar» jamoasini Shakllantirgan.

Harakat siyosiy hokimiyatga eriShiShning 5 ta – «sirli», «moddiy» («iqtisodiy»), «ma'naviy» («siyosiy»), «uzviy maydon» va «to'ntariSh» («oxirat») bosqichiga asoslanadi. So'nggi ikki bosqich jamiyat «islomlaShtirilgan»dan so'ng amalga oShiriliShi va u orqali hokimiyatni butunlay egallaSh rejalaShtirilgan.

«Akromiylar» o'zaro aloqalarni mustahkamlaSh maqsadida, tadbirkorlik bilan Shug'ullanganlar hamda yangi a'zolari asosan qarindoshlar hisobiga o'zlarining savdo do'konlari, sartaroshxona, novvoyxona, duradgorlik, qandolatchilik, kosibchilik va mebel iShlab chiqariSh sexlariga iShga jalb qiliSh orqali kengaytiriShga harakat qilganlar. «Akromiylar» yangi a'zolarga ertaYu kech mavjud tuzumning kamchiliklari, o'zlarining go'yoki siyosatdan yiroq, kichik bo'lsada, haqiqiy «birodarlar jamoasi» muhitining «go'zal» jihatlarini uqtirib boriSh orqali ruhiy ta'sir o'tkaziShga harakat qilganlar. Bunda ular hokimiyatni qo'lga oliSh bilan bog'liq rejalarini jamoaning asosiy qismidan sir tutganliklari hamda yangi tarafdorlar ularni siyosatga aloqasi yo'q deb bilganlari bois singdirilayotgan fikrlarga ko'nikib boraverganliklarini ko'rsatadi. Bu yo'ldagi amaliy da'vat uslubi boShqa mutaassib kuchlar yondaShuvidan farqli bo'lib, ommaga mafkuraviy tuzoq qo'yishiShga asoslangan.

Ma'lumki, 2005 yil 12-13 may kunlari Andijon Shahrida «Akromiylar» oqimi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'dariSh maqsadida ko'plab odamlarning qurbon bo'lishiga hamda fuqarolar va davlat mulkiga katta zarar etkaziliShiga olib kelgan terrorchilik harakati sodir etgan. TaShqi kuchlar ta'siri bilan jinoiy guruh tomonidan Yuzaga keltirilgan tartibsizliklar oqibatida hisobotga ko'ra, 187 kiShi qurbon bo'lgan. SHundan 60 nafari tinch aholi vakillari (ularning ichida ikki nafar voyaga etmaganlar va bir nafari ayol) edi. Terrorchilar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning 31 nafarini o'ldiriShgan. 287 nafar kiShi, jumladan, 91 nafar tinch aholi vakillari, 49 nafar huquqni muhofaza qiliSh organlari xodimlari va 59 nafar harbiy turli darajadagi tan jarohatlari oliShgan. Terrorchilarga qarshi chora-tadbirlar vaqtida esa 94 nafar terrorchi yo'q qilingan, 76 nafari yaralangan.

Hozirgi vaqtda G'arbda «Akromiylar» yangi diniy-siyosiy guruhlar tarkibida faoliyatni davom ettirmoqda. Jumladan, oqim tarafdorlari Germaniyaning DYusseldorf Shahrida 2009 yilning may oyida «Andijon – Adolat va TiklaniSh» tashkiloti tashkil qilgan. 2011 yilda «Akromiylar» jamoasi va ularga moyil bo'lgan «Andijon – Adolat va TiklaniSh», «Tanyach» tashkilotlari va «Erk» partiyasi iShtirokida 2011 yilning may oyi oxirida Germaniyaning Berlin Shahrida «O'zbekiston xalq harakati» nomi ostida reaksion tashkilot tuzilgan. UShbu harakat a'zolari tomonidan «ozodlik», «e'tiqod erkinligi», «inson huquqlari» kabi jozibali tuShunchalar iShlatilib, turli yo'llar, masalan, internet tizimi orqali asosan Yurtimiz yoShlarini o'z saflariga qo'ShiShga harakat qilmoqda.

«Iroq va SHom islom davlati» (ISHID) yoki «Islom davlati» tashkil topiShida «al-Qoida» tashkiloti muhim o‘rin tutgan. Dastlab, 2004 yilda xalqaro miqyosdagi terrorchi Abu Mus’ab Zarqoviy Iroqda «Tavhid va jihod jamoati»ni tuzadi va «al-Qoida»ning Iroqdagi bo‘limi sifatida faoliyat olib boradi. Iroqdagi harakat doirasini kengaytiriSh maqsadida keng ko‘lamli iShlar olib boriladi. Keyinchalik unga «JaySh al-fotihin», «JaySh as-sahoba» kabi bir qator terrorchi guruhlar qo‘ShiliShi natijasida Zarqoviy 2006 yilda Abdulloh RaShid Bag‘dodiy boShliq «Mujohidlar maslahat kengaShi» tuzilganini e‘lon qiladi. Buning natijasida YAqin SHarqdagi bir necha terrorchi guruhlarini birlaShtirgan tashkilot 2006 yil 15 oktyabrda «Iroq islom davlati» nomi ostida Iroqda tashkil topadi va unga Abu Umar Bag‘dodiy ismli Shaxs rahbarlik qiladi.

2010 yil 19 aprelda Abu Umar Bag‘dodiy o‘ldirilgandan so‘ng guruhga Abu Bakr Bag‘dodiy nomi bilan tanilgan Abdullo Ibrohim as-Samariy (ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra, Ibrohim Avvad al-Badriy al-Husayniy) rahbarlik qiladi. Suriyada kechayotgan mojarolarga mustaqil armiya sifatida kelib qo‘Shilgandan so‘ng, 2013 yil aprel oyida tashkilot «Iroq va SHom islom davlati» (ISHID) deb nomlandi. «Al-Qoida» tashkiloti «ISHID»ning Suriyadagi mojarolarga aralaShganidan so‘ng, 2014 yil fevral oyida mazkur tashkilotning «al-Qoida»ga aloqasi yo‘q deb bayonot berdi. BMT Xavfsizlik kengaShi ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyodagi eng xavfli hisoblangan «al-Qoida» faolligining kamayiShi undanda kuchliroq terrorchilik tashkilotlari, xususan «Iroq va SHom islom davlati»ning paydo bo‘liShiga sabab bo‘lgan.

2014 yil 29 iYunda tashkilot rahbarlari tomonidan Iroq va SHom (Suriya) hududida xalifalik tuzilgani va Abu Bakr Bag‘dodiy xalifa ekani e‘lon qilindi. Keyinchalik, «ISHID» o‘zini «Islom davlati» deb nomladi.

Tashkilotning boSh maqsadi islom «xalifaligi»ni qayta tiklaSh va islom Shariatini amalga tatbiq etishdan iborat. Bu yo‘lda Iroq, Suriya mamlakatlari negizida sunniy musulmonlarning yagona davlati «xalifalik»ni barpo etib, bosqichma-bosqich YAqin SHarq va SHimoliy Afrika mamlakatlari hisobiga kengaytiriShni e‘tirof etadi.

Mazkur terrorchi tashkilot tomonidan 2013-2017 yillar mobaynida Iroq va Suriya hududlarida 10 mingdan ziyod terrorchilik harakatlari sodir etildi, o‘z joniga qasd qiluvchi terrorchilar tomonidan 100 dan ortiq qo‘poruvchilik harakatlari, portlaShlar amalga oShirildi. Suriyada «ISHID» jangarilari 60 dan ziyod cherkov va monastirni vayron qiliShdi.

«Jabhat an-Nusra» («jabha» – front, «nusra» – yordam). To‘liq nomi – «Jabhat an-nusra li ahliSh SHom» (SHom ahliga yordam fronti) bo‘lib, u «al-Qoida» tashkilotining Suriya va Liviya hududidagi Sho‘‘basi hisoblangan. 2016 yil 28 iYul

kuni tashkilot o'z nomini «Jabhat fath aSh-SHam» deb o'zgartirganidan so'ng «Al-Qoida» aloqalar uzilganini e'lon qildi.

«Jabhat an-nusra» salafiy-jihodiy yo'naliShidagi harakat bo'lib, 2012 yil yanvarda Suriyada Yuzaga kelgan. Tez orada Suriya hukumatiga qarshi kuraShuvchi kuchlarning asosiylaridan biriga aylandi. Harakat oldin Iroqda Abu Mus'ab Zarqoviy qo'l ostida harakat qilgan «al-Qoida» jangarilaridan tashkil topgan. 2011 yil martda Suriyada davlat to'ntariShi boShlaniShi bilan «al-Qoida» uShbu jangarilarni Suriyaga jo'natgan. Frontning asosiy muassisi «Al-Fotih» laqabli suriyalik Abu Muhammad Juloniydir. «Al-Qoida» tashkilotining rahbari Ayman Zavohiriy «Jabhat an-nusra»ni «al-Qoida»ning Suriyadagi yagona bo'g'ini sifatida e'tirof etadi.

Mamlakatdagi joriy hukumatni ag'dariSh orqali dastlab Suriya hududida, so'ng barcha musulmon olamini birlaShtirgan islom Shariatiga asoslangan «islom xalifaligi»ni o'rnatish maqsad qilingan.

«Jabhat an-nusra» harakati «al-Qoida» tashkilotining «jihod»ga targ'ib etuvchi, «salafiy» aqidasi asoslangan bo'linmasi hisoblanadi. SHuningdek, harakat nazariy jihatdan «Musulmon birodarlar» uYuShmasi a'zosi bo'lgan Said Qutbning qaraShlariga ham asoslanadi. «Jabhat an-nusra» harakatining asosiy g'oyasi xalifalikni qayta tiklaSh, islom Shariatini tatbiq qiliSh, jihod orqali davlat tuzumini ag'dariSh va qaysi erga hukmron bo'lsa, o'Sha erda «islom davlati»ni quriShdan iborat.

«Global terrorizm indeksi» ma'lumotlariga ko'ra, «Jabhat an-Nusra» tomonidan amalga oShirilgan terrorchilik amaliyotlari natijasida 2015 yilda 600 dan ortiq inson vafot etgan. Jumladan, 2015 yil sentyabr oyida jangarilar «Abu ad-Duxur» aerodromini qo'lga kiritish chog'ida asirga tuShgan Suriya hukumatning 56 nafar askarlarini qatl etgan. SHuningdek, jangarilar 2014 yil avgust oyida BMTning tinchlikparvar kuchlaridan iborat 45 nafar kishini asir olgan. Keyinchalik 20 million AQSH dollari evaziga ularni ozod etgan.

2012 yil dekabrda AQSH Davlat Departamenti, 2013 yil may oyida BMT Xavfsizlik Kengashi «Jabhat an-nusra» harakatini terrorchi tashkilotlar ro'yxatiga kiritdi. SHuningdek, Avstraliya, BuYuk Britaniya (2013) hamda Rossiya (2014) kabi bir qator davlatlar ham mazkur uYuShmani terrorchi tashkilot deb e'lon qilgan.

Umuman olganda, din bayrog'i ostida talonchilik va bosqinchilik, terrorchilik va qo'poruvchilik harakatlari sodir etilayotgani, narkobiznes va noqonuniy qurol-yarog' savdosi amalga oShirilayotgani, korxonalar va inshootlarga zarar etkazilayotgani ham hech kimga sir emas. Bunday harakatlar ijtimoiy barqarorlikning izdan chiqiShiga, millatlararo va dinlararo adovat, millatchilik va diniy ayirmachilik kayfiyatlarining ShakllaniShiga zamin yaratmoqda.

4. O'zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy asoslari. O'zbekistonda shakllanayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati o'ta murakkab va mashaqqatli siyosiy jarayonga asoslangan. Bir tomondan, eski sovet tuzumidan qolgan salbiy meros demokratik o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, ayrim siyosiy kuchlar xalqimiz tanlagan dunyoviy taraqqiyot yo'liga raxna solib, uni izdan chiqarish va diniy maqomga burib yuborishga harakat qilmoqda. Bu «ayrim siyosiy kuchlar» diniy ekstremizm va terrorizmning bevosita ilhomchilari va bajaruvchilari bo'lib, ular o'zlarining nopok siyosiy maqsadlari yo'lida inson va jamiyatning eng nozik tuyg'usi dindan foydalanişga urinmoqda. Ayniqsa, 1999 yilning 16 fevralida Toshkent Shahrida terroristlar tomonidan uyushtirilgan portlashlardan keyin terrorizm muammosi O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotga tahdid soluvchi asosiy xavf-xatarlardan biriga aylandi.

Mustaqil davlatimiz qonunchiligida terrorizmga qarshi kurashning asosiy tamoyillari (qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, jazoning muqarrarliligi) bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

1. O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonuni (2000 yil 15 dekabr);

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (1994 yil 22 sentyabr);

3. O'zbekiston Respublikasining «Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni (2001 yil 29 avgust);

4. O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyallashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonuni (2004 yil 26 avgust).

Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlar orasida O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi va «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyallashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonunlar alohida e'tiborga molik. Chunki bu qonunlar tufayli O'zbekistonda terrorizmga qarshi kurashning normativ, tashkiliy va moddiy-texnik asoslari yaratildi. Unga ko'ra, terrorizmni targ'ibot qilish, terrorchi gurux va tashkilotlarni tuzish hamda ularning faoliyati, tayyorlanayotgan yoki amalga oshirilgan terrorchi jinoyatlarga oid ma'lumot va dalillarni yashirish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi ekstremizm va terrorizm hamda uni moliyallashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan narkobiznes va narkotrafikka qarshi kurashda ham qat'iy siyosat olib bormoqda. 1999 yilda «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi qonunning qabul qilangani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Shuningdek, «Shanxay hamkorlik tashkilotining terrorizmga qarshi

konvensiyasini (Ekaterinburg, 2009 yil 16 iYun) ratifikatsiya qiliSh to'g'risida», «Jinoiy daromadlarni legallaShtiriShga va terrorizmni moliyalaShtiriShga qarShi kuraShiSh bo'yicha Evroosiyo guruhi to'g'risidagi bitimni (Moskva, 2011 yil 16 iYun) ratifikatsiya qiliSh haqida»gi qonunlarni qabul qilib, ulardagi majburiyatlarini izchil bajarib kelmoqda. SHu bilan birga, bu masalalarda o'zining taShabbuslarini ilgari surayotganini ham alohida ta'kidlaSh zarur. Bunday hujjatlar hali ko'pgina mamlakatlarda qabul qilinmaganligini qayd etib o'tiSh darkor.

O'zbekiston aksilterror koalitsiyalarning faol a'zosi bo'lib, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik masalalariga xalqaro jamoatchilikning e'tiborini qaratib kelmoqda. Bu borada O'zbekiston dunyoning ko'plab davlatlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Respublikamiz xalqaro terrorizmga qarShi kuraSh doirasida huquqiy hujjatlarni iShlab chiqiSh va amaliyotga joriy etish harakatlarini to'la qo'llab-quvvatlab, BMT doirasida har tomonlama hamkorlikka asoslangan global tizim yaratish orqali bu yo'naliShda amaliy natijalarga eriShiSh mumkin, deb hisoblaydi. Darhaqiqat, xalqaro terrorizmga qarShi kuraShda BMTning o'rni va ahamiyati kattadir. Bugunga qadar BMT terrorizmga qarShi 12 ta rezolYusiya, 16 konvensiya, 2 protokol qabul qilgan.

Shuni ta'kidlaSh joizki, O'zbekiston davlati va hukumati terrorizm muammosiga o'zining taShqi va ichki siyosatining muhim masalasi sifatida yondaShib, qonun asosida terrorchi, terrorchilik guruhi, terrorchilik tashkiloti kabi tuShunchalarni umumlaShtirgan holda ularning ta'rifiga aniqlik kiritildi. Jumladan, O'zbekistondagi qonunchilik tizimida terrorchi, terrorchilik guruhi, terrorchilik tashkiloti kabi tuShunchalarni umumlaShtirgan holda ularning ta'rifiga aniqlik kiritildi. 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarShi kuraSh to'g'risida»gi qonunining ikkinchi moddasida terrorizm tuShunchasi quyidagicha ifodalangan: «...terrorizm – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boShqa maqsadlarga eriShiSh uchun Shaxsning hayoti, sog'ligiga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boShqa moddiy ob'ektlarning yo'q qilinishi (ShikastlantiriliShi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki Yuridik Shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyiliShga majbur qiliShga, xalqaro munosabatlarni murakkablaShtiriShga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buziShga, xavfsizligiga putur etkaziShga, qurolli mojarolar chiqariShni ko'zlab ig'vogarliklar qiliShga, aholini qo'rqitiShga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlaShtiriShga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik iShlatiSh bilan qo'rqitiSh yoki boShqa jinoiy qilmiShlar», - deb ta'rif berilgan.

Terrorizmga qarShi kuraSh dastavval uni oziqlantiruvchi g'oyaviy-ma'naviy va moliyaviy-iqtisodiy manbalarni zararsizlantiriShni taqozo etadi. SHu munosabat bilan 2006 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan «Jinoiy faoliyatdan olingan

daromadlarni legallaShtiriShga va terrorizmni moliyalaShtiriShga qarShi kuraSh to'g'risida»gi Qonun jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallaShtiriShga va terrorizmni moliyalaShtiriSh sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. UShbu qonunga ko'ra, pul mablag'lari yoki boShqa mol-mulkka oid operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oShiriSh vakolati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Yuklatilgan. Respublika BoSh prokuraturasi huzurida faoliyat ko'rsatayotgan Soliq, valYutaga va jinoiy daromadlarni legallaShtiriShga qarShi kuraShiSh departamenti zimmasiga moliyaviy razvedkaning zamonaviy tizimini yaratish, jinoiy daromadlarni legallaShtiriSh va terrorizmni moliyalaShtiriShning kanal va mexanizmlarini aniqlaShga yo'naltirilgan moliyaviy, mulkiy operatsiyalarning monitoringini amalga oShiriSh, xorijiy davlatlarnint vakolatli organlari hamda xalqaro ixtisoslaShgan va boShqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiliSh va axborotlar ayirboShlaSh kabi yangi vazifalar Yuklatildi. CHunki bugun diniy Shiorlar bilan niqoblangan, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosidan kelayotgan katta-katta mablag'lar evaziga yaShayotgan xalqaro terrorchilik mintaqa xavfsizligiga jiddiy tahdid solib kelmoqda.

Mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoShlarimizning dunyoviy, ilmiy, axloqiy salohiyatini YuksaltiriSh, ularda Yurt istiqloliga sadoqat, milliy-ma'naviy, umumbaShariy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini kuchaytiriSh, jamiyatimizda diniy aqidaparastlikning har qanday ko'rinishlarining oldini oliSh, o'lkamizda ijtimoiy-ma'naviy va siyosiy muhitni yanada sog'lomlaShtiriSh, huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlaSh maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 martdagi 130-sonli «Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlaShtiriSh, diniy aqidaparastlikning oldini oliSh chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilingan.

Qarorga ko'ra, Respublika mutasaddi davlat idoralari hamda jamoat tashkilotlari tomonidan iShlab chiqilgan «Huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlaSh, ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada yaxShilaSh, diniy aqidaparastlikning oldini oliSh bo'yicha tadbirlar dasturi» tasdiqlangan bo'lib, jumladan unda:

- diniy va umuman mafkuraviy adabiyotlar, video va audiokassetalarning mazmuni va tarqatiliShini tegiShli qonunlarda belgilangan tarzda tekShiruvdan o'tkaziShni kuchaytiriSh;

- diniy aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi videomahsulotlarning namoyiSh etiliShiga qarShi qonuniy choralar ko'riSh;

- diniy mavzudagi kitoblar, risolalar va boShqa turdagi matbaa asarlarida e'tiqodga ko'r-ko'rona mukkasidan ketish, bevosita va bilvosita milliy va diniy mahdudlik, aqidaparastlik targ'ib etiliShining oldini oliSh;

- viloyatlar markazlarida diniy adabiyotlar sotuviga ixsoslashtirilgan maxsus do‘konlar tashkil etish, sotilayotgan diniy adabiyotlar mazmunini nazoratga olish kabi muhim chora-tadbirlar belgilab berilgan.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunning 19-moddasida diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan matbaa nashrlar, kino, foto, audio, video mahsulotlari va shu kabi boshqa mahsulotlarni tayyorlash, saqlash va tarqatish muayyan javobgarlikka olib keliishi mumkinligini nazarda tutadi. Jumladan, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 184²-moddasiga asosan diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiritish yoki tarqatish, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining yigirma baravaridan Yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – ellik baravaridan Yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi nazarda tutilgan. Shuningdek, ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng bir yil davomida xuddi shunday qilinish takroran sodir etilsa, Jinoyat kodeksining 244-moddasiga asosan eng kam oylik ish haqining Yuz baravaridan ikki Yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqatish maqsadida tayyorlanadigan diniy mazmundagi mahsulotlarni ekspertizadan o‘tkazishda ularning mohiyati davlatimiz siyosati, milliy istiqlol g‘oyasi va diniy ta‘limotlarga zid emasligi, bunday mahsulotlarga qay darajada ehtiyoj mavjudligi, ular diniy da‘vat va missionerlikka, aholi o‘rtasida ixtilof va ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lmashligiga alohida e‘tibor qaratiladi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston dunyoviy davlat hisoblanadi. Shu bois qonunga xilof tarzda dinga dav‘at etish, unda sh ta‘qiq lanadi. Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 202¹-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida g‘ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga unda sh – eng kam ish haqining ellik baravaridan Yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n be sh sutkagacha muddatga ma‘muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi. Jinoyat kodeksining 216¹-moddasiga muvofiq, Yuqoridagi qonunbuzarlik ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, eng kam ish haqining yigirma be sh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qili sh bilan jazolanadi.

Biron-bir fuqaro o‘zining dinga, dinga e‘tiqod qili shga yoki e‘tiqod etmaslikka, ibodat, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta‘lim olishga o‘z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bu haqida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 241-moddasida ham aytib o'tilgan bo'lib, diniy ta'limotdan saboq beriSh tartibini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Mazkur moddaga ko'ra, «Maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy taShklot boShqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq beriSh, xuddi Shuningdek, xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq beriSh» ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanib, bunday harakat uchun eng kam iSh haqining beSh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima soliShga yoki o'n beSh sutkagacha muddatga qamoqqa oliSh jazosi belgilanadi.

Agar biror Shaxs bunday qilmiSh uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgandan so'ng bir yil davomida takroran Shunday harakatni sodir etsa, Jinoyat kodeksining 229²-moddasiga asosan eng kam iSh haqining ellik baravaridan Yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatiSh iShlari yoxud olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qiliSh bilan jazolaniShi ko'zda tutilgan. SHunday ekan, xususiy tartibdagi diniy ta'lim javobgarlikka asos bo'ladi.

Bundan taShqari, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atiSh (156-modda), jamoat birlaShmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof raviShda tuziSh (216-modda), g'ayriqonuniy jamoat birlaShmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnaShiShga undaSh (216¹-modda), diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buziSh (216²-modda), diniy ta'limotdan saboq beriSh tartibini buziSh (229²-modda), jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlaSh yoki tarqatiSh (244¹-modda), diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boShqa taqiqlangan tashkilotlar tuziSh, ularga rahbarlik qiliSh, ularda iShtirok etish (244²-modda) kabi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Demak, diniy ekstremizm va u bilan bog'liq holda sodir etiladigan jinoyatlarning oldini oliSh uchun eng avvalo, kiShilarni, ayniqsa, yoShlarni huquqiy savodxonligini oShiriSh muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda diniy ekstremizm va terrorizmga qarShi kuraShning o'ziga xos huquqiy mexanizmi fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlaSh, diniy ta'lim tizimini takomillaShtiriSh, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlaSh va tarqatiShni tartibga soliSh, Shuningdek, din bilan bog'liq turli nizolarning oldini oliSh orqali Yurt tinchligi va xavfsizligini ta'minlaShda o'ziga xos xizmat qilmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblik tuShunchalarining mazmuni nima?
2. Terrorizmning mohiyati va uning xalqaro miqyos kasb etishining sabablari nimada?

3. Diniy mutaassiblikning ilk paydo bo‘lishi qaysi davrga borib taqaladi?
 4. Musulmon dunyosining diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasining ahamiyatli jihatlarini keltiring.
1. O‘zbekistonda dinlararo bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlashning ustuvor vazifalari qaysilar.
 2. Diniy ekstremizm va terrorizmnining jamiyat barqarorligiga tahdidi nimadan iborat.

II. Seminar mashg‘ulotlari materiallari .

O‘quv fanining dolzarbligi va oliy ta’limdagi o‘rni

“Falsafa (Dinshunoslik)” fani jamiyat ma’naviy hayotida dinning tutgan o‘rni, uning turli shakllari, ta’limoti, yo‘naliishi va oqimlari, vijdon erkinligi, diniy bag‘rikenglik tamoyillari, diniy dunyoqarash, O‘zbekistonda din va diniy tashkilotlar faoliyati, din niqobidagi radikal diniy oqimlar, Shaxs tarbiyasida milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi masalalarini qamrab oladi. Mazkur fan Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blokiga kiritilgan bo‘lib, bakalavriatning barcha 1-kurs talabalariga o‘qitilishi maqsadga muvofiq.

O‘quv fanining maqsadi va vazifasi

“Dinshunoslik” fanini o‘qitishdan maqsad - talabalarda din, uning ma’naviy hayotimizdagi o‘rni haqida xolis, to‘g‘ri dunyoqarashni shakllantirish hamda Yuksak ma’naviyatli kadrlarni tarbiyalashdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarga turli dinlarning kelib chiqishi, tarixi, taraqqiyoti, ta’limoti, asosiy manbalari, hozirgi davrdagi holati, ma’lum xalq hayotida tutgan o‘rni haqida umumiy nazariy tushunchalar berish, ularda buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish, Shuningdek, ajdodlar merosini o‘rgatish asosida yo‘sh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat.

Fan bo‘yicha talabaning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi. **Talaba:**

- Dinshunoslikning fan sohasi sifatida paydo bo‘lishi, uning tarixi va ta’limotlari; dinlarning dunyo xalqlari madaniyati, urf-odatlariga ta’siri; diniy dunyoqarashning shakllanishi; dunyo xalqlari dinlari, dunyoning diniy-konfessional manzarasi haqida *tasavvurga ega bulishi*;

- dinning ijtimoiy-madaniy va ma’naviy-axlokiy hayotdagi o‘rnini; dunyo dinlari va asosiy diniy konfessiyalarning diniy-iloхий tizimi asoslari va maqsadini; Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan dinlarning ta’limotlari va ularning xalqimiz urf-odatlarida aks etishini; dinning inson va jamiyat hayotida tutgan o‘rnini *bilishi va foydalana olishi*;

- din bilan bog‘lik jarayonlarni mahalliy urf-odat, an‘analardan kelib chiqqan holda tadqiq qila oliSh; turli dinga iShonuvchilar va iShonmaydiganlar bilan umumiy til topiShiSh, ular bilan muloqot qila oliSh; din nomi bilan sun‘iy bog‘langan ma‘naviy tahdidlar, axborot xurujlariga qarShi kuraShiSh ko‘nikmalariga ega bo‘liShi kerak.

Seminar mashgulotlari mavzulari:

№	Fan mavzularining nomi	O‘quv soatlari
1.	Din -madaniyat fenomeni	2
2.	Buddizm va Xristianlik jaxon dinining tarixi va falsafasi.	2
3.	Islom dini tarixi va falsafasi.	2
4.	Islom qadriyatlari	2
5.	. Diniy mutassiblik va dindorlik	2
JAMI		10

Seminar mashg'ulotlarining mavzulari va rejaları

1-mavzu: Din madaniyat fenomeni

1. Din fan va madaniyat shakli. Dinshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi.
2. Dinshunoslikda shakllangan mifologik, tarixiy, sotsiologik, antropologik va boshqa maktablar
3. Dinga berilgan ta'riflar. Din - ijtimoiy ong shakli, muayyan turmush va tafakkur tarzi, ma'naviy qadriyat sifatida
4. Dinning jamiyat va shaxs ma'naviyati yuksalishidagi, komil insinni tarbiyalashdagi ahamiyati.
5. Dinning ijtimoiy funksiyalari: dunyoqarashni shakllantirish, yosh avlodni tarbiyalash, tartibga solish, birlashtirish, tasalli berish, aloqa o'rnatish. Dinlar tasnifi.

«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi

Tayanch iboralar:

Din, madaniyat omili, milliy dinlar, e'tiqod, ishonmoq tuyg'usi, ibodat, kompensatorlik, regulyatorlik, integratorlik, yakkaxudolik va ko'pxudolik, dunyoqarashni shakllantirish, yosh avlodni tarbiyalash, tartibga solish, birlashtirish, tasalli berish, aloqa o'rnatish

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. "Dinshunoslik" fanining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
2. Dinga qanday ta'riflar berilgan?
3. Din jamiyatda qanday vazifa(funksiya)larni bajaradi?
4. Dinlar qanday omillar asosida tasnif qilinadi?
5. Dinlar qanday guruhlariga bo'linadi?
6. Komil insonni tarbiyalashda din omilining o'rni qanday?
7. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda vijdon erkinligi, din va diniy tashkilotlarga munosabat masalasida qanday o'zgarishlar amalga oshirildi?

1-o'quv topshiriq

1. Internet saytlarga kirib mavzuga doir xujjatlarni ko'rib chiqish.
2. Berilgan adabiyotlar ro'yxati bo'yicha mustaqil ishlash.
3. Islom ensiklopediyasining atamali lug'atini o'rganish.
4. Birinchi mavzuga oid referat rejasini tayyorlash.

Dinshunoslik fanining maqsadi va vazifalari	Dinning jamiyatdagi funksiyalari	Dinlar tasnifi

2-mavzu: Buddizm va xristianlik dini tarixi va falsafasi

Raja:

1. Buddizm ta'limoti – to'rt oliy haqiqat.
2. Buddizmdagi oqimlar: maxayana, xinayana, lamaizm.
3. Xristiyanlik. Xristiyanlik ilohiyoti.
4. Xristiyanlikdagi asosiy oqimlar - ortodoks (pravoslav), katolitssizm, protestantizm.

Tayanch so'z va iboralar

Budda, Maxayana, Xinayana, Meditatsiya, Karma, Tripitaka, Nirvana, Vinaya-pitaka, Sutta-pitaka, Siddxartxa. katoliklar, protestantlar, provaslavlilar, ortodokslar, kalvinistlar, lyuterantlar, faktoriyalar, skriptoriyalar, xristian dini va san'at, Injil, Tavrot, Bibliya, Ko'hna ahd, Yangi ahd.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Buddaviylik asoschisi kim?
2. Buddaviylik ta'limoti nechta?
3. Buddaviylikdagi oqimlar sonini aniqlang?
4. Buddaviylikning muqaddas manba'lari.
5. Xristianlik dinining kelib chiqish tarhi haqida nimalarni bilasiz?
6. Xristianlik dinining asosiy aqidalari va g'oyalari nimalardan iborat?
7. Iso Masih kim va Xristianlik dinining rivojlanishiga qanday hissa qo'shgan?
8. Xristianlik dini nima sababdan bo'linib ketdi?
9. Katolik va provoslav cherkovlarining farqli jihatlari nimada?

1-o'quv topshiriq

1. Buddaviylik va Xristianlikning Markaziy Osiyoga yoyilishi qaysi davrlardan boshlanganligini eslang.
2. Bu davrda Markaziy Osiyodagi xalqlar qaysi dinlarga e'tiqod qilgan?
3. Qo'shimcha adabiyotlardan mamlakatimiz hududida buddaviylik va Xristianlik tarqalgan hududlardagi madaniy hayot haqida ma'lumot to'plang.

2-o'quv topshiriq

- 1) "Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi" interfaol metodi. Bunda dastlab o'qituvchi dinlar doskaga chalkashtirilgan holda yozib qoyadi. So'ngra ulardan mazkur din shakllarining qaysi guruhiga kirishiga qarab, ibtidoiy, milliy va jahon dinlariga tasniflashni aytadi.

Ravvin, Yahve, Sidaxarta, Xinayana, Shiva, Budda, Zardusht, Maxayana, Meditasiya, Yasna, Muso, Yasht, Arxat, totemizm, animizm, fetishizm, shomonlik, Qadimgi Hindiston dinlari. Qadimgi Xitoy dinlari, iudaizm, sintoizm.

Urug'-qabila dinlari	Milliy dinlar	Jahon dinlari

- 2) Toifali jadvalni to'ldiring

Buddaviylik, Xristianlik ning asosiy oqimlari			
maxayana	xinayana	vajrayana	Lamaizm

Iso Masih haqidagi ma'lumotlar, asosan, diniy manbalarda keladi. Iso nomiga qo'shiluvchi Masih so'zi qadimiy yahudiy tili — ibriyidagi «moshiax» so'zidan olingan bo'lib, «silangan» yoki «siylangan» ma'nolarini beradi.

Tayanch so'z va iboralar

1. Protestantlik qaysi cherkovdagi xurofotlarga qarshi chiqdi?
2. Bibliyaning tarkibiy qismlari nimadan iborat?

1-o'quv topshiriq. "T- sxema" asosida taqqoslang

Katolikning o'ziga xos xususiyatlari	Provaslavning o'ziga xos xususiyatlari

--	--

3-mavzu: Islom tarixi va falsafasi

Reja:

1. Islom dini shakllanishidagi tarixiy sharoit. Muxammad payg'ambar (s. a.v.) hayoti va faoliyati.
2. Islom ta'limoti va manbaalari. Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qaraShlari. Abu Xomid G'azzoliy, Ibn RuSht falsafiy ta'limotlari.
4. Islomda mazhablarining paydo bo'lishi, ilk ixtiloflar. Islomdagi oqimlarni vujudga kelishi.

Esda tuting

Islom ta'limotiga ko'ra, Muhammad payg'ambar nomi zikr etilganda unga hurmat yuzasidan «sollallohu alayhi vasallam» (qisqacha: s.a.v.: «unga Allohning rahmat va salomi bo'lsin») yoki «alayhis-salom» (qisqacha: a.s.: «unga salom bo'lsin») iborasini aytish lozim hisoblangani uchun islom tarixiga oid adabiyotlarda s.a.v. yoki a.s. qisqartmasi ishlatiladi.

Tayanch so'z va iboralar

Aqida, kalom, moturidiylik, ash'ariylik, imon, Alloh, farishta, payg'ambar, taqdir, qiyomat, jannat, do'zax, mazhab, oqim, firqa, hanafiylik, shofeiylilik, molikiylik, hanbaliylik, fiqh, fatvo, mujtahid, sunniylik.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Kalom, aqida, tavhid ilmlari nimani o'rganadi?
2. Moturidiylik va ash'ariylik yo'nalishlari qanday paydo bo'lgan?
3. Imon nima ma'noni bildiradi?
4. Islom ta'limotida necha narsaga imon keltirish shart hisoblanadi?
5. Islomda ilk bo'linish qaysi yili bo'lib o'tgan?
6. Fiqhiy mazhablarning paydo bo'lishiga qanday omillar bo'ldi?
7. Imom Abu Hanifa kim va u qanday mazhabga asos soldi?
8. Mazhabsizlik da'vo qilayotgan g'oyalarning qanday salbiy oqibatlar bor?

4-mavzu: Islomda qadriyatlar

1-o'quv topshiriq.

1. Mazkur hikmatni ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi tushunchasi bilan bog'lang: «Qalbing Allohda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin».
2. Oila masalasi to'g'risidagi hadislarini yodlash.
3. Vijdon erkinligi tushunchasi. O'zbekistonda vijdon erkinligining Asosiy Qonun bilan kafolatlanishi.
4. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar. missionerlik va prozelitizm xavfining bartaraf etilishi.
5. Islom ta'limotida oila muqaddasligi. Er-xotining bir-biriga nisbatan xuquq va burchlari.

2-o'quv topshiriq. "T- sxema" asosida taqqoslang

Naqshbandiya tariqatining o'ziga xos xususiyatlari	Yassaviya tariqatining o'ziga xos xususiyatlari

Tayanch so'z va iboralar

Mustaqillik va din, milliy istiqlol, barkamol avlod, milliy va umuminsoniy hamda diniy qadriyatlarga hurmat, diniy dunyoqarash, ma'naviyat, qonun, Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Vijdon erkinligi deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida diniy muammo-larning aks ettirilishi haqida fikr yuriting.
3. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunning dunyoviy davlat qurishdagi ahamiyati to'g'risida mulohaza bildiring.
4. Diniy tashkilotlarni tuzishning huquqiy jihatlari nimalardan iborat?
5. O'zbekistonda fuqarolarning diniy kiyimlarni kiyishlari qonun bilan qanday tartibga solinadi?
6. Sekulyarizm nima?
7. Jamiyat taraqqiyotiga sekulyarizm va klerikalizm jarayonlari qanday ta'sir etadi?
8. O'zbekistonda sekulyarizm prinsiplarining joriy qilinishida yuzaga kelgan muammolar nimalardan iborat? O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar tuzishning huquqiy maqomini tushuntiring.

Ijodiy faoliyat

1. Berilgan matnni «Talaba yoshlar — missionerlik faoliyatining asosiy obekti» degan fikr bilan bog‘lab tushuntiring.

«Butun dunyoda universitet va kollejlarda 37 million talaba tahsil oladi. Ularning ko‘plari 20 yildan so‘ng yirik mansablarni egallashadi».

5-mavzu: Diniy mutassiblik va dindorlik

Reja:

1. Diniy mutaassiblik (fanatizm), ekstremizm, aqidaparastlik (fundamentalizm), xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaksiya mohiyati.

2. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash.

3. O‘zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning xuruqiy va tashkiliy asoslari. O‘zbekiston xabariyatining bu boradagi tashabbuslari va ularning xalqaro jammiyat tomonidan e‘tirof etilishi.

4. GloballaShuv va din.

Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatarga qo‘yadiganlarni qat‘iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da‘vat etadi.

Shavkat Mirziyoyev

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblik tushunchalarining mazmuni nima?

2. Terrorizmning mohiyati va uning xalqaro miqyos kasb etishining sabablari nimada?

3. Diniy mutaassiblikning ilk paydo bo‘lishi qaysi davrga borib taqaladi?

4. Musulmon dunyosining diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasining ahamiyatli jihatlarini keltiring.

Tayanch so‘z va iboralar

Ekstremizm, diniy ekstremizm, fundamentalizm, mutaassiblik, aqidaparastlik, terror, terrorizm, xalqaro terrorizm, firqalar, xorijiyalar, soxta salafiyalar.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .–Toshkent: O'zbekiston, 2017 -67 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi” Qonuni (yangi tahriri), 2020.
3. O'zbekiston Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi”gi PF-4947-son / Xalq so'zi, 2017 yil 8 fevral.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.–Toshkent: O'zbekiston, 2017.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat,2008.
7. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. -Toshkent: O'zMU, 2004. -208 b.
8. Yo'ldoshxo'jaev X., Raximjonov D., Komilov M. Dinshunoslik (ma'ruzalar matni). - Toshkent: ToshDSH nashriyoti, 2000.
9. Muminov A. va boshq. Dinshunoslik (darslik). -Toshkent: «Mehnat», 2004.
10. Ochildiev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma). Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.

Internet saytlari

1. <http://www.religioustoleranje.org/gld.htm>
2. <http://www.alreligion.about.com>
3. <http://www.islam.ru>
4. <http://www.glossarist.com>
5. www.infoxs.uz

III. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.

Mustaqil ishlarni tashkil etish shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topShiriqlar va keys-stadilar)ni mustakil raviShda, ya'ni auditoriyadan tashkarida bajarishi, o'qib o'rganiShi va Shu yo'naliSh bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlaShtiriShiga qaratiladi. Talaba mustaqil iShni tayyorlaShda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi Shakllardan foydalaniSh tavsiya etiladi: darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganiSh;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlaShtiriSh;
- mustaqil iShlar, keys-stadilar bilan iShlaSh;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida iShlaSh;
- fanga oid ma'lumotlarni o'rganiSh, ularni tahlil qiliSh;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot iShlarini bajariSh bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganiSh;
- faol va muammoli o'qitiSh uslubidan foydalaniladigan o'quv maShg'ulotlari;

Dinshunoslik fanidan talabalarning mustaqil iShlarini referat, seminar, doklad tayyorlaSh, taqdimotlar o'tkaziSh, Prezident asarlarini konspektlaShtiriSh va boShqa Shakllarda tashkil etiliShi tavsiya etiladi. Mustaqil iSh mavzularini belgilaShda ma'ruza va seminar maShg'ulotlari mavzularini to'ldiriShga harakat qiliniShi lozim.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Dasturdagi mavzularni o'tiShda ta'limning zamonaviy metodlaridan keng foydalaniSh, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang" xamda "Muammoli ta'lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, Shuningdek Dinshunoslikka doir slaydlardan foydalaniSh, didaktik va rolli o'yin usullarini qo'llaSh nazarda tutiladi.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

№	Mustaqil ish mavzulari nomi	soat
1	Allomalar din to'g'risida.	1
2	Dinning ijtimoiy vazifalari (kompensatorlik, integratorlik , regulyatorlik, kommunikativ, legitimlovchilik).	1
3	Ilk diniy tasavvurlar.	1
4	Qadimgi YUnon va Misr xudolari.	1
5	Qadimgi Misr ehromlari.	1
6	YAxudiylilik dinining xususiyatlari.	1
7	Xinduiylikdagi uchlik (trimurti) xudolari.	1
8	Zardushtiylikning vujudga keliShi.	1
9	“Avesto”- Zardushtiylikning muqaddas manbasi.	1
10	Meditatsiya - buddaviylikning muhim qoidalari.	1
11	Buddaviylikdagi to'rt haqiqat.	1
12	Iso Masih (Iisus Xristos) hayotiga doir ma'lumotlar. Xristianlik manbalari.	1
13	Xristianlikdagi oqimlar.	1
14	Islomning vujudga keliShi va tarqaliShi.	2
15	Islomdagi mazhablar	2
16	Islom-ma'rifat dini.	2
17	Buddaviylikdagi to'rt haqiqat.	1
18	Qur'on sharq xalqlarining diniy, ilmiy va ma'naviy merosi sifatida.	2
19	Xadislarda milliy va diniy qadriyatlarning aks etishi.	1
20	Tasavvuf falsafasi.	1
Jami		28

IV. Glossariy.

ADJI – To‘rt tomoni teng bo‘lgan salb bo‘lib, tangrichilik dinining ramzi hisoblanadi. U barcha narsa asliga qaytiShining ifodasi bo‘lgan.

AGNI – Er xudolarining eng ulug‘i (quyoSh, chaqmoq, olov) hisoblangan olov xudosi. Agni haqidagi afsonalar Hindistondan taShqarida vujudga kelgan. U odamlar qurbonliklarini xudolarga etkazuvchi ruhoniy sifatida tasavvur qilingan va biror qurbonlik uning vositasiz xudolarga etib bormaydi, deb hisoblangan.

ALLOH - (arab. «al-iloh» – ilohiy kuch, turkiy xalqlarda, xususan, o‘zbeklarda – Tangri, fors-toj. – Xudo), Alloh – islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch; xudoning nomi. Odatda, Allohga taolo (ulug‘, oliy), taboraka va taolo, jalla jaloluhu, karim, buzurg, parvardigori olam kabi sifatlar qo‘Shib aytiladi.

AMERETAT – Zardushtiylikda baxt, abadiylik ma‘budi, Axura Mazda tarafdori.

AMESHA SPENTA (abadiy muqaddas) – Zardushtiylikda Axura Mazda yaratgan 7 maxluqdan biri. BoShqa fikrga ko‘ra, AmeSha Spenta – Axura Mazdaning timsoli.

ANXRA–MAYNYU (Yunoncha, Axriman) – Zardushtiylikda yomonlik, yovuzlik, buzg‘unchilik ibtidosi, zulmat egasi bo‘lib, ezgulik va yorug‘lik sohibi Axura Mazda va uning tarafdorlariga qarShi boSh ko‘targan ma‘bud.

APOSTOL (Yunoncha, «elchi») – xristian ta‘limotiga binoan Isoning eng yaqin yordamchilarining unvoni. Ularning asosiylari 12 ta: Pyotr (Simon Ionin), Andrey, Ioann, Iakov Zevedeev, Filipp, Varfolomey, Matfey, Foma, Iakov Alfeev, Faddey, Simon Kananit, Iuda Iskariot (Isoni sotgan havoriy), Matfiy (Iudadan so‘ng uning o‘rnini egallagan). Bulardan tashqari yana 70 nafar havoriy mavjud bo‘lgani xristian adabiyotlarida qayd etiladi.

AQIDA – (arabcha, biron narsani bir-biriga bog‘laSh) aqoid ilmining maShhur nomlaridan biri.

AQIDAPARASTLIK - ishilar ongi va qalbiga ma‘lum mafkuraviy tazyiqlar asosida singdirilib, e‘tiqod darajasiga ko‘tarilgan dunyoqaraSh Shakllaridan biri. A. o‘z xususiyatini ikkita Shaklda namoyon qiladi: Aqidaning dunyoviy Shakli (ateizm, kommunizm); aqidaning diniy Shakli, (vahho biylik, Hizb ut–tahrir, Hizbulloh, “Al-qoyida” va b. aqidalarni zamon va makondan ajratgan holda anglab, ularni (o‘zgartirib bo‘lmas) tuShunchalar deb biluvchilar aqidaparastlar deb Yuritiladi.

AQIQA – (arabcha, «qorin sochi») tug‘ilgan chaqaloqning sochini oliSh va tavalludi munosabati bilan so‘yladigan qo‘yga aytiladi.

AQLIY DALIL – mutakallimlarning naqlga asoslanib bergan o‘z ra‘ylari. Fikriy qaraShlari asosida biron aqidaviy masalaga bergan javoblari. Aqliy dalil asosan mantiq bilan bog‘liq hisoblangan.

ARON KODESH – Sinagogalarda «Tavrot» o‘ramlari saqlanadigan maxsus joy.

ATXARVA VEDA – «Afsun va jodular vedasi» – koinot bilan bog‘liq, mistik parchalar va sehr bilan aloqador duolardan iborat kitob. O‘Sha davrda afsun va

jodular olov ustida bajarilgani sababli, u afsonaviy ruhoniy Atxarvana – «Olov ruhoniysi» nomi bilan uzviy bog‘liq. Atxarva Veda 6000 She‘rdan iborat 371 madhiyani o‘z ichiga oladi. Ular jami 20 kitobda jamlangan.

AXBOROT – tasavvurning Shakliga qaramasdan, Shaxslar, voqealar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma‘lumot.

AXBOROT ISTE‘MOLI MADANIYATI – ezgulik va taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma‘lumotlarni axborot dunyosidan saralab olishdagi bilimlar, qobiliyat va malakani o‘zida ifoda etadi.

AVTOKEFAL CHERKOVLAR (Yunoncha, «o‘z-o‘zini boShqariSh») – pravoslavlikdagi mustaqil boShqaruvga ega bo‘lgan cherkovlar tuzilmasi. Ma‘lum bir tashkilot «avtokefal» maqomini olishi uchun miro moyini mustaqil raviShda tayyorlay olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

AVESTO («Apastak», «Ovisto», «Ovusto», «Abisto», «Avasto») – joriy qilingan qat’iy qoidalar, sanskrit tiliga yaqin o‘ziga xos avesto tilida yozilgan Zardushtiylikning muqaddas kitobi.

AVTONOM CHERKOVLAR (Yunoncha, «mustaqil») – biror–bir avtokefal cherkovdan ichki tartib–qoidalarni mustaqil bajariSh huquqini olgan cherkov. Avtonom cherkov rahbari avtokefal cherkov patriarxi tomonidan tasdiqlanadi.
AXURA MAZDA (Yunoncha, Ormuzd) – Zardushtiylikda do-niShmandlik sohibi, yaxShilik, ezgulik, yaratuvchanlik ibtidosi, yorug‘lik sohibi bo‘lib, yovuz Axriman va uning tarafdorlariga qarshi doimiy kuraShda.

ASHA VAXISHTA – Zardushtiylikda adolat, haqiqat ma‘budi, Axura Mazda tarafdori.

ASH‘ARIYLIK - basralik Abul Hasan ASh‘ariy (873–936) asos solgan. Imom ASh‘ariy umrining yarmini adaShgan oqimlarga qarshi kuraShga bag‘iShlagan.

ASHVINA VA SAVITAR – Hind havo xudolari.

BAHOIYLIK - din hisoblanib, barcha dinlarga mansub asosiy qadriyatlarni tarannum etadi, hamda barcha insonlarning birdamligi va tengligini o‘rgatadi.

BARASHNUM – Zardushtiylikda jasadni ko‘targan va Yuvgan kiShilarning uzoq vaqt davomida itlar yordamida amalga oShiriladigan poklaniSh marosimi.

BIBLIYA (Yunoncha, «kitoblar») – Yahudiylik va xristianlik dinlaridagi asosiy muqaddas manbaning nomlaniShi. Yahudiylar «Bibliya»si «Kitve kadeSh» va «Tanax» ham deb nomlanadi. Xristianlar tomonidan tan olinadigan «Bibliya» «Qadimgi Ahd» va «YAngi Ahd»dan iborat bo‘lib, umumiy hisobda 66 kitobdan iborat.

BIBLIYA JAMIYATI – «Bibliya»ning alohida qismlarini yoki to‘laligicha dunyo tillariga tarjima qiliSh bilan Shug‘ullanadigan jamiyatlar nomi. Bunday jamiyatlar biror bir diniy konfessiyaga qaraShli bo‘lmay, buYurtma asosida iShlaydi. Ilk «Bibliya» jamiyati 1804 yilda Britaniyada tuzilgan. Hozirda dunyo bo‘yicha 140 dan ortiq Shunday jamiyatlar mavjud.

BOZKURT – Qadimiy turkiy tilda «Kulrang bo‘ri» ma‘nosida kelib, tangrichilarning totemi bo‘lgan.

BOBIYLIK - 19-asrning 40-50 - yillarida eronda Shialik ichida vujudga kelgan diniy harakat. Asoschisi – Bob. Bob "Bayon" kitobida o‘zini Muhammad (sav) o‘rniga kelgan payg‘ambar, o‘z kitobini esa Qur‘on va Shariat asosining o‘rnini oliShi kerak deb e‘lon qildi. Bobiylar Shaxsni himoya qiliSh, kambag‘allardan olinadigan soliqlarni bekor qiliSh, yirik er egalarining xususiy mulkini tugatiSh, barcha molmulkni teng taqsimlaShni talab qildi. Mavjud din va davlat tizimini ag‘darib taShlaShni targ‘ib qildi.

BRAXMAN – sanskrit tilidan olingan bo‘lib «Braxmaga atalgan, o‘zini bag‘iShlagan», degan ma‘nolarni bildiradi.

BUDDAVIYLIK - jahonda keng tarqalgan dinlardan biri. Unga e‘tiqod qiluvchilar taxminan 500 mln.dan ortiq. Miloddan avvalgi 6–5-asrlarda Hindistonda paydo bo‘lgan.

BUXORO YAHUDIYLARI - Yahudiylikdagi etnokonfessional va etnolingvistik jamoa. XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo Yahudiylari Buxoro amirligi hududlarida yaShaganliklari tufayli «Buxoro Yahudiylari» nomi bilan tanilgan.

BUTUNJAHON SOBORLARI – xristian cherkovi episkoplarining ma‘lum diniy masalalarni hal qiliSh maqsadida o‘tkaziladigan yig‘iliShi. Ilk sobor milodiy 325 yilda Nikeya Shahrida bo‘lib o‘tgan. Hozirgacha 21 marta Butunjahon soborlari o‘tkazilgan.

DAJJOL - arabcha o‘ta aldamchi, firibgar. Dajjol qiyomatdan oldin tuShiShi va insonlarni to‘g‘ri yo‘ldan ozdiriShi, iymonsiz (Murtad)ga aylantiriShi diniy adabiyotlarda va As-sahih(Imom al-Buhoriy)da Rasululohdan rivoyat qilinadi.

DAHRIY – ATEIST - Xudodan Yuz o‘giriSh, Xudoni inkor etgan holda inson aql-idrok kuchini iqrar etish demakdir.

DASTUR – Mobad oilasiga mansub Zardusht ruhoniylari tabaqasining Yuqori vakili.

DAXMA – Zardushtiylikda erdan 4–5 metr balandlikda silindr Shaklida bo‘lgan maxsus joy bo‘lib, unga o‘liklar ustma–ust tartib bilan yotqiziladi.

DAEN – Zardushtiylikda imon, yaxshi amal, u inson vafotidan so‘ng go‘zal qiz qiyofasida ko‘rinib, uni CHinvanda ko‘prikdan olib o‘tiShga yordam beradi.

DEV VIZARESH – Zardushtiylikda inson vafotidan so‘ng uning qilmiShi yovuzlik bo‘lsa, jazo beruvchi, do‘zaxga taShlovchi ma‘bud.

DENKART («Imon faoliyati») – IX asrda Sosoniylar hukmronligi davrida yozilgan qomusiy lug‘at bo‘lib, u o‘z ichiga badiiy va tarixiy ma‘lumotlarni olgan. Dastavval 9 bo‘limdan iborat bo‘lgan, keyinchalik uning 2 qismi yo‘qotilgan.

DIAKON (Yunoncha, xizmatchi) – xristian cherkovlaridagi eng quyi ruhoniylar darajasi.

DIN - (arab. – e‘tiqod, iShonch, itoat) – xudo yoki xudolar, g‘ayritabiiy kuchlar mavjudligiga iShoniSh. D. muayyan ta‘limotlar, his-tuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo‘ladigan, olam, hayot yaratiliShini tasavvur qiliShning alohida tarzi, uni idrok etishning o‘ziga xos usuli.

DIN ARKONLARI – ma‘lum bir dindagi asosiy ibodatlar majmui.

DINIY BAG'RIKENGLIK – kiShilar va jamiyatda diniy asosda o'zaro bir-birini tuShuniSh, xolis va haqqoniy bilimlar, adolatli va haqiqiy baholar, o'zaro hurmat va iShonchga, hamjihatlik va hamkorlikka asoslangan qaraShlar va amaliy faoliyat tizimini o'z ichiga oladigan ijtimoiy–madaniy hodisa.

DINIY EKSTREMIZM – jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidaviy ahkomlar tizimini inkor etib, ularga zid bo'lgan «g'oyalar» va amallarni agressiv tarzda targ'ib qiliShdir.

DINIY MUTAASIBLIK – o'z aqida va g'oyalarining Shak–Shubhasiz to'g'riligiga qattiq iShoniSh, ularga mukkasidan berilganlikni, boShqa firqa va mazhablarga murosasiz munosabatni ifodalovchi qaraShlar va xatti–harakatlar majmui.

DINIY SEKTA – ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid raviShda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruh.

DINIY TASHKILOTLAR – bir din izdoShlarining dinga e'tiqod qiliSh, ibodat, rasm–rusum va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlaShmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv Yurtlari, masjid, cherkov, sinagoga, monastir va boShqalar).

DODGOH – Zardushtiylikda hamma uchun ochiq bo'lgan muqaddas olov yoniq turadigan xona.

DY AUS, VARUNA, INDRA – vedizm da turli osmonlarni boShqarib turuvchi osmon xudolari. Varuna keyinchalik suv va dengizlar xudosiga aylanib ketgan.

DO'ZAX -ko'pchilik diniy ta'limotlarga ko'ra, din talablarini bajarmagangunohkorlar oxiratda jazolanadiganjoy. Yahudiylik, xristianlik, islom dinlaridagi asosiy tuShunchalardan biri.

EKSTREMIZM - (lot. - o'ta, keskin) – siyosatda va mafkurada aShaddiy, favqulodda harakat va qaraShlarga asoslanib faoliyat YuritiSh. E.ning siyosiy va diniy ko'rinishlari yaqqol ajralib turadi.

ERLIK – Tangrichilik e'tiqodiga ko'ra, erkak jinsidagi o'lim sababchisi va makoni er ostida bo'lgan ma'bud

E'TIQOD - ayrim Shaxs yoki jamoa, guruh va jamiyat a'zolarini ma'lum bir g'oya, ta'limot, Shu jumladan biror dinga qat'iy iShoniSh asosida Shakllangan tasavvur, qaraSh va ilmlardan tashkil topadi. BoShqacha aytganda ma'lum bir qadriyatlar, diniy yoki dunyoviy maslaklar, munosabatlarning inson qalbida yaShaSh falsafasi yoki faoliyat dasturi sifatida qabul qiliniShidir.

FARISHTA - iudaizm, xristianlik, islom va boShqa ba'zi dinlarda xudoning amrini bajaruvchi g'ayritabiiy mavjudot. FariShtalar son-sanoqsiz bo'lib, har biri ma'lum vazifani bajaradi. Masalan, islomda har bir odamning savob va gunoh iShlarini hisobga olib Yuruvchi fariShtalar, jannat va do'zaxda darvozabonlik qiluvchi, odamlarni qabrda so'roq qiluvchi (Munkar va Nakir), arShni ko'tarib turuvchi va boShqa xizmatlarni bajaruvchi fariShtalar mavjud deb qaraladi. Bu fariShtalardan 4 tasi: Azroil, Jabroil, Mikoil, Isrofil boSh FariShta hisoblanadi.

FARZ – islom dini ta’limotiga ko‘ra, inkor qilib bo‘lmaydigan darajada qat’iy dalil bilan bajarilishi talab qilingan amal.

FE’LIY SUNNAT – Rasululloh (a.s.)dan sodir bo‘lgan Shar’iy ishlar yoki sahobiylar Payg‘ambar (a.s.)ning bajargan ishlaridan naql qilgan narsaga.

FIQH - (arab. – biliSh, tuShuniSh) – musulmon huquqshunosligi, Shariat qonunqoidalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi islom ta’limotining bir sohasi.

FIRQA - (ko‘pligi firoq; sinonimlari milla, toifa, sinf) - aqidga doir bir yoki bir necha masala yuzasidan maxsus fikrga ega bo‘lgan kishilarning tashkiliy guruhi; maktab, jamoa. Muhammad musulmonlar jamoasi 73 firqaga bo‘linib ketadi deb baShorat qilganlar. Faqixdar diniy-siyosiy guruhlar, ilohiyot maktablari, jamoa va boShqalar o‘rtasida qat’iy chegara qo‘ymay, Firqani musulmonlar jamoasi bo‘linadigan birliklardan birini anglatuvchi istiloh ma’nosida qo‘llaganlar.

FUNDAMENTALIZM - keng ma’noda – muayyan ta’limot aqidalarining o‘zgarmasligini e’lon qiladigan, e’tiqodni akl dalillaridan ustun qo‘yadigan, ilohiy kitoblardagi vahiy qaysi ma’noda bayon etilgan bo‘lsa, shu ma’noda qabul qilinishini talab etadigan, ayni vaqtda ularni majoziy ma’noda talqin etishga har qanday urinishlarni rad etadigan, din asoslarini og‘ishmay bajariшни qattiq talab qiladigan ijtimoiy, mafkuraviy, diniy yo‘naliShlar. Tor ma’noda – protestantizmdagi ortodoks oqimlar. 1910-yillarda AQSHning jan. Shtatlarida paydo bo‘lgan. Ular xristianlikning an’anaviy aqidalariga, ayniqsa, Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonchni mustahkamlaShni, uni so‘zma-so‘z SharhdaShga qat’iy rioya qiliShni talab qiladilar.

HADIS – Payg‘ambar (a.s.)ga nisbat berilgan gaplar.

HAJ – qodir bo‘lgan kishi uchun umrida bir marta Makka Shahridagi Ka’bani ziyorat qiliSh va uShbu ibodat o‘z ichiga oladigan arkonlarni ado etishdan iborat.

HAROM – atamasi islom ta’limotiga ko‘ra, inkor qilib bo‘lmaydigan darajada qat’iy dalillar bilan bajarilishi taqiqlangan amal.

IBODAT - so‘zi arab tilida bir-biriga zid bo‘lgan ikki tuShunchani – muloyimlik va o‘zini past oliSh» hamda «Shiddat va qo‘pollik» ma’nolarini anglatadi. Ulamolar uni quyidagicha ta’riflaydilar: «Ibodat Alloh taolo yaxshi ko‘radigan va rozi bo‘ladigan barcha zohiriy va botiniy gap-so‘zlar va amallardir».

IJMO‘ - «to‘plamoq», «jam qilmoq», u yoki bu masalada «bir fikrli bo‘lmoq» ma’nolarini anglatadi. Uning istilohiy ma’nosi quyidagicha: Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam davrlaridan keyingi asrlardan bir asrdagi mujtahidlarning biror amal (holat)ning Shar’iy hukmida ittifoq (bir fikrda) bo‘lishlari ijmo‘, deyiladi. Ijmo‘ bilan sobit bo‘lgan hukm qat’iy hukm hisoblanadi. Ijmo‘ bilan hukm sobit bo‘lishini inkor qilgan kishi kofir bo‘ladi (Bazdaviy).

ILM AL-JARH VA-T-TA’DIL – roviylarning adolati va zabti haqida bahs Yuritib, ularning ishonchli yoki ishonchsizligi haqida yakuniy xulosa chiqaruvchi roviyga tanqidiy yondaShiSh ilmi.

ILM AR-RIJOL – roviy haqida to‘liq ma’lumotni o‘rganuvchi hadis ilmi sohasi.

ILOHIY KITOB – Alloh tomonidan payg‘ambarlarga nozil qilingan Zabur, Tavrot, Injil va Qur‘on kitoblari.

IMON – iShonmoq, tasdiqlamoq bo‘lib, istilohda esa «La ilaha illallohu Muhammadun rasulullohu» («Allohdan o‘zga iloh yo‘q va Muhammad – Allohning payg‘ambari») kalimasini til bilan aytib (al–iqrar bi–l–lison), dil bilan tasdiqlaSh (at–tasdiq bi–l–qalb) demakdir.

INDRA – zo‘rlik, zulm ma‘budi, Axriman tarafdori.

INJIL – (Yunoncha, «Evangelië») «YAngi Ahd»dagi Mark, Matto, Luqo va YUhannolardan rivoyat qilingan kitoblar nazarda tutiladi. Ularda Iso Masihning hayot yo‘li va mo‘‘jizalari bayon qilingan.

INTEGRATORLIK - Dinning individ, guruh va institutlarni birlashtirish vazifasi. Integratsiya shaxslar, ayrim ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, bir butun jamiyatdagi barqarorlik va chidamlilikni saqlaydi.

ISLOM – (arabcha, taslim bo‘lish, bo‘ysunish) yagona Allohga bo‘ysunish ma‘nolarini beradi.

IEGOVO SHOHIDLARI - protestantlik yo‘nalitylaridan biri. 1873 yilda CHARLZ Teyz Rassel (1852-1916) tomonidan asos solingan.

KALOM – so‘z, nutq ma‘nosini bildiradi. Mo‘‘taziliylar paydo bo‘lgandan keyin aqida ilmining nomi «kalom» deb atala bo‘shlangan.

KARDINALLAR KOLLEGIYASI – Rim katolik cherkovidagi oliy kengash. Papa o‘rni bo‘shab qolganda uning vazifasini bajariSh va yangi Papani saylaSh vazifalarini bajaradi.

KASTA – hinduiylikda ayni ish bilan shug‘ullanuvchi, otalardan meros qolgan haq, vazifa va odatlar bilan qattiq bog‘langan shaxslar toifasidir. Kasta insonlar tomonidan saylanmaydi va tanlanmaydi, uning ichida faqatgina dunyoga keliSh mumkin. Bu tizim 4 sinfdan tashkil topadi.

KIBERMAKON - dunyo kompYuter tarmoqlarining «virtual» umumiy majmui. Ushbu atama 1984 yilda Uilyam Gibsonning «Neyromant» («Neuromancer») romanida qo‘llanilgan, hozir esa global axborot makonini ifodalaSh uchun ishlatiladi.

KIBERMAKON VA DIN - kibermakonda diniy jarayonlar ko‘rinishlari quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: muloqot, ma‘lumot, ta‘lim, tajriba, amaliyot, missionerlik, marketing, shifo va bo‘shqalar.

KIBERNETIKA (Yunoncha, bo‘shqariSh san‘ati) – axborotni qabul qiliSh, uni qayta ishlaSh hamda undan turli jarayonlarni bo‘shqariShda foydalaniSh bilan shug‘ullanadigan fan.

KOMPENSATORLIK - Dinning odamlarning ongini qayta shakllanishini, ham turmushning ob‘ektiv shart-sharoitlarini o‘zgartirishdagi cheklanish, qaram bo‘lish va o‘zlikni to‘ldirish vazifasi.

KONFESSIYA - (lot.confessio-tan olish)din dinning o‘ziga xos xususiyati va diniy e‘tiqodga sodiq qolgan imonlilarni birlashtirishdir.

KOSTEL (polyakcha, chexcha, «cherkov») – Rim katolik cherkoviga qaraShli ibodatxonalarga nisbatan ishlatiladigan atama. Ushbu atama pravoslav yoki protestant cherkovlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

KRISHNA – «qora» ma’nosini anglatadi, o‘zining tabiiy kelib chiqishiga ko‘ra juda murakkab obraz. U haqda olov, chaqmoq, momaqaldiraq, osmon, quyoSh bilan bog‘liq afsonalar mavjud. KriShna jangovar, engilmas qahramon sifatida ta’riflanadi. U uruShda ham, sevgida ham engilmas bahodir, ammo juda ayyor tabiatga ega.

KRISHNANI ANGLASH JAMIYATI - 1965 yilda A.CH.Bxaktivedanta Svami tomonidan AQSHda asos solingan. Odam qiyofasidagi xudo KriShna (ViShnu)ga e’tiqod qiliShga asoslangan hinduiylikning ikki asosiy yo‘naliShlaridan biri

KSHATRIY – hind kasta tizimida hokim va jangchilar tabaqasi.

KO‘PXUDOLIK - Politeizm, ko‘p xudolarga e’tiqod qiliSh. Monoteizmning aksi. Qad. Misr, YUnoniston, Rimdagi dinlar P.ga asoslangan dinlardir

LUQO (Luka) – «YAngShi Ahd» tarkibiga kiruvchi to‘rt Injil mualliflaridan biri. Xristianlik tarixida Bibi Maryamning suratini chizgan birinchi inson sifatida tanilgan. Iso Masihning 70 havoriylari qatoriga kiradi.

«LYU I»NING OLTi SAN’ATI – Mil.avv 6–5 asrlarda Xitoyda diniy marosimlarni bajariSh, musiqani tuShuniSh, o‘qiSh, sanaSh, ikki g‘ildirakli jang aravasini boShqariSh va kamondan o‘q otiSh san’ati Shunday nom bilan atlagan va uni egallagan odam bilimli hisoblangan.

MAZHAB - (arab. – yo‘naliSh, oqim, yo‘l, ta’limot), Shariat mazhablari – islomda diniy huquq tizimlari va yo‘naliShlari. VIII–IX-asrlarga kelib Shariatning ShakllaniShi jarayonida xuquqShunoslik – fiqx. sohasida juda ko‘p M.lar Yuzaga kelgan.

MAVZU – Rasululloh (a.s.)ga nisbat berilib to‘qilgan yolg‘on hadis.

MAGEN DAVID – Yahudiylilik dinining ramzlaridan biri bo‘lmiSh olti bo‘rchakli «Dovud Yulduzi».

MAKRUH – bajariliShi yomon sanalgan amal.

MARK – «Injil» mualliflaridan biri. Havoriylardan Pyotrning Shogirdi bo‘lgan. Aleksandriyada cherkov tuzib, o‘zi birinchi episkop bo‘lgan.

MATTO (Matfey) – «Injil» mualliflaridan biri, Iso Masihning 12 asosiy havoriylaridan biri. «Injil»da Leviy Matfey va Leviy Alfeev nomlari bilan ham tilga olinadi.

MAHAYANA – «katta g‘ildirak», ilk buddaviylikning diniy–axloqiy yo‘naliShlaridan bo‘lib burchga sodiqlik, pok bo‘liSh haqidagi qaraShlardan Yuzaga kelgan.

MAHSHAR – qiyomat kuni bandalar yig‘iladigan va savol–javob bo‘lib o‘tadigan joy

MASHHUR – isnod yo‘llarining har birida uchta va undan ortiq Shaxslar tomonidan rivoyat qilingan va mutavotir darajasiga etmagan hadislar.

MEDITATSIYA – «fikrlaSh, o‘ylaSh», Shaxsning o‘z ruhiy faoliyatiga chuqur beriliSh holati, muroqaba, hikmat va haqiqat haqidagi ilm.

MEHRJON – 23 sentyabr kuni niShonlanadigan Hosil bayrami.

MILLIY DINLAR - Milliy dinlar deb, odatda bir millatga mansub xalqlar e'tiqod qiladigan dinlar tuShuniladi. Bunday dinlar ShakllaniShining dastlabki va eng sunggi davrlarini bir-biridan farqlaSh lozim.. dastlabki milliy dinlar quldorlik jamiyatida vujudga kelgan bo'lib, odatda, politeistik ya'ni kup xudolik dinlari bo'lgan.

MIRO MOYI (Yunoncha, «xuShbo'y moy») – xristianlikning etti sirli marosimlaridan birida tanaga suriladigan xuShbo'y moy. UShbu moy cherkov episkopi tomonidan oliy navli zaytun moyiga oq uzum vinosi, atirgul yaproqlari, binafsha, zanjabil ildizlari, muskat, atirgul, chinnigul va limon moylari kabi maxsulotlarni qo'Shib qaynatiSh orqali tayyorlanadi.

MISSIONERLIK – bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boShqa bir dinni targ'ib qiliSh bilan bog'liq nazariy qaraShlar va amaliy xatti-harakatlar majmui.

MITRA (avesto, do'stlik, keliShuv) – inson vafotidan so'ng uning ruhini himoya qiluvchi ezgulik yazatlaridan biri.

MOBAD – diniy marosimlarni avloddan avlodga saqlab qoliSh mas'uliyatini olgan, ruhoniylar oilasi, o'rta maqomli ruhoniylar.

MONASTIR – xristianlikda ruhoniylar jamiyatdan ajralib, faqat ibodat bilan Shug'ullanadigan joy, muassasa. Ayollar va erkaklar uchun mo'ljallangan monastirlar mavjud.

MONIYLIK - 3-asrda eronda vujudga kelgan psevdooqim. Asoschisi Moniy ibn Fatak. M. koinotda nur bilan zulmat, ruhiy asos bilan moddiy asos, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi o'zaro kuraShni e'tirof etishga asoslanadi.

MORMONLAR - 1830 yili NYu-YOrk (AQSH) Shahrida Jozef Smit (1805-1844) ismli Shaxs tomonidan asos solingan. Iso Masihning qayta tiriliSh joyi Amerika qit'asi, YAngi Quddus Amerikada quriliShi, unda mormonlar najot topiShini ilgari suruvchi oqim.

MOTURIDIYLIK - movarounnahrlik olim, buYuk ajdodimiz Abu Mansur Moturidiy (870–944) asos solgan. Moturidiy sof diniy aqida doirasidan chiqmagan holda aql-idrokni ulug'laydi va mantiqan asoslangan bilimning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

MUBOH – islom Shariati qiliSh yoki qilmaslikni kiShilar ixtiyoriga qo'ygan amallar.

MUJTAHID - so'zi lug'atda intilganiga etish uchun butun kuch quvvatini sarflovchi ma'nosini bildiradi. Istilohda Shar'iy hukm chiqariSh salohiyatiga ega faqih mujtahid deyiladi.

MUQADDAS YOZUV, XUSHXABAR – xristianlikning muqaddas kitobi «Injil»ga nisbatan iShlatiladigan nomlar.

MUQADDAS RIVOYATLAR – «Bibliya» tarkibiga kirmagan, cherkov avliyolari tomonidan qabul qilingan hujjatlar va nomalar.

MUQADDAS RUH – xristianlikda Xudoning uch ko'riniShidan biri. Muqaddas Ruh dunyoning yaraliShida iShtirok etgan, Bibi Maryam ham u orqali Isoga xomilador bo'lgan.

MUSANNAF – hadis to'plamlarining muayyan mavzularga ajratilgan turi.

MUSNAD – 1. Isnodi muttasil raviShda o‘z nihoyasiga etgan hadis, ya’ni sanadi bilan rivoyat qilingan hadis. 2. Sanad, isnod so‘zlarining sinonimi. 3. Hadis to‘plamlarining turi.

MUTAASSIBLIK - ma’lum bir mafkura va qaraShlarga, ayniqsa, diniy-falsafiy, milliy va siyosiy sohalarda haddan ziyod, ko‘r-ko‘rona va hissiyotlarga berilib ergaShiSh va ularga amal qiliSh. Qandaydir tuShunchalarga, e’tiqodga yoki dunyoqaraShga sodiqlikning eng so‘nggi darajasi. Mutaassiblikning eng keng tarqalgan ko‘rinishi bu - diniy mutaassiblik.

MUTAVOTIR – yolg‘onga yo‘l qo‘yiShi mumkin bo‘lmagan rostgo‘yligi e’tirof etilgan kiShilarning boShdan oxirigacha o‘zlari kabi kiShilardan naql qilgan rivoyati.

MUTAKALLIM – kalom ilmi bilan Shug‘ullangan olimlar «mutakallim» deb atalgan.

MUTTASIL – isnodi uzluksiz bo‘lgan marfu’, mavquf hadislar. YA’ni roviylar silsilasi – sanad uzluksiz Rasululloh (a.s.)ga etib borgan bo‘ladi.

MO‘TAZILIYA – (arabcha, «ajralib chiqmoq») islom olamida birinchi paydo bo‘lgan, eng katta, adaShgan e’tiqodiy ta’limotning nomi.

NAVRO‘Z – yilning kun va tuni teng bo‘lgan 21 martda niShonlanadigan ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasiga bag‘iShlangan yangi yil bayrami.

NAQLIY DALIL – aqliy dalildan farqli raviShda naqliy dalil faqat Qur’on va sunnatga asoslangan.

NAMOZ – har bir musulmon kiShining kuniga beSh mahal poklanib, qibla tomonga Yuzlangan holda amalga oShiradigan farz ibodati.

NESTORIANLAR - xristianlikning Sharqiy yo‘naliShi bo‘lib, Xalifa saroylarida nestorianlik patriarxlariga butun Sharq xristianligining homiysi sifatida qaralgan, patriarxning qarorgohi esa Konstantinopoldan Bag‘dodga ko‘chirilgan. Nestorianlar xristianlikni Turkistonda, amurgacha bo‘lgan SHimoliy va G‘arbiy Xitoyda targ‘ib qilganlar. Nestorianlikning Markaziy Osiyodagi tayanchi va islomga qarShi kuraShdagi markazi 1257 yildan so‘nggina o‘z faoliyatini to‘xtatgan Samarqand mitropoliyasi bo‘lgan.

NOUS – inson vafotidan so‘ng undan qolgan suyaklar saqlanadigan maxsus quticha bo‘lib, u daxmaga qo‘yilgan.

OLQISH - tangrichilikda «Qo‘Shiqlar to‘plami» bo‘lib, unda tangrichilik aqidasi, marosimlari va ibodat qiliSh tartiblari bayon etilgan.

OQ VA QORA RUHONIYLAR – pravoslav ruhoniylari qatlami. «Oq» ruhoniylar oila quriSh huquqiga ega, «qora» ruhoniylarga esa oila quriShi mumkin emas.

ORIYLAR – oq tanli qavm hisoblanib, Hazar, ya’ni, hozirgi Kaspiy dengizining Shimoliy, evropaning Shimoli yoki Turkmaniston mintaqasida miloddan avvalgi XVII – XVI asrdan XII asrgacha turli qabila va guruhlar Shaklida yaShaganlar.

OSOR – xabar, sunnat va hadisning sinonimi sifatida iShlatiladigan atama. Osor odatda sahobiylar yoki tobe’iylarga mansub so‘zlarga nisbatan qo‘llaniladi.

OTA XUDO – Xristianlikda Xudoning uch ko‘riniShidan biri va asosiysi. Ota Xudo dunyoni yaratgan bo‘lib, uchlikning qolgan ko‘riniShlari (O‘g‘il Xudo va Muqaddas Ruh) undan kelib chiqqan.

OXIRAT KUNI – odamlar qayta tirilib, hayoti davomida bajargan har bir amali uchun hisob–kitob qilinadigan kun. U Qiyomat kuni deb ham ataladi.

OYAT – (arabcha, «belgi, mo‘‘jiza») Qur‘on suralarini tashkil etuvchi qism, «jumlalar».

PAYG‘AMBAR – Allohning erdagi elchisi bo‘lib, odamlarni Allohga ibodat qiliShga chaqiruvchi va oxirat haqida xabar beruvchi kiShi

PANCHA SHILA – buddaviylikda beSh nasihat, ya‘ni qotillik, o‘g‘rilik, gumrohlik, yolg‘on, mast qiluvchi narsalardan saqlaniSh.

PASTOR (lotincha, cho‘pon) – protestantlikdagi cherkov rahbari. Pastorlar ommaviy ibodatlarda ma‘ruzalar o‘qiSh va cherkovning ichki faoliyatini boShqariSh bilan Shug‘ullanadi.

PASXA (Yunoncha, ivritcha – «yonidan o‘tiSh») – xristianlikdagi asosiy diniy bayramlardan biri. Iso Masihning qayta tirilgan kuni Sharafiga niShonlanadi. Hozirgi kunda Pasxa kuni Oy–QuyoSh kalendari asosida hisoblanib, har yili o‘zgarib turadi.

PORSIYLAR – VII asrda eronga islomning kirib keliShi oqibatida Hindistonga ko‘chib o‘tiShga majbur bo‘lgan Zardushtiylarning bugungi kundagi avlodlari.

PRESVITER (lotincha, «oqsoqol, jamoa boShlig‘i») – xristian ruhoniylilik ierarxiyasida Yuqori o‘rinni egallovchi diniy lavozim. Qadimda episkoplar ham presviter deb ataliShgan.

PROZELITIZM - bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron bir dinga iShongan fuqaroni o‘z dinidan voz kechiShga va o‘zga dinni qabul qiliShga majbur qiliShdir.

PYATIDESYATNIKLAR – protestantlikdagi eng yirik yo‘naliShlardan biri. O‘zlarini Iso vafotidan 50 kun o‘tgach Muqaddas Ruh in‘omiga ega bo‘lib, turli notaniSh tillarda gapira boShlagan havoriylarning izdoShlari, deb hisoblaganlari uchun Shu nomni qabul qilganlar.

QIYOMAT – (arabcha, «tik turiSh», «o‘rindan turiSh») o‘liklarning qayta tiriliShi va o‘rnidan turiShi.

QUDSIY HADIS – Ma‘nosi Alloh taolodan bo‘lib, aytilishi, ya‘ni lafzi Rasululloh (a.s.)dan bo‘lgan hadislar.

QUR‘ONI KARIM – Islom dinining birlamchi muqaddas manbasi bo‘lib, 23 yil mobaynida Muhammad payg‘ambar (a.s.)ga Jabroil fariShta (a.s.) orqali ba‘zan oyat–oyat, ba‘zan esa to‘liq sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitob.

QUT – Quvvat, kuch, energiya manbai. Tangrichilik e‘tiqodiga ko‘ra, u insonning moddiy tirikligi sababidir.

REGULYATORLIK - Dinning ma‘lum bir g‘oyalar, qadriyatlar, yo‘l–yo‘riqlar, stereotip qoliplar, fikrlar, an‘analar, rusumlar, institutlar orqali individ, guruh va jamoalarning faoliyati, munosabatlari, ongi va axloqini boShqariShdan iborat

RIG VEDA – «Madhiyalar vedasi», xudolarga aytilgan madhiyalar to‘plami bo‘lib, tangrilarni ulug‘laSh maqsadida yozilgan, 1017 ta ilohiydan tashkil topgan. Har bir ilohiy 10 ga yaqin «oyat»dan iborat. Bu ilohiyalar o‘nta kitob, ya’ni Mandalaga bo‘linadi. Ular ichida eng uzuni 191, eng qisqasi 43 ta ilohiydan iborat.

RIM PAPASINING QARORLARI – turli davrlarda Papa tomonidan chiqarilgan din sohasidagi qarorlar. Rim katolik cherkovi aqidasiga binoan Papaning qarorlari ham muqaddas ahamiyatga ega.

ROJDESTVO – Xristianlikning asosiy bayramlaridan biri. Iso Masihning odam tanasida mujassam bo‘lib tug‘iliShi kuni munosabati bilan o‘tkaziladi. UShbu bayram haqidagi ilk ma’lumotlar IV asrga tegiShli xristian manbalarida qayd qilingan.

ROHIB (Yunoncha, monax – «zohid») – xristianlikda dunyoviy lazzatlardan tarkidunyochilik qilib, faqat ibodat bilan Shug‘ullanuvchi Shaxs.

RO‘ZA – yilda bir oy – hijriy qamariy kalendarning Ramazon oyi davomida kunduz kunlari eyiSh–ichiSh va jinsiy aloqada bo‘liShdan tiyiliSh.

SAHIH – isnodi boShidan oxirigacha adolatli, aniqlik egasi bo‘lgan kiShining o‘zi kabi kiShidan rivoyat qilgan, Shozz (o‘zidan kuchliroq roviyga qarShi turiSh) va illatli (noqislik) bo‘lmagan hadis.

SAHOBIY – Rasululloh (a.s.)ni imon keltirgan holda ko‘rgan va Shu musulmonlik holida vafot etgan kiShi.

SEKTA - faqat o‘zini «haq din», insonlarni «najotga etkazuvchi» deb da’vo qiladigan, aslida esa muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlaydigan guruhdir.

SEKULYARIZM - so‘zi lotincha «saeculum» so‘zidan olingan bo‘lib, «dunyoviy» degan ma’noni anglatadi. U davlat va jamiyat boShqaruvida diniy an’analar o‘rnini dunyoviy qonunchilik tizimi egallaShiga nisbatan iShlatiladi.

SINAGOGA (Yunoncha, «sinagoge» – «yig‘iliSh», ibroniycha «beyt kneset» – «yig‘iliSh uyi») – Yahudiylikda asosiy ibodat va marosimlar o‘tkaziladigan joy.

SOXTA SALAFIYLAR - islomdagi ahkom va fatvolarni har bir zamon taqozosiga qarab emas, hijriy sananing dastlabki uch asriga muvofiq raviShda hayotga tatbiq etishni targ‘ib qiluvchi oqim.

SPENTA–MANYU – Zardushtiylikda yorug‘lik, yaraliSh ibtidosi ma’budi, Axura Mazda tarafdori.

SUNAN – Hadislar «tahorat» bobidan «vasiyatlar» bobigacha fiqh tartibi bo‘yicha jamlangan to‘plamlar.

SUNNAT – islom Shariatiga ko‘ra, zimmaga Yuklanmagan, lekin bajariliShi talab qilingan amal. U Payg‘ambar (a.s.)ning pokiza sayratlari, turmuSh tarzlari, diniy yo‘llaridir. Uchga bo‘linadi: qavliy, fe’liy va taqririy.

SUNNIYLIK (sunna so‘zidan) - islom dinidagi 2 asosiy yo‘naliShdan biri va eng keng tarqalgani. Jahondagi barcha musulmonlarning taxminan 93% i mansub.

SUR – Ruh, ichki quvvat. Tangrichilikda u Tangri tomonidan insonga puflaSh orqali kiritilgan deb e’tiqod qilingan.

SURA – Qur’ondan bir bo‘lak bo‘lib, eng kami uchta, eng ko‘pi 286 oyatni o‘z ichiga oladi.

TAVOF – Ka’baning atrofini aylaniSh.

TAQDIR - oldindan belgilab qo’yilgan hodisalar to’plami va ketma-ketligi. Inson yoki guruhning oldindan belgilangan hayot yo’li.

TAQRIRIY SUNNAT – sahobiylar tomonidan qilingan biror xatti–harakat yoki gap–so’zga Payg’ambar (a.s.)ning indamasliklari yoki ma’qullashlari.

TANGRI – Tangrichilik e’tiqodining boSh va yagona Osmon xudosi, Tangrixon deb ham ataladi.

TERRORIZM - (lot. terror – qo’rqinch, dahshat) – siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo’qotish yoki qo’rqitish, aholi o’rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo’ravonlik harakatlari (ta’qib qiliSh, buziSh, garovga oliSh, qotillik, portlatish va boShqalar). Terrorizm yakka tartibdagi va guruhli terrorizm (mas., ekstremistik siyosiy to’dalarning harakatlari kabi) toifalarga bo’linadi.

TRIPITAKA (TIPITAKA) – uch savat donolik, duolar shaklidagi buddaviylikning muqaddas kitob.

TRIMURTI – ya’ni, uchlik – Braxma, Vishnu, Shiva xudolari asosiy xudolar hisoblanib, Braxma ularning eng kattasi, dunyoni yaratgan xudo hisoblanadi. Biroq, hinduiylikda faqatgina Vishnu va Shiva’gagina sig’inadilar. Shunga binoan, hinduiylik ikki asosiy oqimga bo’linadi: Shivaga sig’inuvchilar va Vishnuga sig’inuvchilar.

TURK HOQONLIGI – 552–603 yillar davomida zamonaviy Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Mo’g’uliston, Manjuriya (Shimoliy–Sharqiy Xitoy) va Shimoliy Kavkaz hududlarini o’z ichiga olgan Bumin hoqon asos solgan qadim turkiylar davlati.

TURKIYLAR – evroosiyo hududida miloddan avvalgi I ming yillikda asosan chorvachilik bilan shug’ullangan ko’chmanchi Oltoy qabilalaridan tashkil topgan zamonaviy turkiy xalqlar (o’zbek, turk, turkman, ozarbayjon, uyg’ur, qozoq, qirg’iz va boShqalar)ning ajdodlari.

TO’LIQ INJIL XRISTIANLARI – protestantlikdagi eng yirik yo’naliشلardan biri bo’lgan pyatidestyaniklikning ikkinchi nomi. «Injil»ga haqiqatan amal qiluvchi sof e’tiqod vakillari deb bilganlari uchun ham o’zlariga nisabatan Shunday nomni ishlatadilar.

ULUM AL–HADIS – hadislarni rivoyat qiliSh, ishonchli va ishonchsizini o’rganadigan ilm.

UMAY (Jumay) – tangrichilik e’tiqodiga ko’ra, ayol jinsidagi erdagi hayotning sababchisi va makoni er Yuzida bo’lgan ma’buda, «Hayot onasi» deb e’tiqod qilingan.

UPANISHADLAR – hinduiylikda ruhiy–ma’naviy yo’l hisoblanib, diniy takomillik zanjirining eng Yuqori martabasi hisoblanadi.

XABAR – Muhammad (a.s.)ning so’zlari va xatti–harakatlari haqida rivoyat (sinonimi hadis, osor).

XALQARO TERRORIZM - bir davlat hududi doirasidan tashqariga chiqadigan terrorizm; odamlarning behuda halok bo’lishiga olib keluvchi, davlatlar va ular rasmiy vakillarining normal diplomatik faoliyatini buzuvchi, hamda xalqaro

aloqalar va uchraShuvlarni, Shuningdek, davlatlar o'rtasida transport va boShqa aloqalarni amalga oShiriShni qiyinlaShtiruvchi xalqaro miqyosdagi ijtimoiy xavfli harakat va kilmiShlar yig'indisi. Xalqaro terrorizm 20-a.ning 60–70-yillariga kelib o'zini yaqqol namoyon kildi.

XALQIY SUNNAT – Rasululloh (a.s.)ning taShqi qiyofa va ko'riniShlari haqidagi sunnat.

XALOSKOR – Yahudiy va xristian atamasida messiya (ivritcha, maShiax; qadimgi Yunoncha, xristoc) . Yahudiylar aqidasiga ko'ra, xaloskor qiyomatga yaqin kelib Yahudiylarni najot sari etaklaydi. Yahudiy «messiyasi» dovud avlodidan bo'liShi Shart. Xristian aqidasiga ko'ra esa, xaloskor bu iso masihdir.

XARIZMATIKA – Yunoncha xudolarning in'omi ma'nosini beradi. Insonning boShqalarga deyarli hech qanday qarShilikka uchramasdan ta'sir qila oliSh xususiyati.

XORIJIYLAR - arab. - ajralib chiqqan, isyonchi. islomdagi ilk oqim tarafdorlari. Ular o'zlarini haqiqiy musulmon deb hisoblab, "dindand qaytgan", deb e'lon qilingan siyosiy va goyaviy raqiblarga nisbatan murosasiz bo'lgan. Xalifa Ali bilan umaviylar o'rtasidagi kuraSh davomida kelib, keyinchalik Ali(kv)ga ham, umaviylarga ham bab-baravar qarShi kuraSh boShlagan.

XINAYANA – kichik g'ildirak, najot topiShning tor yo'li.

XRAFSTRA (Jirkanchli) – Zardushtiylikda o'ldiriSh mumkin bo'lgan yovuzlik tarafdori deya e'tiqod qilinadigan yirtqich hayvonlar.

XUDONING RAHMATLARI – protestantlikning pyatidesyatniklik yo'naliShiga hos aqidalardan biri. Xudoning rahmatlari deganda Masihni qabul qiliSh, Muqaddas Ruh bilan cho'qintiriliSh va ruhiy qayta tug'iliSh nazarda tutiladi.

XUDO–ODAM – Iso Masihga nisbatan iShlatiladigan nom. Xristianlik aqidasiga ko'ra Iso asli xudo bo'lib, insonlarni xalos qiliSh uchun inson qiyofasiga kirgan.

XULUQIY – Rasululloh (a.s.)ning axloqiy sifatlari haqidagi sunnat.

XURDAK AVESTO («Kichik Avesto») – dindorlar kundalik faoliyati uchun «Avesto»ning ixchamlaShtirilgan Shakli.

YAKKAXUDOLIK - yolgiz bitta ilohga siginiSh, ilmiy tilda "monoteizm" deb ataladi

YANGI AHD – «Bibliya» qismlaridan biri. To'rt Injil, Havoriylar faoliyati kitobi, 21 ta havoriyning nomalari va YUhannoning «Vahiynomasi» ni o'z ichiga olgan, 27 kitobdan iborat.

YASNA – diniy marosimlarda o'qiladigan duolardan iborat bo'lgan 72 bobli «Avesto»ning bo'limi.

YASHT – «Avesto»ning 22 bobdan tashkil topgan ma'budlar Sha'niga aytilgan madhiyalardan iborat bo'li

ETTINCHI KUN ADVENTISTLARI - (lot. adventus – voqe bo'liSh) – xristian sektalaridan biri. 19-a.ning birinchi yarmida AQSHda vujudga kelgan. Sekta a'zolari "Iso-ning qaytib keliShi" yaqinligiga, xudoning ming yillik va tanho hukmronligi boShlaniShiga iShonadilar. Asoschisi baptist U. Miller (1782 – 1849).

ZABUR – Dovud paygʻambarga tuShirilgan kitob. «Qadimgi Ahd» tarkibiga kiritilgan boʻlib, turli qoʻShiq va madhiyalardan iborat.

ZAIF – sahih Shartlaridan birortasini yoʻqotgan va hasan darajasiga etmagan hadis.

ZAKOT – (arabcha, poklaSh) ehtiyojdan taShqari boʻlgan boylikning qirqdan bir qismini (2,5 %) sadaqa qiliSh. Zakot moli zakot miqdoriga etgan badavlat kiShilar uchun farz etilgan.

ZARDUSHT - (YUnoncha, Zoroastr, pahlaviycha - Zaraxustra “boqiy Yulduz” va “chiroyli tuyalarga ega boʻlgan”) - Spitama qabilasidan boʻlgan PouruShaspa oʻgʻli AShoga Zardushtiylik dinining asoschisi

ZEND (parfiyoncha, «Sharhlangan matn») – milodiy III asrga oid qonunlardan iborat Avestoning Sharhi.

SHAURVA – Zardushtiylikda qoʻrqoqlik, pastkaShlik maʼbudi, Axriman tarafdori.

SHIVA – oddiy xalq ommasi, kambagʻallar ilohiyoti hisoblanadi. U Rig Vedaning birinchi nusxalarida Rudra nomi bilan zikr etilgan. Atxarva Vedada Rudraning roli oShib boradi. YAjur Vedada Rudra Agni timsolida berilgan. U IShana, IShvara, Maxadeva (buYuk xudo) nomlari bilan ham ataladi.

SHIRK - arabcha Allohning Sherigi bor deb biliSh, koʻpxudolilik. Islomga koʻra, Allohdan boShqa "iloh"larga, Shuningdek, butlar va odamlarga sigʻiniSh katta gunoh, kufr hisoblanadi. Allohdan oʻzgaga topinuvchilar muShrikdirlar. Qurʼonga koʻra, SH. kechirilmaydigan gunoh hisoblanadi. Isteʼmolda kofirni muShrik, muShrikni kofir, deb atab kelinadi.

SHOMONLIK - SHomon tungus tilidan olingan soʻz boʻlib, u “oʻta hayajonlangan”, jazavali kiShi” degan maʼnoni bildiradi. SHomonizm turkiy xalqlarda “qam” dini deb ham atalgan. SHomonlar odamlar bilan ruhlar oʻrtasida vositachilik qiliSh qudratiga ega boʻlgan kiShilar boʻlib, Shomonizmga eʼtiqod qiluvchilarning fikriga koʻra, Shomonlar kelajakni oldindan aytib, uzoq joylardagi voqea-xodisalarni biliSh, kasalliklarni davolaSh, tabiat xodisalarini oʻzgartiriSh, vafot etganlarni narigi dunyoga kuzatib boriSh, yovuz ruhlar bilan jang qiliSh imkoniyatiga ega boʻlgan kiShilar boʻlib hisoblanar edilar.

V. Ilovalar.

Mavzular yuzasidan test topshiriqlari

1. Quyidagi fikrlar kimga tegishli. «Bu kitob bahs-munozara kitobi emas, tarix kitobidir. Hindlarning dinlarini ularning oʻzlaridan oʻrganib, fikrlarini tanqid qilmay bayon qilaman».

- | | |
|------------------------------------|------------------------------|
| A) Abu Mansur Abdulqodir Bagʻdodiy | B) Abu Muhammad Ali Ibn Hazm |
| C) Imom Gʻazzoliy | D) Abu Rayhon Beruniy |

2. Evropada zamonaviy maʼnodagi dinlar tadqiqotlari kim tomonidan boshlab berilgan.

- | | |
|-------------------------|---------------|
| A) Maks Myuller | B) S.R.Tile |
| C) Shantepi de la Sosse | D) Mixael Pay |

3. Konstitutsiyamizning qaysi moddasida Shunday deyiladi: “Diniy tashkilotlar va birlaShmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlaShmalarning faoliyatiga aralaShmaydi”.

A) 61 B) 31 C) 42 D) 27

4. Respublikamiz Prezidenti SH.Mirziyoev tomonidan 2017-yil 19-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida qanday maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi ilgari surildi.

A) Tolerantlik B) Diniy tashkilotlar va birlaShmalar
C) Diniy bag‘rikenglik D) Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik

5. O‘zbekistonda aqida ilmi maktabi qaerda tashkil etildi ?

A) Imom Moturidiy markazi qoshida
B) QaShqadaryoda Abul Muin Nasafiy markazida
C) Buxoroda – Bahouddin NaqShband markazida
D) Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida

6. Quyidagi qaysi so‘zlar Respublikamiz Prezidenti SH.Mirziyoevning BMT BoSh Assambleyasidagi nutqida keltirilgan.

A) «Muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kiSh bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz»
B) «jaholatga qarShi ma’rifat»
C) «Dunyoviylik — bu dahriylik degani emas »
D) «Samarqand Shahrida Sohibqiron Amir Temur davrida bunyod etilgan, Doniyor payg‘ambar nomi bilan ataladigan maqbara islom, xristian va Yahudiylik dini vakillari tomonidan birdek e‘zozlanadi.

7. Dinning regulyatorlik vazifasi nimalardan iborat.

A) to‘ldiruvchilik B) tasalli beruvchilik
C) birlaShtiruvchilik D) o‘z qavmlari turmuShini tartibga solib nazorat qiluvchilik

8. Islom ulamolari dinlarni necha xil turga ajratiShgan.

A) 2 xil «haq» va «botil»
B) 2 xil jahon dinlari va milliy dinlar
C) 2 xil yakkaxudolik va ko‘pxudolik
D) 3 xil Sakramental, Profetik va Mistik

9. Islom dinida diniy tortiShuv (munozara)larni o‘z ichiga olgan “maqola” keyinchalik “maqolot”lar nechanchi asrdan yozila boShlandi?

A) VII-VIII asrlarda B) VIII-IX asrlarda
C) IX asrda D) VII asrda

10. O‘zbekistonda Bahouddin NaqShband tavalludining necha yilligini o‘tkaziShga tayyorgarlik ko‘rilmoqda?

A) 710 yilligi B) 800 yilligi
C) 700 yilligi D) 750 yilligi

11. O‘zbekistonda Adliya organlaridan rasman ro‘yxatdan o‘tgan nechta diniy konfessiya mavjud?

- A) 16 ta B) 12 ta C) 11 ta D) 15 ta

12. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qaraShlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi” deyiladi?

- A) 61-modda B) 31-modda
C) 41-modda D) 27-modda

13. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida diniy-siyosiy partiyalar tuzish taqiqlangan?

- A) 61-moddasida B) 31-moddasida
C) 41-moddasida D) 57-moddasida

14. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qachon qabul qilindi?

- A) 1998-yil 1-iYul B) 1997-yil 1-oktyabr
C) 1998-yil 1-may D) 2000-yil 2-dekabr

15. Sovet tuzumi davrida O‘zbekistonda nechta islomiy diniy o‘quv Yurti faoliyat Yuritgan?

- A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta

16. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririda yoShlarga necha yoShdan diniy bilim beriladi?

- A) umumiy o‘rta ta’limdan so‘ng B) 3-5 yoShdan
C) 7-8 yoShdan D) xohlagan yoShdan

17. Diniy jamoa, tashkilotlarni Adliya vazirligida ro‘yxatda o‘tkaziSh uchun necha dindor imzo chekiShi kerak?

- A) 100 tadan kam bo‘lmagan B) 50-60 ta
C) 10 tagacha D) 20-30 ta

18. Quydagi qaysi tashkilot IHT(Islom hamkorlik tashkiloti)ning maxsus qarori bilan 1982-yilda tashkil etilgan?

- A) Islom olam uyushmasi
B) Islom olami kongresi
C) evropa islom kengaShi
D) Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha ixtisoslaShgan tuzilma(ISESCO)

19. “Imom Buxoriy xalqaro markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident qarori qachon qabul qilingan?

- A) 2008-yil 23-may. B) 2000-yil 25-iYul.
C) 1999-yil 21-fevral. D) 1998-yil 1-may.

20. Dinning qanday ijtimoiy vazifalari bor?

- A) Yo‘naltiruvchilik, prognozlovchilik, mafkuraviy, tarqatuvchanlik.
- B) To‘ldiruvchilik, dunyoqaraSh, jamlovchilik, tartibga soluvchilik.
- C) Xom-hayol to‘ldiruvchilik, ta’limiy, siyosiy, ahloqiy.
- D) Aloqa, xo‘jalik, ma’rifiy, xayriy.

21. Tangrichilik dini qachon paydo bo‘lgan?

- A) mil.avv. 2-ming yillik oxiri va 1-ming yillikda
- B) mil.avv VII asrda
- C) I asrda
- D) III asrda

22. Tangrichilik diniga ko‘ra erdagi hayotning sababchisi kim bo‘lgan?

- A) Tangri
- B) QuyoSh
- C) Umay
- D) erlik

23. Zardushtishlik diniga ko‘ra birinchi inson kim bo‘lgan?

- A) Zardusht
- B) Yima
- C) JamShid
- D) Govmard

24. Nechanchi yilda YUNESKO tomonidan Zardushtiylikning 3000 yilligi nishonlandi?

- A) 2001-yil
- B) 2007-yil
- C) 2003-yil
- D) 2005-yil

25. Moniylik dini 763-840 yillar davomida qaysi davlatning rasmiy dini bo‘lgan?

- A) eron podSholigi
- B) Uyg‘ur xoqonligi
- C) O‘g‘uz qabilalari
- D) Armaniston

26. O‘rta Osiyo hududlarida birinchi marta Buddaning loydan yasalgan tasviri qaysi Shahardan topilgan?

- A) Qoratepa
- B) Dalvarzintepa
- C) Ayritom
- D) Fayoztepa

27. O‘rta Osiyo hududlariga xristianlikning kirib kelishiga oid eng qadimgi ma’lumotlar qaysi shaharga tegishli?

- A) Samarqand
- B) Marv
- C) Hirot
- D) Fayoztepa

28. Qaysi xristian ruhoniysi «turkiylar apostoli» nomiga sazovor bo‘lgan?

- A) Ibn Masa
- B) Avliyo Ioann Krestitel
- C) episkop Iliya
- D) Marko Polo

29. O‘rta Osiyo hududlariga ilk yaxudiylarning kirib keliShi qachon sodir bo‘lgan?

- A) Mil. avv. 2 asrda
- B) Mil. avv. 1 asrda
- C) 2 asrda
- D) 1 asrda

30. O‘zbekistonning qaysi hududidagi g‘or devorlaridan xristianlik tarixiga oid Iso Masih go‘dakligi ifodalangan suratlar topilgan?

A) Jizzax viloyatida Vinkerd hududidan

B) Samarqand viloyati hududidan

C) Marvdan

D) Surhondaryo Zarautsoy g‘oridan

31. Markaziy Osiyoga ilk rus pravoslavlarning kirib keliShi qachon sodir bo‘lgan.

A) XIX asrning 40-yillarida

B) XIX asrning 90-yillarida

C) XIX asrning 50-yillarida

D) XX asrning boShlarida

32. Manbalarda qayd etiliShicha, VII-XII asrlar mobaynida Movarounnahrda qancha ko‘zga ko‘ringan muhaddislar yaShab, faoliyat Yuritganlar?

A) 600 ta

B) 1000 dan ortiq

C) 3000 dan ortiq

D) aniq soni ma’lum emas

33. XI asr boShida Buxoro jamoalari etakchilarining birlaShiShi natijasida paydo bo‘ladi.

A) ulamo instituti

B) akademiya

C) madrasa

D) olimlar jamiyati

34. Kimning davrida diniy ta’lim tizimiga yangiliklar kiritildi va mazkur tizim ba’zi kichik tafsilotlarni hisobga olmaganda, to XX asr boShlarigacha o‘zgarmay keldi?

A) Temuriy Shohruh

B) Muhammad SHayboniyxon

C) Amir Temur

D) Abdullaxon II

35. Qur’oni karimning ilk bor to‘liq raviShda zamonaviy o‘zbek tilidagi tarjimasi kim tomonidan amalga oShirilgan?

A) SHayx Muhammad Yusuf

B) SHamsiddinxon Boboxonov

C) Alouddin Mansur

D) Mutallib Usmonov

36. Islom ta’limotini o‘rganiShda eng ko‘p qo‘llangan atama «aqida» qanday manoni anglatadi?

A) itoat etish

B) huquq

C) mahkam bog‘laSh

D) to‘g‘rilik

37. Moturidiylik ta’limotiga hozirgi kunda sunniylikdagi mazhablarning qaysilari amal qiladilar?

A) Shofei

B) molikiy va hanafiy

C) molikiy, Shofei va hanbaliy

D) hanafiy

38. Ash’ariy va moturidiylik orasidagi asosiy farq nimadan iborat?

A) namoz o‘qiSh masalasida

B) imon masalasida

C) huquqiy masalalarda

D) farq qilmaydi

39. Qaysi buyuk alloma «ahli sunna homiysi» degan nomga sazovor bo‘lgan?

A) imom Ash’ariy

B) Imom Moturidiy

- C) Abul Muin Nasafiy D) Imom G‘azzoliy
- 40. Qaysi buYuk alloa «hidoyat imomi» degan nomga sazovor bo‘lgan?**
 A) imom ASh‘ariy B) Imom Moturidiy
 C) Abul Muin Nasafiy D) Imom G‘azzoliy
- 41. «Imon»so‘zining manosi nima?**
 A) bo‘ysunish B) ishonmoq, tasdiqlamoq
 C) ibodat qilish D) hidoyatga erishish
- 42. Hadislarga ko‘ra imonning nechta sharti mavjud?**
 A) beShta B) ettita
 C) uchta D) sakkizta
- 43. O‘zbekistonda qachon Qur’oni Karim yaxlit kitob holida chop etildi?**
 A) 1991-yilda B) 1992-yilda
 C) 1993-yilda D) 1994-yilda
- 44. Islom ta’limotiga ko‘ra qiyomatda insonlar savol-javobdan o‘tadigan joy bu ...**
 A) sirot ko‘prigi B) mahshar
 C) do‘zax D) jannat
- 45. Shom voliysi Muoviya xalifa Ali ibn Abi Tolibga qarshi chiqib, qanday Shart qo‘yadi?**
 A) hokimiyatdan voz kechish B) xalifa Usmon qotillarini topib jazolash
 C) ichki nizolarni tugatish D) xorijiyatlarni jazolash
- 46. Muhammad payg‘ambar (alayhis-salom) ummatlari nechta firqaga bo‘linishini aytganlar?**
 A) 71 B) 72
 C) 73 D) 75
- 47. Qaysi xalifa mo‘taziliylar ta’limotini davlat darajasiga olib chiqdi?**
 A) Xorun ar-RaShid B) Ma’mun
 C) Mutavakkil D) Mutasim
- 48. Islomda taqdir masalasida adaShgan deb tan olingan firqalardan qaysi biri quyida keltirilgan?**
 A) mo‘taziliylar B) mushabbihalar
 C) qadariylar D) jabariylar
- 49. “Madina imomi” unvoniga sazovor bo‘lgan maShxur olim kim?**
 A) Abu Hanifa B) Imom G‘azzoliy
 C) Muhammad ibn Idris SHofeiy D) imom Molik ibn Anas

50. Dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini qaysi din missionerlari tashkil etadi xristian?

- A) xristian
- B) Islom
- C) Buddaviylik
- D) Hinduizm

51. Dastlabki xalqaro xristian missiyalari qachon va qaerda paydo bo'lgan?

- A) 1920-yilda AQSHning Nyu-York Shahrida
- B) 1875-yilda Angliyaning London Shahrida
- C) 1910-yilda Shotlandiyaning Edinburg shahrida
- D) 1800-yilda Germaniyaning Dyusseldorf Shahrida

52. Faqat o'zini haq din, insonlarni najotga etkazuvchi deb da'vo qiladigan, aslida esa muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlaydigan guruh bu ...

- A) missionerlar
- B) terrorizm
- C) diniy ekstremizm
- D) sekta

53. O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunining nechanchi moddasida missionerlik va prozelitizm taqiqlangan?

- A) 5-moddasida
- B) 7-moddasida
- C) 9-moddasida
- D) 6-moddasida

54. O'zbekistonda faoliyat Yuritayotgan xristian missionerlarining qaysi bu Yuk o'zbek Shoiri She'rlaridan foydalanayotgani kuzatilmoqda?

- a) AliSher Navoiy
- b) Abdulla Oripov
- c) Lutfiy
- d) Bobur

55. Konfessiya so'zining lug'aviy manosi ko'rsating?

- a) lotincha - onfession - "xabarchi"
- b) lotincha - onfession - "e'tiqod qiliSh"
- c) lotincha - onfession - "amal qiliSh"
- d) lotincha - onfession - "iShonmoq"

56. O'zbekiston hududida sof islom ta'limotiga zid keluvchi g'oyalarni ilgari surgan norasmiy diniy jamoalar qaysilar?

- A) Ma'rifatchilar, BaxShillochilar
- B) SHohidiylar
- C) Bahoiylik, Ahmadiylar
- D) A va B javoblar to'g'ri

57. O'zbekiston hududida faoliyat yuritgan o'zini avval qiyomatdan oldin keladigan Mahdiy, keyinchalik esa payg'ambar deb atagan norasmiy diniy jamoa asoschisi kim?

- A) Bahodir Mamajonov
- B) Karimov Xabib
- C) Aliev BaxShillo
- D) Tohir Yo'ldoshev

58. Quyidagi qaysi atama dastlab 1984 yilda Uilyam Gibsonning Neyromant» ("Neuromancer") romanida qo'llanilgan?

- A) internet tarmog'idagi axborot urushi
- B) axborot asri
- C) Kibermakon
- D) Internet

59. "Axborot urushi" atamasi ilk bor kim tomonidan qo'llanilgan?

A) Gerbert Villiams

B) Uilyam Gibson

C) Tomas Rona

D) Robert Banker

60. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrini to‘djiring “..... yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega”

A) axborot urushi

B) mafkura poligonlari

C) mafkuraviy tahdidlar

D) diniy nizolar

5. 2016 yilda O‘zbekistonda necha kishi internetdan foydalandi

A) 16 million

B) 18 million


C) 20 million

D) 14 million

DINSHUNOSLIK FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI



2-chizma. DINNING FUNKSIYALARI



3-chizma. DINNING TARIXIY SHAKLLARI (tiplari)




4-chizma. DINNING IBTIDOIY SHAKLLARI



BUDDA TA'LIMOTI


БУДДАВИЙЛИК



IZTIROBLARDAN HALOS BO‘LISH




BUDDAVIYLIKNING YO‘NALISHLARI




MAHAYANA YO'NALISHI




XRISTIANLIKNING VUJUDGA KELISHI




XRISTIANLIK XUDOLARI




XRISTIANLIK TA'LIMOTIDAGI AQIDALAR



XRISTIANLIKNING SIRLI MAROSIMLARI



16-chizma. XRISTIANLIKNING MAROSIMLARI




XRISTIANLIKNING BO'LINISHI




ISLOMNING MUQADDAS MANBALARI



ISLOMDA IYMON AQIDALARI




ISLOM ARKONLARI







ISLOM DININING YO‘NALISHLARI





25-chizma. JAHON MUSULMONLARINING YO‘NALISHLARGA VA MAZHABLARGA MANSUBLIGI



ШИАЛИК АҚИДАЛАРИ



SHIALIKNING XUSUSIYATLARI



Baxolash mezonlari:
“a’lo” baho bilan baholanadi:

- talaba fan bo'yicha mustaqil mushohada yuritsa;
- falsafa fanining qonuniyatlari, kategoriyalari va metodologiyasining mohiyati va mazmunini tushunsa;
- falsafa faniga doir aniq tasavvurga ega bo'lsa, ularni jamiyat va inson faoliyatiga oid misollar orqali ifodalab bersa, ularni amaliy faoliyatda qgllay olsa;
- fan taraqqiyotining asosiy bosqichlarini bilsa;
- gtilgan mavzular bgyicha xulosa va qarorlar qabul qilsa;
- falsafiy tafakkur asosida ijodiy fikrlasa, tanqidiy munosabatlar bildirsa, o'z fikrini erkin bayon etsa;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil topshiriqlarni o'z vaqtida bajarsa va tgplagan ma'lumotlarida birinchi manbalarga murojaat etgan bo'lsa.

- “yaxshi” baho bilan baholanadi:**
- talaba fan bgyicha mustaqil fikrlay olsa, bildirilgan fikrlarini anglay olsa;
 - falsafa fanining muhim mezoniy tushunchalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lsa, uni bilsa va tushuntirib bera olsa;
 - falsafiy xikmatlarni amaliyotda qgllay olsa;
 - ma'ruza, seminar va mustaqil ish uchun berilgan topshiriqlarni bajarsa.

- “qoniqarli” baholanadi:**
- falsafa fanining asosiy me'zoniy tushunchalari va tamoyillarini tushinsa va aytib bersa;
 - ma'ruza, seminar mashg'ulotlari va mustaqil ishlarni yozgan va bajargan bo'lsa;
 - mashg'ulotlarda o'z mulohazasi bilan ishtirok etib tursa.

- “qoniqarsiz baholanadi:**
- falsafa fani va uning qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo'lmasa, ularning mohiyatini tushinmasa;
 - seminar mashg'ulotlarida JN va ON larni topshira olmagan bo'lsa;
 - ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil topshiriqlarni yozmagan va bajarmagan bo'lsa;
 - darslarni sababsiz qoldirgan bo'lsa;
 - darsda faol bo'lmasdan va intizomsizlik qilsa.

Tuzuvchilar: dos. A. Mirzaxmedov

Foydalanilgan manba va adbiyotlar:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekistan davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O'zbekiston, 2016. -53 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. -T.: Uzbekiston, 2017 -484 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: 2017. - 28 b.

4. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlariga Murojati.// Xalq so'zi -2017. 22 deqabr..

5. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundaliq qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017. - 104 b.

6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. 2-nashr. -T.: Ma'naviyat, 2016, -176 b.

7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.—Toshkent: O'zbekiston, 2017.

Asosiy adabiyotlar:

1. Falsafa / Z. Davronov va boshq. -T.: TMU. 2019
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. -T.: UFMJ, 2010.
3. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. - T.:O'zbekiston, 2016.
4. Основны философии. Учебник. Издание 2-е,под ред. М.А.Ахмедова, V.S.Хана. - T.: Мехнат. 2004.
5. Пўлатова D., Иззетова Э. Философия. -T.: Sharqshunoslik, 2012. 340-b
6. Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida. -T.: UFMJ, 2006.
7. Xusanov B. Gulomov V. Muomala madaniyati. Darslik.- T.: Iqtisod-moliya, 2010.
8. Sharipov M. Fayzixo'jaeva D. Mantiq. -T.: Unversitet, 2007.
9. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2020. - 667 b.
10. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2020. - 667 b.
11. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Idris, 2020.
12. Masharipova G. Religiovedeniye T.: Navroz, 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. -T.:Yangi asr avlodi, 2016.318 b.
2. Allayarova S. Badiiy ijod germeneytikasi - T.: Universitet, 2011.
3. Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -160b.
4. Гусенов А.А., Апресян R.G. Этика. Учебник. -М.: Гардарики, 2013.
5. Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojidadagi o'rni- T.:”Star - Poligraf”, 2010. -180 b.
6. Кришенин О.А. Эстетика. Учебник-М.: Гардарики, 2013
7. Qaxxorova Sh. Global ma'naviyat-globallashuvning g'oyaviy asosi.- T.:Tafakkur, 2009. -670 b.
8. Madayeva SH. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. -T.: Falsafa va huquq, 2007.

9. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. / Monografiya. - T.: Universitet, 2009.
10. O'tamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi. 2008.
11. Plutarx. Saylanma. Z.A'lam va Urfon Otajon tarjimai. - T.: Yangi asr avlodi, 2006.
12. Po'latova D., Qodirov M., Axmedova M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. -T.: TDSHI.2013.
13. Po'latova D.,Ro'zmatova G., Jalolova U.Axloqshunoslik. O'quv qo'llanma. - T.: TDSHI.2013.
14. Po'latova D.A., Fayzixo'jaeva D.E. Mantiq.O'quv qo'llanma.- T.:TDSHI., 2013.
15. Soyifnazarov I. Qurs leqsiy po filosofii. - T.: TDIU, 2004.
16. Tulenov J., Tulenova G., Tulenova Q. Falsafa.Darslik. -T.:Fan va texnologiya, 2016.
17. Turaev B. Borliq:moxiyati, shakllari, xususiyati. -T.:UzRFA Falsafa va xuquq instituti, 2011.\
18. Turaev B. Mantiq: masalalar va mashqlar. O'quv qo'llanma.- T.,2009.
19. O'zbekiston : dinlararo xamjixatlik - tinchlik garovi.-T.:2005.
20. Fayzixo'jaeva D. Mantiq. Izoxli lug'at. -T.: Tamaddun, 2015.
21. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
22. Xayitov SH., Xayitova Q., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. -T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
23. Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O'FMJ, 2006.
24. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi - T.: Axborot texnologiyalari, 2008.
25. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-b.
26. Shermuxamedova N.A. Fan falsafasi. -T.: Noshir, 2017. -360b
27. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013, 720 b
28. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.
29. Shermuxamedova N.A. Siyosiy mentalitet va davr ruxining dialektikasi.- T.: Noshir, 2017, 220 b.
30. Shermuxamedova N.A. Texnika falsafasi. -T.: Universitet, 2017. - 420 b